



I.B. MADRAXIMOVA

---

# BOLALAR ADABIYOTI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MADRAXIMOVA INOBAT BAHODIROVNA

# BOLALAR ADABIYOTI

*Oliy o'quv yurtlarining  
60110500-Boshlang'ich ta'limgan yo'nalishi  
talabalari uchun mo'ljallangan*

«SARBON LLS»  
TOSHKENT – 2024

**UO'K :**

**KBK :**

**Taqrizchilar:**

**M.O.Hamidova** – Namangan davlat universiteti Pedagogika fakulteti "Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim" kafedrasi professori, f.f.n.

**Q.A.Mambetaliyev** – CDPU “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasи va amaliyoti” kafedrasi v.b. dotsenti, f.f.d

Ushbu o’quv qo’llanma bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga bolalar adabiyotining shakllanishi, uning ijodkorlari asarlarining yosh kitobxon o‘quvchi tarbiyasida tutgan o’rnii hamda o‘zbek va jahon (rus) bolalar adabiyoti haqida keng ma’lumot berish, talabalarning og‘zaki va yozma nutqini yanada rivojlantirish va savodxonligini oshirish, takomillashtirish borasida amaliy malaka hosil qilishlarini o‘z oldiga maqsad qilib qo’yan. O‘zbek bolalar adabiyotining nodir namunalari bilan tanishtirib, ularda ilgari surilgan g‘oyalar, qarashlar va bolalar ijodkorlari yuzasidan talabalarga nazariy bilimlar berish va amaliyotga tadbiq qilishga o‘rgatish, o‘zbek va jahon bolalar adabiyotining rivojlanish davrlarini tahlil qilish, jahon va o‘zbek bolalar adabiyoti vakillarilarining ijodini o‘rganish, maktabgacha, maktab va katta maktab yoshidagi bolalar kitobxonligining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish maqsadida yaratildi.

*O’quv qo’llanma O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 25 iyundagi 218-sonli buyrug‘iga asosan chop etishga ruxsat etilgan.*

**ISBN**

## MUNDARIJA

Kirish.....	4
1. Bolalar adabiyoti fan sifatida. Bolalar adabiyotining maqsad va vazifalari ....	7
2. Bolalar adabiyoti va bolalar folklori.Bolalar folklorining janr xususiyatlari va bandnomalar .....	13
3. Mumtoz adabiyot va bolalar kitobxonligi. Alisher Navoiy ijodida komil inson tarbiyasi .....	26
4. Gulhaniyning “Zarbulmasal” asarining bolalar adabiyitida tutgan o’rnı.....	45
5. O’zbek bolalar adabiyotining vujudga kelishi va taraqqiyot xususiyatlari. Abdulla Avloniy va Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodi .....	50
6. G‘ofur G‘ulom va Sulton Jo‘ra hayoti va ijodiy faoliyati.....	81
7. Bolalar adabiyotida adreslilik.Maktabgacha ta’lim yoshdagı bolalar adabiyoti.....	93
8. Zafar Diyor va Shukr Sa’dulla ijodiy faoliyati .....	100
9. Mahmud Murod va Kavsar Turdiyeva ijodi .....	108
10. Maktab yoshidagi kichik bolalar adabiyoti. Quddus Muhammadiy va Po‘lat Mo‘min hayoti va ijodi .....	119
11. Dilshod Rajab va Abduraxmon Akbarov ijodi .....	127
12. O‘rtा va katta yoshdagı bolalar adabiyoti. Hakim Nazir va Farhod Musajon ijodiy faoliyati.....	138
13. Nosir Fozilov asarlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.Miraziz A’zam hayoti ijodi .....	148
14. Tursunboy Adashboyev va Qambar Ota ijodiy faoliyati .....	162
15. Anvar Obidjon “Dahshatli Meshpolvon” dostonida folklor an’analari.Hamza Imomberdiyev ijodi .....	176
16. O’smirlar adabiyoti. Xudoyberdi To’xtaboyev va Safar Barnoyev ijodiy faoliyati .....	181
17. Latif Mahmudov va Normurod Norqobilov ijodi .....	185
18. Istiqlol davri bolalar adabiyoti.Rustam Nazar va Ziyod Komilov ijodiy faoliyati .....	188
19. Jahon bolalar adabiyoti.Aka-uka Grimmlar ertaklarida ilgari surilgan g‘oyalar .....	200
20. Xans Kristian Andersen va Sharl Perro ijodi.....	205
21. Aleksandir Sergev Pushkin ertaklarida g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari .....	210
22. K.Chukovskiy va Marshak she’riyatining g‘oyaviy-badiiy xususiyati.....	217
Glossary .....	225
Foydalaniłgan adabiyotlar ro’yxati .....	226

## **KIRISH**

Bolalikdagi kechinmalar juda kuchli bo‘lib, bolalar tevarak-atrofdagi hodisalarni to‘g‘ri tushunish uchun hali yetarlicha tajribaga ega emaslar. Bu holat, ayniqsa, mактабгача yoshdagi bolalar uchun yaqqol ko‘rinadi. Ular o‘z his-tuyg‘ularini to‘g‘ri ifoda etishda qiyinchilikka duch kelishlari mumkin, ammo bu taassurotlar ularning fe'l-atvorini shakllantirishga ta’sir qiladi. Shuning uchun bolalarni bolalar adabiyoti bilan tanishtirish, shaxsiy rivojlanish jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, kattalarga nisbatan bolalarga kitobxonlik orqali ta’sir o‘rganish oson, ammo o‘ziga xos qiyinchiliklari ham bor. Bolalar juda sezgir va ta’sirchan bo‘lishsa-da, ko‘plab narsalarni hali bilmaydilar. Agar kattalar bolalarni kichikligidan ertaklar va afsonalar olamiga jalb qilsalar, bu ularda insoniy tuyg‘ularni tarbiyalashga yordam beradi. Bu esa bolalarga bilim berishning muhim vosita ekanligini tushunishga ko‘maklashadi.

Mактабгача yoshdagi bolalarning ma’naviy dunyosini shakllantirish va ularda ruhiy kechinmalarni tarbiyalash masalasi ham muhimdir. Albatta, bolalikdagi barcha muammolarni faqat kitobxonlik orgali hal qilib bo‘lmaydi; bola tarbiyasi turli usul va yo‘llar orqali ilmiy pedagogik tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Eng muhimi, har bir daqiqani qo‘ldan boy bermasdan, bolalarni ajoyib kitoblar olamiga jalb etish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Keyinchalik, kitob bilan tanishgan bolalar kitob qahramonlarining his-tuyg‘ularini his qilib, kitoblarisiz o‘z hayotlarini tasavvur qila olmay qolishlari mumkin.

Kattalar biror kitobni bugun yoki bir yil o‘tgach o‘qib chiqishlari mumkin, ammo bolalik davrida vaqt hissi boshqacha his qilinadi. Har bir kun bolalar uchun yangi kashfiyotdir, va bolalikdagi tuyg‘ular shu qadar kuchli bo‘lishi mumkinki, dastlabki taassurotlar butun umr davomida esda qolishi mumkin.

Shu sababli bolalik yillarining bir soatini zoye ketkazish juda achinarlidir. O'z vaqtida o'qilgan yaxshi kitob ba'zan inson taqdirini o'zgartirib, unga yo'lchi yulduz bo'lib, umrbod orzu-maqsadlarini belgilab berishi mumkin.

Yana bir muhim masala, bolalarni she'riyatni sevishga qanday qilib o'rgatishdir. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim dasturida boshlang'ich sinflar uchun she'riy matnlar kiritilmoqda va bu matnlar shoirlar tomonidan dasturga mos ravishda tayyorlanadi. Ammo shoirning ko'plab she'rlari va ularning tahlili erkin tarzda bo'lishi kerak. Shoир o'z she'rlarini faqat o'zi uchun emas, balki bolalar uchun ham kerakli bo'lishini his qilishi lozim. Bu fikrlar buyuk Sharq allomalari asarlarida ham ko'tarilgan. Allomalar bolalarga ilm va ta'lim beradigan manba sifatida kitobning ahamiyatini va ularning savodxonligini oshirishda kitobning o'rnini teran his qilgan holda o'z mulohazalarini bayon etganlar.

O'rta asr allomalaridan Al-Forobiy fikricha, «zakovat – biror narsani juda tez, deyarli vaqt sarflamay yoki juda qisqa muddat ichida osonlik bilan fahmlay olish qobiliyatidir». Bu fikrlar bolalarning ilmiy zakovatini shakllantirishda tezlik va qisqa muddatda ularning dunyoqarashini rivojlantirishning eng samarali usullari haqida so'z yuritadi. Haqiqatan ham, buyuk zotlarda tafakkur va iste'dod bolalik davridayoq ma'lum ta'sirlar ostida shakllanadi. Sharq allomalarining bolaligi bilan bog'liq misollarni keltirish mumkin, chunki iste'dodli kishilar ko'plab misollarni o'z ichiga oladi. Ularning qobiliyatlarini bolaligidan aniqlab, tarbiyalash jarayonida alohida e'tibor berish muhimdir.

Bolalar kitobi bu vazifani bajarishda badiiy tilga suyanadi. Adabiy asarning tili uning g'oyaviy mazmunini aniq va ifodali ochib berish vositasidir. Yaxshi, ravon va obrazli til bilan yozilgan asar yozuvchining maqsad va fikrlarini kitobxonlarga tez va oson yetkazadi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy «Mahbub-ul qulub» asarida tilni «ko'ngil xazinasining qulfi» deb ta'riflaydi.

Tilning asosiy xazinasi hikoyatlar, rivoyatlar, qissalar, afsonalar va ertaklar kabi turli adabiyot namunalari orqali o'z ifodasini topadi. Ijodkorlar insonlarni qisqa, mazmunli va chuqur mantiq bilan so'zlashishga undaydi. Bu talab, albatta, bolalar yozuvchilarining asarlariga ham tegishlidir.

Bolalar yozuvchisi qiziqarli va mazmunli asar yaratish uchun xalqning o‘tmishi, hayoti va turmush tarzini, urchodatlarini, shuningdek, inson hayotida uchraydigan barcha voqealarni yaxshi bilishi zarur. Bu holat bolalar adabiyotiga qo‘yilgan eng muhim talablaridan biridir.

Ushbu o‘quv qo’llanma asosan maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim yo’nali shida o‘quv reja asosida o’tkaziladigan “Bolalar adabiyoti” fanidan ma’ruza, amaliy va seminar darslarini tashkil etish uchun mo’ljallangan.

## **1-MAVZU : BOLALAR ADABIYOTI FAN SIFATIDA. BOLALAR ADABIYOTINING MAQSAD VA VAZIFALARI**

### **REJA:**

1. Bolalar adabiyoti fanining premeti va vazifalari.
2. Bolalar adabiyotining o‘rganilish tarixi.
3. Tayyorlov guruqlarida bolalar adabiyotining o‘rganilishi va kitobxonlikka jalb etishning muqobil usullari.
4. Bugungi bolalar she‘riyati va nasri haqida ma‘lumot.

**Tayanch so‘zlar:** *nasriy sa‘j shakli, hakim, donishmand, alloma, kitobxonlik, musavvir, matbuot, kitobatchilik, xarakter, tur, janriy xusisuyatlar, emotsionallik, lirik, komik, matbaa, badia, publitsistika, detektiv, fantastik, dilogiya, trilogiya, tetralogiya.*

So‘z san‘ati sifatida e‘tirof etiladigan badiiy adabiyotni o‘rganish bolalar adabiyotidan boshlanadi. Bolalar adabiyotining asosiy vazifasi ta‘lim bilan birga tarbiya bermoqlikdir. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 9-sentabrda e‘lon qilingan «Maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorida alohida belgilab berilganidek, bolalikdan kitob o‘qishga qiziqish uyg‘otuvchi o‘quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni tayyorlash haqidagi1 , 2017- yil 13- sentabrdagi «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob muto-laasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida»gi qarorlari ham bu fanning maqsad mohiyatini oydinlashtirishga yordam beradi. Bolalar adabiyoti deganda bolalar shoir va yozuvchilar tomonidan ularga mo‘ljallab yozilgan maxsus asarlar tushuniladi. Bunday asarlar bolalar ma‘naviyatini boyitidigan, ularga ma‘naviy-estetik zavq berishi kerak. Bolalar adabiyotida aks ettirilgan voqeа-hodisalar hayotiy, haqqoniy tasvirlanishi, bolalarning ruhiy olamiga mos tushunarli va qiziqarli bo‘lishi kerak. Shunga ko‘ra, bolalarga atalgan badiiy asarlar ularning fe‘l-atvorlarini to‘la namoyon qiliishi bilan

bir qatorda pedagogika va psixologiya fanlari bilan uzviy aloqada bo‘lishi lozim.

Chindan ham bu jiddiy vazifalarni bajarishda, aniqrog‘i, mustaqil yurtning har tomonlama yetuk, barkamol avlodini tarbiyalashda asrlar osha xalq an‘analari, milliy qadriyatları, folklor namunalari, milliy adabiyotimiz va jahon xalqlari adabiyoti an‘analari zaminida vogelikka aylangan o‘zbek bolalar adabiyotining beqiyos o‘rni bor. O‘zbek bolalar adabiyotining badiiy jihatdan yuksak namunalariga keng e‘tibor qaratish, yangi asr kichkintoylarining shiddat bilan rivojlanayotgan qiziqishlari, ruhiy, ma‘naviy olami, ularning ijtimoiy hayotga munosabati masalalari aks etgan asarlar tahlili orqali talabalarda estetik, axloqiy-ma‘rifiy, ijtimoiy-siyosiy tarbiyani shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbek bolalar adabiyoti haqidagi fanning yaratilishi XX asr boshlarida ma‘rifatparvar pedagog va adabiyotshunoslar maqolalarida ko‘za tashlangan bo‘lsa, ilk xrestomatiyalar va o‘quv qo‘llanmalarini tuzish harakati asr o‘rtalariga to‘g‘ri keldi. Pedagogika bilim yurti talabalariga mo‘ljallangan, I.Ahmedov, A.Suyumovlar tomonidan 1953-yilda birinchi marta tartib berilib, 1967-1978 yillarda qayta takomillashtirilib, nashr etilgan «Bolalar adabiyoti» xrestomatiyasi, 1957-yilda e‘lon qilingan «Bolalar adabiyoti» o‘quv materiallari qo‘llanmasi shu harakatning dastlabki natijasi hisoblanadi. Keyinchalik, 1973-yilda A.Suyumov tomonidan maxsus o‘rta o‘quv yurtlari uchun nashrga tayyorlangan «Bolalar adabiyoti» qo‘llanmasi o‘zbek bolalar adabiyoti tarixini yaratish yo‘lidagi dastlabki qadam bo‘ldi. Bu qo‘llanma keyinchalik M.Jumaboyev tomonidan qayta ishlanib, 1995-yildan e‘tiboran majmua va darslik sifatida kasb-hunar kolleji o‘quvchilari hamda oliy o‘quv yurtlari uchun amalda foydalanib kelinmoqda. Bu sohada P.Shermuhammedov, J.Tursunov, O.Safarov, X.Egamovlar muallifligidagi «O‘zbek bolalar adabiyoti» darslik xrestomatiyasi (1976), O‘zbekiston FA Til va adabiyot instituti tomonidan tayyorlab nashr etilgan «O‘zbek bolalar adabiyoti 8 tarixi ocherklari» (1978), «Bolalar adabiyoti va zamонавиylıк» (1981), «O‘zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon» (1989) kabi monografiyalar ham o‘ziga xos hodisa bo‘ldi.

Bugungi kunda qudratli quroq bo‘lgan adabiyotdan keng foydalanmay

turib, yangi jamiyat quruvchisini har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash mumkin emas. Bolalar kitobxonligini o'quvchilarning pedagogik-psixologik xususiyatlariga ko'ra quyidagicha guruahlarga ajratish mumkin:

1. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar kitobxonligi (2 yoshdan 7 yoshgacha).
2. Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi (7 yoshdan 11-12 yoshgacha).
3. O'rta.

Kitobxonlik haqida gap ketganda beixtiyor O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2019-yil 19-mart kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi «Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish to'g'risida»gi ma'ruzasida kuyunchaklik bilan yoshlarimizning kelajagida muhim o'rin tutgan vazifalar haqidagi so'zлari yodga tushadi. Insoniyat tarixida har bir zamonning yoshlarini ilmli qilish, ma'naviy yuksaltirish masalasi asriy qadriyat ekanligi ma'lum jarayondir. Bu qadriyat har bir hududning turmush tarzida, madaniyatida, ilmiy-ma'rifiy tafakkurida o'z aksini topadi. Eng muhim, ajdodlarimizning yaratgan eng bebaho xazinasi bu kitoblar bo'lib, ular o'z zamonasining muxlislariga, ilmga ishtiyoqmand ma'rifatparvarlariga atab yaratilgan. Keyinchalik bu bebaho xazina o'z qimmatining yuksakligi bois, keyingi avlodlarga ham beminnat xizmat qila boshladi.

O'zbek xalqi uzoq yillik tarixga va boy madaniy merosga ega bo'\_lgan qadimgi turkiy xalqlardan biridir. Xalqimizning qadimiy yozuvida yozib qoldirgan yodgorliklari toshlarga, terilarga, yog'ochlarga yozilgan bo'lsa-da, ular buyuk xoqonlar sha'nini ifodalagan matnlardan iborat bo'lgan. Bular asosan, xorazm, sug'd (oromiy), o'rxun-enasoy va uyg'ur yozuvlari bo'lib, ular keyinchalik tanazzulga yuz tutgan yozuvlardir. Garchi bu yozuvlar iste'moldan chiqqan bo'lsa-da, kitob deb atalmish bebaho xazinaning yaratilishiga asos bo'lgan deb aytishimiz mumkin. Har bir davrning komil insoni uchun zaruriy ehtiyojga javob, dastlab og'zaki tarzda hikmat va pand-u nasihat holida bayon etilgan bo'lsa, keyinchalik hayotiy tajribaga tayanilgan yozma asarlar yaratila boshladi. Dastlabki, yaratilgan islom ahlining muqaddas kitobi «Qur'oni Karim»ni, alohida e'tirof etish

lozim. U ilm-ma'rifatning targ'ibotidagi o'rni beqiyosdir.

Qur'oni Karim klassik arab tiliga xos murakkab uslub va tilda, nasriy sa'j shaklida yozilgan bebaho xazinadir. Asar VII asrning birinchi yarmida nozil bo'lgan bo'lib, u o'z tarixiy, madaniy, ma'naviy-axloqiy ahamiyati bilan butun Sharq xalqlarining taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Shu bois, mazkur muqaddas kitobga sharhlar yozish turli tillarga tarjima kilish avj oldi. Insoniyatga kitob tushunchasini hadya etgan, uning ta'siri qator falsafiy pandnoma ruhidagi yozma adabiyot maydonga kela boshladи. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» (1069-1070), Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk», Ahmad Yassaviy «Hikmatlar»i, Ahmad Yugna-kiyning «Hibbatul haqoyiq», «O'g'uznomá», Nasriddin Rabg'uziynning «Qissasul anbiyo», «Tafsir» kabi asarlar Shular jumlasidandir. Bu kitoblarda donishmand, xakim, davlat arboblari tilidan aytilgan hikmatli so'zlar, hikoyatlar, adolat, saxiylik, mardlik haqidagi qimmatli fikrlar insonni kitobga yakin muxlis qilib qo'ydi. Ayniqsa, hadislarning xalq orasida keng tarqalishi, kitob shakliga keltirilishi natijasida dastlab masjidlarda va boshqa jamoat joylarida ilohiyotga oid masalalar sharhlab berilgan va targ'ib qilingan. Keyinchalik esa ilk dunyoviy ilmlarning taraqqiy etishi natijasida alohida o'quv muassasalariga ehtiyoj tug'ilgan va Shu tariqa maktab va madrasalar paydo bo'la boshlagan.

Davrlar o'tishi bilan xon saroylarida, amaldorlar, kitob muxlislari xonardonlarida kutubxonalar tashkil etila boshlaydi. Bu haqda ko'plab ma'lumotlar mavjud. Shu o'rinda qomusiy olim Ibn Sinoning kitob mutolaasi tufayli qator 10 ilmiy asarlar va kashfiyotlar yaratganligini eslashimiz kifoyadir. U 16 yoshidayoq ko'zga ko'ringan tabib sifatida shuhrat qozongan. Uning tarjimai holida kitob mutolaasi bilan bog'liq muhim ma'lumot saqlanib qolgan. Kunlardan bir kuni, Ibn Sino Buxoro amiri Nuh ibn Mansurning kasalini davolash uchun saroyga chaqiriladi. U amirni davolaydi. Unga qimmatbaho hadyalar taklif etishadi. Ammo, u o'zining xizmati evaziga saroy kutubxonasidan foydalanishni so'raydi. Chunki, bo\_lajak olim saroy kutubxonasida nodir kitoblar mavjudligini yaxshi bilgan. Ruxsat olgandan so'ng Ibn Sino bu kutubxonadagi ko'plab kitoblarni mutolaa qiladi. Bu ma'lumotdan ko'rinadiki, Ibn Sino har qanday moddiy boylikdan kitobni ustun qo'ygan. Shunga o'xshash ma'lumotlar

yurtimizda yetishib chiqqan mashhur olimlardan Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Farobi, Abu Rayxon Beruniy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy va boshqa allomalar hayotida ham uchraydi. Ular hatto nodir kitoblarning qaysi yurtda mavjudligini daragini topsa, o'sha yurtga poy-u piyoda axtarib borganligi haqida ma'lumotlarni uchratish mumkin. Bir so'z bilan aytganda, kitobga mehr, tashnalik bizga ajdodlarimizdan qolgan bebaaho ma'naviy merosdir. Olis tarixning zarvaraqlarida kitob, kitobxonlik bilan bog'liq alohida ilm sohasi vaqt o'tishi bilan takomillashib, shakllanib bora boshladi.

Taniqli olim Erkin Oxunjonov kutubxonachilik va uning bibliografiyasi tarixi bilan uzoq yillar davomida shug'ullanib kelmoqda. U fan sohalariga oid kitoblar tasnifi xususida quyidagi ma'lumotni keltiradi. «Ayni kitob fanning turli tarmoqlarida erishilgan ilmiy darajasini o'zida mujassam etib fan differensiyalashuvini o'zining tasnifiga xam olib kirishda moddiy asosga aylangan. Shunday qilib, fan sohalarining xulosalari ma'lum tartib bilan ko\_chirilib kitob matniga aylana borgan».

Bolalarga yoshligidan boshlab Qur'onni Karim qissalaridan, payg\_ambarlarning hayoti haqida naql qiluvchi turli rivoyatlardan, xalq ertaklari va dostonlaridan, topishmoqlar, maqol va matallardan o'qib berish, so'zlash yoki ularning o'zlariga o'qitish ham kerak. Bu bilan bolalarning zehni o'sadi, fikri kengayadi, dunyoqarashi boyiydi, xotirasi kuchayadi. Eng asosiysi, bola eshitganlaridan ibratlanib, yaxshi odamlarga ergashishga intiladi, ularning xulq-u odobidan bahramand bo'ladi. O'g'il-qizlarining zehni o'sishini, aql-idrokli, fikrlovchi bo'lib ulg'ayishini istagan ota-onalar ularga kichikligidan turli ibratlari hikoyalarni, ulug'larimizning hayot yo'llari va fazilatlari haqidagi rivoyatlarni, ramziy ma'nodagi yaxshilikka, chiroyli axloq va odobga chorlovchi ertaklarni so'zlab berishsa, ular ma'naviyatini yuksaltirishda katta tarbiyaviy ish qilgan bo'lishadi.

### **Nazorat savol va topshiriqlari:**

1. Tayyorlov guruhlarida bolalar adabiyotining o'rganilishi va kitobxonlikka jalb etishning qanday muqobil usullari mavjud?
2. Bolalar adabiyotining janriy xususiyatlari va uni o'rganishdag'i ahamiyati nimadan iborat?
3. Bolalar kitobxonligini o'quvchilarining pedagogik-psixologik

xususiyatlariga ko‘ra qanday guruhlarga ajratish mumkin?

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2019-yil 19-mart kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi «Yoshlarni ma‘naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish to‘g‘risida»gi ma‘ruzasida kuyunchaklik bilan yoshlарimizning kelajagida kitob va kitobxonlikning muhim o‘rin tutishihaqida qanday mulohazalar yuritgan edi?

5. Hazrati Alining (roziyallohu anhu): «Farzandlaringizni o‘zlarining davriga moslab tarbiyalanglar», degan fikrlarini qanday izohlash mumkin?

6. Yaxshi tarbiyachining ustun jihatni nimada ko\_rinadi?

7. Bolada kitobga muhabbat uyg‘otishda qanday usullardan foydalangan ma’qul?

## **2-MAVZU: BOLALAR ADABIYOTI VA BOLALAR FOLKLORI. BOLALAR FOLKLORINING JANR XUSUSIYATLARI VA PANDNOMALAR**

### **REJA:**

1. Bolalar adabiyoti va uning shakllanish tarixi.
2. Bolalar adabiyotining maqsad va vazifalari.
3. Bolalar adabiyotida adreslilik.
4. Bolalar adabiyotining taraqqiyot bosqichlari.

**Tayanch so'zlar:** *olklore, bolalar folklori, adreslilik, janr, nasr, kitobxonlik*

Kul Tegin va Bilga Xoqon yodnomalari "Kitobi dada Qo'rqut", "Devonu lug'otit-turk", "Qobusnoma" kabi tarixiy-badiiy manbalar o'zbek bolalar adabiyoti boy tarixga ega ekanligidan, uning ilk namunalari "o'zbek" degan atamaning yuzaga kelishidan ko'p zamonlar ilgari allalar, ovutmachoqlar, erkalmalar, sanamalar, olqishlar, qarg'ishlar, qo'shiqlar, topishmoqlar, maqollar, cho'pchaklar shaklida mavjud bo'lganidan darak beradi. Hatto eramizdan oldin yashab o'tgan Gerodot va Polien kabi grek tarixchilarining O'rta Osiyo hududlarida Shiroq va To'maris haqidagi tarixiy afsonalarning keng tarqaganligiga doir ma'lumotlar bor. Bu esa vatanparvarlik, jasurlik, rostgo'ylik, kelajakka ishonch va e'tiqod, avlod-ajdodlarga sadoqat tuyg'ulari bilan bog'liq farzand tarbiyasi bani basharning ibtidoiy davrlaridan bizga meros bo'lib kelganligiga misol bo'la oladi. Mazkur afsonalar bilan bir qatorda so'nggi davrlarda yaratilgan pandnomalar, axloqiy didaktik dostonlar, qissalar, afsona va rivoyatlar o'tgan asrning boshlarida ko'pgina qardosh xalqlarda bo'lgani kabi badiiy adabiyotning maxsus tarbiyaga yo'g'rilgan bu sohasi bolalar adabiyoti sifatida shakllanishiga asos bo'ldi.

Kichkintoylar adabiyotining shakllanish va rivoji uning adresliligi (muktabgacha ta'lim yoshidagi, kichik muktab yoshidagi, o'rta va katta yoshdagi hamda o'smir yoshidagi bolalarga mo'ljallab yaratilishi), tarbiyaviy g'oyalar ustivorligi, sujetning qiziqarliligi (Motyhow) talabi bilan

bog'liq.

Ko'rinaridiki, bolalar adabiyotini umumadabiyotdan farqlab turs digan bir qator o'ziga xosliklar mavjud bo'lib, ular dastavval, maxfiylik va tarbiyaviylikda aks etadi. Zero, bolalar adabiyoti, avvalo, ta'lim va tarbiya beradi. Ana shu ta'lim-tarbiyani go'zal badiiyat qobig'iga jo qila olish esa ijodkorlardan ulkan mahorat talab qiladi va shu boisdan ham barcha qalamkashlar bolalar shoiri yoxud yozuvchisi bo'la olmaydilar. Ikkinchidan esa, bolalar adabiyotini alohida, maxsus adabiyot sifatida tasnif qilishning o'zi ham nisbatan keyingi yuz yillikda, ya XIX asrning ikkinchi yarimlarida paydo bo'lgan. Ungacha deyarl barcha xalqlar adabiyotlarida, jumladan, o'zbek bolalar adabiyotida ham bolalarga ko'proq umumadabiyotdag'i tarbiyaviy (didaktik) va ta'limiy-ma'rifiy asarlar tavsiya qilingan. Bolalar adabiyoti fan sifati da o'z ob'ektiga adabiyot nazariyasi qonuniyatlarini asosida yondasha di hamda pedagogika, psixologiya, adabiyotshunoslik, mantiq, tilshunoslik fanlari yutuqlariga siyanadi.

O'zbek bolalar adabiyotining ilk qadamlari XX asr boshlarida yaratilgan alifbolar, adabiyot va o'qish kitoblaridan boshlanishini alohida qayd etish joiz. Zero, bolalar adabiyoti, aslini olganda, ma'ri fatparvarlikning farzandidir.

Mumtoz adabiyot an'analari va jahon adabiyotining barakali ta'siri ostida oyoqlangan o'zbek bolalar adabiyotining keyingi rivoji bevosita jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqlikda kechdi. Xususan, XX asr boshlaridagi o'zbek bolalar adabiyoti ijtimoiy-tarixiy muhit tufayli diniy-ma'rifiy g'oyalarning badiy ifodasi o'laroq yosh avlodni o'qish va bilim olishga da'vat qilish ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, kitob, maktab, maorif insonning "ong ko'zi" (Q.Muhammadiy)ni ochib, o'zligini tanishi keng miqyosda targ'ib qilingan edi.

S.Aziziyning "Ustodi avval", Munavvar qorining "Adibi avval", "Adibi soniy", Qori Usmon ibn Abduxoliq Shoshiyning "Ta'limi avval", A.Avloniyning "Birinchi muallim", "Ikkinchchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq". Hamzaning "Yengil adabiyot", "O'qish kitobi", "Qiroat kitobi", M.Behbudiyning "Kitob at-tifl

Bolalar uchun kitob"), S.Ayniyning "Qiz bola yoki Xolids", Taxib usiyon" (Bolalar tarbiyasi) kabi maktab darsliklariga kirgan hikoyatlarida

ilm-ma'rifatda da'vat, insonning xulq-atvorini yaxshi amallarni bajarishga yo'naltirish, axloqiy poklik, vatanparvar ik, mehnatsevarlik, halollik, rostgo'ylik, harumdan hazar qilish, nafs quqasiga berilmaslik bilan bog'liq tuyg'ulariga turtki berish yetak chilik qiladi. Taniqli rus yozuvchisi Valentin Rasputinning: "Pushkin enagasi LRadionovnaning mungli allasini emas, bugungi estradani tinglab uyg'onganida edi, undan Pushkin emas, Dantes chiqardi" degan qiyoslashi nazarda tutilsa, bolalar adabiyotining tarbiyaviylik dan iborat yetakchi xususiyati qay darajada dolzarb ahamiyat kasb etishini anglash qiyin kechmaydi

"Ikkinch muallim"dagi "Maktaba da'val" she'rida muallif yosh kitobxonga murojaat qilib, tong otganidan, uyqudan ko'z ochish vaqtin yetganidan xabar beradi, hamma o'z ishini boshladi, siz ham o'z ishingiz o'qishingizga yuguring, deydi:

Boqdi gunash panjaradan bizlara,  
Youma deyur barcha o'g'il-qizlara  
Nolai faryod qilib barcha qush  
Maktabingiz vaqtin,-deyur sizlara  
Boshladi har kim o'z ishin ishlara  
Sir-da turing, maktabingiz izlara  
Uchdi ari bog'chalara bol uchun,  
Buzov turur uyda cho'kib tizlara  
Siz-da kitoblarni oling shavq ila,  
Tez yuguring ilm yo'lin gezlarar

Nazarimizda, bu kichik she'r XX asr boshlaridagi o'zbek bolalar adabiyotining go'zal namunasi sifatida tilga olishga arzigelikdir. Zero, she'nda muallif yosh kitobxonga murojaat qilishning eng mag bul yo'lini topa olgan: saharda chiqqan quyosh panjaradan mo'ralah uxlاب yotgan bolakayni o'z nurlari bilan erkalab uyg'otishi, tong otishi bilan kundalik ashulasini boshlagan qushlarning chirgillashi ham bolakayni uyg'otish uchun qilinayotgan nola-yu faryod sifatida tasvirlanishi: hamma o'z ishini boshlagani, arilar bol yig'ish uchun bog'larga uchib ketgani, buzoqcha onasini tiz cho'kib emayotgani va bolaning ham kitob-daftarini olib, ilm yo'lini izlashga yugurishi kerakligi samimiyl, o'ynoqi satrlarda tasvirlangandir..

Aslida axloq-odob tarbiyasining, ilm-ma'rifat, kasb-hunar targ'i boti bilan bog'liqligi g'oyasi xalq og'zaki ijodi, xususan, bolalar folkloridan boshlangan bo'lsa, keyinchalik yozma adabiyotning yuza ga kelishi bilan Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Beruniyning "O'tmishdan qolgan yodgorliklar", Abu Ali Ibn Sinoning "Solomon va Ibsol", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Kayko vusning "Qobusnama", Nizom ul-Mulkning "Siyosatnama", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul haqoqiy", Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror", Munisning "Savodi ta'lim", Gulxaniyning "Zarbulmasal" kabi asarlarida yuksak darajada davom ettirildi. A. Qodiriyning "Uloqda", "Jinlar bazmi", Oybekning "Gulnor opa", Elbekning "Ikki tulki", "Qurbaqa ila sichqon", "Totli shurbo" kabi asarlari bolalar tarbiyasi uchun hayotiy zarurat tufayli yaratilgan bo'lib, XX asrning dastlabki yillari bolalar nasri uchun chinakam izlanish yillari bo'lganidan dalolatdir.

Z.Bashir o'sha davr vaqtli matbuotida "Bolalar adabiyoti kerak", degan murojaat bilan chiqqan bo'lsa, A.Sa'diy kichkintoylar adabiyo tiga bo'lgan talab xususida shunday deb yozgan edi: "Bolalar o'yin laridan bo'shang'on va darslaridan to'xtag'on chog'lارida olib o'qirlik kitoblarning bo'lmasligi o'zbek adabiyotining zo'r kamchiliklaridan bo'lib turadir. O'zbek tilida ko'p shoshilinch bilan bolalar adabiyotini tug'dirishga qat'iy luzum bor".

Ma'naviy-axloqiy kamolotga ta'lim-tarbiya vositasida erishish g'oyasi hali shakllanish bosqichida bo'lgan o'sha davr bolalar ada biyotida ma'lum ma'noda jadid adiblari ijodi misolida milliy ozodlik uchun kurash mafkurasi bilan boyitildi, oktabr to'ntarishidan keyin esa ijodi o'tgan asrning 20-30-yillarda kurtak otib shakllanish palla siga kirgan G'afur G'ulom, G'ayratiy, G'ulom Zafariy, Oybek, Hamid Olimjon, Dorjiya Oppoqova, Majid Fayziy, Quddus Muhammadiy,

Zafar Diyor, Ilyos Muslim, Sulton Jo'ra, Adham Rahmat, Shokir Sulaymon, Shukar Sa'dulla kabi shoir va yozuvchilar tomonidan turli darajada yoritildi

O'nizinchi yillarda ijodkorlarimiz o'z asarlari bilan yosh avlodni ilm-ma'rifatga da'vat qilib chiqdilar. Zafar Diyoring "Kitob mening do'stimsan!", "Birinchi qadam", "Lager qo'shig'", "Bog'chamia "Zarar emasmi?" "Sentabr qo'shig'i", Sulton Jo'raning "Al va "Yaxshi"ning

maqtovi", "Harflar paradi", "Tinish belgilarining maj lis", "Kimning xati chiroyli", "Ikki baho", "Mamatning kechirmish lari", G'afur G'ulomning "Navqiron avlodimiz sinov oldida", "O'rdak va Turg'un", "Ko'klam shamoli", "Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi", Adham Rahmatning "Kanikul kunlari", "Birinchi sentabr she'rlari shular jumlasidandir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, 30-yillardan boshlab umum adabiyotda bo'lgani kabi bolalar adabiyotida ham mustamlakachilik mafkurasini tashviq qilishga katta e'tibor qaratilib, ijtimoiy-siyosiy yo'nalish yetakchi o'rinn tutganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Natijada quruq deklarativlik, da'vatorlik, shiorbozlik, madhiyabozlik, targ'i bot-tashviqot ruhi didaktika bilan uyg'unlashib ketdi. Zamon bilan hamnafaslik, aslida zamonasozlik tarzida an'anaviy tus olgan mazkur qarash to istiqlol davrigacha bolalar adabiyoti tarbiyaviy mohiyatining turli davrlarda turlicha tushunilishi, yuqorida aytilgandek, hukmron mafkura mahsuli bo'lib, uning so'z san'ati sifatidagi vazifasiga soya solishi tabiiy edi. Shunga qaramasdan, bolalar adabiyoti bir joydadepsinib turgani yo'q. Uning eng yaxshi namunalari xorijiy tillarga o'girilib, allaqachon chet el kitobxonlarining ham madaniy multiga aylanib ulgur gani quvonarlidir.

50-60-yillarda bolalar adabiyoti namoyandalari safi yanada ken gaydi, ustoz-shogirdlar Hakim Nazir, Quddus Muhammadiy, Qudrat Hikmat, Po'lat Mo'min, Nosir Fozilov, Xudoyberdi To'xtaboyev, Aziz Abdurazzoq, Habib Po'latov, Miraziz A'zam, Tursunboy Adashboyev, Safar Barnoyev singari ko'plab umidli yosh ijodkorlar kelib qo'shildi. Ular bolalar adabiyotining turli janrlarida yoshlarimiz hayotini aks ettiruvchi yangi-yangi badiiy asarlar yarata boshladilar.

Tinchlik, mehnat, do'stlik mavzulari bu davr bolalar adabiyotining asosiy mavzulariga aylandi. Tinchlik va do'stlik mavzuida G.G'ulom ning "Kaptar uchar, g'oz uchar", "Ulug' kun bayrami", "Tinchlik bayrami, Sh.Sa'dullaning "Tinchlik qushi haqida men o'qigan she'r 1.Muslimning "Jahon bolalarining talabi", P.Mo'minning "Yurtimiz ning yuragi", Q.Hikmatning "Tinchlik haqida qo'shiq" kabi she'rlari yuzaga keldi.

Bu davrda bolalar she'riyatiga Qudrat Hikmat o'zining "Mening vatanim", "Do'stlik" she'riy to'plamlari bilan munosib hissa qo'shdi, kichik yoshdag'i bolalar saviyasiga moslab, qisqa bo'g'inli, sodda, ravon, jo'shqin

misralar yaratdi. Jumladan shoirning:

Ko'kdek bepayon

Boyliklarga kon.

Keng dala maydon, Mening Vatanim,--

deb boshlanadigan ona Vatan haqidagi she'rlarida yosh avlodning Vatan shon-shuhratidan, mehridan g'ururlanish va faxrlanish hislari uradi.

Istiqlolgacha bo'lgan bolalar nasri rivojida G G'ulomning "Shum bola", Oybekning "Bolalik", Abdulla Qahhorning "O't mish dan ertaklar" nomli avtobiografik qissalari, Mirkarim Osimning "To'maris", "Shiroq", "Temur Malik", "Mahmud Torobiy", Aziz Qayumovning "Alisher Navoiy", "Ustoz Beruniy", Xudoyberdi To'xtaboyevning "Qasoskoming oltin boshi, Mirmuhsinning "Cho'ri" nomli tarixiy qissa va romanlari muhim o'rinnegallaydi.

G. "G'ulomning xalq og'zaki ijodi an'analari ta'sirida yaratilgan "Shum bola" qissasi xalqimizning yaqin o't mishdagi achchiq qismati bor fojiasi bilan yuksak darajada badiiy gavdalantirilgani bois necha necha avlodlar kitobxonlari tomonidan birdek sevib o'qiladi. Bolalar adabiyotining oltin fondidan o'rinn olgan mazkur asar qahramoni Shum bolaning "shumligi" adib tomonidan o'ylab topilgan sun'iy to'qima bo'lmasdan, uning kechmish-kechirmishlari erkka tashna xalqning turmush tarzi, maishati, orzu-armonlarining tabiiy in kosi, badiiy solnomasi sifatida taassurot qoldirishi bilan muhim estetik tarbiyaviy qimmat kasb etadi. Oybekning "Miskin bolalar", "Qonli barmoqlar" hikoyalari bilan boshlangan xorijiy bolalar hayoti mavzusi Mirmuhsinning "Dunyo bolalari", Sh.Sulaymonning "Oq negr", "Jem va Ellin", "Yana va Hama", "Bolalar turmasi" asarlari misolida bolalar nasri ufqini ken gaytirgan bo'lsa, H.Shayxovning "Noma'lum odamlar", "Do'stim ning kashfiyoti", "Umid sayyorasi", T.Malikning "Tiriklik suvi", "Sadoqat", M.Mahmudovning "Men-men emas", "Rayhondagi zar pechak", M.Rahmonov va Q.Do'stmuhamedovlarning "Tungi tele patiya" kabi ilmiy-fantastik asarlari xalq ertaklari va jahon fantasti kasining eng yaxshi an'analarni davom ettirishi bilan bolalar nas rining alohida sahifasini tashkil etadi. Ikkinchchi jahon urushidan so'nggi yillar bolalar nasrida sof realistik va sarguzasht yo'nali shida yaratilgan X.Nazirning "Yonar daryo", "So'nmas chaqmoqlar", "Kenjatoy",

"Lochin qanotlari", "Oq fotiha", Yo.Shukurovning "Ona mehri", "Uch savol", "Qanotli bola", N.Fozilovning "Oqim", "Qorxat", "Saraton", X.To‘xtaboyevning "Sir ochildi", "Sariq devni minib", "Besh bolali yigitcha", "Mungli ko‘zlar", L.Mahmudovning "Chinor", "Qopga yashirin-gan odam", O.Husanovning "Tog'da o'sgan bola ", F.Musajonning "Buloq suvi", X.Po'latovning "Kichik sehrgar", "Teshik qozon", E.Raimovning "Ajab qishloq", "Mehribon larim", S.Anorboyevning "To‘rtko‘zning sarguzashtlari", "Sulaymon ovchi va uning iti haqida qissa", A.Qosimovning "Oq qush" kabi qissa va romanlari kichkintoylar adabiyotining katta ishlarga ham qodirligini amalda ko‘rsatdi. Ayni shu davrda A.Muxtor ("Dunyo bolalari"), P.Qodirov ("Akromning sarguzashtlari"), Mirmuhsin ("Hasan va Husan"), O.Yoqubov ("Tengdoshlar"), Shuhrat ("Yetim boshin silaganlar"), M.Ismoilii ("Bizning roman"), Sh.Xolmirzayev ("Oq otli"), O.Muxtor ("Bolalikka sayohat"), O'.Hoshimov ("Yalpiz somsa") singari kattalar adabiyotning namoyandalari ham bolalar adabiyotining rivojiga munosib hissa qo‘shdilar. Bu davrda bolalar uchun baholi qudrat qalam tebratgan G'ayratiy, R.Bekniyoz, M.Ikrom, R.Azizxo‘jayev, S.Yunusov, N.Nazarov, O.Qo‘chqorbekov, M.Xidir, Olloyor, V.Bobomurodov kabi adiblarning xizmatlarini ham eslab o‘tish o‘rinli bo‘lar edi. Beg'ubor bolalikni xalq badiiy tafakkurining dahosi yaratgan ertaklarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Kichik kitobxonlar hali o‘qish yozishni bilmagan go‘dakligidayoq xalqni turli balo-qazolardan mar dona himoya qiladigan jasur vaadolatparvar ertak qahramonlaridan ulgi oladi. H.Olimjon, T.G'oypov, A.Abdurazzoq, S.G'afurov, Olloyor ertaklari shu jihaddan e'tiborga loyiq.

Binobarin, 70-80-yillar o‘zbek bolalar adabiyoti, xususan, she'ri yati zimmasiga istiqlolimizning ijtimoiy-iqtisodiy zaminini yaratish kerak bo‘lgan yosh avlod ma'naviyati poydevoriga ilk g‘ishtlarini qo‘yish mas'ulyati tushdi. Bundan tashqari 70-80-yillarga kelib, o‘zbek bolalar she'riyatida ijodiy kamolot pillapoyalaridan tobora yuqorilab borayotgan navqiron avlod safiga bir qator umidli yosh qalamkashlar ham qo‘shildilarki, bu omillar birgalashib, bu davr bolalar she'riyatini badiiyatning yanada yuqoriroq pog'onalarga olib chiqdi.

T.Adashboyev, S.Bamoyev, M.A'zam, A.Obidjon, H.Rahmat, R.Tolipov, QO‘tayev, A.Ko‘chimov, R.Nazar, H.Imonberdiyev, K.Turdiyeva,

S.Inoyatov, X.Komilov, A.Akbar, D.Rajab. V.Ahmadjon, Z.Isomiddinov, M.Qahhor, Q.Ismoil, M.Qodir, E.Baxt, N.Ermat, N.Dushayev singari o'rta va yosh avlod namoyondalari 80-yillar o'zbek bolalar she'riyatiga yangi nafas, toza ruh olib kirdilar. Bu avlod o'zbek bolalar she'riyatini badiiyatning yangi pog'onasiga ko'tardi, mavzu doirasini kengaytirdi, obrazlar silsilasini boyitdi. Ularning sa'y-harakatlari tufayli badiiyat masalasi kun tartibining birinchi planiga chiqdi. Binobarin, nomlari sanalgan va ular qatoridagi bosh qa o'nlab ijodkorlar qalamiga mansub eng sara asarlar 70-80-yillar o'zbek bolalar adabiyotining haqiqiy qiyofasini belgilaydi.

Bolalar adabiyoti umumadabiyotning ajralmas qismi sifatida zamon va makondan ayricha yashamaydi. Binobarin, jamiyat hayoti dagi yangilanishlar kichkintoylar adabiyotida ham o'z aksini qoldiri shi tabiiy. Istiqlol davri bolalar adabiyoti buning yorqin dalilidir. Hayot taqozosiga ko'ra bu davrda kattalar adabiyotida bo'lgani kabi publisistikaga alohida urg'u berildi. S.Barnoyev, O'.Hoshimov, T.Malik, A.Jo'rayev, E.Maliklarning yangilanayotgan jamiyatda yosh avlodning o'rni va roliga oid qarashlarining vatanparvarlik vafosi bilan sug'orilgan badiiy publisistik talqinidan iborat asarlari kichik kitobxonlar ma'naviyatini yuksaltirishga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

So'nggi yillar bolalar nasridagi shakl va mazmun uyg'unligi bilan bog'liq ijodiy izlanishlar xususida so'z ketganda Q.Mirzo, S.Ravshan, Z.Ibrohimova, M.Niyozov, M.Ibrohimova, M.To'laga nova, LZoyir, H.Badalov, H.Mallayev, U.Mustafo, S.Abdullayeva kabi adiblar ijodini eslash kichkintoylar adabiyotining kelajagiga umid va ishonch uyg'otadi.

O'zbek nasrinining bir asrlik tarixiy taraqqiyoti har bir davr o'z adabiyotini yaratishiga misol bo'la oladi. Shakl va mazmun mutanosibligiga doir izlanishlar, ijodiy an'ana va yangilanishlar, xususan, ustoz so'z san'atkorlari an'analarining qay birlari amalda o'z tasdig'in topayotganligi, badiiy-estetik tafakkur borasidagi evrilishlar, qardosh xalqlar va jahon bolalar adabiyoti bilan ichki aloqadorlik, jamiyat taraqqiyotida insonga munosabat, bolalar nasrida qay darajada o'z ifodasini topayotganiga e'tibor qaratilishi, kichkin toydar adabiyotining yetakchi tendensiyalarini aniqlashda muhim mezon vazifasini o'taydi.

Shuni ham qayd etish kerakki, 80-90-yillar o‘ziga xos bir davr ijtimoiy-ma’naviy qarashlarning o‘zgarishi, yangilanishi davri ham dir. Binobarin, ana shu ma’naviyatimizdagи tub o‘zgarishlar ijodkor lar oldiga ham ulkan talablarni qoydi. Bir paytlarda madh etilgan, ko‘kka ko‘tarilgan koplab mavzularni hayotning ozi siqib chiqardi, ortiqcha narsa sifatida bahridan o‘tdi. Inchunin, 80-90-yillar shu ma’noda uyg'onish, tozarish fasli hamdir. Shu davrda xalqimiz uy g’ondi, o‘zligini qayta idrok etdi, ming yillik qadriyatlariga, e’tiqod lariga qaytdi. Ana shu jarayonda o‘zbek bolalar adabiyotining ham kamtarona o‘mi, o‘ziga xos xizmati bor. Bu davr bolalar she’riyati ning eng sara namunalari shu ma’noda yosh avlod qalbida istiqlol tuyg’ularining chechak ochishiga, haqiqiy, tom ma’nodagi ona Vatan - muqaddas zaminga mehr-muhabbat: ona zaminni, uning betakror tabiat qiradirlarini, tog-u o‘rmonlarini, bog'-rog'larni, daryo ko‘llari avaylab-asrashga, kun sayin ko‘z o‘ngimizda qurib, yoqolib borayotgan yakka-yu yagona dengizi Orolni asrab qolish uchun kurashish tuyg’ularini shakllantirishga: O‘zbekiston atalmish ana shu muqaddas Vatanga, uning nomini olamga tanitgan buyuk farzandlari mutafakkir olim-u shoirlari ulug' Turkiston yagonaligi uchun kurashgan Sohibqiron tojdlorlari sha'niga munosib farzand bo‘lish ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Tohir Malikning "Alvido bola lik", Erkin Malikning "Shaytonvachchaning nayranglari" qissalarida Mirzakalon Ismoiliy an'analarining davom ettirilishi, Sunnatilla Anorboyev qalamiga mansub "To‘rtko‘zning boshidan kechirgan lari", "Sulaymon ovchi va uning iti haqida qissa", "Suzib borar arxarlar", Nosir Fozilovning "Ko‘kyol", "Toychoq" O.Husanovning "Tog'da o‘sgan bola" asarlarini esga soluvchi Normurod Norqobilov ning "Oqbo‘yin", "Tog'dagi yolg'iz odam", "Paxmoq" qissalarida ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi azaliy ziddiyatning lirik uslubda badiiy gavdalantirilishi, Ilhom Zoyirining "Holva yemagan bola" qissasida, G.G’ulomning "Shum bola", X.To‘xtaboyevning "Sariq devni minib" asarlarida qo‘llanilgan an'anaviy sarguzasht uslubiga muro jaat qilinishi, S.Bahodirovaning "To‘maris" qissasida M.Osim va G.Karim ijodidagi kabi tarixiy voqenavavislikning teran falsafiy psixologik tahlilga tortilishi har jihatdan e’tiborga loyiqdir.

E.Malikning "Shaytonvachchaning nayranglari" qissasi alohida alohida

hikoyalardan tashkil topgan. Lekin har bitta hikoya marka zida Shaytonvachchaning iymon, e'tiqod, diyonat, xiyonat, bo'hton, tuhmat bobida faqat o'z nafsi peshkash qiluvchi nayranglari turadi. Gap shundaki, shaytonvachchaning biror nayrangi bilan tanishgan kitobxon inson ma'naviyatiga doir axloqiy tushunchalar kundalik hayotda muhim ahamiyat kasb etishi xususida muayyan xulosaga keladi.

N. Norqobilov qissalari bir qarashda kichik kitobxonni hayvonot olamining o'ziga xos hayot tarzi bilangina tanishtirishga qaratilganga o'xshaydi. Adibning "Oqbo'yin", "Paxmoq" kabi har ikkala asarini birlashtiradigan narsa Paxmoq ayiqda ham, Oqbo'yinda ham hid bilish sezgilari borligini shunchaki qayd qilish emas, asar voqealarining ayni hayvonlarga xos hid bilishdek tabiiy sezgilar bilan bog'liqligiga e'tibor qaratilganidir. Darhaqiqat, ko'pchilik hayvonlarning tashqi

dunyo bilan biror munosabatga kirishishida tabiiy sezgilariga suyani shi tabiiy hol hisoblanadi. O'z qahramonlarini faqat tashqi jihatdan yurish-turishi, qilig'i, hayot tarzi bilangina tanishtirmsandan, balki eng yaqin qadirdonlaridek ularning ichki dunyosiga chuqur olib kira bilishi, shu haqda kitobxonda ham yorqin taassurot qoldirishi yozuvchining yuksak iste'dodidan dalolat beradi.

Bugungi istiqlol davri o'zbek bolalar she'riyati namunalariga ko'z tashlar ekanmiz, ular orasidan navqiron avlod namoyandalari asarlari alohida o'ren tutishidan ko'z quvonadi. Zero, bu ulush dast avval, soni bilan emas, sifati bilan salmoqlidir. Bolalar adabiyotimiz kelajagiga umid baxsh etadigan navqiron avlod vakillari, Yaratganga shukurki, madhiyabozlik, shiorbozlik ruhida qalam tebratish majbu riyatidan xolidirlar. ularning asarlari kitobxonni o'ylashga, mustaqil fikrlashga majbur qiladi, qadriyatlar deb kelingan narsalarni qayta baholab, saragini sarakka, puchagini puchakka ajratishga o'rgatadi. Hamza Imonberdiyev, Rustam Nazar, Dilshod Rajab, Kavsar Turdiyeva, Abdurahmon Akbar she'rлarini o'qir ekansiz, ularning ham ana shu safda sobit ekanligiga guvoh bo'lasiz.

Bolalar adabiyoti, ayniqsa, maktabgacha va kichik mакtab yoshi dagi bolalarga mo'ljallangan asarlarning o'ziga xosliklari xususida gap ketganda, avvalo, kichik kitobxon qalbida cheksiz hayrat tuy g'usini uyg'otishi tilga olinadi. Zero, bu ko'hna olamdag'i barcha narsalar hayvonot-u nabotot, bani

odam va insoniy munosabatlar silsilasining har bir zarrasi har bir bolakay uchun qayta yaraladi. Shu sababli ham bolakay qishda so‘ppayib turgan daraxtlarning bahorda yam-yashil barg chiqarib, oppoq qorday gulga burkanishidan cheksiz hayratga tushadi. Shu sababli ham u hamma narsaning mohiyatiga yetmoqni istaydi. Shu sababli ham uning savollari had-hududsiz, bitmas-tuganmas. Ana shu bijir-bijir savollari bilan sizni gangitib bolakay ayni zamonda, eng buyuk tilshunos hamdir. U har bir narsaning nomini o‘rganar ekan, uni shunchaki qabul qilib qo‘ya qolmaydi, balki har bir ism jismga mos bo‘lishini talab qiladi. Bolalar adabiyoti yuzasidan olib borgan kuzatishlarimiz kichkin toylarning tabiatan har narsaga qiziquvchanligi ularga bag'ishlangan asarlarning hayotiy ildizini oziqlantirishda muhim omil bo‘lishini ko‘rsatadi. Odatda, ko‘pchilik asarlar sujeti asosida qahramonlar hayotidagi burilish nuqtalari, turmush tarzi o‘zgargandan keyingi taqdiri bilan bog’liq sarguzashtlari turadi. Hakim Nazirning "Yonar daryo", Nosir Fozilovning "Saraton", Xudoyberdi To‘xtaboyevning "Sariq devni minib" asarlari sujeti shu taxlitda qurilgan. "Yonar daryo da Damirjonlar oilasiga yangi odam-o‘gay otaning qo‘shilishi bosh qahramon xarakteri rivojiga turtki beradi: yozgi ta’til paytida Damirjon o‘gay otasi Sulton amakini izlab cho‘lga otlanadi, tabiat va gazchilar hayoti bilan yaqindan tanishadi. "Saratonda"da esa, To‘ra bilan Kamola o‘rtasidagi iliq munosabatlar oshkor etilgach, ular qator sinovlardan o‘tishadi. "Sariq devni minib" romanida asar bosh qahramoni Hoshimjonning o‘qimasdan turib porloq kelajakka erishish yo‘lidagi urinishlari tasvir markaziga qo‘yiladi va hokazo.

Ayonki, badiiy asarlarda qahramonlar boshdan kechirgan sargu zashtlar shunchaki kichik kitobxonlarning ruhiyatiga mos qiziqarlilik talabi qalamga olinmaydi. Balki o‘scha qiziqarlilik zamirida kichik kitobxonga aytish deb hisoblangan ma’naviy-axloqiy muammoga diqqat qaratiladi. Badiiy asar sujetining hayotiyligi, qahramonlar taqdiri bilan voqealar talqinining uzviy bog`liqligi masalasi qadim zamonlardan beri estetik tafakkur namoyondalari diqqatini keladi. Bu haqda o‘z ijodkorlarning poetik tajribasiga suyanib, Arrestotel shunday deb yozgan edi: "Ba‘zi kishi lar o‘ylaganidek bir kishi atrofida ro‘y bergen voqealarning hammasi ham asar fabulasiga kiravermaydi. San’ati tufaylimi yoki tabiiy talanti tufaylimi, har

holda Gomer bu masalaga to‘g’ri qaray oldi. U "Odessiya"ni yaratar ekan, qahramon boshiga tushgan hamma voqealari tasvirlayvermaydi". Qadimgi yunon mutafakkirining bu fikrlari bizning kunlarimizgacha o‘z qimmatini yo‘qtog’ emas. Binobarin, bundan keyin ham yozuvchi badiiy mahoratini belgilashda asarlari dagi voqealar tasvirida ortiqcha ta’rif-tavsiflarga yo‘l qo‘ymasligi, qahramonlar xatti-harakatlarining badiiy dalillanishi asosiy mezon lardan hisoblanadi.

"Sariq devni minib" qahramoni Hoshimjonning sehrli qalpoqcha yordamida o‘qimasdan biror kasbni o‘rganmasdan turib, hayotda yuk sak cho‘qqilarni egallahsga doir kechinmalari roman sujeti qurilishida muhim o‘rin tutadi. Asarda sehrli qalpoqcha muallifning badiiy miyatini amalgalashdagina qulaylik tug‘dirib qolmasdan, kitob xonning qiziqishini tutib turuvchi muhim detal vazifasini ham o‘tay di Hoshimjon aynan sehrli qalpoqcha yordamida ajabtovur sargu zashtlarni boshdan kechiradi. Adabiy qahramonlarning hayotda turli to‘sqliarga uchrasha-da, o‘z maqsadiga erishish yo‘lida dadilligi, o‘ta og‘ir vaziyatlarda o‘ziga to‘g’ri yo‘l topa olishi, ruhiyatining humor ga boyligi, quvnoq va topqirligi bolalarga bag‘ishlangan sarguzasht asarlarning yetakchi xususiyatidir.

Shuni ham aytish kerakki, o‘zbek bolalar adabiyoti qandaydir o‘z qobig‘iga o‘ralib qolgan adabiyot emas, balki uning bugungi kun dagi qiyofasida mamlakatimizda ahillikda yashayotgan turfa millat va elatlar vakillari uchun turli tillarda badiiy jihatdan barkamol asar lar yaratayotgan qardosh xalqlar adabiyotlari namoyondalari ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. Masalan, o‘z asarlarini rus tilida yaratgan Yoqub Xo‘jayev rus adabiyoti namoyondasi hisoblanishi naqadar tabiiy bo‘lsa, asarlarini qozoq tilida yaratgan Mahkamboy Umarov ham qozoq adabiyoti namoyondasi emas, O‘zbekistonning qozoqza bon namoyondasi hisoblanishi ham shu qadar tabiiydir. Shuningdek, bugungi qoraqalpoq she‘riyatining taniqli namoyondasi Xolmurod Saparov va adib Murodboy Nizanov ijodi o‘zbek adabiyoti bilan ijodiy hamkorlikda baland pardalarda yangrayotganligi ham adabiy ham korliklarimizning o‘ziga xos bir qirrasi yanglig‘ namoyon bo‘ladi.

Bolalar adabiyoti ba‘zilar o‘ylaganidek, so‘z san‘atining qo‘liga qalam tutgan har qanday kishi yozib tashlayveradigan oddiy va sodda gina

sohasiga o‘xshab tuyilsa-da, kitobxonlarning yosh xususiyat lariga ko‘ra guruhlanishining o‘ziyoq, uni badiiy ijodning o‘ta nozik va murakkab turi sifatida baholashga izn beradi. Ilm ahli ortasida bot-bot tilga olinadigan "bolalarga atab asar yozish uchun bolalar yozuvchisi bo‘lib tug'ilmoq kerak(V.Belinskiy)"ligi to‘g’risidagi mulohaza bejiz aytilmagan.

### **Savol va topshiriqlar**

- 1.O‘zbek bolalar adabiyotining fan sifatida shakllanishi qaysi davrga to‘g’ri keladi?
- 2.O‘zbek bolalar adabiyotining fan sifatida boshqa qaysi fanlar bilan aloqasini qanday izohlash mumkin?
3. Bolalar adabiyotining shakllanish davri bilan istiqboldan keyingi davri o‘rtasida qanday o‘xshashlik va farq kuzatiladi?
4. Bolalar adabiyotiga mumtoz adabiyot an'analari ta'sirini qaysi yozuvchilar ijodida ko‘rish mumkin?
5. Bolalar adabiyotida adreslilik tushunchasini G'afur G'ulom va Shukur Sa'dulla ijodi misolida izohlang.
6. Bolalar adabiyoti rivojida xalq og'zaki poetik ijodi ta'siriga adabiy ertaklardan misollar keltiring.

### **3-MAVZU: MUMTOZ ADABIYOT VA BOLALAR KITOBXONLIGI. ALISHER NAVOIY IJODIDA KOMIL INSON TARBIYASI**

#### **Reja:**

1. Bolalar kitobxonligining tabiatи haqida ma'lumot
2. Alisher Navoiy asarlarining bolalar kitobxonligidagi o`rnı
4. Alifbe manzumalar bolalarning dastlabki o‘qish kitobi

**Tayanch tushunchalar:** *mufradot, murakkabot, muqattaot, chiston, lug‘z, hijo, abjad, yakka bayt, alifbe-manzuma, muvashshah, muammo, ta’rix, musaddas, musamman, hikoyat, maqolat, masal, harfiy san’atlar, alifbe-g‘azal, alifbe-ruboiy, alifbe-muxammas, tanbih*

**Bolalar kitobxonligi tabiatı.** Bolalar kitobxonligi tushunchasi ikki xil ma’noviy ifoda kasb etadi. Keng ma’noda, umuman, bolalarning kitob o‘qish hodisasi, ular o‘qishiga mo‘ljallangan barcha adabiy-badiiy, ilmiy-ommabop asarlar mutolaasi bolalar kitobxonligini tashkil qiladi. Ammo, bolalarga bag‘ishlangan ijod namunalari hali mavjud bo‘lmagan davrda, ilgaridan davom etib kelayotgan kattalar o‘rtasidagi kitobxonlik, qissaxonlikda yoxud, didaktik asarlar mutolaa qilishga harakat qilganlarki, buni bolalar kitobxonligining dastlabki ko‘rinishi sifatida qayd etish mumkin. Kitobxonlik bu – birgalikda kitob o‘qish yoki, kitob, kitobatchilik bilan bog‘liq tushuncha. Bolalar kitobxonligi haqida munosabat bildirgan Safo Matchonov: “..kitobxonlik tor ma’noda kitob o‘qishni bildirsa, keng ma’noda tanlab o‘qish, his etish, anglash va fikr bildirish tushunchalarini o‘z ichiga qamrab oladi. U badiiy adabiyotdan oziqlanadi, adabiy tanqid va pedagogika ko‘magida yuksala boradi”, – deb yozadi. Haqiqatan, kitobxonlik keng va tor ma’noda ham kitob mutolaasiga daxldor. Shu sababli “Kitob” turli tillarda har xil jaranglasa ham, mohiyatan bir tushuncha ifodalaydi. Masalan, qadimgi xitoycha va turkcha “kuchnig” – noma, dasxatlarni muqovalash, qadimgi skandinavcha “kenning” – o‘rgatish, ossur tilida “kunukku” – nashr qilish, ruscha “kniga” (masalan, “Bibliya” yunoncha so‘z bo‘lib, “Kitoblar” degan ma’noni anglatadi) – asarlarning

nashr etilishi (qadimda esa qo‘lyozmalarni ham muqovalash) va nihoyat arabcha “ ktob” – yozilgan, muqovalangan asar, ma’lum matnli varaqlardan iborat, juzlab tikilgan, muqovalangan, hajmi 48 sahifadan kam bo‘lmagan bosma (qadim qo‘lyozma ham) asar ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Demak, kitob insoniyat olamining yaratgan noyob mo‘jizalaridan biri sifatida, ajdodlar aql-idrok kuchining quadratli quroli va ziyo chashmasi ekanligi oydinlashadi. Hamchunin, ilk qo‘lyozmalar, kitobatchilik an‘analari, adabiy-badiiy asarlar o‘zbek bolalar kitobxonligining ibtidosidir. Jamiyatning bolalikka munosabati, farzand ta’lim-tarbiyasi haqida qayg‘urish ilk kitoblardayoq ko‘zga tashlangani shunday mulohazaga asos bo‘ladi.

Zotan, o‘ttiz asr muqaddam Movarounnahr zaminida vujudga kela boshlagan “Avesto” ana shunday kitoblarning ilk namunasi edi. “Avesto” tom ma’noda qadimgi tarixning buyuk sivilizatsiyasidir. U orqali juda ko‘p ma’lumotlar, ajdodlarimizning eng qadimiy urf-odatlari, diniy va dunyoviy bilimlari, ta’limtarbiyaga oid qat’iy qonun-qoidalar, ota-onalar, farzand, ustoz va shogird munosabatlari, qiz va yigit bolalarning o‘rganishi joiz bo‘lgan hunarlari, shuningdek, badiiy tafakkur namunalari insoniyat madaniyatining nodir durdonasi sifatida bizgacha yetib kelgan.

“Avesto”shunoslar, adabiyotshunoslar bu kitobning yaratilish tarixi, uning eramizdan oldingi IX asrda ilk kurtaklari bizning yurtimiz hududi – ko‘hna Xorazm zaminida paydo bo‘la boshlab, VI asrda uzil-kesil shakllangan mazdoparastlik dinining asoschisi Zardusht va uning ta’limoti haqida ko‘plab ilmiy-badiiy risolalar yaratishgan. Jumladan, professor H.Homidiyning “Avesto saboqlari” risolasi e’tirofga sazovor. Risolada tarixiy shaxs Spitamon Zaratustraning voyaga yetishi, tarbiyasi haqida ham so‘z boradi. Ta’kidlanishicha, Purushasp o‘g‘lining tarbiyasi va muhofazasi bilan jiddiy shug‘ullangan. Zardusht yetti yasharligidan o‘n besh yasharligigacha donishmand, shoir Barzin Kuras qo‘lida ilm oladi. Xususan, u ijtimoiy bilimlar, tabiatshunoslik, kalomi bade’, notiqlik san‘atini puxta egallaydi; ustozи aytgan she’rlar, asotirlarni yod oladi; qabila bahodirlaridan jangovarlik, jahonpahlavonlik, chavandozlikni o‘rganadi. O‘n olti yoshida Zardusht beliga oqil va jasur yigit sifatida “mardlik kamari”ni boylaydi... Endi u nor tuyalarni boqishdan tashqari, otasi

uyushtiradigan yig‘inlarda, qavm mo‘ysafidlarining bahslarida ishtirok etib, qabilalarning urf-odatlarini o‘rgangan... “Avesto” boshqa barcha diniy kitoblar singari qomusiy mohiyatga ega bo‘lgan asar hisoblanadi. Jumladan, unda xotin-qizlar haq-huquqini e’zozlash, oila daxlsizligi va mustahkamligiga erishish, ota-onalarning farzand oldidagi, farzandlarning ota-onas uchun mas’uliyati, qizlarni oilaviy turmushga tayyorlash xususida ibratli fikrlar mavjud. Zardusht o‘zining ta’limotida “Andishai nek” (pok e’tiqod yoki ezgu fikr), “Guftori nek” (to‘g‘ri, rost so‘z yoki, ezgu kalom), “Kirdori nek” ( yaxshi amal yoki ezgu ish) birligiga suyanadi.

Muhimi, ilk kitobxonlik an’analari “Avesto” va unga oid tafsirnomalarni o‘qish asosida yuzaga kelgan, maktab hodisasi ham o‘z sarchashmasini shu kitoblar o‘qiladigan va kuylanadigan ehromlardan boshlanganiga shubha yo‘q. “Avesto”da tarbiyachilar, muallimlar, ustod-u mudarrislarlarning burchlari belgilangan, ular zimmasiga jamiyatning eng muhim yuki topshirilganligi qayta-qayta uqdirilgan, 73 ularning faoliyatiga qarab “yaxshi” va “yomon” ustozlarga ajratib izohlangan, baho berilgan. Yaxshi ustozlar “sog’lom, aql-hushli farzandlarni, jasur, dono va turli tillarni biladigan o‘g‘il-qizlarni, elni balo-qazolardan himoya eta oladigan o‘g‘lonlarni, yaxshi kelajak, porloq hayotni ravshan ko‘z bilan ko‘ra oladigan avlodni” tarbiyalaydi. Shu sababli ustozlar Axuramazdaga yaqin, poktiynat kishilar sifatida alqanadi va ularning yoshlar qalbida hayotga muhabbatni singdirishdagi buyuk xizmatlari e’tirof etiladi. Yomon ustodlar esa hayotni g‘amgin qiluvchi, hayot chirog‘ini so‘ndiruvchi, johiliyat sari yetaklovchi nodonlar sifatida qoralanadi. “Avesto”da qiz bolalar tarbiyasiga alohida e’tibor berish lozimligi bir necha o‘rinda maxsus ta’kidlangan: “O‘g‘il bolalarga nisbatan qiz bolalar ilmu donish o‘rganishga jiddiyroq kirishsinlar. Zeroiki, ular ota-onas xonardonida bo‘lgan vaqtlarida ota ro‘zg‘orini tartibga solib, ziynat berib borsalar, jufti haloli manziliga borgach, bolalar tarbiyasi, ta’limi bilan, kelajak nasl tarbiyasi bilan mashg‘ul bo‘lmoqlari lozim bo‘ladi”...

Qadimgi rus tarixining buyuk tadqiqotchisi akademik N.I.Konrad, adabiyotning paydo bo‘lishi va rivojlanishida Gilgamish haqidagi epos, Injildagi tafsilotlar, “Mahabxorat”, yoki “Illiada” matnlari katta “chashma” bo‘lib xizmat qilganligini ta’kidlagan edi. “Qadimgi Eski dunyo, – deb

yozadi olim, – yangi adabiyot uchun birinchi manba bo‘lib xizmat qilgan”.

Shu nuqtayi nazardan qaralsa, “Avesto”dagi o‘gitlar mazmuni xalq maqollari, mumtoz adib va mutafakkirlar ijodi mag‘ziga singdirilib, yosh avlod kamolotiga uzoq asrlar davomida munosib hissa qo‘sib kelgan kitobxonlik namunasi hisoblanadi. O‘rta Osiyo xalqlarining qomusiy kitobi “Avesto” qariyb ikki ming yillik (mil.avv. IX-VIII, mil. VIII asrlar) tarixida yosh avlod tarbiyasi, ilm-u ma’rifati uchun qanday yuksak ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, arablar istilosidan so‘ng musulmonlikning muqaddas kitobi “Qur’oni karim” shunday ma’naviy komillik asosiga aylandi. Bolalik huquqlarining anglana borilishi oqibatida bolalar imkoniyatlarini hisobga olish zaruriyati tug‘iladi. Natijada, VIII asrdayoq Eron pedagoglari tomonidan Qur’on negizida musulmonlikning asosiy hukmlarini qamrab oluvchi “Haftiyak” darsligi tuzilgan. Bu o‘quv kitobi, salkam o‘n to‘rt asr davomida Eron, Markaziy Osiyo, Sharqiy Xitoy, Hindiston va boshqa musulmon o‘lkalarida ilk alifbe vazifasini o‘tab kelgan. Haftiyak – forscha tojikcha so‘z bo‘lib, Qur’onning yettidan biri degan ma’noni anglatadi. U

o‘tmishda Turkiston maktablarida ham o‘quvchilar arab alifbosini o‘zlashtirganlaridan so‘ng bir-ikki yil davomida o‘qitiladigan xrestomatiya va birinchi qo‘llanma hisoblanadi. Binobarin, “Haftiyak” bolalarning ilk o‘qish kitobi, kitobxonlik asosi, shuningdek, ularni Qur’oni karimni o‘qishga shaylaydigan, uning ruhiga olib kiradigan dastur vazifasini o‘tagan.

Jahon bolalar adabiyotida P.Vozdvijenskiyning “Injil” hikoyalari bolalar uchun” deb nomlangan kitobi juda mashhur. Muallifning o‘zi bu haqda shunday yozadi: “Men Yangi va Eski Tavrotning barcha voqealarini juda sodda, bolalar tilida so‘zlashga harakat qildim, bu kitobni o‘zları o‘qishadimi, yoki unga onasi, katta opasi yoki savodli enaga o‘qib beradimi, farqi yo‘q; asosiysi, bolalar eng kichik yoshlaridan o‘zlarining toza va beg‘ubor qalblari bilan so‘zlangan hikoyalarning mazmunini tushunib, anglab olishsin”.

Ta’bir joiz bo‘lsa, xuddi shunday xulosani o‘zbek bolalar kitobxonligi tarixidagi qur’onxonlik, haftiyakxonlik, hadisxonlikka nisbatan ham aytish mumkin. Qur’onda barcha huquqiy va axloqiy masalalar umumiy tarzda bayon etilgan bo‘lib, ularga aniqlik kiritish va izohlash uchun Muhammad

(s.a.v.) o‘z hadislarini aytgan. Bu hadislarni payg‘ambar sahabalari, safdoshlari yodda saqlashga harakat qilganlar. Payg‘ambar vafotidan so‘ng esa hadislarni naql qilish odad tusiga kirgan. Islomni qabul qilgan xalqlar madaniy va g‘oyaviy merosining ko‘p unsurlari Islomga hadis shaklida o‘tgan. Hadis yig‘ish o‘rta asr musulmon madaniyatining muhim xususiyati bo‘lib, bilim izlashning asosiy mazmuni hisoblangan. Hadis har qanday ilmiy asarni asoslashning muhim qismi bo‘lgan. Shu sababli xalq undan hikmatli so‘z va matal sifatida ham foydalangan. Hadislarning ijtimoiy-axloqiy qimmati chuqur insonparvarlik mazmuni bilan yo‘g‘rilganidadir. Masalan, bolani tarbiyalashda ota-onaning burch va mas’uliyatlari “Yosh bolani yelkaga mindirish haqida”, “Solih bola ko‘zga shodlik, xursandlik keltirishga sababchidir”, “Ota o‘z farzandlariga odob o‘rgatishi va yaxshilik qilishi haqida”, “Yetim bolani tarbiyat qiluvchining fazilati haqida”, “Yosh bolalar bilan hazillashish haqida”, “Yangi pishgan mevani atrofdagi yosh bolalarga berish haqida” kabi hadislarda naql qilinsa, farzandning ota-onasi, qarindosh-urug‘lari va umuman, kattalar oldidagi burch, mas’uliyatlari “Onani rozi qilish haqida”, “Otani rozi qilish haqida”, “Ota-ona keksaygan vaqtida xizmat qilib duolarini olmasdan jannatga kira olmagan kishi haqida”, “Ota-onani so‘kmaslik haqida”gi hadislarda o‘z ifodasini topgan. Yoxud, Ismoil Al-Buxoriyning eng yaxshi ish – ochlarga taom, tanish-notanishlarga salom berish, eng yomon ish – nohaq qon to‘kilishi, shuningdek, musulmonlarning birbirlari bilan uch kundan ortiq arazlab, gina saqlab, gaplashmay yurishi mumkin emasligi haqidagi hadislari mazmun-mohiyatan hamon ijtimoiy-tarbiyaviy qimmatga ega.

Xullas, ajdodlar an’analari, ma’naviy boy merosi avlodlarga to‘la-to‘kis yetib borishi uchun ularni qanday bo‘lsa shundayligicha bolalarga ham tushuntirish joizligi ayonlashadi. Bu jihatdan o‘tmishda bolalar kitobxonligi namunasi hisoblanuvchi yana bir majmua – “Chor kitob” fikrimizni tasdiqlaydi. U bolalarning ilk o‘qish kitobi sifatida forscha-tojikcha “chahor kitob” – to‘rtta kitobning bir muqova ostidagi jamlanmasini anglatadi.

X-XV asrlar davomida fors-tojik, arab va turkiy tillarda Markaziy Osiyo xalqlari adabiyotlarida ham nasrda, ham nazmda pandnomalarning xilma-xil yo‘nalishlari silsilasi yaratilgan. Ayniqsa, Kaykovusning

“Qobusnama”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq”, Farididdin Attorning “Ilohiynoma”, Sa’diy Sheroziyning “Guliston”, Sayfi Saroyining “Guliston bit-turkiy”, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”, “Mahbub ul-qulub”, Husayn voiz Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy” singari nasriy pandnomalari; shuningdek, Ahmad Yassaviy hikmatlari, Attorning “Pandnoma” va Sa’diy Sheroziyning “Bo‘ston” manzumalari, Jomiy va Navoiyning “Arba’in” (she’riy hadis)lari esa nazmiy pandnomachilik sifatida yuksak e’tirofga sazovordir.

Muhimi, ularning aksariyati bolalar kitobxonligidan keng o‘rin olgan. Ya’ni, bu pandnomalar ba’zan mavzu-mohiyatiga ko‘ra, ba’zan esa bevosita atalganlik nuqtayi nazaridan bolalar adabiyotining tarixiy o‘tmishiga daxldordir. Bu durdona asarlar uzoq asrlardan buyon farzand tarbiyasi uchun dasturulamal bo‘lib, poklik, rostgo‘ylik, insoniylik fazilatlarini singdirib kelmoqda.

Eski maktablarda Kaykovusning fors-tojik tilida bitilgan “Qobusnama” asaridan keng foydalanilgani va u ham otaning farzandiga bag‘ishlovi jihatidan bolalar kitobxonligi tarixida ayricha ahamiyat kasb etadi. 12 Asar o‘zbek tiliga birinchi marta 1860- yilda shoir va tarjimon, tarixnavis Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan tarjima qilingan. U 44 bobdan iborat bo‘lib, mo‘jaz rivoyatlar, ixcham latifalar, kichik-kichik hikoyatlar tarzida berilgan, har bir hikoya mustaqil mazmunmohiyatga ega. “Qobusnama”da ham jismoniy, ham aqliy tarbiyaning barcha qirralari teran tahlil etilgan, inson shaxsining shakllanishi uchun muhim detallarga e’tibor qaratilgan. Shu bois pandnoma farzandga mo‘ljallangan esa-da, unda katta hayotiy tajribaga ega inson qarashlari didi, saviyasi, e’tiqodi va ijtimoiy mavqeyi, nuqtayi nazari ustuvor. “Qobusnama” o‘z davri xalq pedagogik qarashlarini umumlashtira olgan asar sifatida ham e’tirofga loyiq. Unda tilga olingan masalalarning ko‘philigi hali-hanuz dolzarb ahamiyatini yo‘qotmagan. Jumladan, asarning “Ota-onha qo‘shma bilmak” (beshinchi bob), “Hunar fuzunliq bila baland qadr bo‘lmoq”(oltinchi bob), “Suxandonlik bilan baland martabali bo‘lmoq” (yettinchi bob), “Farzand parvarish qilmoq” (yigirma yettinchi bob) zikridagi axloqiy-estetik mohiyatga ega munosabatlari, yoxud insonning jamiyatdagi mavqeyini belgilovchi muhim

omillar to‘g‘risidagi qarashlar jozibali hikoyatlar orqali mushohadalangan. Masalan, Kaykovus o‘g‘liga ikki tomon (ota va ona)dan ham nasl-nasabi pokligi va ulug‘ligini tanishtirib, tushuntirar ekan, bu qadru qimmatni baland tutishini ta’kidlaydi va shunday uqtiradi: “Bu jahon bir ziroatgohdур, har nima eksang, shuni o‘rasan va har na so‘z desang, shuning javobin eshitursan. Degilkim, dunyo joyi foniylar oxirat saroyi boqiydur. Bu joyda iffatlari, parhezkorlarning himmati sherlarning himmatidekdur, badkirdorlarning himmati itlarning himmatidekdur. It har saydnikim olsa, o‘sha joyda yer, sher har saydniki olsa, boshqa joyda yer. Bu oriyat saroyi sening saydgohingdur va tangri taolonning ibodati sening saydingdur. Agar dunyo saroyida toat saydini inkor qilsang, oqibatining mujibi bo‘lur”. Muallif bu orgali insonlarning o‘z ezgu-amallari bilan ikki dunyo saodatiga erishishlariga umid qiladi. Kaykovus boshqa masalalar qatori farzand parvarishi zikrida alohida to‘xtaladi. Chaqaloqqa eng avval yaxshi ism qo‘yish, farzandni oqil va mehribon doyalarga topshirish, sunnat qilur vaqtida sunnat qilish, qudratiga loyiq to‘y va tomosha qilish hamda o‘qishni o‘rgatish joizligi ta’kidlanadi. Shuningdek, farzandga turli hunar, kasb, ilm o‘rgatish haqida fikr yuritgan. Ota o‘g‘liga yana quyidagilarni alohida uqdiradi: “Bolalarga muallimlar adab bersunlar, toki sendin o‘g‘lingning ko‘nglida gina qolmasin. Ammo uning ko‘ziga o‘zingni haybatlig‘ ko‘rguzg‘il, to seni xor tutmasin va hamisha sendin qo‘rqib yursin. U bir narsani orzu qilsa, qudrating yetguncha undin ayamag‘il, to tanga havasi bila sening o‘limingni tilamasin... sen adab, hunar va donishni farzandingga o‘zingdin meros qilg‘il. Toki, uning haqin bajo kelturmish bo‘lg‘aysan...”

Shubhasiz, Unsurulmaoliy Kaykovus qarashlarida o‘z davri, mavqeyi, ijtimoiy qatlami ta’siri yaqqol ko‘rinadi. Shunday bo‘lsa-da, mutafakkirning axloqiy qarashlarida hamma zamonalr uchun ibratli o‘gitlar bisyor. Binobarin, “Qobusnoma” hozirgi zamon pedagogikasining ham faol qo‘llanmalaridan biridir. Zero, mumtoz bolalar kitobxonligi ana shunday pedagogik risolalar, pandnomalar bilan to‘lisha borib, didaktik adabiyot namunalarini ham qamrab ola boshlagani ayonlashadi. Sa’diy Sheraziyning “Guliston” va “Bo‘ston” forscha-tojikcha yaratilgan mumtoz kitobxonlik namunasi bo‘lsa, Alisher Navoiyning didaktik asarlari turkiy bolalar kitobxonligidan keng o‘rin olgan.

## **Alisher Navoiy – bolalar kitobxonligida**

Inson axloqiy fazilatlari, ta’lim-tarbiyasi Sharq adabiyotining yetakchi mavzu va mohiyatini tashkil etishi bejiz emas. Bu mavzudagi adabiyot-pandnomalardan tashqari, badiiy yuksak dostonlar, nasriy asarlarda ham “ma’viza”, ya’ni o‘gitnasihat xarakteridagi qismlar bo‘lganligi adabiyotning didaktik tabiatini oydinlashtiradi. Inson odobi, ongi, ilm-u amali tufayli barcha maxluqtlarning afzali, sharifi deb ta’riflanishi turkiy adabiyotda Navoiy dahosi bilan boshlanadi. Qariyb olti asrdirki, Alisher Navoiy xalq faxri, tilimizning bayroqdori, she’riyat mulkining sultoni, madaniyat va ma’naviyatimizning porloq quyoshi bo‘lib kelayotir. “Yoshlarimiz Navoiyni qanchalik chuqur va puxta bilsa,—deb yozadi I.Haqqul,— ma’rifat, ezzgulik, komillik sirlarini o’shancha kengroq egallaydi. Navoiyning so‘zлари diligа о‘rnashgan odam, o‘zi istasin-istamasin, odamiylik sharafi va kuch-quvvatini idrok etadi. Navoiyni yetarli darajada bilish-adolat, diyonat va imon-e’tiqodning kuchiga ishonch demak”. XV asrning so‘nggi choragi, XVI asrдан e’tiboran Navoiy asarlarini o‘qish o‘ziga xos an’anaga aylana borgan. Sharq xalqlari kitobxonligida fors-tojik tilida shohnomaxonlik, sa’diyxonlik, hofizzxonlik, rumiyxonlik, jomiyxonlik bilan birga, turkiy (eski o‘zbek) tilidagi yassaviyxonlik, qissaxonlik yonida navoiyxonlik ham qaror topgan. Jumladan, bolalar kitobxonligida Navoiy asarlarining ayricha ahamiyati borligi bejiz emas. Ulug‘ mutafakkir yosh avlod tarbiyasi uchun alohida e’tibor zarurligini o‘z dostonlari va asarlarida yorqin ifoda etgan. Xususan, “Xamsa”ning dastlabki uch dostoni – “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, shuningdek, “Mahbub ul-qulub”, “Arba’in” (Qirq hadis)da shoirning axloqiy qarashlari o‘z tajassumini topgandir. Navoiy “Xamsa”sidagi kirish dostoni “Hayrat ul-abror” (Yaxshilarning hayrati) falsafiy, ta’lim-tarbiyaga oid she’riy asar bo‘lib, u Sharq adabiyotidagi xamsanavislik an’anasiga muvofiq yozilgan bo‘lib, didaktik mazmundadir. Navoiy dostonining muqaddima qismidagi munojotlarda Allohning buyuk va beqiyos go‘zalligini ta’rif va tavsif etish bilan birga, shoir barcha mavjudot orasida eng ulug‘i, eng sharaflisi insondir, degan fikrni badiiy yuksak darajada ifoda etadi:

Barchasini garchi latif aylading,

Barchadin insonni sharif aylading.

“Hayrat ul-abror” asarining boshlanishi uch hayrat tavsifidan iborat. Ularda tabiat, koinot va insonning ulug‘ligi va go‘zalligi tasvir etilgan. Bu uch mavjudotning yagonaligi, bir-biridan ajralmasligi, ularning hayratomuz darajadagi uyg‘unligi uch hayratning asosiy mundarijasini tashkil etadi. 63 bobdan tarkib topgan dostonning 21 faslini an’anaviy muqaddimaviy boblar, 40 bobini – 20 maqolat va 20 hikoyat, qolgan ikki bobini esa – xotima va bir hikoyat tashkil etadi. Dostondagi yigirma maqolat komil inson o‘zida mujassam etmog‘i lozim bo‘lgan fazilatlar izhoridan iborat. Asarning bir necha boblari odob-axloq va ta’lim-tarbiya masalasiga bag‘ishlangan. Navoiy bu dostonning oltinchi maqolatida odob va kamtarlikni ulug‘lab, ta’lim-tarbiyaga doir qimmatli fikr va mulohazalarini bayon qilishi bilan birga, takabbur va odobsiz kishilarni qattiq qoralaydi. Shoир adablilik to‘g‘risida fikr yuritarkan, uni kichiklarga baxtiyorlik, ulug‘larga yuksak martabalilik omili, deb biladi. Bunda tavoze’ – kamtarlikni asosiy vosita sifatida talqin etadi. Alisher Navoiy axloqiy qarashlarini ifodalashda hayotiy detallardan keng foydalanadi: “Qachonki yangi chiqqan oy tavoze’ saqlab, qaddini xam qildi, u kun sayin kamol topa boshladi. Osmon ham tavoze`ga rioya qilib egilgani uchun butun olam uning amriga buysunadi. ” Hayo va adab insonning sharaf belgisi ekan, kulgi– adabsizlikning belgisi sifatida talqin etiladi. Shoир kaklikning qahqahasi ovchi tuzog‘iga, g‘unchaning ochilishi (kulib) xazon bo‘lishiga, chaqmoqning kulgisi yerga pastlashishiga sabab bo‘lganini tasviriy ifodalar orqali ko‘rsatib beradi. Shuningdek, Alisher Navoiy kamtarinlik to‘g‘risidagi me’yorni shunday ko‘rsatadi: qulga bek ortiqcha tavozu’ korsatsa, o‘ziga azob-uqubat iplarini orttirgan bo‘ladi. Gadoning oldida sajda qilish marhamat emas; unga bir dirham bersang, bu unga nisbatan marhamat ko‘rsatishdir. O‘rindan turib bolaga joy berish ham adabdan emas; keksalar bu ishni adab hisoblashmaydi.

Shu tariqa, shoир adablilik shartlarini saqlashda har bir odamning darajasiga qarab bajarish loyiqligini ta’kidlaydi. Jumladan, ulug‘ mutafakkir yosh bolaga nisbatan eng zarur ish, uni kichkinligidan parvarish qilishdir, deb ko‘rsatadi. Uning e’tiroficha, tarbiyaning biri bolaga yaxshi ism qo‘yish bo‘lib, uni nomi bilan chaqirganlarida uyaladigan bo‘lmasligi kerak. Navoiy bolaga ilmu-adab o‘rgatish uchun muallim chaqirish lozimligini uqdirar

ekan, shafqat qilish foydali, ammo ortiqchasi zarardir, deydi. Binobarin, har xil balolardan farzandini o‘z mehri bilan asrashni ota-onaning tavoze’si hisoblasa, ota-onani hurmat qilish—“buni bajarish uning(farzand) uchun majburiyatdir”,— deydi. Shoir katta-yu kichikka qarata otaonaga xizmatni birdek qilish, xizmati qancha ortiq bo‘lsa ham, kam deb bilishni o‘z o‘gitlarida ilgari suradi:

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,  
Jismni qil sadqa ano boshig‘a.  
Ikki jahoningga tilar sen fazo-  
Hosil et ushbu ikkisidin rizo.  
Tun-u kuningga aylagali nur posh,  
Birisin oy angla, birisin quyosh.

Dostonning sakkizinchı maqolatida Navoiy yolg‘izlikka nisbatan ko‘pchilikjamoatni ulug‘lab, kishilarning bir-birlari bilan ahil, do‘sit bo‘lishlarini istaydi. “Hayrat ul-abror”ning o‘ninchı maqolati rostgo‘ylik, halollik va to‘g‘rilikka bag‘ishlangan. Shoir yolg‘on so‘zlashning yomon oqibatini “Sher bilan Durroj” masalida ovchining tuzog‘iga tushgan Durroj obrazida hikoya qiladi.

Masalda keltirilishicha, bir beshada sher yashar, har gal bolalasa, chumolilar (mur) uning bolasini nobud qilaverganidan yurak oldirib qo‘ygandi. Shu sababli: Tishlabon ul moyai payvandini

Og‘zida asrar edi farzandini.

Biroq shu “beshada” bir durroj ham yashar, hamisha sher vahmidan cho‘chiyverganidan qo‘qqisdan: “farr eta” uchar, bundan shervachcha seskanib ketardi. Bu holdan sher g‘am chekardi, nihoyat sherning Ko‘ngli bu ishdin bo‘lib ozorlik,

Boshladi durroj bila yorlik.

Va unga boshiga har qanaqa tashvish tushsa, ko‘maklashmoqqa so‘z berib, qo‘qqisdan uchaverib, uning bolasini qo‘rqiitmasligini shart qilib qo‘yadi. Endi durroj uning yonida cho‘chimay, emin-erkin yashay boshlaydi. Hatto shu eminerkinligiga ishonch hosil qilish uchun sherni sinamoqchi bo‘lib, bir gal ovchi domiga tushdim deya faryod ko‘taradi. Sher uni qutqarmoqqa borsa, faryod yolg‘on bo‘lib chiqadi. Durroj bu harakatini bir necha bor takrorladi. Shu sababli sher unga ishonmay qo‘ydi, Boshqa bir

mahalda durroj chindan ham sayyod domiga tushadi. Bu gal u:

Qichqiribon dom aro ul mutbalo,  
Necha dedi, dod meni tuttilo.  
Sher qulog‘iga yetib ul maqol,  
Savtini doyimgidek etti xayol.  
Ko‘p eshitib erdi bu yolg‘onini,  
O‘yla gumon etti chin afg‘onini.  
Har necha kim rost fig‘on ayladi,  
Sidqini ham kizb gumon ayladi.

Shu tariqa, durroj o‘z yolg‘onining qurboni bo‘ldi. Masaldan kelib chiqqan xulosa shu!

Ilm ahllariga bag‘ishlangan o‘n bиринчи мақолатда илм ва илм ахли, qalam ахли, el manfaati, savob va jaholat, xudbinlik va xudbinlarga munosabat kabi masalalar axloqiy tahlil etiladi. Navoiy bir musofir, kambag‘al odamning chinakam ilm olishi uchun ne-ne muhtojlik, qashshoqlik, ochlik va sarson-sargardonliklar mashaqqatini bayon qilar ekan, ilmda sohibqiron bo‘lguncha o‘ttiz yillik davr o‘tishini, shunda ham bitta-ikkitagina kamolot egasi bo‘lib yetishishini asoslaydi. Ammo, uning ko‘ngli ilm maskani, ilm dargohi, uning bir qatra vujudi ilm daryosiga aylangani ulkan muvaffaqiyat sifatida talqin etiladi. Alisher Navoiy olimlik martabasini ana shunday yuksaklikda ko‘radi. U ilm ahli deganda ko‘p tillarni va bilimlarni egallagan qomusiy olimlik sharafini nazarda tutib, ularning johillarga xizmat qilishini esa zolimlik, deb baholaydi.

Navoiy olimlar bilan jaholat egasi bo‘lgan bek-u amaldorlarning surati va siyratini taqqoslarkan, hayotiy detallarni ayni muqoyosa sifatida eslatib o‘tadi: “Egnidagi to‘nida yuzta yirtiq bo‘lsa ham, gulning to‘ni yirtiq-yirtiq ekani ayb emas-ku! Quyoshning yalang‘ochligi uning ziynati-ku; bulutdan libos kiyganda esa, hamma yoqni qorong‘ilik bosadi. Er kishining sharafi

kiyimda emas; dur sadafdan uzoq bo‘lsa, bahosi kamaymaydi. Pashshaning ham ust libosi zarrin, ammo uning qo‘nadigan joyi o‘limtiklarning ustidir.”

Darhaqiqat, ma’rifatparvar va buyuk shoir Alisher Navoiyning axloqiyta’limiy qarashlari hozirgi kunda ham shu jihatlari bilan o‘z qadr-qimmatini saqlab kelmoqda. U o‘z zamonidayoq yoshlarni ilm-hunar egallah, mehnatni sevishga undab, o‘rganilgan ilm va hunarni xalq, Vatan

yo‘lida sarf qilish zarurligini uqdirgan. Navoiy ta’limotida ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan boshlab astoydil o‘qish, o‘rganish ta’kidlanadi. Bu jihat shoirning o‘z hayotiy tajribasida ham yetakchi shiorga aylanganini, ya’ni juda yoshligidan ta’lim olgani, o‘qishga berilganidan anglash mumkin. Qolaversa, 4-5 yoshlaridanoq ko‘p she’rlarni yod bilganligi, Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” (“Qush nutqi”) asarini ham bolalik chog‘laridayoq qayta-qayta o‘qib, yod olgani bu fikrni asoslaydi. Alisher Navoiy umrining so‘nggi damlarigacha iqtidorli yoshlarga, ma’rifatga katta e’tibor qaratganligini kuzatish mumkin. U mehnatkash xalq bolalarini o‘qitish va tarbiyalash uchun maktablar ochish va madrasalar qurish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilganligi, podsho Husayn Boyqarodan o‘g‘il va qiz bolalar uchun maktablar ochishni talab qilgani, shaxsan o‘zi madrasalar qurishda tashabbus ko‘rsatgani ham navoiyshunoslar tomonidan ko‘p ta‘kidlangan. Navoiyning fikricha, maktab xalqqa nur keltiradi, unga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi, bolalarni bilimli qiladi. U o‘zining “Ixlosiya” madrasasi yonida maktab ochib, bolalarni o‘qitish va tarbiyalash uchun zarur sharoit yaratib, buning uchun lozim bo‘lgan mablag‘ ajratgani ana shunday e’tiborli dalillardan.

Navoiy dars beruvchini quyoshga o‘xshatadi va bu quyosh o‘z atrofidagi yulduzlarga nur sochadi, ya’ni mudarris “abjadxonalar”ga, hali ilmdan bexabar bo‘lgan toliblarga ilm nurini sochadi, ma’rifat beradi, deydi. Alisher Navoiy ta’limtarbiyaviy fikrlarini o‘zi yaratgan badiiy asarlarida ko‘proq barkamol insonni ifodalovchi ijobjiy obrazlar yaratish orqali bayon qiladi. Navoiy aql kuchiga cheksiz ishonadi, komil ishonch bilan ilm-fanning xislati juda katta, deb hisoblaydi. Alisher Navoiy inson shaxsining kamol topishi bolalikdan boshlanajagini nazarda tutib, dostonlaridagi ayrim boblarni qahramonlarining bolalik tarbiyasiga bag‘ishlaydi. Jumladan, Farhod va Majnun bolaligi tasviri bunga yorqin dalil bo`la oladi.

U axloqiy-ta’limiy qarashlarini butun hayoti va ijodiy faoliyatining sintezi hisoblanuvchi “Mahbub ul-qulub” (“Ko‘ngillarning sevgani”) pandnomasida yanada chuqurlashtirgan. Bu asar shoirning ustozlari Shayx Sa‘diyning “Guliston” va “Bo‘ston”, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston” singari didaktik adabiyot an’analalaridan ijodiy ilhomlanib yozilgandir. “Mahbub ul-qulub”da buyuk shoir va mutafakkirning jamiyatdagi turli

qatlamlariga mansub shaxslar to‘g‘risida umr bo‘yi qilgan kuzatuvlaridan kelib chiqqan xulosalari yakun topgan. Unda Navoiy yaxshi fe'l-xususiyatlarni sanab o‘tgan, odamlar uchun foydali o‘git va misollar keltirgan. Ayniqsa, o‘gitlar shoirning barhayot da’vatlari tarzida navqiron avlodlarni asrlar osha barkamollik sari undab kelmoqda. Va aytish joizki, Navoiy asarlari xuddi shu nuqtayi nazardan nafaqat bugun, balki o‘tmishda ham bolalar kitobxonligi asosi sifatida ma’lum va mashhur bo‘lgan.

To‘rt asrdan ziyodroq davr mobaynida Alisher Navoiy asarlarini xalqimiz qo‘lyozma kitoblar (devonlar, bayozlar va tazkiralalar)dan o‘qib o‘rgandi, shoir g‘azallari negizida yaratilgan qo‘shiqlar ham navoiyxonlikda ayricha ahamiyat kasb etdi. Maktablarda ham, madrasalarda, davra va suhbatlarda ham shoir asarlariga rag‘bat tobora kuchaya bordi.

Xususan, XIX asrning so‘nggi choragidan e’tiboran shoir asarlarini ko‘p sonli adadlarda toshbosma (litografiya) va tipografiyalarda chop etish yo‘lga quyilgach, bu jarayon yanada chuqurlasha va kengaya bordi. XX asrda Navoiy asarlarini o‘qibo‘rganish o‘rta va oliy maktab dasturlaridan keng o‘rin oldi, asrning oxirlariga borib esa, bog‘chalar ta’limi doirasiga ham kiritila boshlandi. Shu zaylda turli yoshdagi kitobxonning o‘z Navoiysi qad rostlaydigan bo‘ldi. Shu ehtiyoj “Xamsa” dostonlarining, shuningdek, “Lison ut-tayr” va “Mahbub ul-qulub” asarlarining hozirgi adabiy tilda qayta aytilgan nasriy bayonlari va tabdillarini yaratishga, qolaversa, kichik yoshdagi bolalarga mo‘ljallangani “Qiziq hikoyalar” (1991) nashrini amalga oshirishgacha olib keldi. Buyuk gumanist bolalarga kelajak sohiblari sifatida qaradi, shunga ko‘ra ularning tarbiyasiga alohida e’tibor berish zarurligini uqtirarkan, bu sohadagi axloqiy qarashlarini “Xamsa” dostonlarida, xususan, dastlabki uch dostoni – “Hayratul-abror” (“Yaxshilarning hayrati”), “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”da, shuningdek, “Lison-ut-tayr” (“Qush tili”), “Mahbub ul-qulub” (“Qalblarning sevgani”) hamda “Arba’in hadis” (“Qirq hadis”) kabi asarlarida olg‘a surdi. Bu asarlar bolalar navoiyxonligida ayricha mavqe hosil qilib keldi.

**Alisher Navoiy komil insonning shakllanishi bolalikdan boshlanajagini nazarda tutib, Farhod va Majnunlarning bola sifatida ulg‘ayish jarayonlarini ko‘rsatishga alohida e’tibor berdi. Farhod**

tirnoqqa zor Chin mulkining shohi xonadonida tug‘iladi, bu orziqib kutilgan xurramligu ushalgan armonning nishonasi edi. Shu sababli shoir murg‘akkina chaqaloqni tubandagicha tanishtiradi:

Ko‘zida ashk selidan asarlar,  
Damida oh dudidin xabarlar.  
Muhabbat nuri olinda huvaydo,  
Jamolida vafo tug‘rosi paydo.  
Falak deb dard elining shohi oni,  
Malak deb dard o‘ti ogohi oni.

Bu chizgilarda chaqaloqning kelajagiga daxldor bashorat tajassum topgan, ya’ni, yig‘lab dunyoga kelgan bu chaqaloqning nafasida ne-ne mashaqqatlarni kechajagidan xabar berguvchi ohlar tutuni o‘rlab turgan ekan. Manglayida esa muhabbat nuri porlayotganidan, chehrasidan vafo tug‘ro(tamga)sining barqi mavjud. Osmon uni barcha dardlilarining shohi timsolidagi farishta qilib yaratgan go‘yo, u barchaning dardidan “ogoh” – xabardor o‘g‘lon bo‘lib dunyoga kelgan. Shu bois uning nomi ham o‘ziga mos bo‘lmog‘i, hadisda aytilganiday, o‘z otaonasidan oladigan birinchi mukofoti munosib ism bo‘lmog‘ini asoslarkan, shoir dastlab bunday o‘g‘ilga ota bo‘lish nasib etgan shohning ruhiy holatini shunday ifodalaydi:

Ato ul durga chun nazzora qildi,  
Sadafdek og‘zi kulmakdinoyildi.

Shundan so‘ng shoir chaqaloqqa ism qo‘yish tafsilotiga o‘tadi. Unga tanlangan ism qismatiga daxldor besh so‘zning bosh harflaridan tuzilgan: “firoq”dan – “f”, “rashk”dan – “r”, “hajr”dan – “h”, “oh”dan – “o” va nihoyat, “dard”dan – “d” harflarining bir-biriga “murakkab” qilinishi asosida hosil bo‘lgan, uni bunyodga keltirgan “ustodi ishq”ning irodasi shunday:

Anga farzona Farhod ism qo‘ydi,  
Hurufi maxzanin besh qism qo‘ydi.  
Firoqu rashku hajru oh ila dard,  
Biror harf ibtidodin aylabon fard.  
Borin ustodi ishq etgach murakkab,  
Tarakkubdin bu ism o‘ldi murattab.  
Ko‘rinayotirki, chaqaloqning tug‘ilishi – jismoniy hodisa bo‘lsa, unga

ism qo‘yish – ma’naviy hodisa. Navoiy chaqaloqning jismoniy ulg‘ayishini ma’naviy ulg‘ayishga omixtalashtirgan holda tasvirlashga ayricha e’tibor berarkan, bunda dastlab, allaning nechog‘li katta ahamiyatga egaligini ta’kidlaydi:

Arusi charx tun-kun doya kirdor,  
Bo‘lib har tavri holidin xabardor.  
Beshik davrida chiniyu xitoyi,  
Bo‘lib yuz no‘s sh lab dostonsaroyi.  
Ko‘zining nozi eldin eltib uyqu  
. Anga uyqu keturmakka navogo‘

Doya tun-kun uni parvarish qilib, “dostonsaro”lik, ko‘zlariga noz uyquni chorlash uchun “navogu”lik qilib allalar aytib, quvnab-yashnab ulg‘ayishiga ma’naviy asos solganliklaridan u bir yoshni to‘ldirganidayoq, oyoqda turadi: beshikni tark etib, mustaqil yura boshlaydi. Shu zaylda u hammaning suyumlisi bo‘lib ardog‘lanadi.

Bu yanglig‘ chun bir o‘ldi yoshi oning,  
Sharaf durriga yetti boshi oning  
Qadam urdiyu tarki mahd qildi,  
Kuyub emgak, yururga jahd qildi.

Falakning aylanishi tufayli u ana-mana deguncha uch yoshta to‘lib, so‘zlarni durday terib, ishq afsonalarini so‘zlaguvchi bo‘ldi. Shoir tasvirida uch yashar Farhod o‘n yashar boladay fikr yuritishi bilan barchani taajjublantira boradi:

Chu uch yoshiga chekti davri aflok,  
Takallum qildi andoqkim duri pok.  
So‘z bori bo‘lib afsonai ishq,  
Malomu maskani koshonai ishq,  
Ajabdur uch yoshida o‘zga atfol,  
Nechukkim o‘n yoshida o‘zga atfol

Navoiy bola ma’naviy kamolotida ustoz-tarbiyachining rolini shu xilda baholaydi. Farhodning uch yasharligidayoq, bu qadar ham jismoniy, ham axloqiyma’naviy kamol topishida, albatta, unga murabbiylit qilgan doya va allalagan “navogo” hamda “dostonsaro”lar xizmati katta edi. Shu sababli endi unga saboq berish uchun “hakimi nuqtadon” kerakligini ota o‘z

vaqtidayoq tushundi:

Ato bu nav' ko'rgach ish hisobin,

Munosib angladi ilm iqtisobin.

Keturdilar hakimi nuktadone,

Bilik birla jahon ichra jahone

Farhod shu xilda nuktadon ustoddan “falak mushkilotlari” va ularni yechish yo'llarini o'rganishga kirishdi, “quyosh yanglig‘ yorug“ fikri bilan “uchinchi oy ravon bo'ldi savodi”. “Qur'on”ni yod oldi. Uning zehni shu qadar tez ediki:

Agar bir qatla ko'rdi har sabaqni,

Yana ochmoq yo'q erdi ul varaqni.

Ne so'znikim o'qib ko'ngliga yozib,

Dema ko'nglik, jon lavhiga qozib.

O'qub o'tmak, uqib o'tmak shiori.

Qolib yodida safha-safha bori.

Alisher Navoiy ta'limni “o'qish va uqish” prinsipi asosida tashkil etishni bundan besh yarim asr muqaddam Farhodni tarbiyalash vositasi sifatida ko'rsatib o'tgan edi. Majnun tarbiyasida ham Navoiy shu yo'lning maqbulligini yana ta'kidlaydi. Majnunni ham 4-5 yoshlar oraliq‘ida bir “hunarvor ustod”ga berilganini, u ham bunda o'z qobiliyatini namoyish etganini shunday ifodalaydi:

Kun bor edikim besh-o`n sabaqni

Anglab evurar edi varaqni.

Navoiy bolalarni tarbiyalashda Farhod va Majnun timsollarida ideal namunalarni ko`rsatdi. Alisher Navoiy ana shu axloqiy-ta'limiy qarashlarini butun hayoti va ijodiy faoliyatining sintezi bo'lgan “Mahbub ul-qulub” asarida yanada chuqurlashtiradi. Bu asar ustozlari Shayx Sa'diyning “Guliston”, “Bo'ston” va Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston” singari didaktik bitiklari an'analaridan ijodiy ilhomlanib yozilgan bo'lib, tarkibiy jihatdan uch qismdan iborat:

Birinchi qismi “Xaloyiq ahvoli va atfoli kayfiyatida” (“Kishilarning ahvoli, fe'l-atvori va gap-so'zlarining ahamiyati haqida”) bo'lib, 40 fasldan tashkil topgan. Ularda jamiyatdagi turli ijtimoiy tabaqalar hamda ularning ijtimoiy mavqeini tavsiflash yetakchilik qiladi. Odil podsholar, beklar,

nomunosib noyiblar (o‘rinbosarlar), zolim podsholar, diyonatsiz sadrlar (mansabdorlar), maqtanchoqlar, yasovullar, lashkarlar, shayxul-islom, qozilar, qonunshunos muftilar, mudarrislar, tabiblar, mutasavvuflar (bularni nazm gulistonining xushovoz qushlari deb ataydi muallif), kotiblar, mакtab ahli, mutrib va mug‘anniylar, ashulachilar, qissago‘ylar, va’zxonlar, munajjimlar, savdogarlar, kosiblar, xalq amaliy san’ati ustalari, mirshablar, zindoniylar, qorovullar, dehqonlar, bezorilar, g‘arib va bechoralar, gadoylar, qushchilar va ovchilar, uylanish va xotinlar, riyokor shayxlar, xarobot ahli rindlar haqida batafsil ma’lumotlar berarkan, feodal jamiyatga xos ijtimoiy tabaqalanish xususiyatlarini ochadi. Bunday vaziyatda Navoiy o‘z zamonasining ulkan jamiyatshunosi sifatida gavdalanadiki, u bergen ma’lumot XV asrdagi ijtimoiy munosabatlar tarixini o‘rganishda hamon qimmatli manba sifatida xizmat qiladi. Navoiy iqtidorli o‘quvchilarni, olimlarni, kotiblarni, shoirlarni san’atkorlarni hurmat qilishga chorlaydi. Uningcha, o‘qish ham, o‘qitish ham g‘oyat mas’uliyatli ish, chunki beqiyos qunt, havas va g‘ayratni talab etadi. Bolalarni savodli, bilimli qilish yo‘lida o‘qituvchi chekadigan zahmat ozmuncha emas. Binobarin, shogirdning burchi, garchi ustoz unga bir harf o‘rgatgan esa-da, o‘sha ustoz hurmatini joyiga qo‘ymoqdan iborat. Shogird ustozni umr bo‘yi izzat qilmog‘i, unutmasligi lozim: Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,

Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Asarning ikkinchi qismi “Hamida atfol va zamima hisol xosiyatida” (“Yaxshi fe’llar va xislatlar to‘g‘risida”) tarzida nomlangan va u o‘n bobdan iborat bo‘lib, axloqiy masalalarga bag‘ishlangan. Unda inson axloqi yaxshi fe’llar va yomon xislatlarga bo‘lingan holda talqin qilinadi. Yaxshi fe’llar silsilasida tavba, qanoat, sabr, tavoze’ va odob, ishq tavsiflanadi, ularning mohiyatini ochish niyatida kichikkichik tamsiliy voqealar keltirilib, inson kamolotidagi ahamiyati ko‘rsatiladi. Asarning uchinchi qismi “Mutafarriqa favoyid va amsol surati” (“Turli foydali maslahatlar va maqollar”) tarzida nomlangan bo‘lib, 118 tanbihdan tashkil topgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ”tanbeh” arabcha so‘z bo‘lib, ”nojo‘ya xattiharakat uchun beriladigan ta’zir, koyish, ogohlantirish yoki jazo” tarzida izohlansada, Navoiyda u hikmat ma’nosida qo‘llangan. Zero, ularda Navoiy umr bo‘yi kuzatgan hayotiy tajribalarini lo‘nda, qisqa va obrazli qilib, aforistik

darajada ifoda etgan. S.G‘aniyeva to‘g‘ri qayd etganidek, bu tanbihlarda “odam va odamiylik haqida, chin insoniy fazilatlar to‘g‘risida asrlar mobaynida xalq tajribasi va bilimining qaymog‘i sifatida yig‘ilgan fikrlar, shuningdek, Navoiyning uzoq hamda murakkab hayot tajribalarining natijalari, xulosalari keltirilgandir. Navoiyning o‘zi qayta-qayta takrorlagan “oz so‘z – soz so‘z” hikmatiga to‘la rioya qiladi va hech qanday mubolag‘asiz aytish mumkinki, deyarli har bir jumla ta’kid va tanbih aforistik xarakterga ega bo‘lgan hikmat va donolik namunalarini yaratadi. Bu tanbihlar keyinchalik “Navoiy aforizmlari” nomi ostida alohida terilib, 1947-yilda Hodi Zarif va 1961- yilda Y.Eshonqulovlar tomonidan kitobchalar shaklida nashr etilishi yosh avlod tarbiyasi uchun yuksak ta’limiy ahamiyatga ega. Ularda insonni sharaflash yetakchi motivdir. Binobarin, har bir tanbih mohiyati pirovad-oqibatda bir o‘gitda jamlangan, ulardan qay birida zamona nosozligidan shikoyat qilinsa, qay birida insonni ilm olishga, kasb-hunar o‘rganishga, hayotni va o‘z salomatligini qadrlashga, mehnatsevarlikka, odillikka, halollikka, xullas, 84 ezgulikka da’vat etuvchi motivlar yetakchilik qiladi. Shu sababli ulardan ayrimlarini keltirib o‘tish foydadan xoli bo‘lmaydi: “O‘ziga bino qo‘ygan odam – aqlsizdir; o‘ziga zeb bergen – beor, satangdir”. “Eshitmoq kishini boyitadi; ko‘p gapirmoq sayozlatadi, ko‘p gapirgan, ko‘p yanglishadi. Ko‘p yegan, ko‘p yiqiladi. Tan kasalining asosi, ko‘p yemakdir, qalb kasalining sababi, ko‘p demakdir. Ko‘p demak – o‘zga mag‘rurlik, ko‘p yemak – nafsga bandalikdir”. “Takabburlik – shayton ishi va manmanlik – nodon ishi”. “Xudparastlikdan butparastlik yaxshiroqdir”. “Insoniyat bog‘ining eng go‘zal daraxti – ehsondir va odamiylik xazinasining eng bebaho gavhari ham ehsondir”. “Saxovatsiz odam – yog‘insiz bahor bulutiga va hidi yo‘q mushk-anbarga o‘xshaydi”. “Himmat ahlining ixtisosи – saxovatdir”. “Himmatsiz kish i– er sonida emas”. “Oliyhimmat odam – balandparvoz lochindir; behimmat – sichqon ovlovchi kalxatdir”. “Himmat egasi – qashshoq bo‘lsa ham tubanlik qilmas; himmatsiz odam – xazina topsa ham buyuklarga teng bo‘lmas”. “Yaxshiliklarni topmoq – yedirmoqdir; ayblarni yashirmoq – kiydirmoqdir”. “Aytur so‘zni ayt, aytmas so‘zdan qayt”. Bular shoirning avlodlarga qoldirgan o‘gitlarigina emas, balki barhayot da’vatlari bo‘lib, zamonlar osha navqiron naslni komillik sari undab kelmoqda. Buyuk

mutafakkir ana shunday o'lmas g'oyalar bilan kishilik jamiyatining yangidan -yangi avlodlari qalbiga yo'l topib, mangilik kasb etib kelmoqda.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Bolalar kitobxonligi tabiatи deganda nimani tushunasiz?
2. Alisher Navoiy asarlarining bolalar kitobxonligidagi o`rnini nimalardan iborat?
3. Alisher Navoiy yoshlarni ilm va hunar egallashga undashda qanday asosiy fikrlarni ilgari surgan?
4. “Mahbub ul-qulub” asarida Navoiy jamiyatdagi turli qatlamlarga mansub shaxslar haqida qanday xulosalar chiqargan?
5. Navoiy maktab va madrasalarning ahamiyatini qanday ta'kidlagan va ularning rivoji uchun qanday amaliy choralar ko‘rgan?
6. Shoирning bolalik tarbiyasi haqidagi qarashlarini uning qaysi asarlarida ko‘rish mumkin va bu asarlarning ahamiyati nimada?
7. To‘rt asr davomida Alisher Navoiy asarлari xalqimiz madaniyatida qanday o‘rin tutgan va ular qanday vositalar bilan ommalashgan?

## **4-MAVZU: GULXANIYNING “ZARBULMASAL” ASARINING BOLALAR ADABIYOTIDA TUTGAN O‘RNI**

### **REJA:**

1. Gulxaniyning hayoti va Qo‘qon adabiy muhitidagi o‘rni.
2. Shoirning ijodiy qobiliyati: humor, hajv va xalq og‘zaki ijodiga e’tibori.
3. Fors-tojik tilida Jur’at, o‘zbek tilida Gulxaniy taxallusi bilan tanilganligi.
4. “Zarbulmasal” asarining yaratilishi va uning asosiy manbalari.
5. “Kalila va Dimna” asari va uning Gulxaniy ijodiga ta’siri.

Muhammad Sharif Gulxaniy XIX asrning birinchi yarmi Qo‘qon adabiy muhitida masal – tamsil janrida xalqchil asar yaratishga muvaffaq bo‘lgan shoirdir. Uning hayoti va ijodiga oid tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, Gulxaniy tabiatan humor va hajvgaga usta, xalq urf-odatlari va til boyliklarini, maqol, matal, naql va rivoyatlarni chuqur biladigan ijodkordir. U fors-tojikcha g‘azallarida Jur’at taxallusini qo‘llagan bo‘lsa, o‘zbek kitobxonlariga Gulxaniy taxallusi bilan mashhur. Gulxaniy – olovqalb, majnunsifat ma’nolarini bildiradi. Gulxaniyning eng muhim ijodiy fazilati shundaki, u XIX asr folkloristi sifatida o‘zbek xalqining donishmandligini ifoda etgan masallar, maqollarni to‘plab, o‘zining mashhur “Zarbulmasal” asarini yaratgan. Shoir uni yaratishda xalq og‘zaki ijodi bilan birga, buyuk hind masali “Kalila va Dimna”dan, Firdavsiy, Jomiy, Hofiz Sheroziy, Shayx Sa’diy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar asarlari an’analardan keng foydalangan. Chindan ham jahon adabiyoti xazinasining noyob durdonasi sanalmish “Kalila va Dimna” qadimgi hind folklori zaminida vujudga kelgan. Uni hind podshohi Dobshalim uchun faylasuf Beydabo yozganligi naql qilinadi. Jumladan, kitob muqaddimasigi ayrim fikrlar e’tirofga loyiq: “Har bir xalqning olim va faylasuflari qanday vositalar bilan bo‘lmashin, o‘z orzu va istaklarini amalga oshirmoq, mavjud tartibni intizomga solmoq uchun hamisha fikr yuritganlar, har xil tadbirlar ila ish ko‘rmoqchi bo‘lganlar, bu haqda har xil asarlar yozmoqqa intilganlar. Shulardan biri qushlarning va yovvoyi, yirtqich hayvonlarning tilidan yozilgan, g‘oyat

chuqur ma'noli, nafis ramz va muammolarga to'la ushbu kitobdir... Olimlar bu yo'lni tanlab zo'r imtiyozga ega bo'lganlar: avvalo, bu bilan ular xohlagan so'zlarini aytib, har bir bobni orzu qilganlari darajada bezash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Buning ustiga, ular shu yo'l bilan nasihat, hikmat, latifa va hazil-mutoyiba javohirlarini birbiriga qo'shganlar, toki dono odamlar bu kitobni mutolaa qilib, foydalansinlar, nodon odamlar esa, uni afsona deb o'qisinlar. Yosh shogirdlar esa, savodli bo'lmoq, ilm orttirmoq, naql aytmoq maqsadida bu kitobda yozilganlarni osonlik bilan yodlarida saqlab qolgusidirlar. Katta bo'lib, aql va tajriba egasi bo'lganlarida, yodlab olgan va esda saqlab qolgan naqllar ustida fikr yuritib, ularni tushunganlarida dillari naqadar foydali hikmatlar bilan to'lganligini ko'radilar va o'zları kutmagan ulkan boylikka, bitmas-tuganmas xazinaga ega bo'lganlarini biladilar. Yoshlarning xursandligi katta bo'lganda otasidan meros bo'lib qolgan xazinani topgan va shu tufayli umrining oxiriga qadar qiyinchilik ko'rmasdan yashay olishini bilgan odamning sevinchiga o'xshaydi." Ta'kidlangan jumlalarni Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari haqida ham aytish mumkin. Bu esa asarning yosh kitobxonlar uchun g'oyat muhimligini asoslaysidi.

Gulxaniy ham Yapaloqqush va Ko'rpush suhbatida ayrim hikoyatlar bayonini "Kalila va Dimna" nadan topmoq joizligini ta'kidlaydi. 15 "Zarbulmasal" Umarxonning amri, istagi bilan yozilganligi, u xalq orasida keng tarqalgan zarbulmasallarni – xalq maqollarini yig'ib, kitob holiga keltirish lozimligini aytgani hamda Gulxaniy shu nozik xizmatga loyiq, deb topilgani nazarda tutilsa, mazkur asarlarning maqsad-mohiyati juda yaqinligi oydinlashadi. "Zarbulmasal" so'zi "zarb" va "masal" so'zlarining qo'shilmasidan iborat bo'lib, adabiy atama sifatida masal, maqol, matal keltirib so'zlamoqlikni anglatadi. Zero, undagi pandnamo hikoyatlar, xususan, majoziylik, qushlar, hayvonlar tilidan so'zlash, "Tuya bilan bo'taloq", "Maymun bilan najjor", "Toshbaqa va chayon", "Bozanda va Navozanda" kabi bir qancha masallar hamda xalq maqollarining keltirilishi bilan ham yuqorida zikr qilingan asardan ijodiy ilhomlanib yozilganligini tasdiqlaydi. Ammo, aytish joizki, "Kalila va Dimna" turli mavzudagi hikoyatlar zamirida qurilgan pand-u hikmatlardan, voqealar bayoni, maqollar ifodasi ham mumtoz adabiyotga xos yashirin, majozlar tilida

so‘zlashdan iborat. Undagi masallar garchi turli parranrdalar, qushlar va yirtqich hayvonlar o‘rtasidagi munozaralar, munosabatlар orqali hikoya qilinsa-da, yuksak andisha, falsafiy va purhikmat o‘gitlar ustuvorlik qiladi. Gulxaniy esa feodal jamiyatining kishisi sifatida o‘tkir satiraga keng o‘rin bergen. Binobarin, “Zarbulmasal” majoz asosiga qurilgan qissa bo‘lib, unda turmush voqeа-hodisalari, turli ijtimoiy toifaga mansub kishilarning fe'l-atvorlari, bir-biriga munosabatlari qushlar, hayvonlar tilida bayon qilinadi. Muhimi, asarda xalq maqollari va naqlлari (400 dan ortiq) keng o‘ringa ega. Undagi asosiy voqeа-hodisalar qushlar – hayvonlar timsollari orqali ifodalanganligi, bosh qoliplovchi hikoya boyo‘g‘li va Yapaloqqush hikoyasi bilan bog‘lanib ketuvchi katta-kichik masal-hikoyalar ham keltirilganligi uchun adib uni “Zarbulmasal” deb nomlagan. Qushlar obrazi asarning asosiy mazmunini belgilaydi, hayvon-hasharot va kishi obrazlari qushlarning o‘zaro suhbatlarida, ular tomonidan keltirilgan naql-u rivoyatlarda namoyon bo‘ladi. Asar sujetidagi voqealar xalq ertaklariga monand yozilgan: Yapaloqqush o‘g‘li Kulonkir sultonni uylantirish maqsadida o‘z yaqini Ko‘rqushni Boyqush huzuriga sovchilikka yuboradi. Boyo‘g‘lining nihoyatda go‘zal, quyosh yanglig‘ Gunashbonu ismli qizi bor edi. Yapaloqqushning “har qancha qalin bo‘lsa topilur” deya o‘z tarafidan sovchilikka borishga unaganida, Ko‘rqush quyidagi maqollar orqali unga gap uqtirmoqchi bo‘ladi: “Bor maqtansa topilur, yo‘q maqtansa chopilur”, “Yolg‘on masal turmas”, “Uyat o‘limdan qattiq”, ”Ermon yog‘ochining egilgani – singani, er yigitning uyalgani – o‘lgani”, “Oyoq yugurigi oshqa, og‘iz yugurigi boshqa...” Sen kim, Boyo‘g‘lining eshigiga kishi yubormoq kim? Hech bilmasmusenki, “Teng tengi birla, tezak qopi birla”. Yapaloqqush: “Andin bizning nima kamligimiz bor?”, – deganda esa Ko‘rqush: “Maqtangan qiz to‘yda uyalur”, “O‘zini maqtag‘on o‘lumning qarovuli”. Sening ahvoling olamg‘a ma’lumdir. “Oyni etak birla yashirsa bo‘lurmi?”, “Chumchuq semursa, botmon bo‘lurmi?”, “Olako‘zanak ola bo‘lsa ham, arslon bo‘lmas, olato‘g‘anoq olg‘ur bo‘lsa ham, ahvoli ma’lum” kabi.

Ana shunday maqolli aytishuvlar, “sovchi”ning yo‘ldagi hamsuhbatlari orasidagi masallar hikoyasi, bir-ikki bordi-keldidan so‘ng ming xaroba – chaldevor(chordevor) qalin badaliga Boyo‘g‘li rozilik beradi. Yapaloqqush

shonu shavkat bilan to‘y anjomlarini keltiradi, o‘sha davrdagi quda-andachilikka xos hamma rasm-rusumlar, milliy odatlar bajo keltirilib, to‘y marosimlari o‘tkaziladi. Bu marosimlarda ikki tomonidan juda ko‘p qushlar – Ko‘rqush, Hudhud, Turumtoy, Kordon, Bozanda, Navozanda, Anqo, Humo, Ukob, Lochin, Oqqush, Turna, G‘oz, O‘rdak, Suqsur, Kaklik, Bedana, Olato‘g‘anoq, Zarqaldoq kabilar qatnashadi va har biri o‘ziga yarasha xizmatni ado etadilar. Farg‘ona iqlimida xarobalar kam bo‘lganligi uchun Mavarounnahr iqlimidagi (Buxoro amirligi) 1000 chordevor topishib, kelin Gunashbonu mahriga to‘laydilar. Ko‘rinadiki, Gulxaniy asarda aniq makon (Ho‘qand, Buxoro) va zamon (XIXasr), hayotiy voqelik (feodal jamiyatidagi notenglik)ni hamda xalq an‘analarining yaxshi-yomon qirralarini majoz va kinoya, so‘z o‘yinlari, kesatiqlar orqali bayon etadi. Garchi unda o‘z yurti (Qo‘qon) va uning xoni (Umarxon)ga sodiqlik, u boshqarayotgan yurtning boshqa hududlardan ko‘ra obodroq ekanligiga ishora etilsa-da, Xolboqi misgar, Yodgor po‘sindo‘z, Muhammad Amin mufti, Otaboy amin, Sayid Azimxon, Eshon kalla haqidagi hajviy-rivoyaviy epizodlarni ochiq-oydin keltiradi. Muallif o‘z masallarida majoziy obrazlar orqali hukmron sinf vakillarini fosh qiladi, mamlakatga xarobalik, xalqqa qashshoqlik keltirgan o‘zaro feodal urushlarga qarshioommaning noroziligini ifodalaydi. Shuning uchun Yapaloqqush va Boyo‘g‘lining bir-biriga quda bo‘lishi voqeasini keltiradi. Bu ikki quda to‘y bahonasi bilan mamlakatni xonavayron qiladi. Yozuvchi Ko‘rqush, Hudhud, Kulonkirsulton, Sho‘ranul, Malik Shohin va Kordonlarning bir-birlariga aytgan masallari, hikoyalari orqali asarning g‘oyaviy mazmunini ravshanlashtiradi. Gulxaniy “Maymun bilan najor” masalida hunar va hunar ahlini ulug‘laydi, qo‘lingdan kelmaydigan ishga aslo urinib kulgi bo‘lma, ko‘r-ko‘rona birovga taqlid qilib falokatga yo‘liqma, degan fikrni maymun qismati orqali ko‘rsatadi. Bu masal axloqiy tarbiyaviy mavzuda bo‘lib, ishning mohiyatini bilmay, pala-partish kirishuvchi va oxirida o‘zi sharmanda bo‘lib qoluvchi kishilarga o‘git-nasihat tarzida keltirilgan. Mehnatkash xalqning og‘ir hayoti va mehnati, huquqsizligi va nochorligi, ayanchli qismati esa “Tuya bilan bo‘taloq”da badiiy tasvirlangan. Gulxaniy bu masalda Sarbon, Tuya va Bo‘taloq orqali xususan, o‘zi yashayotgan jamiyatdagi tengsizlikni, uning og‘ir mashaqqatlarini bayon qiladi. Chunki xalq uchun “tirikchilik

toshdan qattiq”, Sarbon o‘z g‘amida, tuya og‘ir yuk ostida, Bo‘taloq esa ona sutidan mahrum. Gulxaniyning “Toshbaqa bilan chayon” masalida esa bir-biriga zid va qaramaqarshi ikki obraz berilgan: toshbaqa – aqlii, farosatli, safarlarda ko‘p yurib, ancha tajriba orttirgan, insofli, sodiq va qadrdon do‘st timsoli, chayon esa uning ziddi. U boshqalarga yomonlik qilishdan huzur qiladi, yaxshilikni bilmaydigan kimsalarning ramziy obrazidir. Gulxaniy qissadan hissa chiqarib, kishilarni hushyorlikka odamoxunlikka undab: “Aslning xatosi bo‘lmas, nojinsning oshnosи bo‘lmas”, “Bo‘ynida illati borning oyog‘i qaltiraydi”, – degan maqollarni keltiradi. “Zarbulmasal” majoz va masallar, xalqning jonli iboralari asosiga qurilgan asar. Undagi she’riy va nasriy matnlar turli badiiy san’atlar vositasida ta’sirchan ifoda etilgan. “Zarbulmasal” ham “so‘z matosi qadim o‘tmishda to‘qilgani, ranginkamon rishtalari butun yer yuzini, go‘zal so‘z gilamlari bilan burkab chiqqan” yodgorliklarga monandligi jihatidan, nafaqat kattalar, balki bolalar ham zo‘r qiziqish bilan o‘qib kelayotganligi uning bolalar kitobxonligidagi muhim o‘rnini belgilaydi. Umuman, asarda zarb, zarblast usulidan foydalanylган uchun nomi “Zarbulmasal” hisoblangan bu asar tarkibida “Toshbaqa bilan chayon”, “Tuya bilan bo‘taloq”, “Maymun bilan Najor”, “Kabutar bilan zog”, “Yodgor po‘stindo‘z”, “Dumsiz eshak”, “Yolg‘onchi tuya” kabi masallarning jami 15 dan ortiqligi ayonlashadi. Zotan, “Zarbulmasal” xalq orasida “Yapaloqqush hikoyasi” ham deyiladi.

### Savol va topshiriqlar

1. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarini yozishda foydalanylган asosiy manbalar qaysilar va ularning asarga ta’siri qanday bo‘lgan?
2. Gulxaniy masal va tamsil janrida yozgan “Zarbulmasal” asarida qanday axloqiy va didaktik g‘oyalar ilgari surilgan?
3. Shoirning “Zarbulmasal” asarida xalq og‘zaki ijodidan qanday uslub va vositalar orqali foydalangani ko‘rinadi?
4. “Kalila va Dimna” asari va “Zarbulmasal” o‘rtasida qanday o‘xshashlik va farqlar mavjud?
5. “Zarbulmasal” asari yoshlarga qanday saboqlar beradi va ularning tarbiyasida qanday rol o‘ynaydi?

## **5-MAVZU: O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTINING VUJUDGA KELISHI VA TARAQQIYOT XUSUSIYATLARI. ABDULLA AVLONIY VA HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY IJODI**

### **REJA:**

1. Bolalar adabiyoti istilohi haqida tushuncha va uning paydo bo‘lish omillari
2. Bolalar adabiyoti fanining predmeti va vazifalari
3. Bolalar kitobxonligi tushunchasi haqida ma’lumot
4. Bolalar adabiyotining umumadabiyotga aloqadorligi
5. Bolalar adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari,yoxud adresliligi

**Tayanch tushunchalar:** *istiloh, qo'llanma, xrestomatiya, omil, genezis, so'qma so'z, munaqqid, muqallid, nasr, nosir, nashr, noshir, muharrir, musavvir, matbuot, kitobatchilik, xarakter, tur, janr, dinamizm, emotsionallik, lirik, komik, matbaa, realistik, badia, fiziologik, biologik, biografik, dialektizm, sujet, publitsistika, detektiv, fantastik, dilogiya, trilogiya, tetralogiya.*

O‘zbek bolalar adabiyotining so‘z san’ati sifatidagi ulug‘vor vazifikasi va tarbiyachilik vositasi istiqlol yillarda alohida e’tiborga tushdi. Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Adabiyotga e’tibor- ma’naviyatga, kelajakka e’tibor” yo’riqnomasida adabiyot, so‘z san’ati azaldan xalq qalbining ifodachisi ekanligi ta’kidlab ko‘rsatilar ekan, jumladan shunday deyilgan: “Ayniqsa, biz uchun g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bolalar adabiyotini rivojlantirishga alohida e’tibor berishimiz, mustaqil fikrlaydigan shaxslarning shakllanishi, har qanday kitobxonlik, mutolaa madaniyati bolalikdan boshlanishini doimo yodda tutishimiz lozim”.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017 yil 9 sentabrda e’lon qilingan “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida alohida belgilab berilganidek, bolalikdan kitob o‘qishga qiziqish uyg‘otuvchi o‘quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni

tayyorlash haqidagi , 2017 yil 13 sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarorlari ham bu fanning maqsad mohiyatini oydinlashtirishga yordam beradi.

Yarim asrdan oshayotirki, pedagogika oliygohlari va kollejlarining boshlang‘ich ta’lim usuliyoti, maktabgacha ta’lim yo‘nalishlari talabalari ushbu fanni chuqur o‘rganib kelmoqdalar. Bu davr mobaynida bolalar adabiyoti fani bo‘yicha chop etilib kelingan darslik va qo‘llanmalar tom ma’noda, yosh avlodni tarbiyalashda ruhiy va ma’naviy quvvat bo‘lib kelganiga shubha yo‘q. Ammo, XXI asr milliy bolalar adabiyoti namunalariga qo‘yilgan talablarning ortgani bejiz emas. O‘zbek bolalar adabiyotining badiiy jihatdan yuksak namunalariga keng e’tibor qaratish, yangi asr kichkintoylarining shiddat bilan rivojlanayotgan qiziqishlari, ruhiy, ma’naviy olami, ularning ijtimoiy hayotga munosabati masalalari aks etgan asarlar tahlili orqali talabalarda estetik, axloqiy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy tarbiyani shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbek bolalar adabiyoti haqidagi fanning yaratilishi XX asr boshlarida ma’rifatparvar pedagog va adabiyotshunoslar maqolalarida ko‘zga tashlangan bo‘lsa, ilk xrestomatiyalar va o‘quv qo‘llanmalarini tuzish harakati asr o‘rtalariga to‘g‘ri keldi. Pedagogika bilim yurti talabalariga mo‘ljallangan, I.Ahmedov, A.Suyumovlar tomonidan 1953-yilda birinchi marta tartib berilib, 1967-1978 yillarda qayta takomillashtirilib, nashr etilgan “Bolalar adabiyoti” xrestomatiyasi, 1957-yilda e’lon qilingan “Bolalar adabiyoti” o‘quv materiallari qo‘llanmasi shu harakatning dastlabki natijasi hisoblanadi. Keyinchalik, 1973-yilda A.Suyumov tomonidan maxsus o‘rta o‘quv yurtlari uchun nashrga tayyorlangan “Bolalar adabiyoti” qo‘llanmasi o‘zbek bolalar adabiyoti tarixini yaratish yo‘lidagi dastlabki qadam bo‘ldi. Bu qo‘llanma keyinchalik M.Jumaboyev tomonidan qayta ishlanib, 1995-yildan e’tiboran majmua va darslik sifatida kasb-hunar kolleji o‘quvchilari hamda oliy o‘quv yurtlari uchun amalda foydalanib kelinmoqda. Bu sohada P.Shermuhammedov, J.Tursunov, O.Safarov, X.Egamovlar muallifligidagi “O‘zbek bolalar adabiyoti” darslik xrestomatiyasi (1976), O‘zbekiston FA Til va adabiyot

instituti tomonidan tayyorlab nashr etilgan “O‘zbek bolalar adabiyoti tarixi ocherklari” (1978), “Bolalar adabiyoti va zamonaviylik”(1981), “O‘zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon” (1989) kabi monografiyalar ham o‘ziga xos hodisa bo‘ldi. Biroq, o‘zbek bolalar adabiyoti va bolalar kitobxonligi mundarijasini o‘zida mujassamlashtiruvchi, XX asr o‘zbek bolalar adabiyoti namunalarining g‘oyaviy, janriy, badiiy-kompozitsion jihatidan o‘ziga xosligi, ularning kichkintoylar, bolalar va o‘smirlar yosh xususiyatlariga ko‘ra ifoda olami kabilarni milliy istiqlol tafakkuri nuqtayi nazaridan chinakam tahlil va tadqiqot asosidagi ilmiy tarix hanuzgacha yaratilgani yo‘q. Zotan, ushbu qo‘llanma mazkur vazifani qisman ado etish maqsadini ko‘zda tutadi. Bunda o‘zbek bolalar adabiyotining bir asrlik tarixi, tadrijiy taraqqiyot xususiyatlari, XX asr bolalar adabiyotidgi fenomen yozuvchi va shoirlarning ijodi umymlashtirilishga, shuningdek, istiqlol davri bolalar adabiyotining yangi tamoyillariga munosabat bildirishga e’tibor qaratildi. Bolalar adabiyoti istilohi haqida tushuncha. Tarixning eng qadimgi davrlaridanoq inson nafaqat o‘zining tirikchiligi uchun kurasha boshlagan, balki u o‘z avlodи bardavomligi haqida qayg‘urgan. Insoniyatni o‘rab turgan dunyo va u haqdagi tasavvuri, yig‘ilgan bilimlari, hayotiy tajribasi, hamda bu boradagi dono fikrlari, xulosalari bolalarga turli pand-nasihatlar shaklida, tushunarli vositalarda anglatilgan. Bu jihat barcha xalqlar og‘zaki adabiyotining mushtarak xususiyatlari hisoblanadi. Folklor har bir xalqning milliy-adabiy ijodini boshlab berishi ham shundan. Bu xususiyat bolalar adabiyoti inkishofida ham muhim rol o‘ynaydi. Qachonlardir Ovrupoda aka-uka Grimmlar, X.K.Andersen, Sh.Perro, J.Rodari kabilarning ertak to‘plamlari paydo bo‘lgan bo‘lsa, vaqt kelib, o‘zbek bolalar adabiyotining boshlanmasida ham bu hodisa poydevor bo‘la oldi. Inson ruhiyatida o‘zo‘zini anglash davri aynan bolalikda kashf etilishi ham turli xalqlarda turli davrlarda kechdi. Negaki, bolalik insondagi bebahо ichki olam sifatida, beg‘uborligu ajoyibotlari bilan kattalarni o‘ziga rom etuvchi davr ekani, kattalik davri esa, xuddi eng samimiy va bolalarcha beg‘uborlik tark etilgan jarayon sifatida anglay boshlanishi uchun jamiyat ma’naviy ongida yangilanish zaruratini yuzaga keltirgan. Hamchunin, Yevropa adiblari XVI-XVII asrdayoq nafaqat bolalikni kashf etdi, balki uni eng sof mukammallik namunasi va mehr-shafqat timsoli sifatida insoniyatga me’ros qilib qoldirdi.

Har bir mamlakatda bolalar tarbiyasiga oid, ularga bag‘ishlangan yoxud maxsus yaratilgan ijod namunalari u haqdagi istilohlarni ham vujudga keltiradi. Jumladan, o‘zbek bolalar adabiyoti tarixida folkloridan tashqari, didaktik adabiyot, bolalar kitobxonligi, ma’rifatparvarlik adabiyoti, milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti tushunchalari uning shakllanishidagi asosiy omillar hisoblanadi. Hodisaning maydonga kelishi, uning ilmiy iste’molga olib kirilishi, nihoyat, mustaqil fan sifatidagi takomili esa yaxlit tizimni tashkil etadi.

Bolalar va o‘smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik asarlar majmui tom ma’noda bolalar adabiyotini tashkil etsa-da, asosan, sof badiiy asarlar bu tushuncha mohiyatini anglatishi taomilga kirgan. Bolalar o‘qishi uchun mo‘ljallangan asarlar barcha xalqlar tarixida qadimdan davom etib kelgan. Jumladan, o‘zbek bolalar adabiyoti Sharq yozma adabiyotida “pandnoma”, “ma’vizatnoma”, “nasihatnoma”, “axloq kitoblari” singari nomlar bilan tasnif qilinuvchi asarlar zaminida voqelikka aylangani, shuningdek, uning shakllanishi ma’rifatparvarlik va maktab-maorif tizimi islohotlari bilan chambarchas bog‘liqligi ayon haqiqat. Bolalar adabiyoti avvalo, turli yoshdagi bolalar va o‘smirlarga mo‘ljallangan so‘z san’atidir. U voqelikni aynan o‘n olti-o‘n yetti yoshgacha bo‘lgan bolalar idroki, tasavvuri, tafakkur obrazlarida gavdalantiruvchi badiiy asar namunalarini o‘zida mujassamlashtiradi. Shu jihatdan u umumbadiiy adabiyot bag‘rida shakllangan. Ayni paytda, u qator xususiyatlariga ko‘ra alohidalik kasb etadi.

Bolalar adabiyoti avvalo:

- so‘z san’atiga asoslangani va badiiy ijod mahsuli ekanligi jihatdan umumadabiyotga hamohang bo‘lsa;
- unda bolalar ta’lim-tarbiyasi ustuvorligi pedagogika bilan;
- bolalar va o‘smirlarning murakkab ruhiyati, qiziqishlarini aks ettirishi psixologiya;
- yosh xususiyatlarini ifodalashi fiziologiya bilan;
- ona-tabiat, atrof-olam hodisalarini keng aks ettirishiga ko‘ra tabiatshunoslik fanlari;
- kichkintoylar til xususiyatlarini mujassamlashtirib tilshunoslik fanlari va defektologiya;

– xalqona ohang va jonli so‘zlashuv tilidan foydalanib, xalq og‘zaki ijodi bilan uzviylikda namoyon bo‘ladi.

Bolalarbop barcha asarlarda yosh avlodning dunyoqarashi, tafakkuri, o‘ykechinmalari, orzu-istiklari, voqelikka estetik munosabati o‘z ifodasini topadi. Ularning aksariyati yozuvchilar (kattalar) tomonidan yaratilsa-da, voqelik bolalar dunyoqarashi nuqtayi nazaridan talqin va tadqiq etiladi, bolalar tilidan hikoya qilinadi va baholanadi. Binobarin, xuddi shu xususiyatlarni o‘zida namoyon qila oladigan o‘zbek bolalar adabiyoti XX asrning 20-30-yillarida to‘liq shakllanib, umumadabiyotning alohida tarmog‘i sifatida maxsus yo‘nalish kasb etadi. Bunda Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy singari ilk namoyandalari, Shokir Sulaymon, G‘ayratiy, Dorjiya Oppoqova, G‘ulom Zafariy, Elbek, Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom, Ilyos Muslim, Zafar Diyor, Sulton Jo‘ra, Qudrat Hikmat, Quddus Muhammadiy, Shukur Sa’dulla, Hakim Nazir, Po‘lat Mo‘min kabi professional yozuvchi-shoirlar o‘z ijodi orqali sohaning shakllanishi va taraqqiyot xususiyatlarini belgilay oladi. Natijada, bolalar **she’riyati, nasri** o`tgan asrning ikkinchi yarmidan ancha yuksaldi. Bolalar **dramaturgiyası** va **publitsistikasiga** asos solindi. Bolalar **kinosi va teatri** rivojlandi.

Muhimi, bu istiloh ruscha “detskaya literatura” so‘zining aynan tarjimasi tarzida emas, balki real voqelikka aylangan, o‘zbek bolalariga mo‘ljallanib yaratila boshlangan, ularga ixtisoslashgan adabiy hodisani ifodalagan holda dunyoga keldi. Buning tarixiy-tadrijiy tamoyillari, ilmiy-nazariy umumlashmasi esa “Bolalar adabiyoti” deb nomlangan mustaqil fan tarixida o‘z ifodasini topa bordi.

**Bolalar adabiyotining maqsadi va vazifalari.** Bolalar uchun maxsus badiiy adabiyot yaratish an’anasi jamiyat taraqqiyotining muhim ma’naviy ehtiyoji tarzida reallikka aylangach, uning maqsadi va vazifalari aniqlashila bordi. Badiiy adabiyot inson ruhiyatini, hatto uning shaxsiyati shakllanishi va rivojidagi o‘rnining beqiyosligi bolalar adabiyotida yorqin ko‘rinadi. Badiiy asarning mo‘jizakor ta’sir kuchi o‘sib kelayotgan yosh qalblarda ezgulik, vatanparvarlik, elsevarlik, badiiyestetik didni shakllantirish, umuman, hayotga, butun olamga ijobiy va ijodiy munosabatda bo‘lishga da’vat etadi. Shu sababli inson “bola chog‘lardan” badiiy asarga, kitobga oshno bo‘lib o‘sishini ta’minlaydigan vositalardan biri – bolalar adabiyoti

hisoblanadi. Bundan qariyb ikki asr ilgari bolalar adabiyotining ulkan munaqqidlari V.G.Belinskiy, N.G.Chernishevskiy, N.A.Dobrolyubov asoslab ko‘rsatganidek, yosh kitobxonlarga ta’lim-tarbiya berish bilan birga, ularga estetik zavq uyg‘ota oladigan, qaynoq hayot manzarasini butun borlig‘icha aks ettirgan chinakam badiiy asarlar hamon muhim talabligicha qolayotir. Shuningdek, bugun bolalar adabiyoti sohasida ham faqat milliy zaminga tayanish ozlik qiladi. Zamondosh o‘quvchi o‘z milliy bolalar kitoblarini o‘qish, uqish bilan birga, jahon bolalar adabiyoti durdonalarini mutolaa qilmasligi mumkin emas. Endilikda bolalar va o‘smirlarga mo‘ljallanib yozilgan asarlarda ularning faqat yosh xususiyatlariqagina emas, asar janri, mavzusi, uslubi va tasvirda o‘ziga xos yondashuvlar bo‘lishini taqozo etayotir. XXI asr bolalarining badiiy asarni qanday qabul qilish darajasi ham jiddiy masala. Yosh kitobxonlarga ongi va tafakkurini

boyitish bilan birga, ularning qalbini, zavqini uyg‘otadigan ya’ni, tuyg‘ulariga ham kuchli ta’sir etadigan san’at asarlari zarur. Zotan, bolalar adabiyoti fanining predmetini bolalar va o‘smirlarga bag‘ishlangan asarlarning g‘oyaviy-mavzuviy, janriy-badiiy xususiyatlari, ularga oid ilmiy-nazariy qarashlar, tadqiqotlar umumlashmasi, mualliflar hayoti va ijodini batafsil o‘rganish kabilalar tashkil qiladi. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodi, jahon bolalar adabiyoti namunalarini tahlil va tadqiq etish, bolalar kitobxonligi ko‘rinishlarini oydinlashtirish bundagi muhim hodisalardandir.

**Fanning vazifalari** esa talabalarni milliy bolalar adabiyoti namunalari bilan tanishtirish, u dastavval, ijtimoiy vogelik, xalq og‘zaki ijodining boy an’analariiga ega milliy o‘zbek adabiyoti va jahon adabiyoti tajribalarini o‘zlashtirish orqali yuzaga kelganini asoslash, nihoyat, bu adabiyotning takomili, tadriji, taraqqiyot xususiyatlarini mavjud ijod namunalari misolida ko‘rsatib berishdan iborat. “Bolalar adabiyoti,— deb yozgan edi N.Fozilov,— nozik adabiyot. Bolalar adabiyoti biz bilgan kattalar adabiyotining boshi...

Bolalar yozuvchilari o‘z asarlari bilan katta adabiyotga boshlovchi darg‘alar. Bu adabiyot – hummatalab adabiyot, e’zoztalab adabiyot. Chunki, bolalar uchun yozilayotgan har bir asarda o‘zing bolaga aylanmasang, u jonsiz tana bo`lib qoladi. Bolaning ko‘ngli ham shunday. Uni sindirib bo‘lmaydi. Unga hamisha e’tibor darkor. Shundagina uning ko‘ngli to‘lib o‘sadi. U – mehrtalab. Shundagina u muhabbatingiz mevasiga aylanadi,

izingizni bosadi”.

**Bolalar adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari.** Bolalar uchun ham, kattalarga bo‘lgani singari, inson va jamiyatga, tabiatga daxldor barcha mavzularda ijod etish mumkin. Bu farqli xususiyat mohiyatini A.A.Makarenko bolalar uchun yozayotganda **nima haqda yozish emas, balki qanday qilib yozishning muhimligida**, deb ko‘rsatgan edi. Shu jihatdan kattalar turmushining murakkab qirralarini ifodalovchi maishiy hayot mavzusida Q.Muhammadiyning bolalarbop qilib yozilgan “Qo‘ng‘izoy bilan Sichqonboy” she’riy adabiy ertagi bu fikrga asos bo‘la oladi. Bu asar 1940-yilda yozilgan bo‘lib, dastlab “Mushtum” jurnalida “Qo‘ng‘iz bikach bilan Sichqonboy” nomi ostida bosilib chiqqan. Asar uchun tanlangan voqelik, muammo, g‘oya kattalar hayotiga to‘g‘ri kelsa-da, ammo u allegorik obrazlar vositasida tasvirlangani bolalarbop mohiyat kasb etgan.

G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asari o‘tgan asrning 30-yillarida yozilgan bo‘lsa ham u haqda “Qilichning damida yurib yaratilgan san’at mo‘jisasiidir” (A.Rasulov) deyilishida istiqlol mafkurasining ta’siri yaqqol seziladi. Zero, yaratilgan chinakam badiiy asarlar zamонлар osha navqiron avlodlarga ham yangicha estetik zavq bilan xizmat qilaveradiki, bunday asarlar yosh kitobxонни aslo befarq qoldirmaydi.

Bolalar adabiyotining ikki yo‘nalishli adabiyot ekanligi hodisaning muhim xususiyatlaridan. Chindan-da, u bolalar va o‘smirlarga mo‘ljallangani uchun, avvalo shularning adabiyoti, ayni paytda san’at asari bo‘lgani bois kattalarning ham diqqatini tortishi tabiiy. Adabiy ertak yozish an’anasini boshlab bergen va uni cho‘qqiga ko‘targan X.K.Andersen shuni nazarda tutib yozgan edi: “Men nafaqt bolalar uchun, balki kattalar uchun yozayotganimni har doim esda tutaman. Bolalarni ertaklarning fabulasi ko‘proq qiziqtirsa, kattalarni ularga singdirilgan g‘oya qiziqtiradi”. Darhaqiqat, Sharl Perroning mashhur “Qizil shapkacha” ertagi har qancha sodda va quvnoq sujet asosida qurilgan bo‘lmisin, ham bolalarni, ham kattalarni qiziqtirgani holda unda ifodalangan “Qizil shapkacha”li go‘zallarni (qizil shapkacha – go‘zallik ramzi, unda fransuz qizlarining umumlashma obrazlari ko‘zda tutilgan) fransuz burjuaziyasining shahvoniyatparastligidan (Bo‘ri qiyofasida fahshga mukkasidan ketgan

burjuylar ko‘zda tutilgan) ogohlantirishdan iborat g‘oyani faqat asar ijod etilgan tarixiy davr mantiqidan uqa olgan kattalargina ilg‘ashlari mumkin. Shuningdek, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Yengil adabiyot” darsligida keltirilgan “To‘g‘ri so‘zli bola” she’ri rostgo‘y bolaning ibrati ifodasi tarzida taassurot qoldiradi. Ammo, “Meni – deb yozadi adabiyotshunos A.Rasulov, – she’rdagi o‘zga masala jalb etdi. Bolaning yo‘lini to‘sigan, qaddi qomati kelishgan, tasavvurimcha, bashang kiyingan ikki kishi kim edi? Nega ular pul berib yolg‘on sotib olmoqchi bo‘ldilar? Qolaversa, iste’dodli Hamzada yolg‘onfurushlar qiyofasini yaratish fikri qachon, qanday paydo bo‘ldi? Olim masalaning shu tomoniga e’tibor qaratgani holda, she’rdagi yangi mazmunni inkishof etadi: XX asrda mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida yolg‘onning urchib ketgani, yolg‘on inqiloblar, yolg‘onni suv qilib ichib yuborgan “dohiylar”, yer kurrasining oltidan birida barpo etilajak jannat haqidagi uydirmalar... xullas, oxiri sarob “izm”lar munaqqidni mushohadaga undaydi. Ya’ni, bolalar uchun yozilgan maktab darsligidagi mazkur she’r ham aslida dolzarb ijtimoiy-siyosiy mazmun ahamiyat kasb etgani anglashiladi. Sujetning qiziqlarligi bolaga haqiqatan zavq bag‘ishlaydi. Biroq zamondosh kichkintoylar uchun buning o‘zi yetarli emas. Shiddat bilan rivojlanayotgan davrning navqiron avlodlariga o‘tkir mazmunli fikr hamda g‘oya zarur. Tasavvurga boy obraz va teran tasvirli psixologik, falsafiy-ma’rifiy jihatdan o‘tkir sujetli asarlar hamda badiiy yuksak ijod namunalarini yosh kitobxon ma’naviy olamini boyitishga xizmat qiladi. Masalan, M.A’zamning inson va zamin muammolariga bag‘ishlangan mushohadakor she’rlarini yosh kitobxon diqqat bilan o‘qiydi. Jumladan, uning “Yodgor xolaning vahimasi” she’ri humoristik tabiatini bilan o‘quvchiga zavq bag‘ishlay olgan. Shoir, xalq tilidan foydalangani holda voqelikni sujet tizimiga bog‘laydi. She’r quyidagi muammoli vaziyatdan boshlanadi:

Yodgor xola to‘satdan  
bir tepdi-yu qopqani,  
chopa ketdi dalaga  
nevarasin topgani.

Hovliqqan kampir chor tarafga yugurgilab, nevarasining ismini aytib chaqiraveradi:

–Akbar, Akbar, hov Akbar,  
qayga ketding, zumrasha  
Zumda g‘oyib bo‘lasan  
ariq osha, yo‘l osha... –  
Yodgor xola Yugur  
oyoqlari lorsillab,  
javrab borar o‘zicha  
yo‘l-yo‘lakay harsillab...

Yodgor xola nevarasining ko‘rinmay qolganidan vahimada va sarosimada. Bunga shunchaki, so‘roqsiz ketib qolgan bolaning kattalarni xavotirga solishidagi odatiy holat deb qarash ham mumkin, albatta. Ammo kampir nevarasini avval yengilgina – “zumrasha” deb, keyin esa g‘azabi ortgach, achchig“iga chidolmay “qay go‘rdasan”, “tirmizak” deya urisha boshlagani o‘quvchi diqqatini oshiradi:

– O‘tirsa bo‘lmasmikin  
ko‘milib uy ichida? Tashqarida nima bor,  
nima bor ko‘y-ko‘chada?  
Akbar, Akbar, hov Akbar,  
qay go‘rdasan, tirmizak? Tez kela qol, jon bolam,  
momongni qilmay halak.

Qizig‘i shundaki, nevara hech qayoqqa ketmagan edi. Yodgor xola bir oz oldin uni erkalab, opichlab olgan bo‘ladi. Ammo keksalik tufayli buni unutadi. Shuning uchun sujet yechimida quyidagi kulgili voqeа beriladi:

.Yodgor xola bo‘ynidan  
siqib so‘rar Akbarjon:  
– O‘zi qaysi Akbarni  
chaqiryapsiz, momojon?

O‘z qilmishidan o‘zining kulgisi qistagan, hatto nevarasining oldida mulzam bo‘lib qolgan buvi sir boy bermay, yana zo‘ravonlik ko‘rsatib deydi:

– Ha, basharang qurmasin,  
darrov “ha” demaysanmi?  
Lo‘killatmay meni ko‘p,  
tez ovoz bermaysanmi?

Ayni paytda nevara ham bo'sh kelmaydi. Buvi-nevaraning dialogi asosida she'rning yumoristik ruhi yanada kuchaytiriladi:

– O'zingiz opichvolib,

o'zingiz chaqirasiz.

Jinnimisiz, momojon,

nimaga baqirasiz?

She'r so`nggida esa shoirning bosh g`oyasi buvining haqiqiy tashvishi yanglig` namoyon bo`ladi: –

Voy Akbarjon, bolam-a,

mening ko'nglim alag'da,

depalatsa boshlandi

o'tgan hafta dalada.

Butiposmi, mutipos,

bir balolar sepadi.

Qancha-qancha bolalar

balnisaga ketadi.

Mirza bo'lang yotibdi

sariq kasalga uchrab,

tinmasdi,

yerga ursang,

olovday ko'kka sachrab.

Uyda o'tir, jon bolam,

joning omon bo'lsa, bas.

Sen ham dardga chalinsang,

jonimdan bitta qolmas.

Anglashiladiki, she'r mazmunidagi yetakchi g`oya o'tgan asrdagi "paxta yakkahokimligi"ning turli jarohatlari, alamlı azoblaridir. Uning barcha qiyinchiliklarini o'z boshidan o'tkazgan katta avlod – buvi-bobolar, ota-onalar o'z farzandlaridan ham xavotirga tushadilar. Bolalar uchun buvining holati kulgi qo`zg`atib, she'r dagi komiklikni ta'minlagan bo'lsa, she'r xotimasi kattalarni jiddiy mulohazaga yetaklaydi: yaqin tariximizdagi muammolarni eslab qayg`uradi, istiqlol zamonidan, inson qadri ko'tarila boshlaganidan shukrona qiladi. Shu tariqa, bu kabi she'r lar bolalar va kattalar adabiyotining muhim namunasi hisoblanadi.

Shunga o`xshash, o`zbek bolalar adabiyotining mustaqillik arafasi va istiqlol yillarda yaratilgan ko`pgina asarlar ikki yo`nalishli adabiyot ekanligi bilan diqqatga sazovor. Jumladan, A.Obidjonning “Dahshatli Meshpolvon” ertak qissasidagi Meshpolvon portreti tasviri (“...ikki lunji nog‘ora, beti oftobday zog‘ora, betida eshak tepkisidan naqshlangan chandiq, qorni qirq pudlik sandiq, burni mushuknikidek puchuq, yelkasi baayni hurpaygan chumchuq, bo‘yni oldinga enkaygan, quloqlari dinkaygan, oyoq bosishi ilang-bilang, boshi Yozyovon cho‘lidek yap-yalang, ko‘rinishidan kamgap-u anqov, aslida mahmadana-yu mijg‘ov, ko‘zları boyqushnikiday ola... Xullas rosayam qiziq bola”) va qahramonlik sarguzashtlari katta-yu kichikka baravar zavq berishidan tashqari, yozuvchi bu orqali xalqona iboralar jilosi, unutilayozgan xalq dostonlari va ertaklari ohangi, ruhini bugungi yosh avlod qulog‘iga singdirishni ko‘zlaydiki, bu ham o‘z navbatida, hodisaning ikki xil mazmun-mohiyatiga xizmat qila oladi. Binobarin, bolalarga mo‘ljallangan badiiy adabiyot kichkintoylardan tashqari dastlab, san’at asari sifatida, so‘ngra, g‘oyadorligi jihatdan hammabop bo‘lishi mumkin ekan. Bolalar adabiyotida voqelikning o‘ziga xos tasviri ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda quyidagi xususiyatlar ko`zga tashlanadi:

**1. Badiiy obrazning, voqelikning aniq-tiniqligi, ko‘rimliligi.** Bu xususiyat aksaran, maktabgacha tarbiya va kichik mактаб yoshidagi o‘quvchilar kitobxonligiga xos. Ular uchun yozilgan asarlarning har bir jumlesi asosida rasm chizish mumkin. G‘afur G‘ulomning “O‘ylashni o‘rganamiz” she‘rida mavhum hodisani ko‘rimli qilib tasvirlash yorqin kuzatiladi. Muxtorjon olti yoshli singlisi Munisxon dan “O‘ylashni bilasanmi?” – deb so‘raganida, uning: “Aka-a, o‘zing ayta qol, O‘ylash degan nimadi?”, – deya iqror bo‘lgani beziz emas. Shunda, Muxtorjonning “jiddiy turib”, “qoshini birga yig‘ib” o‘ylashida ham aynan kichkintoylarga xos “muzqaymoqdan tog`, nuqlu gilos bog`, bir qozon qaymoq, “tuyaday pishloq” kabi obrazlar ko‘rimlilik – predmetlilik kasb etadi. Bu esa kichkintoylар tasavvurini yorqinlashtiradi.

Shoirning bolalarga xos tushuncha va tasavvurdan foydalanib, asl muddaoni ayta olgani diqqatga sazovor. Boyqushning ko‘rimsizligi, buning ustiga xarobada yashashi uning nomiga munosib emasligi bolalarni

qiziqtirishi tabiiy. Shoir aniq va ko'rimli timsol – boyqush hamda u yashaydigan vayrona orqali kichik maktab yoshidagi kitobxonlar uchun hali mavhum bo'lgan tushuncha – vatanparvarlik, o'ziga beklik hissini anglatishga erishgan. Bu jihat badiiy adabiyotning ijtimoiy hayotni o'rganishdagi asosiy vosita ekanligini ham oydinlashtiradi. Zotan, S.Jo'ra, Q.Muhammadiy, A.Muxtor, Sh.Sa'dulla, X.To'xtaboyev, T.Adashboyev, S.Barnoyev kabi ijodkorlarning kichkintoylar uchun yaratgan asarlarida aniqlik ustuvor bo'lsa, N.Fozilov, H.Nazir, M.A'zam, A.Obidjon, T.Malik singari adiblar ijodida o`smirlarga xos tasavvur yetakchi.

**2. Hikoya qilishda lirk yoki komik maylning kuchliligi.** Bolalar adabiyotining asosiy xususiyatlaridan biri – uning samimiy his-tuyg'ularga boyligi ekani o'z vaqtida V.G.Belinskiy tomonidan qayta-qayta ukdirilgan edi. Quvnoq humor esa uni yanada to'ldiradi. Bu hali-hanuz bolalar adabiyotining o'ziga xosligini belgilab kelmoqda. N.G.Chernishevskiy shu ma'noda, bolalarga mo'ljallangan badiiy asarlarda "Vah... Qanday dahshat?", "Ey, muncha kulgili!", "Bay-bay, muncha yaxshi!" kayfiyatlarini qo'zg'ovchi alomatlari bo'lmasa, yosh kitobxonlarni to'lqinlantira olmaydi, deb hisoblagan edi. Shu jihatdan qaralsa, o'zbek bolalar adabiyoti tarixida ham lirk ko'tarinkilik va quvnoq yumorga boy asarlar yosh avlod qiziqishiga ko'proq tuyassar bo'lgan. Zero, G'afur G'ulomning "Shum bola", X.To'xtaboyevning "Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi", "Sehrgarlar jangi yoxud, shirin qovunlar mamlakati", A.Obidjonning "Dahshatli Meshpolvon" va "Meshpolvonning janglari" kabi asarlarini o'zgacha zavq bilan o'qilishining siri avvalo shunda. Real olam voqealarini xayolot dunyosiga o'g'irib, adadsiz orzular tasvirida berish bolalar adabiyotining doimiy ehtiyojlaridan. Ayniqsa, kichik yoshdag'i bolalar kitobxonligiga xos ertak va hikoyalarni sehrli predmetlar, ajoyib-u g'aroyib sarguzashtlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bolalar adabiyotida X.Andersen, M.Tven, R.Kipling, J.Rodari, K.Chukovskiy, X.To'xtaboyev, A.Obidjon kabi bolalar adiblari asarlarida bu sirli tilsimlar asosiy g'oyani ifodalashda muhim rol o'ynaydi. "Ayniqsa, Xudoyerdi To'xtaboyevning Hoshimjoni – deb yozadi A.Rasulov – sehrli qalpoqchasini kiyib yarim dunyonni kezib chiqdi, ming-minglab kitobxonlar qalbidan joy oldi". Olim bunda X.To'xtaboyevning mahorati, bolalar qalbini rom etish san'atini

nazarda tutadiki, chindan ham o‘zbek bolalar adabiyotshunosligi oldida ularni teran yoritish masalasi hali-namuz ko‘ndalang turibdi.

**3. Xarakter va hodisalar ifodasida dinamikaning yorqinligi, jonliligi.** Harakatchanlik, tinib-tinchimaslik, hamma narsaga qiziquvchanlik bolalarning tabiatida mavjud. Bu jihat ularbop asarlarda ham o‘z ifodasini topadi. Jahan va o‘zbek bolalar adabiyotidagi Robinzon (“Robinzon Kruzo”), Gulliver (“Gulliverning sayohatlari”), Pinokkio (“Pinokkio va uning boshidan kechirganlari”), Buratino (Oltin kalit yoki Buratinoning sarguzashtlari), Kachal polvon (“Kachal polvon yoxud yog‘och qo‘g‘irchoqning sarguzashtlari”), Qoravoy (“Shum bola”), Hoshimjon (“Sariq devni minib”), Alamazon (“Alamazon va uning piyodalari”) kabi qahramonlarning sarguzashti, o‘ziga xos va mos harakati orqali voqealar sujetida qiziqarrilik sodir bo‘lgan. Ba’zi asarlarda esa yanada shiddatli dinamizm ko‘zga tashlanadi. K.Chukovskiyning “Moydodir” (“Yuvin, do‘mbog‘im”), Q.Muhammadiyning “Temirlar o‘yini”, Sh.Sa’dullaning “Ayyor chumchuq” kabi she’rlarida sujet shiddatli dinamizm asosida voqelikka aylangan. Kichkintoylar o‘z tabiatiga yaqin shu xildagi harakat zamirida namoyon bo‘luchchi 6 Rasulov A. G‘aroyib saltanat. T.: Adib, 2012. –B.12 16 voqelikni kattalarga nisbatan tez ilg‘aydi, voqealar almashinushi uning ko‘z o‘ngida yorqin akslanadi. “Temirlar o‘yini”da bu jihat temir-tersaklar ishtirokida ro‘y bersa, Anvar Obidjonning “So‘nggi axborot” she’rida mevalar va sabzavotlar misolida ko‘zga tashlanadi:

Bo‘lib o‘tdi qishloqda  
Shamollatdi qornini,  
Kecha zo‘r shamol.  
Oshqovoq polvon.  
Natijada ro‘y berdi  
Pachoq qildi burnini,  
Anchayin kor-hol.  
Mulla baqlajon.  
Uzum boshi aylanib,  
Uyqichiroq bir tarvuz  
Bo‘p qoldi kasal.

Yumalab borib,  
Shoxdan yiqilib olma,  
Uyg‘onibdi qovunning  
Yotibdi o‘sal.  
Boshini yorib.  
Hatto gilos lat yedi,  
Noklar yerga to‘kildi,  
Bo‘lsa ham abjir.  
Bo‘lishib bir jom.  
To‘qnashuvda anorga...  
Ammo zarar ko‘rmadi  
Chaplandi anjir.  
Sabzi va sholg‘om.

Ko‘rinadiki, harakatlanayotgan har bir narsa o‘ziga xos sazoga ega bo‘lishidan tashqari, bolalar sho‘xligini ham eslatadi. Kichkintoylar bu harakat va “jang” zamirida o‘sha narsalarning o‘zini va o‘zlarini ko‘rib turganday sezadilar. Ammo, bolalar ulg‘aya borgani sari ular zohiridagi bu dinamika botiniga, tasavvuriga ko‘cha borganidan, o‘smirlar adabiyotida detektiv, yoxud fantastik asarlar tarzida davom etadi. Binobarin, ulug‘ munaqqidlar ta’kidlaganidek, bolalar adabiyotida “borliqni va barcha mavjudotni harakatga keltirmoq zarurligi” masalasi bolalikning o‘zi qadar umrboqiylik kasb etadi. Haqiqatan, kichkintoy bola nazdida “soqov tosh ham, dala-dashtdagи xas-xashaklar ham shivirlab, oqayotgan ariqcha ham, sokin esayotgan shamol ham parvoz qilib, guldan-gulga qo‘nayotgan kapalak ham muhabbat va hayot tilida so‘zlashi” tabiiy.

**4. Tilning aniqligi, tushunarligi va serqirraligi.** Kichkintoylar asarlarining tili grammatik jihatdan umumadabiyotga mushtarak bo‘lgani holda, bolalarcha tafakkur qilishning ifodaviy vositasi ham. Bunda bolalar adiblarining tilshunoslik mahorati muhim rol o‘ynaydi. Negaki, bolalar kitobxonligida asar til xususiyatlari muhim rol o‘ynaydi. Jamiyat taraqqiyotida tilning o‘zgarib, boyib borishi ayon. Har bir davr yosh avlodining so‘z boyliklari imkoniyati turlicha bo‘ladi. Tushuncha va ifodalarning bola yosh xususiyatlariga mos bo‘lishiuning adresliligini ta’minlaydi.

Pedagogika va psixologiyada turli yosh davrlari ruhiyatining bir-biridan sezilarli farqi asoslab berilgan. Xususan, chaqaloqlik, ilk bolalik, maktabgacha ta’lim yoshi, kichik maktab yoshi, o’smirlik, o’spirinlik, yoshlik, yetuklik va keksalik davrlarning har biri o’ziga xos xususiyatlarga, sifatlarga ega bo‘lib, ular bir-biridan odamning xronologik yosh ko‘rsatkichlariga ko‘ra emas, balki shu davrda inson ruhiyatida kechadigan hodisalar, ro‘y beradigan o‘zgarishlar uning ruhiyatidagi umumiy qonuniyatlarga binoan ham farqlanishi ta’kidlangan. Bolalar qalbini badiiy tadqiq etish, bolalikni badiiyat ko‘zgusida butun borlig‘icha aks ettirish, aniqrog‘i, bola dunyoqarashi, botiniy va zohiriyl takomillashuvi hamda ijtimoiy-axloqiy jihatdan shakllanish pillapoyalarini ko‘rsatishni maqsad qilib belgilagan adabiyotijodkordan o‘z o‘quvchisining yosh xususiyatlari, ruhiyati, saviyasi va qiziqishlarini nazarda tutishni talab etadi. Shunga ko‘ra bolalar kitobxonligida quyidagi uch asosiy bosqich o`zaro tafovutlanadi:

- 1) 2 yoshdan 6-7-yoshgacha – maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar kitobxonligi;
- 2) 7-yoshdan 11-12 yoshgacha – kichik maktab yoshdagi bolalar kitobxonligi;
- 3) 12-13 yoshdan 16-17 yoshgacha – o’smirlar kitobxonligini tashkil qiladi.

**Maktabgacha ta’lim(tarbiya) yoshidagi bolalar kitobxonligi xususiyatlari** L.N.Tolstoyning quyidagi san’atkorona bahosi bilan yaqqol oydinlashadi: “Axir men hozir nimalarda yashayotganimni o’shanda kashf qilmaganmidim? – deya xotirlagandi u yetmish yillik umriga sarhisob qila turib. –Shuncha ko‘p, shuncha tez kashf etgan narsalarimning yuzdan birini ham, qolgan butun umrim davomida kashf eta oldimmi? Aslo! Besh yashar boladan mengacha – faqat bir qadam, yangi tug‘ilgan chaqaloqdan besh yashar bolagacha – dahshatli masofa!”. Lev Tolstoy fikrlaridan bolalar dunyosini idrok qilish, his-tuyg‘u, o’lchovlari va qiziqishlarini ulardek anglash kattalar uchun naqadar og‘ir va mas’uliyatli ekanligi anglashiladi. Yoki, Korney Chukovskiyning mashhur “Ikkidan beshgacha” asarida ham aynan shu yoshdagi bolalarning o’ziga xos olami tadqiq etilgani bejiz emas. Muallif insondagi ko`pgina fazilat va qirralar, qobiliyat va qiziqishlar, tasavvur va tushuncha aynan 2-5 yoshlik davrida to‘la namoyon bo‘lishini

qator misollar tahlili orqali isbotlaydi. Zotan, umr ibtidosidayoq so‘z san’ati sehri bilan tarbiyalanish beqiyos ijtimoiy-estetik qimmat kasb etadi. Aslida ham xalq ijodiyotidagi erkalamalar, ovutmachoqlar, qiziqmachoqlar, ertaklar va aytim-olqishlar shunday vazifani ado etib kelgan. Murg‘ak bolani so‘z ohangida erkalash, ardoqlash ular ruhiyatida o‘zgacha ta’sir etishi folklorshunos, psixolog va pedagoglar tomonidan qayta-qayta ta’kidlanmoqda.

Kichkintoylarda 2-3 yoshidan boshlab so‘z o‘rganish, so‘zni anglash va aytish ehtiyoji jiddiy tus oladi. Ular 3 yoshda 1200-1500 so‘z bilsa, 4-5 yoshda 2500 tacha so‘zni o‘z nutqida faol qo’llaydi. Bola hech qanaqa grammatik qoidadan xabarsiz holda so‘zlarni mantiqan to‘g‘ri aloqaga kiritib, o‘z fikri va istagini bildira oladi, hatto o‘zicha so‘z yasab, uni ifodalagan bo‘ladi, shu tariqa o‘z lug‘atini aks ettiruvchi tili yuzaga keladi. Xuddi shunday bir vaziyatda bolaga hayvonlar, qushlar va hasharotlarning yorqin rasmlari, ularga daxldor voqelikni ifodalovchi voqeaband rasmlardan tashkil topgan pishiq kartondan ishlangan animal kitoblar, hayvonlar haqidagi ertaklar mazmunini aks ettiruvchi dekorativ, kesma yoxud yig‘ma kitobchalar berilmog‘i lozim. U bunday rangli kitobchalarni o‘zi ochib varagqlamog‘i, rasmlariga qarab, tasvirdagi narsalarning holatini, rangini, shaklini, a’zolarini, aytmog‘i, yoxud kattalar yordamida shularni o‘rganib qayta so‘zlamog‘i shart. Bunday kitobchalar bolada hajm, shakl va rangni his qilishda ham muhim rol o‘ynaydi. Xususan, “O‘zing bo‘ya” ruknidagi kontur suratli kitobchalar bu jarayonni yanada faollashtiradi, bolalar bu kitoblarni bo‘yab turib konturda ifodalangan ma’nolarni, shakllar va ularning ranglar garmoniyasida o‘qib idrok qiladigan bo‘ladilar. Bu holat ularda so‘zga, so‘zlashga rag‘batni yanada kuchaytiradi. Shuningdek, har bir jumlaning jarangdorligi, musiqiyligi, ertaklarni rolli va didaktik o‘yinlar orqali, she’rni esa qo‘shiq qilib ayta olishi muhim. Zero, bolalar adiblari kitobxonlikning bu davriga alohida e’tibor qaratmog`i, ularning til va nutq boyliklari, quvnoqlikka moyil tabiatini inobatga olishi g‘oyat zarur. Rost, maktabgacha tarbiya yoshidagi bola o‘zi qiziqqan ertak yoki she’rni, hikoyani tanlash imkoniyatiga ega emas. Ammo tanlab eshitila oladi. Zukko ota-onalar, maktabgacha ta’lim muassasalarining pedagoglari kichkintoy ko‘zidagi hayrat, quvonch yoki o‘ychanlikni ilg‘ay biladi. Aytaylik,

Z.Diyorning “Kapalak”, “To‘p”, “Suv bilan suhbat”, Sh.Sa’dullaning o‘yinchoqlar tilidan aytiluvchi “Ayiq”, “Buzoq”, “Toychoq”, “Uloqcham” she’rlari shu ma’noda kichkintoylar tilidan tushmay keladi. Bunday she’rlarda 2-6 yoshli kichkintoylarning fe'l atvori (kapalakni quvlashi, suv bilan suhbatga kirishishi, o‘yinchoqlar tilga kirib, unga arz qilishi ), nutqi (“jiyron toy Cham”, “o‘ynab-kishnab”, “suzoq” ) ohangi aks etgani, ular sho‘xligiga mos ifodalar (kapalak, buzoq, toychoq, sharqiroq soy, to‘p, uloqcha...) bilan tasvirlangani, qolaversa, so‘z va qofiyalarning aniqligi (buzoqsuzoq) diqqatga sazovor . Shunga o‘xshash S.Barnoyevning “Feruza aytgan qo‘sish” she’ri zamondosh kichkintoylar kuylab kelayotgan qo‘sish hisoblanadi:

Quyosh bo‘lsin, oy bo‘lsin,

O‘zbekiston boy bo‘lsin.

Menga atlas, ukamga

Gijinglagan toy bo‘lsin

. Dadam yuzga kirsinlar,

Oyim yuzga kirsinlar,

Bizlar yuzga kirganda

Yonimizda yursinlar.

She’rda katta-yu kichikning samimiyl tilagi bor. U juda sodda, o‘ynoqi ohangda bitilgan. Ayni paytda jajji qizaloq oila farovonligini istayotirki, bunda osmon-u zamin tinchligi bilan birga milliylik (atlas) hamda yurt tinchligi, ota-bobolar an'analariga sodiqlikning (“gijinglagan toychoq”) umrboqiyligi ko‘zlanayotir. Kichkintoylar shunday she’rlarni kuylab ulg‘aysa, albatta, uning mazmun- mohiyati ham qulog‘iga singib boradi.

Yoki R.Farhodiyining “Tonggi so‘z” hikoyasida qator taqlid so‘zlar ishlatilgani e’tiborga loyiq. Ya’ni, “Miyov-miyov!”, “G‘uv-g‘uv”, “Chiriq, chiq-chiriq!”, “Vov-vov-vov!”, “G‘oq-g‘oq-g‘oq!”, “G‘a-g‘a-g‘a!” – bular tongda uyg‘ongan Ahmadning yo‘lda uchratgan do’stlari – mushuk, shamol, Qoplon, g‘oz va o‘rdaklarning erta tongda aytgan so‘zları – “Assalomu-alaykum!” – degani ekan. Darhaqiqat, bunday hikoyalar jajji kichkintoylarga estetik zavq berish bilan birga tarbiyaviy vazifaga ham ega. Shu sababli kichkintoylarga bag‘ishlangan she’r va hikoyalar ularda hayotni anglash, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, mavhum tushunchalarining

reallashuvi, so‘z boyliklarining muttasil boyib borishiga xizmat qilishi asosiy tamoyillardan hisoblanadi.

**Kichik maktab yoshdagি bolalar kitobxonligи** ham o‘ziga xos tafovutlarga ega. Chunki bu yoshdagи bolalarning ichki olami nihoyatda boy. Ular hali ko‘p narsani bilmasa-da, lekin bilishdan iborat ma’naviy ehtiyoj jarayonini boshdan kechiradi. “Bolalarga o‘zlarini sezgan va o‘ylaganlarini gapirib berish g‘oyat qiyin, chunki ularni so‘zda ifodalashga to‘g‘ri keladi”, – deb yozgan edi Yanush Korchak taxallusi bilan butun dunyoga tanilgan polyak adibi Genrika Goldshmit. – Bundan ham og‘irrog‘i esa yozish. ...lekin bolalar shoир va faylasufdirlar.”

Anglashilishicha, adiba o‘zining pedagogik tajribasi, bolalar shifokori sifatidagi bilimi, betakror yozuvchilik iqtidori orqali bolalik dunyosining ko‘pgina sir-asrorlarini ilg‘ay olgan; xususan, bola qalbining erkinligi qushga, kapalakka va gulga qiyoslanishini, hamchunin ular o‘zlariga jonivorlar, hasharot-u hayvonlarni aka-uka, yoxud, tengqur do‘sdek tutishini ta’kidlaydi. Chindan ham shunday. Bolalar tabiatidagi “shoирlik”– ularning hamma narsadan hayratlanishlari, har bir hodisadan hayajonlanishlari bo‘lsa, “faylasuflik”– hayratni va hayajonni qo‘zg‘agan shu narsalar va hodisalarning asl mohiyatiga qiziqishlaridir. “Bu nima?”, “Bu nega bunaqa?”, “U nima deydi?”, “U nega katta yoki nega kichik?”, “U qanday o‘sadi?”, “Nega qattiq?”, “Nega yumshoq?”, “Suv nega qotadi?”, “Quyosh qanday qizitadi?”, xullas, shu xildagi sanoqsiz savollar bu yoshdagи bolalarning qiziqishlari hosilasi bo‘lib, ana shu savollarga topgan va topolgan javoblari – olamni o‘zlashtirish yo‘llaridir. Olam ular uchun jumboqqa aylanarkan, ularning o‘zlarini ham “nimavoy”ga aylanishlari tabiiydir. Shu ma’noda, rus bolalar yozuvchisi N.Nosov yaratgan Pochemuchka ( yoki, Nimavoy – o‘zbek tilida Bilmasvoy tarzida tarjima qilingan) –bu yoshdagи bolalarning umumlashma obrazi darajasiga ko‘tarilgan. Bunday umulashma obrazni Q.Muhammadiyning “Tabiat alifbesi” turkumiga kiruvchi lirik qahramon timsolida ham ko‘rish mumkin. U ham butun vujudi bilan “Yong‘oqni nega yong‘oq deymiz?”, yoki “Yong‘oqning qobig‘i nega qattiq?”, “Olcha negaqip-qizil?”, “O‘rik nega sarg‘ayib pishadi?”, “Jiydaning shoxi nega egik?”, “Shaftolining bargi nega achchiq?”, “Sada nega meva qilmas?”, “Dada, bog‘bon nega tokni qirqib

turadi?”, yoki, “Tok daraxti bir xil-u uzumlari nega har xil?”, “Mol nega kavsh qaytaradi?”, “Chittak nega chittak?” singari son-sanoqsiz savollarga aylangan. Q.Muhammadiy bu savollarga poetik javob berish maqsadida nima to‘g‘risida asar yaratmasin, nima haqda gapirmasın, doim o‘sha narsadan 22 inson hayotini ko‘zda tutib, ma’no izlaydi. Shoir shu ma’noni topadi ham. Bu ma’no doim bolalarning hayotdan oladigan birlinchi taassurotlarini izohlaydi, uning dunyoqarashi shakllanishiga xizmat qiladi. Eng muhimmi, bolada insonni sevish, kasb-u koriga rag‘bat bilan qarash, shu asosda hayotni anglash va sevish tuyg‘usini ardoqlab o‘siradi. Bu yoshdagи bolalar folkordan kengroq bahramand bo‘la boshlaydilar: tez aytishlar mashqi bilan nutq tovushlari talaffuzini ravonlashtirsalar, chandish o‘ynab so‘zlar ohangdoshligini idrok qiladilar; guldur-guplar vositasida so‘z va harakat uyg‘unligini his etsalar, topishmoqlarni yechish jarayonida zehnlarini charxlay boradilar. Hayvonlarga oid ertaklarga qiziqishlari sehrifantastik va hayotiy-maishiy ertaklarga omixtalashib, ular hisobiga to‘lisha boradi va xayollariga parvoz bag‘ishlay boshlaydi. Hayotiy-maishiy ertaklarni o‘qish jarayonida real hayot hodisalariga qiziqishlari uyg‘ona boradi. Ertakka bu xildagi ma’naviy chanqoqlik turli xalqlar ertaklarini ham, shuningdek, yozma adabiy ertaklarni ham sevib o‘qishga chog‘laydi: Sharl Perro, aka-uka Grimmlar, Hans Kristian Andersen, P.Yershov asarlarini, ayniqsa, bolalarga moslashtirib tabdil qilingan E.Rapsenning “Baron Myunxauzenning sarguzashtlari”, shuningdek, A.Tolstoyning “Oltin kalit yoki Buratinoning boshidan kechirganlari”, Leonid Solovyevning “Nasriddin afandi sarguzashtlari”, Sh.Sa’dullaning “Yog‘och qo‘g‘irchoq yoki Kachal polvon sarguzashtlari” ertak-qissalarini, Turg‘unboy G‘oyibovning adabiy-nasriy ertaklarini zavqu shavq bilan o‘qiydilar. Multfilmlarga va qo‘g‘irchoq teatri spektakllariga o‘chliklari zamirida ham aslida ertakka ehtirosli qiziqishlari yotadi. Ayni paytda ham bunday asarlarning ahamiyati pasaymagan. Shu bilan birga, o‘sib kelayotgan yosh avlodni endilikda ko‘proq mantiqiy bilimlar, insonning ruhiy kechinmalari, tabiat va jamiyat munosabati masalasi qiziqtirayotgani sir emas. R.Tolibning “Kim baxтиyor?” she’ri shu ma’noda kichik mакtab yoshidagi o‘quvchilar tabiatiga monand:

O‘tirib goh Mirjalol,  
O‘zicha surar xayol:  
“Bobom qanday baxtiyor?  
O‘zlarida ixtiyor,  
Birov bermaydi tanbeh.  
Yanglishalar hamki ... eh,  
Doim hurmatda bobom.  
Hamma beradi salom,  
Joy tayyor, dimog‘i chog‘,  
Avtobusga chiqqan chog‘  
“Bobomlarga maza xo‘p,  
Uxlaydilar rosa ko‘p.  
Xunob bo‘lib erta-kech,  
Misol yechmaydilar hech.

O‘zicha aytar bobo:  
“Alam qilarkan goho,  
Ko‘z xira oyoq og‘rir,  
Keksalik ekan og‘ir.  
Yaxshi emas ishtaham,  
Unum yo‘qdir ishda ham,  
Tunbo‘yi kelmay uyqu  
Bosar keksalik, qayg‘u.  
Qani, endi bo‘lsam yosh,  
O‘tirmasdim qashlab bosh.  
Kuchi, sog‘liqlari bor,  
Yoshlar qanday baxtiyor?”

She’rda inson umrining ikki qarama-qarshi qutblari – keksalik va yoshlik yuzma-yuz kelgan. Shoir keksalikni dastlab, zohiriyligi jihatlarinigina bola tasavvuri orqali aks ettiradi. Bu kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga xos bo‘lgan uyquni yaxshi ko‘rish, arifmetik misol va masalalardan xunob bo‘lish, shumtakaliklari uchun dakki yeyaverish kabilar bilan muvoziy qo‘llanib, tasvirdagi aniqlikni ta‘minlay olgan. Bobo o‘ylari orqali esa umr poyonidagi botiniy kechinmalar, qarilikning o‘ziga yarasha tashvishlari his qilinadi. Yosh kitobxon bobo va nevara xayolidan ogoh bo‘lgach, keksalarni ko‘proq e‘zozlash zarurligi, haqiqiy baxtiyorlik esa yoshlikda ekani, “bosh qashlab” o‘tirmay, bilim olish, izlanish zarurligini anglaydilar.

Umuman, kichik yoshdagagi o‘quvchilarni ham davr taraqqiyotining barcha muammolari, mavzulari qiziqtiradi. 8-11 yoshli bolalar, xalq nasri va adabiy ertaklar, tabiat, Vatan, vatanparvarlik, ota-onaga muhabbat, axloq-odob va kitob o‘qishga da‘vat ruhidagi asarlar bilan birga, insonni teranroq o‘rganishga oid she’r va hikoyalarni katta qiziqish bilan o‘qiydilar. Binobarin, o‘zbek bolalar adabiyoti tarixida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar kitobxonligini G‘.G‘ulom, H.Olimjon, S.Jo‘ra, Z.Diyor, Q.Muhammadiy, Sh.Sa‘dulla, I.Muslim, A.Rahmat, Q. Hikmat, P.Mo‘min, T.Adashboyev, M.A’zam, A.Obidjon va boshqalarning quvnoq she’r va qo‘shiqlari, dostonlari va she’riy ertaklari; H. Nazir, X.To‘xtaboyev,

N.Fozilov, M.Osim, T.Malik, H.Shayxov, S.Barnoyev, F.Musajon, O.Husanov va boshqalarning hikoya, qissa hamda romanlari tashkil etib keldi. Istiqlolga erishgach, bu yoshdagi kitobxonlarga, ayniqsa, vatanparvarlik va Vatan tarixi haqidagi badiiy asarlar behad zarurligi, xorijdagi tengqurlari hayoti haqidagi asarlar ham alohida qiziqish uyg‘otishi yaqqolroq anglandi. Bu jihatdan ham o‘zbek bolalar adabiyoti namunalari hisoblangan “Qonli barmoqlar”, “Zafar va Zahro” (Oybek), “Dunyo bolalari” (A.Muxtor), “Afg‘on hikoyalari” (S.Barnoyev) qatorida mashhur italyan bolalar adibi Janni Rodarining “Chipollinoning boshidan kechirganlari”, “Jelsomino yolg‘onchilar mamlakatida”, “Muzqaymoqdan qurilgan shahar”, shved bolalar adibasi Astrid Lindgrenning “Mittivoy va tomda yashovchi Karlson haqida ikki qissa”, polyak adibi Yanush Korchakning “Qirol Matiush birinchi”, shuningdek, qardosh xalqlar bolalar adabiyotlarining eng sara namunalari alohida qimmat kasb etadi. Bu xildagi asarlar bolalarning olam va odam haqidagi bilimlarini rivojlantiradi, lug‘at boyligini oshiradi, dunyoqarashining shakllanishiga, insoniy fazilat tarkib topishiga, shaxs xarakterining toblanishiga ta’sir ko‘rsatadi, nihoyat, badiiy adabiyot ular uchun chinakam “hayot darsligi”ga aylana boradi.

**O‘smirlar kitobxonligi** esa o‘quvchilarning shu yoshdagi ruhiyatiga monand ancha murakkab. O‘smirlilik insonning bolalikdan kattalar olamiga o‘tayotgan va aytish mumkiinki, nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi davridir. Bu bolaning 5-6-sinfda o‘qish paytlariga to‘g‘ri kelib, 13 yoshdan 16-17 yoshgacha bo‘lgan davr oralig‘ida kechadi. Ayrim bolalarda bu 1-2 yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin. O‘smirlilikda rivojlanishning fiziologik, biologik, aqliy, ijtimoiy-tarbiyaviy jihatdan to‘lisha borishi ko‘zga tashlanadi. O‘smirlar o‘z ideallari (mutlaq ijobiy)ni orzu qilib, uni o‘zlarida ro‘yobga chiqarishni xohlaydilar. Bu yoshda biror kasb yoki hunarni egallahsga qiziqish va intilish paydo bo‘ladi. Muhibi, o‘smir o‘zini tarbiyalashda kitob, kinofilm qahramonlaridan andaza oladi. Shunday ekan, o‘smirlarga mo‘ljallangan badiiy adabiyotning vazifasi ham o‘ta mas’uliyatli va serqirradir. Unutmaslik kerakki, o‘smirlilik inson hayotining ajoyib pallasi, shaxs sifatida shakllanishining asosi. O‘smirning aqliy kamolotga yetishuvni muhim o‘ringa ega. Ularning o‘z fikrini aniq ifodalashga yo‘naltirish, mustaqil mulohaza

yuritish ko'nikmasiga ega bo'lish, qolaversa, bu jarayonni anglab yetishlarida badiiy ijodning ta'siri diqqatga sazovor. Xususan, Oybek, A.Qahhor, M.Osim, N.Safarov, O.Muxtor, T.Malik kabi yetuk adiblarning biografik va avtobiografik qissalari, esse hamda hayotiy hikoyalari bu jarayonda dasturulamal bo'la oladi. O'smirlardagi ulkan ma'naviy ehtiyoj va shaxs sifatida kamol topish zaruratini o'z vaqtida payqagan M.Gorkiy XX asrning 30-yillarida "Mashhur kishilar hayoti" ruknida badiiy-biografik asarlar ijod etish tashabbusi bilan chiqqan edi. Shu munosabat bilan mashhur yozuvchi, olim, bastakor, harbiy sarkarda, mohir hunarmandlar-u jahon urushi va mehnat qahramonlarining hayoti, ijod yo'li badiiy-tadqiqiy namunasi bo`lgan yuzlab asarlar yaratildi. Yakunlangan asrning yetmishinchi yillariga kelib, bu ruknida asarlar ijod etish an'anasi o'zbek ijodkorlari faoliyatida ham ko'rina boshladи. Endilikda Aziz Qayumovning "Alisher Navoiy", "Abu Rayhon Beruniy", "Abu Ali ibn Sino"; Laziz Qayumovning "Hamza"; Naim Karimovning "Hamid Olimjon", "Oybek", "Cho'lpon", "Usmon Nosir"; Adham Akbarovning "G'afur G'ulom"; Ozod Sharafiddinovning "Abdulla Qahhor"; Bo'riboy Ahmedovning "Mirzo Ulug'bek", "Amir Temur"; Otayorning "Mirtemir", "Islom shoir"; Habib Karimovning "O'ral Tansiqboyev" singari asarlari shu yo'nalishdagi izlanishlarning samaralari bo'lib, o'zbek voqeligini ilmiy-ma'rifiy asosda badiiy tadqiq etganligi bilan e'tibor qozonib borayotir. Bunday asarlar o'smirlarni insonparvarlik, tarixiy qadriyatlarga muhabbat ruhida tarbiyalaydi, ularning kasb tanlashlariga ko'maklashadi, ajdodlar jasoratidan iftixor qilish tuyg'ularini o'stirib, chinakam vatanparvar inson sifatida kamol topishlariga ta'sir ko'rsatadi.

Binobarin, o'smirlik ham jismoniy, ham ma'naviy-axloqiy balog'atga yetishuv bo'sag'asi ekan, qahramonlar xatti-harakati orqali shu yoshdagi o'quvchilarga ibratli saboq berish – ularga mo'ljallangan kitoblarning asosiy vazifasidir.

Albatta, yangi ming va yuz yillikda o'smirlar kitobxonligi arsenali bundan-da ortib borishi, jahonga mashhur mumtoz va o'zbek adiblarning tarixiy, detektiv, biografik roman va qissalarini, esse hamda she'riy asarlarni, ilmiy-ommabop kitoblarni mutolaa qilishlarini taqozo etayotir. Shuningdek, ular endi bolalar adabiyoti bilan cheklanib qolmay,

umumadabiyot xazinasidan keng bahramand bo‘layotirlar. Bugungi o‘smir P.Qodirovning “Yulduzli tunlar”, “Avlodlar dovoni”, M.Osimning “Karvon yo‘llarida”, “Zulmat ichra nur”, “Ibn Sino qissasi”, O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” singari tarixiy, biografik roman va qissalarni o‘qimay turib, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Ulug‘bek, A.Navoiy, Bobur kabi ulug‘ ajdodlar hayot yo‘lini to‘liq tasavvur qila olmaydilar. T.Malikning “Alvido bolalik”, “Shaytanat” qissasi ham ularga jamiyatda shaxsning shakllanishidagi muhim omillaridan saboq berishi uchun g‘oyat zarur. Shuningdek, X.To‘xtaboyevning “Mungli ko‘zlar”, “Jannati odamlar”; O‘.Hoshimovning “Ikki eshik orasi”, “Urushning so‘nggi qurbanisi”, “Dunyoning ishlari” kabi asarlari, M.Yusuf, A.Oripov, E.Vohidov she’rlari ham o‘smirlar qo‘lidan tushmay kelayotir. Bu shundan dalolat beradiki, o‘smirlar kitobxonligida asosan ikki yo‘nalish ko‘proq kuzatiladi:

Ikkinchidan, o‘smirlarning bugungi intilishlari, qiziqishlariga mutanosib asarlar maxsus yaratilmayotganidan, ular umumadabiyot namunalarini katta qiziqish bilan o‘qimoqdalar. Bunda yuqorida zikr etilgan asarlar, shuningdek, jahon adabiyotining namunalari sujeti, mavzusi dolzarbligiga ko‘ra o‘smirlar e’tiboriga ko‘proq sazovor bo‘layotir.

### **Abdulla Avloniy**

Avloniy 1878-yil 12-iylida Toshkentda Mergancha mahallasida to‘quvchilar oilasida tug‘ilgan. Oilasidagi moddiy yetishmovchiliklar sababli bolaligidan suvoqchilik, g‘isht quyish, pechkachilik, binokorlik, duradgorlik kabi kasblar bilan shug‘ullangan. Bularning ortidan „Imoratchi usta“ degan nom oladi. U tarjimai holida bu haqida shunday yozgan: "12 yoshimdan O‘qchi mahallasidagi madrasada dars o‘qiy boshladim. 13 yoshimdan boshlab yoz kunlari mardikor bo‘lib ishlab, oilamga yordam qilib, qish kunlari o‘qir edim. 14 yoshimdan boshlab, o‘sha zamonga muvofiq har xil she’rlar yoza boshladim. Bu zamonlarda „Tarjumon“ gazetasini o‘qib, zamondan xabardor bo‘ldim". O‘qchidagi eski maktabda, so‘ng madrasada o‘qigan (1885—1895). Madrasani bitirib, maktabdorlik bilan shug‘ullandi. Orenburg, Qozon, Tiflisda chiqib turgan gazeta-jurnallarni kuzatib brogan.

Avloniy XX asr boshida jadidchilik harakatiga qo'shildi. Toshkentdag'i jadidlarning faol ishtirokchilaridan biri sifatida tanildi. 1906-yildan she'rlari bilan matbuotda qatnasha boshlagan. Arab, fors, rus tillarini o'rganib, bu tillarda ijod qilgan mutafakkirlarning asarlarini o'qigan, ba'zilari (masalan, Lev Tolstoy, Konstantin Ushinskiy asarlari) ni o'zbek tiliga tarjima qilgan. 1906-yilda „Taraqqiy“, 1907-yilda o'z uyida „Shuhrat“ gazetalarini chiqargan. Bu gazetalar yopib qo'yilgach, 1908-yilda yashirin ravishda „Osiyo“ gazetasini nashr etdi. 6-sonidan so'ng hukumat bu gazetani ham taqiqlab qo'ygan. Avloniy birinchi bo'lib kimyo, geografiya, fizika va astronomiya fanlarini maktabda o'qitish taklifini beradi. Ilg'or g'oyalarni maktab orqali xalqqa tarqatishga harakat qildi: Toshkent shahrining Mirobod mahallasida mahalliy aholi bolalari uchun yangi usul maktabi o'chib (1908), o'zi ona tili va adabiyotdan dars berdi. 1909-yilda „Jamiyat xayriya“ tuzib, yetim bolalarni o'qitgan. Shu yili „Adabiyot yoxud milliy she'rlar“ nomli to'rt qismdan iborat she'riy to'plamining birinchi juz'ini nashr ettirgan. 1912-yilda Avloniy Toshkentning Degrez mahallasida ikki sinfli maktab ochgan. Bu maktabda dunyoviy fanlar o'qitilishi bilan maktabxonalaridan farq qilgan.

Avloniy yangi maktablar uchun qo'llanma va o'qish kitoblar yozib, nashr qildirgan (masalan, „Birinchi muallim“, 1911; „Ikkinchi muallim“, 1912; „Turkiy guliston yoxud axloq“, 1913; 4 juzd (qism) li „Adabiyot yoxud milliy she'rlar“ to'plami, 1909—1915; „Maktab gulistoni“, 1915; „Mardikorlar ashuvlasi“, 1917 va boshqalar). Munavvarqori, Muhammadjon Podshoxo'jayev, Tavallo, Rustambek Yusufbekov, Nizomiddin Xo'jayev, Shokirjon Rahimi kabi taraqqiyichilar bilan birgalikda „Nashriyot“ (1914), „Maktab“ (1916) shirkatlarini tashkil etgan. Avloniy xalq ongini oshirish uchun teatr san'atidan ham foydalangan. U 1913-yilda „Turkiston“ nomli teatr truppasini tashkil etishda va uning ishida faol qatnashgan. 1910—1916-yillarda bir qancha sahma asarlarini tarjima qildi va o'zi sahnalashtirdi. Avloniyning sahma asarlari Toshkent, Farg'ona, Andijon, Qo'qon, Xo'jand kabi shaharlarda qo'yilgan. Bu asarlarda XX asr boshlaridagi Turkiston hayotining keng manzaralari o'z ifodasini topgan. Avloniy truppasida Mannan Uyg'ur tarbiya topgan; truppa bilan Hamza, Ozarbayjon dramaturglari Uzayr Hojibekov, Ruhullo hamkorlikda bo'lgan.

Oktyabr inqilobidan keyin xalqqa va'da qilingan erkinlikning berilmaganligi shoir ijodida tushkunlikning paydo bo'lishiga olib keldi („Xafalik soatda“ she'sri, 1919).

Avloniy 1917-yilda „Turon“ gazetasini nashr qildi. Gazetasida siyosiy va ijtimoiy voqealar yoritilgan. 1918-yilda Avloniy „Ishtirokiyun“ gazetasini tashkil etishda qatnashdi va uning muharriri bo'ldi. 1919—1920-yillarda Sho'ro hukumatining Afg'onistonidagi siyosiy vakili[6] va konsuli. Afg'oniston xalq ta'limi vaziri. „Kasabachilik harakati“ jurnali bosh muharriri (1921). 1921-yildan Avloniy maktablar ochish, xalqni savodxon qilish, o'zbek xotin-qizlarini o'qitish, o'qituvchilar va ziyoli kadrlar tayyorlash ishlari bilan shug'ullandi. U 1923—1924-yillarda Eski shahardagi xotin-qizlar va erlar maorif bilim yurtlari (inproslar) da mudir, 1924—1929-yillarda Toshkent harbiy maktabida o'qituvchi, 1930—1934-yillarda O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) da til va adabiyot kafedrasi mudiri, professori. Shu davrda u o'zbek maktablarining 7-sinfi uchun „Adabiyot xrestomatiyasi“ tuzib, nashr ettirdi (1933). .Avloniy 1895-yildan Hijron, Nabil, Indamas, Shuhrat, Tangriquli, Surayyo, Shapaloq, Chol, Ab, Chig'aboy, Abdulhaq taxalluslari bilan tanqidiy va ilmiy maqola, 4000 misradan ortiq she'r ijod qilgan.

Asarlari: „Advokatlik osonmi“ (1914), „Pinak“ (1916), „Biz va siz“ (1917), „Portugaliya inqilobi“, „Ikki muhabbat“, „Bo'ron“ kabi pesalari, „Tulki ila qarg'a“ masali, „Mardikorlar ashulasi“, „Vatan“ (1916), „Maktab“, „Bog'cha“, „Yalqov shogird tilidan“, „Tog'lardan bir manzara“, „Millatga xitob“, „Ishchilara tortuq“, „Ko'klam keldi“, „Tovush“ kabi she'rlari, „Maqsad va maslak“ (1908-yil 9-aprel), „Holimizga doir“ (1908-yil 14-fevral) kabi maqolalari, „Hasad balosi“ majoziy hikoyasi va boshqalar.

Avloniy Toshkentda 1934-yil 25-avgustda 56 yoshida vafot etgan va Botkin ko'chasidagi qabristonga dafn qilingan.

1927-yilda Mehnat Qahramoni unvoniga sazovor bo'lgan. 2020-yilda „Buyuk xizmatlari uchun“ ordeni bilan taqdirlandi.

#### Xotira

Avloniy qatag'on qilinmagan, xalq dushmani sifatida qoralanmagan bo'lsa-da, lekin 1966-yilgacha uning ijodi o'rganilmagan. O'limidan so'ng

asarlari chop etilmagan. Uning ijodini Begali Qosimov tadqiq etgan va „Abdulla Avloniy“ asarini yozgan. 1968-yilda Avloniy yodgorlik uy-muzeyi tashkil etilgan. Toshkentda Avloniy nomidagi ko‘cha, 2 ta mahalla, madaniyat uyi, miliy-tadqiqot intituti mavjud. 2019-yilda Avloniying Afg‘onistondagi missiyalari tog‘risida hikoya qiluvchi „Avloniy“ filmi premyerasi bo‘lib o‘tgan. Shoир Muhammad Ali o‘zining „Boqiy dunyo“ (1979) she’riy romanida Abdulla Avloniyni asar qahramonlaridan biri sifatida tasvirlagan. Toshkentdagи Adiblar xiyobonida Avloniy haykali o‘rnatilgan.

### **Hamza Hakimzoda Niyoziy**

Hamza Hakimzoda Niyoziy (6-mart, 1889-yil, Qo‘qon, Qo‘qon uyezdi, Farg‘ona viloyati, Turkiston general-gubernatorligi, Rossiya imperiyasi – 18-mart, 1929-yil, Shohimardon, Farg‘ona viloyati, O‘zbekiston SSR, SSSR) — o‘zbek sovet adabiyotining taniqli namoyandasи, shoир, yozuvchi, pedagog, teatr va jamoat arbobi. O‘zbekiston SSR xalq yozuvchisi (1926-yil)[]. Birinchi o‘zbek dramaturgi va zamonaviy o‘zbek musiqa shakllarining asoschisi. U G‘afur G‘ulom, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy va Mahmudxo‘ja Behbudiyilar bilan bir qatorda zamonaviy o‘zbek adabiyoti ilk rivojining yetakchi namoyandalaridan biri sifatida ko‘riladi. Hamza ijodini 1905–1906-yillarda boshlagan.

Niyoziy dastlab maktabda, keyin madrasada tahsil olgan. Kogonda matbuotda ishlagan. Toshkentga kelib, 1910-yili usuli jadid maktablarining o‘quv dasturi bilan tanishgan va shunday maktablarni dastlab Qashqardarvoza mahallasida, keyin 1911-yil Qo‘qon shahrining Hojibek guzarida va 1914-yil Marg‘ilonda ochgan. Bolalar uchun „Yengil adabiyot“, „O‘qish kitobi“, „Qiroat kitobi“ kabi kitoblar yozgan. 1913–1914-yillarda chet ellarda bo‘lgan.

Niyoziy o‘zbek tilidan tashqari boshqa ko‘plab tillarni, jumladan arab, fors, rus va turk tillarini ham bilgan. Uning asarlari, odatda, ayollar huquqlari, ijtimoiy tengsizlik va xurofotning tarqalishi kabi ijtimoiy muammolarga bag‘ishlangan. Niyoз Hamza Hakimzoda Niyoziy 1889-yil 6-martda Qo‘qon shahrida tabiblar oilasida tug‘ilgan. Solkashon mahallasidagi eski maktab va madrasada (1896–1906), keyin 8 oy davomida

Namangan madrasasasida (1908) tahsil olgan.

Hamzaning otasi Ibn Yamin Niyoz o‘g‘li ham o‘z zamonining savodli kishilaridan bo‘lgan. Yoshligida dehqonchilik bilan kun kechirgan, so‘ngra Buxoroga borib tabiblikni o‘rganib kelgan, xalq orasida „hakimcha“ laqabi bilan tanilgan. Hamzaning „Hakimzoda“ taxallusi otasining shu laqabidan olinganiy Shohimardonda vafot etgan.

Uning xotirasini abadiylashtirish maqsadida 1967-yilda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasi adabiyot, san’at va me’morchilik sohasidagi ulkan yutuqlarni e’tirof etish maqsadida Hamza nomidagi Davlat mukofotini ta’sis etdi. O‘zbekistondagi ko‘plab muassasalar, jumladan, Toshkent metropoliteni bekatlaridan biri, uchta teatr, bir qancha maktab va ko‘chalar uning nomi bilan atalgan.

1909-yilda O‘rta Osiyo musulmonlari madaniyatining o‘scha paytdagi markazi bo‘lgan Buxoroga boradi. U yerda Hamza mashhur ustozи Ikromchi-domla bilan arab tilini to‘liq o‘rganib tugatmoqchi bo‘lgan, ammo Hamzaning rejalar buxorolik sunniylar va shaharda yashovchi shialar o‘rtasidagi nizolar tufayli barbod bo‘ladi. To‘qnashuvlarda qatnashmaslik uchun Hamza shaharni tark etadi. Bir oyga yaqin Kogondagi bosmaxonada ishlaydi. Keyin 1910-yilda Toshkentga kelib, usuli jadid maktablarining o‘quv dasturlari bilan tanishgan. So‘ng Toshkentning Qashqar mahallasida, 1911-yilda Qo‘qonda, 1914-yilda Marg‘ilonda va yana Qo‘qonda maktablar ochgan, bolalarga dars bera boshlagan. Kambag‘allarning farzandlariga bepul maktab tashkil etgan. Yangi usuldagи maktablar ochish va bu maktablar uchun yangi tipdagi o‘quv qo‘llanmalari yaratish yo‘li bilan xalqni ma‘rifatlashtirish maqsadida Qo‘qon va Marg‘ilonda ochgan maktab o‘quvchilari uchun „Yengil adabiyot“, „O‘qish kitobi“ (1914) va „Qiroat kitobi“ (1915) o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlagan.

Qisqa muddat Qo‘qondagi rus-tuzem maktabida o‘qituvchi, „Sho‘roi islom“ tashkilotining ozuqa shu’basida mirza, „Kengash“ va „Hurriyat“ jurnallarida muharrir (1917), Farg‘ona viloyati madaniy-maorif bo‘limida xodim (1918), Turkiston fronti siyosiy boshqarmasi ixtiyoridagi O‘lka musulmon siyosiy truppasida rejissyor (1919), „Dor ushshafaqa“ maktabida mudir (1920). 1920-yil oxirida Buxoroga boradi. Buxoro viloyati maorif va harbiy targ‘ibot-tashviqot shu’basi qoshidagi teatr truppasida rahbar (1921),

1921-yil so‘ngida Toshkentga va undan Xorazmga o‘tadi. U yerda kasaba uyushmasining madaniy-maorif shu‘basida ishlaydi. Xorazmdan Xo‘jayliga borib, 1924-yil iyulgacha o‘zi tashkil etgan qozoq bolalari uchun maktab-internatda faoliyat ko‘rsatadi.

1925-yili Farg‘onaga borib, Shohimardonda kolxoz tuzish, maktablar ochish, xalqning savodini chiqarish ishlari bilan shug‘ullanadi. 1926-yildan erkin ijod bilan shug‘ullangan.

1926-yilda Hamza O‘zbekistonning Xo‘jayli shahrida Sovet Ittifoqidagi birinchi bolalar uyini tashkil etgan, keyinchalik bu joy uning nomi bilan atalgan.

Niyoziy 1917-yilgi bolsheviklar inqilobini qo‘llab-quvvatlagan. Ushbu inqilobdan so‘ng u 1920-yilda Sovet Ittifoqi Kommunistik Partiyasiga (Bolsheviklar) qo‘sildi va boshqa narsalar qatorida Qizil Armiya askarlarining o‘yin-kulgilari uchun teatr qo‘shtinini tashkil qildi. Niyoziy o‘zbek tilidan tashqari boshqa ko‘plab tillarni, jumladan arab, fors, rus va turk tillarini ham bilgan.

Hamzaning adabiy ijodi madrasada o‘qib yurgan kezlarida, 1905–1906-yillarda boshlangan.

Niyoziyning dastlabki asarlarida kuchli sotsial-demokratik yo‘nalishlar va ijtimoiy adolatsizlik keskin qoralangan. Uning asarlarida asosan ayollar huquqlari, ijtimoiy tengsizlik va xurofotning keng tarqalishi kabi istak ijtimoiy masalalari yoritilgan.

Hamza 1908-yilda qo‘shti o‘lkalarda nashr etilgan ilg‘or gazetalar va ulardagi taraqqiyatparvarlik g‘oyalari bilan tanishgan. Ma’rifatli kishilar ta’sirida „milliy she’rlar“ yoza boshlagan.

Hamzaning ijodiga, Fotih Karimiyning „Vaqt“, Ismoil Gaspralinining „Tarjimon“ gazetalari, Rizo Faxriddinning „Sho‘ro“ jurnali, shu qatori, Toshkentda o‘zbek tilida chiqa boshlagan Ismoil Obidiyning „Taraqqiy“, Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘lining „Xurshid“, Abdulla Avloniyning „Shuhrat“ gazetalari kuchli ta’sir ko‘rsatadi[18]. Ushbu yozuvchilar bilan tanishadi, ular ta’sirida jadidchilik harakatiga kelib qo‘shiladi[6]. Jadidchilik harakatining asoschisi bo‘lmish Ismoil Gaspirali vafot etganida Hamza marsiya yozib, „Dod qil davri falaqdin, botdi xurshidi jahon“, deb yozadi. Hamza Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘lini „ma’naviy ustoz“,

„muhtaram ustozi oliv“, deb ataydi. Hamzaning ilk she’rlari va maqolalari mana shu gazeta va jurnallarda bosiladi. Matbuotdagi faoliyatidan tashqari Hamza „Maktab“, „Ilm ista“, „Kitob“, „Qalam“, „O‘qi“, „To‘g‘riso‘z bola“, „Bolaning yomon bo‘lmog‘iga sabab bo‘lgan onaning jazosi“, „Hikoya“, „Toshbaqa va chayon“, „Hikoyat“ singari tarbiyaviy mazmunda bo‘lgan ko‘plab she’rlar ham yozgan.

Hamza shu yili „eski podsholar turmushidan“ olingan „Haqiqat kimda?“ degan „roman“ ham yozgan (bu asar o‘sha vaqtdayoq yo‘qolgan). Hamza 1905-yildan mumtoz shoirlarga ergashgan holda g‘azallar yoza boshlagan[4]. Ba’zi manbalarda esa she’r yozishni 1899-yildan, Furqat va Muqimiy — o‘zbek ma’naviyatshunoslari ijodidan ilhomlanib yoza boshlagani ta’kidlanadi.

Hamzaning inqilob yillaridan oldingi asosiy asari tojik va o‘zbek tillarida yozilgan she’riy „Devon“ (1905–1914) asari vafot etganidan so‘ng nashr qilingan. Hamza ushbu asarni ham „Nihoniy“ taxallusi bilan yozgan. Asarga jami 214 ta she’r kiritilgan. „Devon“ning ba’zi g‘azallarida sharqiy she’riyatga xos muhabbat, diniy tematika orqali ma’rifatga chaqirish kabi mavzular o‘rin egallaydi. Hamzaning ilk nashrdan chiqqan asarlarida ham ushbu mavzular ko‘tarilgan: „Ramazon“ (1914), „Yangi baxt“ dostoni (1915), „Zaharlangan hayot“ (1916).

1914-yilda „Sadoi Turkiston“, „Sadoi Farg‘ona“ kabi ro‘znomalarda, „Oyna“ jurnalida ma’rifatga chorlovchi ocherk va publisistik maqolalari chiqadi. Uning „Bid’atmi, ma’jusiyatmi?“ (1914) ocherki shular jumlasidan edi.

Hamza katta yoshdagagi kishilar uchun „Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi“ umumiy nomi ostida „Gul“ to‘plamlarini e’lon qilgan (1915–1919). Hamza mazkur majmualari (8 bo‘limdan iborat) bilan o‘zbek she’riyatiga yangi mazmun va yangi g‘oyalar olib kirgan va ayniqsa, jadid adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo‘shtigan. To‘plamda Hamzaning inqilobiy-demokratik ma’naviyatshunoslik yo‘lidan inqilob jangchisi tomon o‘tgani bilinadi.

Sinfiylik va partiyaviylik adabiy asarning qimmatini belgilovchi asosiy mezon hisoblangan davrlarda Hamzaning „Boy ila xizmatchi“ pyesasi butunlay qayta yozib chiqilgan. Sotsialistik realizm metodi talablari asosida

„qayta tiklangan“ bu asar uzoq yillar davomida Hamza dramaturgiyasining yuksak namunasi sifatida taqdim etilib kelingan.

1917-yil 25-aprelda „Ulug‘ Turkiston“ ro‘znomasida Hamzaning „Turkiston muxtoriyatina“ nomli she’ri bosiladi. Unda „To‘rt yuz yillik Romanovlar“ sulolasining taxtdan ag‘darilishi va rus-burjua demokratik inqilobining g‘alabasi haqida yozadi.

1903–1904-yillar oralig‘ida yozilgan ko‘plab asarlari 1929-yilda vafotidan keyin topilgan.

Hamzaning 1916- va 1920-yillarda yozilgan „Loshman fojialari“, „Farg‘ona fojialari“, „Boy ila xizmatchi“ kabi asarlari yo‘qolgan. Faqat „Loshman fojialari“ning „Istibdod qurbanlari“ degan qismi va „Boy ila xizmatchi“ dramasining afishasi saqlanib qolgan. Teatrarda qo‘yilib kelgan „Boy ila xizmatchi“ dramasini esa dramaturg Komil Yashin afishada aks etgan mazmun bo‘yicha qayta tiklagan. Bu variantning yuzaga kelishi, ya’ni muallifi tirik bo‘lmagan, asl nusxasi yo‘qolgan asarning boshqa bir inson tomonidan tiklanishi jahon adabiy tajribasida ko‘rilmagan hodisadir. Shoir Miraziz A’zam Komil Yashin Hamza ijodini targ‘ib qilishda qanchalik katta rol o‘ynagan bo‘lsa, uning ijodini buzib ko‘rsatishga ham o‘z hissasini qo‘shganligini ta’kidlagan.

1927-yillarda „O‘zbek xotini tilidan“, „O‘zbek xotin-qizlariga“, „Ozod xotin-qizlar qo‘shig‘i“, „Bu kun — 8-mart“, „Xotin qizlar ovozi“, 1928-yilda esa „Hujum“, „Muborak“, „Uzilgan chechaklar“, „Tursunoy marsiyasi“ kabi she’rlar yozdi.

### Savol va topshiriqlar

1. Bolalar adabiyoti istilohi nimani anglatadi?
2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kitobxonligi haqida nimalarni bilasiz?
3. Kichik maktab yoshidagi bolalarga mo‘ljallangan badiiy asarlar qanday spetsifik xarakterga ega?
4. O‘smlar kitobxonligida qaysi yo‘nalishdagি asarlar yetakchi ahamiyat kasb etadi?
5. A.Avloniy ijodining o‘ziga xos jixati nimada?

6. Avloniy nima uchun yangi usul mакtablarini ochishga harakat qilgan?
7. H.H.Niyoziy qanday asarlar yozgan?
8. H.H.Niyoziyning darsliklar yozishdan va yangi maktablar qurishdan ko'zlagan maqsadi nima edi?

## **6-MAVZU: G'OFUR G'ULOM VA SULTON JO'RA HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI**

### **REJA:**

1. G'afur G'ulom she'riyatida ta'lim-tarbiya motivlari
2. "Shum bola" qissasi-o'zbek adabiyotining yetuk namunasi sifatida
4. Jo'ra hayoti va ijodiy faoliyati
5. Sulton Sulton Jo'raning bolalar uchun yozgan she'rlarining g'oyaviy ahamiyati

**G'afur G'ulom** XX asr o'zbek bolalar adabiyotining tamal toshini qo'ygan faylasuf shoir, benazir adibdir. Uning "Sen yetim ema "Yodgor", "Mening o'g'rigina bolam" kabi talay asarlarini hisobga olmaganda ham o'sha davrdagi butun Turkiston aholisining turmush tarzi, maishati manzaralariga birlgina "Shum bola qissasi folklorga xos falsafiy ruhi, she'riy asarlarga xos jo'shqin hissiyotga boyligi, mayin lirizmga yo'g'rilganligi, tasvirning bo'yoq dorligi bilan adabiyotimizning oltin fondiga kiradi. Badiiy ijodning o'limas qonuniyati- har qanday asarda yozuvchi tarjimayi holining muhim bir qirrasi aks etishi G'afur G'ulom asar lariga ham xos xususiyatadir. Bu holat shoirning "Sen yetim emassan she'ridagi

Yetimlik nimadir

Bizlardan so'ra

O'ninchى yillarning

Sargardonligi,

Isitma aralash

Qo'rinchli tush kabi

Xayol ko'zgusidan

O'chmaydi sira,

Men yetim o'tganman

Oh, u yetimlik

Voy bechora jonim,

Desam arziysi.

Men odam edim-ku Inson farzandi...

kabi lirik chekinish tarzida keltirilgan misralari bilangina belgilan

maydi. "Tirilgan murda" hikoyasining "Otam o'lib maishatim tang likda qoldi" nomli birinchi jumlasidayoq yoxud "Shum bola" qissa sidagi Shum bolaning sarguzashtlari tasvirida ham o'zining chuqur aksini topgan desak xato bo'lmaydi.

"Asarda tasvirlangan ijtimoiy muammolarni anglamoq uchun jahon muxorabasini boshlab, xalqni nochor ahvolda qoldirgan va bundan manfaatdor kishilarga xos g'ayriinsoniy jihatlardan tamomila farqlanuvchi moddiy muhtojlikdan, kundalik vahimalardan asabiy lashgan oddiy, samimiylar xos jihatlarning bir-biriga qarama qarshi qo'yilishidan izlash foydaliroq bo'lardi. Murakkab vaziyatlar da ham sof insoniy qiyofalarini yo'qtomagan kishilarning ruhiy to'l qinlarini tushunmoq G'afur G'ulom ko'zlagan maqsadlarni anglash ga yordam beradi. Ma'noli, mazmunli hayotni qo'msagan, taqdirini endilikda qorin to'qligi-yu xotirjam kun o'tkazishgagina bog'lab tasavvur qila olmaydigan Shum bola qalbining tongday tiniqligi, o'zini shunday yengil his etayotganligi, ko'kragini to'ldirib nafas olishi kabi ramziylik bilan qissaning yakunlanishi zinhor bejiz emas, Bu G'afur G'ulomga xos inson taqdirining qo'l bilan yaratilishi haqidagi ijodiy-estetik ideallarga borib taqaladi.

Adabiyotshunos Muhsin Olimovning G'afur G'ulom ijodining yetakchi xususiyatlari haqidagi quyidagi fikr-mulohazalari ham fikrimizni dalillashga asos bo'la oladi: "Shoir vafoti 1966-yil ekanini hisobga oladigan bo'lsak, to'la ishonch bilan aytish mumkinki, u ijodini yetimlik mavzusidan boshladi, shu mavzu bilan davom ettirib avj pardasiga ko'tarildi va shu mavzu bilan oldingi parvozlariga munosib tarzda yakunladi. Binobarin, G'afur G'ulomni G'afur G'ulom qilib turgan eng teran dardlardan biri, bizningcha, birinchisi cdi"

Qissaning aksariyat qahramonlari ojiz bir banda sifatida taqdir sinovlari oldida betadbir qoladilar. Bunday o'rirlarda inson ojizligi yu iymon qudratini namoyon bo'lgandek tuyuladi. Alovida olingen kishilar va olomon ruhiyati tasvirlangan o'rirlarda bu hol yaqqolroq ifodalangan.

Adib qissa qahramonlarining boshdan kechirgan sarguzashtlari misolida o'sha paytdagi xalq hayoti, turmush tarzi manzaralariga keng miqyosda nazar tashlagan bo'lsa-da, kishi bilmas shaxsiy munosa batini sezish qiyin emas. Zero, asar voqealari mashhur adibning hali bolaligidayoq

yashash uchun kurashish borasidagi o‘y-fikrlari, tur mushning beedad sinovlari yuzasidan chiqargan hukm-xulosalari ning badiiy talqinidir.

G’afur G’ulomning badiiy mahorati haqida so‘z ketganda ijodi ning o‘zbek mumtoz adabiyoti va folklor an'analaridan oziqlangan ligini qayd etmoq joiz. Bu "Ko‘kan" poemasining:

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, shu zamonda, Mamaniyoz bo‘lar ekan, Chust tomonda. -tarzida ertaklar sujetiga xos tasvir uslubidagina emas, balki "Shum bola" qissasida "Ming bir kecha ertaklariga hamohang voqealardan voqeal keltirib chiqarishiga ham, "Yasha, deyman, o‘g‘lim", "Oq terakmi, ko‘k terak", "Buni toping, qizlarim", "Kaptar uchar, g‘oz uchar", "Chitti gul", "O‘ylashni o‘rganamiz", "Men soray, siz javob bering" kabi zukkolikni talab etuvchi falsafiy yumoristik she‘rlariga ham, Nortojining kurak tishi", "Ahmad yomon bola emas-ku, ammo", "Kekkaymachoq Sobirjon", "O‘rdak va Turg‘un singari hajviy she‘rlariga ham xos mushtarak xususiyatdir.

Shoirning ikkinchi jahon urushida ota-onasiz yetim qolgan go‘daklarga bag‘ishlab yozgan "Sen yetim emassan" she‘ri XX asr o‘zbek she‘riyatining yuksak namunasidir. She‘rda mehribon padar timsolidagi Vatanning o‘z farzandlariga mehr-muhabbati "uxla, jigarim", "tinchlan, jigarim", "cho‘chima, jigarim", "kozim usti minnating boshimga durra" kabi erkalovchi, allalovchi iboralar bilan bildirilsa, Gitler timsolidagi fashizmga nafrat "dayus", "oqpadar", "haromi", "mal'un", "ota-onasining tayini ham yo‘q" singari so‘zlarda o‘z aksini topadi.

G’afur G’ulomning talay she‘rlari folklor asarlariga hamohang o‘ynoqi uslubda yaratilgan. Yana ham to‘g‘rirog‘i shoir xalq qo‘shiqlarini yangicha hayotiy mazmun bilan boyitadi. Masalan:

Tojxon qiz o‘zi-o‘zi

Boshida yo‘rmado‘zi, Yo‘rmado‘zi yarashgan,

Oyisiga qarashgan Hayyu chitti gul.

Muallif she‘rida shunchaki Toshxonning ta‘rif-tavsifi bilan chegaralanmaydi. Aksincha, kitobxon diqqatini qizaloqning a‘lochi ligi, chevarligiga ishora qilish orqali muhim tarbiyaviy g‘oyani ilgari suradi. Chistonlar shaklida bitilgan "Buni toping, qizlarim" she‘ri da esa poliz ekinlari va mevalarga xos sifatlarni eslash orqali kichkin toyolar tabiat bilan

tanishtiriladi.

O‘z g‘oyaviy niyatini ifodalashda jonivor va narsa-predmet larning tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq sifatdoshlar, jonlantirish hamda o‘xshatishlarga murojaat qilish kabi bolalar she‘riyatiga xos tasvir usuli G‘afur G‘ulom ijodiga ham begona emas. Shoir "Ona buzoq" she‘rida bolalarga tanish manzara - buzoqning tashqi ko‘rinishini she‘riy san‘atlar vositasida qayta yaratib, kitobxonlarga taqdim etadi. Ola buzoq tilining lola yaprog‘iga, tikka qulog‘ining sapsar gulga, tishlarining sadaf munchoqqa, ko‘zlarining olxo‘riga, cho‘zinchoq yuzining bosvoldiga, baqbaqasining marjon osganga, tumshug‘ining chakich bosganga o‘xhatilishi har qanday kitobxonni hayratga solishi tabity.

O‘zbekiston xalq shoiri G‘afur G‘ulom yuqorida nomlari qayd qilingan asarlaridan tashqari, "Mukofot", "Tongotar qo‘srig‘", "Bari seniki", "Bir g‘uncha ochilguncha", "Siz mening yoshligimiz kabi qator to‘plamlariga kirgan she‘rlari bilan ham o‘zbek bolalar adabi yotining so‘z san‘ati sifatida shakllanishiga katta ulush qo‘sghan yirik so‘z san‘atkoridir

Shoir siyosida Sharq adabiyotining yetuk bilimdonini ko‘rgan Ozod Sharafiddinov: "G‘afur G‘ulom Sharq adabiyotini chuqr biladigan fozil odam edi- deb yozadi. Bu ayni haqiqatdir. Biz ham shu fikriga to‘la qo‘shilamiz.

G‘afur G‘ulom vafotidan uch oy keyin yaratilgan yuz misradan iborat Maqsud Shayxzodaning "G‘afurga xat" nomli marsiyasidan olingan quyidagi misralar buyuk shoirning ijodkor va inson sifatidagi o‘ziga xos dunyosini teran anglashga yordam beradi.

Tinmas, tolmas, jonparvar ko`z bordir senda,  
Hofizangda yuz ming bayt, o‘n ming latifa,  
Ming sarguzasht, yuz qissa, sonsiz sahifa.  
Qurq shoirga yetarlik so‘z bordir senda.  
Hammasi senda edi va sendan edi,  
Idrokingdan, zehningdan, ko‘ksingdan edi"

**Sulton Jo‘ra** 1910 yilning 15yanvarida Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi Qag‘altom qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ildi. Yetti yoshida ota-onasidan yetim qolgan Sulton dastlab boshlang‘ich maktabda o‘qidi. U 1924 yilda

Buxoroga kelib erlar pedagogika bilim yurtiga o‘qishga kirdi va uni 1930-yilda bitirdi.

Sulton Jo‘ra 1931–1938-yillarda Buxoro pedagogika institutining ishchi fakultetida o‘qiydi. 1938–1941-yillarda Andijondagi o‘qituvchilar instituti va pedagogika bilim yurtida til va adabiyotdan dars berdi.

1942 yilda Sultan Jo‘ra harbiy xizmatga chaqiriladi. U dushmanga qarshi ham quroq, ham qalam bilan mavdonavor jang olib bordi. 1943-yilning 14 noyabrida Belorussiya tuprog‘ida nemis-fashist bosqinchilariga qarshi janglarning birida jangchi-shoir qahramonlarcha halok bo‘ldi.

Sulton Jo‘raning dastlabki she’rlari 1933- yilda Buxoro yosh shoirlarining “She’rlar” to‘plamida nashr etildi. Uning 1939- yilda “Fidokor”, 1941-yilda “Moskva” she’riy to‘plamlari, 1942-yilda “Iroda” nomli pesasi nashr etildi. Iste‘dodli shoirning vafotidan so‘ng 1951 yilda rus va o‘zbek tillarida “Tanlangan asarlar”, tinch qurilish yillari davrida “Havorang gilam”, “Zangori gilam”, “Bruno”, “Parvoz”, “Qaldirk‘och”, “Tanlangan asarlar” kitoblari bosilib chiqdi.

Ikkinchi jahon urushi davrida yaratgan asarlarida fashist gazandalarining butun yovuzliklari ochib tashlandi, ularda yovga qarshi la’nat va nafrat tuyg‘ulari davr kishilarining yuksak vatanparvarlik ruhi bilan hamohang yangradi. “To‘pchi Muhammad”, “Pulemyotchi ovozi”, “Chavandoz”, “Uch og‘ayni botirlar”, “Nayzamiz” (1941), “Qahramon Qo‘chqor” (1942), “Jahon seni olqishlar”, “Berlin aptekasida” (1943) she’rlari shular jumlasidandir.

Sulton Jo‘ra kattalar uchun jo‘shqin lirik she’rlar, yirik dostonlar yaratish bilan birga, bolalarga atab ham ajoyib asarlar yozdi.

Shoir-pedagog Sultan Jo‘ra bolalar uchun yozgan asarlarida baxtli bolalik, Vatanga muhabbat va dushmanga nafrat, mehnat ahllariga e’tiqod tuyg‘ularini ifodaladi. Ayni chog‘da, u yaxshi va a’lo baholarga o‘qish uchun kurashish, rostgo‘y va intizomli bo‘lish, madaniy va pokiza kiyinish, savodxon va chirolyi yozuv malakasini egallash kabi ta’lim-tarbiyaviy masalalarni ham badiiy vositalarda talqin etdi. Bunday g‘oyalari shoirning “Yozgi yomg‘irdan so‘ng” (1936), “Qizlar”, “A’lo” va “Yaxshi”ning maqtovi”, “Zangori gilam” (1939), “Lola”, “Oy nechta?”, “Tinish belgilaringin majlisi”, “Cho‘ntak”, “Sirkda” (1940), “Qarzdor”, “Qaldirk‘och”, “Yolg‘onchi”, “Dengiz tagida” (1941), “Sog‘inib” (1942), “Sog‘inchli salom”, “Salom xat” (1943) kabi asarlarida o‘z ifodasini topdi.

U o‘z asarlarida bolalar va maktab hayotini, ularning o‘qishi, ko‘cha va oilada o‘zini tutishini haqqoniy aks ettirdi. Shoир yosh kitobxonning diqqatini o‘ziga tortuvchi asarlar ijodkori sifatida tanildi.

Bolalar ilmiy-ommaviy mavzularda yozilgan san’at asarlarini ham sevib o‘qiydilar. Sulton Jo‘raning bunday mavzudagi asarlaridan biri “Oy nechta?”dir. Bunda shoир kichkintoylarning orzuumidlarini ona va bolalarning suhbati orqali ifoda etadi:

*Ona dedi:*

*–Yotinglar endi,*

*Faqat bitta osmonning oyi!*

*Katta bo ‘lgach, aylanaylarim,*

*Oyning o‘zin minib ko ‘rarsiz.*

*– O‘sanda-chi, oyijon, bizga,*

*Katta toti olib berarsiz.*

“Mamatning kechirmishi” she’rida shoир Mamatning ichkiruhiy kechinmalari, ishyoqmasligi, yalqovligi, to‘ngligi orqasida darslardan qoloq bo‘lib, iztirob chekishini ishonarli aks ettirgan. Mana, hamma uxlagan, ammo tanho Mamat uyg‘oq. Shoир uning ana shu daqiqalardagi qalb iztirobini, ruhan qiynalayotganligini, notinch ruhiy holatini sodda, ravon misralarda tasvirlaydi.

Shoир qoloqlik sabablarini birovdan emas, balki qahramonining o‘zidan

qidirtiradi va buni Mamatning o‘zini gapirtirish orqali ochadi.

Qoloqligi sababli ruhan azob chekib, qiynalib yurgan Mamat o‘jarligi, o‘zboshimchaligni tan olib, do‘stlari yordamida oyoqqa turib, endilikda astoydil o‘qishga ahd qiladi:

*– Bo ‘ldi... Men bas qildim yalqovlikni,*

*Do ‘stlarimday olay bilimni.*

*Achchiq tajribamning o‘zi saboq,*

*Ol, darsxonam, ishq dilimni!*

*Bor kuchimni berayki, bu “yomon”*

*Yondashmasin menga ertadan.*

*Nomim Mamat bo ‘lmay ketsin agar,*

*Va ‘da qilgan bo ‘lsam jo ‘rttaga!*

Sulton Jo‘ra qissadan hissa chiqarib, a’lo o‘qish katta ahamiyatga ega ekanligini bolalarga uqtiradi:

A’lo o‘qish o‘zi yuksak shuhrat,

Har shuhrating tillarda doston.

She’rda barcha tasviriy vositalar g‘oyaviy, badiiy niyatni yorqin amalga oshirishga qaratilgan. Shoir tabiat lavhalari, go‘zal hayotiy tasvirlar vositasida qahramonning ichki holatini ochadi va ta’sirchanlikka erishadi:

*Barcha uxlар...*

*Kumush ariqchaning*

*Eshitilar shildir-shildiri,*

*Yaproqlar ham “alla” deb tebratar*

*Sirtlariga qo‘ngan oy nurin.*

“Mamatning kechirmishi”da yalqovlikni tashlab, a’lo o‘qishga mahkam bel bog‘lagan bolaning ijobjiy namunasida o‘z kuchiga ishonish, nuqsonlarga tanqidiy qaray bilish g‘oyat katta kuch degan ta’lim-tarbiyaviy, pedagogik o‘git ilgari suriladi.

Ta’lim-tarbiya sohasida yozma nutq san’atini egallash eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ba’zi o‘quvchilar grammatik mashqlar bilan jiddiy shug‘ullanmasligi, badiiy adabiyotni kam o‘qishi natijasida yozma ishlardan oqsaydilar. Chirolyi yozuv qoidalarini buzib, xunuk xat yozishdan tashqari, turli xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Pedagog-shoir Sulton Jo‘ra ta’lim-tarbiya ishidagi bunday nuqsonlarni tugatishda o‘quvchilarga yordam berish maqsadida “Kimning xati chiroyli?”, “Tinish belgilarining majlisi”, “Harflar paradi” she’rlarini yozdi.

“Kimning xati chiroyli?” she’rida bolaning sog‘lom, baquvvat bo‘lib kamol topishida, yozuvining go‘zal bo‘lishida partada to‘g‘ri o‘tirish qoidasiga qat’iy rioya qilish katta ahamiyatga ega ekanligini ham uqtirib o‘tadi:

*O‘tirishim to‘g‘ri, soz,*

*Qoidaga juda mos.*

*Ko‘kragimni men sira,*

*O‘ltirganim yo‘q tirab!*

*Chiroyli yoz, yozsang xat!*

*Chunki bu ham zo‘r san’at...*

Shoir ijodiy faoliyatida “Tinish belgilarining majlisi” she’ri katta ahamiyatga ega. She’rda o‘zbek tilining eng muhim qoidalari – tinish belgilarining vazifalari bolalarga mos ravishda, jonlantirish kabi badiiy tasvir vositasi orqali ifoda etiladi.

Unda har bir tinish belgisi jonlantirilib, qo'llanishiga mos tarzda gapirtiriladi va o'ziga xos joyiga qo'yiladi. Bu holat kitobxonda aniq tasavvur hosil qiladi va shoirning pedagogik, badiiy mahoratini egizak holda namoyish qiladi.

Shoir she'rda o'xshatishdan ham ustalik bilan foydalanib, undov belgisini mirzaterakka, nuqtani koptokka; so'roq belgisini o'roqqa, zirak taqqan qulqoqqa, vergulni kichik to'qmoqqa, qo'shtirnoqni qiziqchilarga, tireni gugurtga o'xshatib, shoirona tasvirlaydi. Gapda esa nuqta "fikrlarning stansiyasiga", vergul "fikrlarning razezdi" (to'xtab uchrashadigan joy)ga o'xshatiladi. Bunday o'xshatishlar tinish belgilari qoidasini oson o'zlashtirishga yordam beradi.

*So 'roq belgisi:*

*Uqdingizmi? Yetadimi? Bormi savol?*

*Yoki o'zim so'rayinmi sizdan savol?*

*Vergul:*

*Gar undalma gapda kelsa qoq o'rtada,*

*Uning ikki yonboshida men jo'rttaga,*

*"Qani endi undalmaxon, qochib boq-chi" –*

*Deb bo'lurman yubormayin unga soqchi,*

*Gar undalma gap so'ngida kelsa, u choq,*

*Undan oldin qo'yilarman, tushun o'rtoq!*

*Qo'shtirnoqlar:*

*Mana rais: – "Vaqt tamom, to'xtangiz!"*

*Deb qoldi-ku, mayli, endi yo'q gapimiz.*

*Tire:*

*Biroq shartim – so'z qolmasin o'lda-jo 'lda.*

Ko'rinib turibdiki, shoir tinish belgilarining xususiyatlarini tasvirlabgina qolmay, unga muvofiq misollarni ham she'riy yo'l bilan ko'rsatgan. Shuning uchun bu she'rni ko'rgazmali she'r deyish va undan darslarda ijodiy foydalanish mumkin.

"Yolg'onchi" dostonida bolalarni rostgo'y bo'lishga, yaxshi va a'lo o'qishga chaqiriladi. Doston qahramoni No'mon mакtabda ta'lim-tarbiya qoidasini buzuvchi, o'qituvchi va ota-onasiga nisbatan hurmatsizlik qiluvchi bola sifatida gavdalanadi. Shoir, No'mon qoniqarsiz o'qishiga qaramay, o'zini tuzatish o'rniga o'qituvchiga zarda qilishi, yolg'on gapirishi, o'jarligi, dars tayyorlamasligi va ishyoqmasligini turli hayotiy parchalarda juda ishonarli tasvirlaydi. Chunonchi,

No‘mon o‘qituvchi yozib bergen xatni yirtib tashlab, “2” baholarini yashirib, o‘zini a‘lochi qilib ko‘rsatib, beodobligini fosh etadi.

No‘mon o‘qituvchi va ota-onasi ta’sirida butun kamchiliklarini anglab yetadi, yaxshi o‘qishga va’dasining ustidan chiqadi. Doston o‘z kamchiliklarini anglab, o‘qishga astoydil berilgan No‘monning ijobiy xattiharakatini ulug‘lash bilan tamomlanadi.

Sulton Jo‘raning “Havorang gilam” ertagidagi qahramon Rahimdir. U o‘tmishda og‘ir kulfatlarni boshidan kechiradi.

Rahim zindondan qochib, uyiga kelsa, na xotini, na qizi bor. Uning xaroba uyini shoir:

*Uy o‘rnida bir devor!*

*Atrofi o‘t – tikanzor, –*

deb tasvirlaydi. G‘azabda yongan Rahim zulmkorlarga qarshi kurashga bel bog‘laydi. Ertakda shoir asar qahramoni Rahimning hayoti haqida hikoya qilar ekan, uning e‘tiborga loyiq eng muhim belgisini – xalq bilan chambarchasligini ko‘rsatadi.

Dostonda yovuzlarga qarshi bir tan, bir jon bo‘lib kurashgan xalq ozodlikka chiqadi, zulmkorlarni tag-tugi bilan yo‘q qilib, baxtli hayotga erishadi. Shoir “mozorday jimjit”, “qushlar uchsa qanoti, inson yursa oyog‘i” kuyadigan bepoyon dasht-cho‘llarda endi yangi hayot qaynayotganini tasvirlab, bularning hammasi Rahimlarning ijodiy mehnati tufayli yuz bergenligini bolalarga hikoya qiladi:

*Cho‘l o‘rnida bog‘-bo‘ston,*

*Rang-barang bir guliston...*

*Qo‘ng‘iroqday shalola,*

*Oy kabi nurli dala...*

*Daryoni qilib qamal,*

*O‘tkazishgan zo‘r kanal...*

*Xullas, go‘yo bu – sara*

*Va ajoyib manzara*

*O‘xshardi boqqan sari*

*Gilamchaki – zangori!..*

*Ko‘rdi: ko‘m-ko‘k keng dala,*

*Unda ishlar bir gala*

*Son-sanoqsiz er-xotin,*

*Ekardilar zar-oltin...*

Xalq ommasining mehnati tufayli ajoyib shaharlar, cho'l o'rnida bo'stonlar yaratilishini tasvirlash orqali shoir kattalar mehnatiga bolalarning havasini oshiradi.

Sulton Jo'ra "Sog'inchli salom" she'rida Vatanga muhabbat, dushmanga nafrat hislarini va g'alabaning muqarrarligini tasvirlaydi. Shoir "guli g'unchalari", "oltin yulduzchalari", "girgitton qizchalari"ga sog'inchli salom yozar ekan, ularga nemis bosqinchilarining yovuzliklari va vahshiyliklari, insoniyat boshiga solgan azob-uqubatlari, jabr-zulmi, fashistlar vayron qilgan joylardagi xalqning og'ir ahvoli, yosh bolalarning ayanchli taqdiri haqida hikoya qilib beradi. Shoir urush va uning dahshatlarini, xalqning azob-uqubatlarini o'z ko'zi bilan ko'rib, boshidan kechirgan bir kampir tilidan so'zlab, voqeaning ta'sirchanligini, bolalar ongiga tez, oson yetib borishini ta'minlaydi. Kampirning qalbi dardga to'la. G'am, alam, qasd uning butun vujudini egallab olgan. Uning so'zлari orqali fashistlar tomonidan otib o'ldirilgan qizi va nevarasining fojiasigina emas, umuman dushmanning yovuzligi, rahm-shafqatsizligi ro'yirost ochib berilgan:

*Ko 'zim ochsam ne ko 'ray:*

*– Voy! "Qo 'rqinchli manzara",*

*Ko 'kragidan qon oqib,*

*Yerda yotar Varvara ...*

*Fashist jallod nayzasin*

*Sanchibdi ko 'kragidan,*

*Bolaning hali yoshi*

*Ketmagan ki prigidan,*

*Bir tomonda onasi,*

*Bir tomonda bolasi,*

*Qon ichida yotibdi.*

*E voh, har ikkalasi!..*

Urush dahshatlarining kichik bir parchasini yuqoridagiday tasvirlash bilan shoir bolalarning murg'ak dilida urush olovini yoquvchilarga nisbatan kuchli nafrat tuyg'ularini qo'zg'atadi. Ular qalbida tinchlik, do'stlik, baxtiyorlik haqidagi ulug' maqsad, buyuk orzu hislarini uyg'otadi.

Obod qishloqlarni vayron qilgan, begunoh kishilarning umrini xazon qilgan fashistlardan qasos olishga bel bog‘lagan g‘azabkor otaning hayqirig‘i tubandagi misralarda zo‘r mahorat bilan tasvirlangan:

*Ana shu Varvaraday  
Qancha yosh bolalarni,  
Bolalik bo ‘stonida  
Ochilgan lolalarni  
Halok etgan peslardan –  
Shu jallod fashistlardan  
Jon uchun jon olaman,  
Qon uchun qon olaman.  
Xullas, fashist yovlarni  
Tor-mor etib batamom  
So ‘ngra, jigarbandlarim,  
Yoningizga qaytaman!..*

Shoir his-hayajonni oshirishda xalq og‘zaki ijodidan o‘rinli foydalangan:  
*Hay, janubga uchgan qush,  
Kel, yonimga bir pas tush!  
Qizlarimga xat beray,  
Andijonga qarab uch!*

Pedagog-murabbiy va jangchi-shoir Sulton Jo‘ra o‘zbek bolalar adabiyotining xazinasiga o‘zining ana shunday qimmatbaho asarlari bilan munosib hissa qo‘shtgan.

### **Savol va topshiriqlar**

1. G‘ofur G‘ulomning ijodiy faoliyatida xalqchil obrazlar qanday aks etgan?
2. Shoirning bolalik yillari uning ijodiga qanday ta’sir ko‘rsatgan?
3. G‘ofur G‘ulomning “Shum bola” asarida qanday g‘oyaviy va axloqiy maqsadlar ilgari surilgan?
4. Shoirning lirik she’riyatida qanday asosiy mavzular ko‘tarilgan?
5. G‘ofur G‘ulom o‘z davridagi adabiy va ijtimoiy muhitga qanday hissa qo‘shtgan?
6. Sulton Jo‘raning hayoti va ijodida qaysi davrning ijtimoiy vogeliklari

aks etgan?

7. Shoirning lirik she'rlarida tabiat va inson munosabati qanday aks ettirilgan?

8. Sulton Jo‘raning xalq og‘zaki ijodidan ilhomlanib yaratgan asarlarida qanday xususiyatlar ko‘zga tashlanadi?

## **7-MAVZU: BOLALAR ADABIYOTIDA ADRESLILIK. MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALAR ADABIYOTI.**

### **REJA:**

1. Yozma adabiyot namunalari
2. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar kitobxonligi o'rghanishda ota-onva tarbiyachilar roli.
3. Bolalar adabiyotida adreslili

Kichkintoylar adabiyotining shakllanish va rivoji uning adresliligi (maktabgacha ta'lim yoshidagi, kichik maktab yoshidagi, o'rta va katta yoshdagi hamda o'smir yoshidagi bolalarga mo'ljallab yaratilishi). tarbiyaviy g'oyalar ustivorligi, sujetning qiziqarliligi (L.Motyashov) talabi bilan bog'liq.

Ko'rinaradiki, bolalar adabiyotini umumadabiyotdan farqlab tura-digan bir qator o'ziga xosliklar mayjud bo'lib, ular dastavval, ma'ri-fiylik va tarbiyaviylikda aks etadi. Zero, bolalar adabiyoti, avvalo, ta'lim va tarbiya beradi. Ana shu ta'lim-tarbiyani go'zal badiiyat qobig'iga jo qila olish esa ijodkorlardan ulkan mahorat talab qiladi va shu boisdan ham barcha qalamkashlar bolalar shoiri yoxud yozuv-chisi bo'la olmaydilar.

Ikkinchidan esa, bolalar adabiyotini alohida, maxsus adabiyot sifatida tasnif qilishning o'zi ham nisbatan keyingi yuz yillikda, ya'ni XIX asming ikkinchi yarimlarida paydo bo'lgan. Ungacha deyarli barcha xalqlar adabiyotlarida, jumladan, o'zbek bolalar adabiyotida ham bolalarga ko'proq umumadabiyotdagi tarbiyaviy (didaktik) va ta'limiy-ma'rifiy asarlar tavsiya qilingan. Bolalar adabiyoti fan sifati-da o'z ob'ektiga adabiyot nazariyasi qonuniyatları asosida yondasha-di hamda pedagogika, psixologiya, adabiyotshunoslik, mantiq, tilshunoslik fanlari yutuqlariga siyanadi. O'zbek bolalar adabiyotining ilk qadamlari XX asr boshlarida yaratilgan alifbolar, adabiyot va o'qish kitoblaridan boshlanishini alohida qayd etish joiz. Zero, bolalar adabiyoti, aslini olganda, ma'rifatparvarlikning farzandidir.

Mumtoz adabiyot an'analari va jahon adabiyotining barakali ta'siri ostida oyoqlangan o'zbek bolalar adabiyotining keyingi rivoji bevosita jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqlikda kechdi. Xususan, XX asr boshlaridagi

o'zbek bolalar adabiyoti ijtimoiy-tarixiy muhit tufayli diniy-ma'rifiy g'oyalarning badiy ifodasi o'laroq yosh avlodni o'qish va bilim olishga da'vat qilish ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, kitob, maktab, maorif insonning "ong ko'zi" (Q.Muhammadiy)ni ochib, o'zligini tanishi keng miqyosda targ'ib qilingan edi.

S.Aziziyning "Ustodi avval", Munavvar qorining "Adibi avval", "Adibi soniy", Qori Usmon ibn Abduxoliq Shoshiyning "Ta'limi avval", A.Avloniyning "Birinchi muallim", "Ikkinchchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq", Hamzaning "Yengil adabiyot", "O'qish kitobi", "Qiroat kitobi", M.Behbudiyning "Kitob at-tifl

(Bolalar uchun kitob), S.Ayniyning "Qiz bola yoki Xolid", "Taxisib us-sibyon" (Bolalar tarbiyasi) kabi maktab darsliklarigs kirgan hikoyatlarida ilm-ma'rifikatda da'vat, insonning xulq-atv yaxshi amallarni bajarishga yo'naltirish, axloqiy poklik, vatanparvar lik, mehnatsevarlik, halollik, rostgo'ylik, haromdan hazar qilish, na qutqusiga berilmaslik bilan bog'liq tuyg'ulariga turtki berish yetak chilik qiladi. Taniqli rus yozuvchisi Valentin Rasputinning: "Pushkin enagasi L.Radionovnaning mungli allasini emas, bugungi estradni tinglab uyg'onganida edi, undan Pushkin emas, Dantes chiqued degan qiyoslashi nazarda tutilsa, bolalar adabiyotining tarbiyaviylik dan iborat yetakchi xususiyati qay darajada dolzarb ahamiyat kasb etishini anglash qiyin kechmaydi.

"Ikkinchchi muallim"dagi "Maktaba da'vat" she'rida muallif yo kitobxonga murojaat qilib, tong otganidan, uyqudan ko'z ochish vaqtini yetganidan xabar beradi, hamma o'z ishini boshladi, siz ham o'z ishingiz o'qishingizga yuguring, deydi:

Boqdi gunash panjaradan bizlara Youma deyur barcha o'g'il-qizlara

Nolai faryod qilib barcha qush Maktabingiz vaqtini,-deyur sizlara

Boshladi har kim o'z ishin ishlara Siz-da turing, maktabingiz izlara

Uchdi ari bog'chalara bol uchun, Buzov turur uyda cho'kib tizlara.

Siz-da kitoblarni oling shavq ila, Tez yuguring ilm yo'lin gezlara

Nazarimizda, bu kichik she'r XX asr boshlaridagi o'zbek bolalar adabiyotining go'zal namunasi sifatida tilga olishga arzigelikdir. Zero, she'nda muallif yosh kitobxonga murojaat qilishning eng mag-bul Iyo'lini topa olgan: saharda chiqqan quyosh panjaradan mo`ralab, uxbab yotgan

bolakayni o‘z nurlari bilan erkalab uyg’otishi, tongotishi bilan kundalik ashulasini boshlagan qushlarning chirqillashi ham bolakayni uyg’otish uchun qilinayotgan nola-yu faryod sifatida tasvirlanishi: hamma o‘z ishini boshlagani, arilar bol yig’ish uchun bog’larga uchib ketgani, buzoqcha onasini tiz cho‘kib emayotgani va bolaning ham kitob-dafttarini olib, ilm yo‘lini izlashga yugurishi kerakligi samimiyl, o‘ynoqi satrlarda tasvirlangandir.

Aslida axloq-odob tarbiyasining, ilm-ma’rifat, kasb-hunar targ’i- boti bilan bog’liqligi g’oyasi xalq og’zaki ijodi, xususan, bolalar folkloridan boshlangan bo‘lsa, keyinchalik yozma adabiyotning yuza- ga kelishi bilan Forobiyning “Fozil odamlar shahri”, Beruniyning “O’tmishdan qolgan yodgorliklar”, Abu Ali Ibn Sinoning “Solomon va Ibsol”, Mahmud Koshg’ariyning “Devonu lug’otit turk”, Kayko- vusning “Qobusnama”, Nizom ul-Mulkning “Siyosatnama”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul- haqoyiq”, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”, Munisning “Savodi ta’lim”, Gulxaniyning “Zarbulmasal” kabi asarlarida yuksak darajada davom ettirildi. A. Qodiriyning “Uloqda”, “Jinlar bazmi”, Oybekning “Gulnor opa”, Elbekning “Ikki tulki”, “Qurbaqa ila sichqon”, “Totli shurbo” kabi asarlari bolalar tarbiyasi uchun hayotiy zarurat tufayli yaratilgan bo‘lib, XX asrning dastlabki yillari bolalar nasri uchun chinakam izlanish yillari bo‘lganidan dalolatdir.

Z.Bashir o‘sha davr vaqtli matbuotida “Bolalar adabiyoti kerak”, degan murojaat bilan chiqqan bo‘lsa, A. Sa’diy kichkintoylar adabiyo- tiga bo‘lgan talab xususida shunday deb yozgan edi: “Bolalar o‘yin- laridan bo‘shag’on va darslaridan to‘xtag on chog’larida olib o‘qirlik kitoblarning bo‘lmasligi o‘zbek adabiyotining zo‘r kamchiliklaridan bo‘lib turadir. O‘zbek tilida ko‘p shoshilinch bilan bolalar adabiyotini tug’dirishga qat’iy luzum bor”

Ma’naviy-axloqiy kamolotga ta’lim-tarbiya vositasida erishish g’oyasi hali shakllanish bosqichida bo‘lgan o‘sha davr bolalar ada- biyotida ma’lum ma’noda jadid adiblari ijodi misolida milliy ozodlik uchun kurash mafkurasi bilan boyitildi, oktabr to‘ntarishidan keyin esa ijodi o‘tgan asrning 20-30- yillarda kurtak otib shakllanish palla- siga kirgan G’afur G’ulom, G’ayratiy, G’ulom Zafariy, Oybek, Hamid Olimjon, Dorjiya Oppoqova, Majid Fayziy, Quddus Muhammadiy

Zafar Diyor, Ilyos Muslim, Sulton Jo'ra, Adham Rahmat, Shokir Sulaymon, Shukur Sa'dulla kabi shoir va yozuvchilar tomonidan turli darajada yoritildi.

O'ttizinchi yillarda ijodkorlarimiz o'z asarları bilan yosh avlodni ilm-ma'rifatga da'vat qilib chiqdilar. Zafar Diyorning "Kitob mening do'stimsan!", "Birinchi qadam", "Lager qo'shig'i", "Bog'chamiz", "Zarar emasmi?" "Sentabr qo'shig'i", Sulton Jo'raning "A"lo" va "Yaxshi"ning maqtovi", "Harflar paradi", "Tinish belgilarining maj-lisi", "Kimning xati chiroyli". "Ikki baho", "Mamatning kechirmish-lari", G'afur G'ulomning "Navqiron avlodimiz sinov oldida", "O'rdak va Turg'un", "Ko'klam shamoli", "Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi", Adham Rahmatning "Kanikul kunlari", "Birinchi sentabr" she'rlari shular jumlasidandir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, 30-yillardan boshlab umum-adabiyotda bo'lgani kabi bolalar adabiyotida ham mustamlakachilik mafkurasini tashviq qilishga katta e'tibor qaratilib, ijtimoiy-siyosiy yo'nalish yetakchi o'rin tutganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Natijada quruq deklarativlik, da'vatorlik, shiorbozlik, madhiyabozlik, targ'i- bot-tashviqot ruhi didaktika bilan uyg'unlashib ketdi. Zamон bilan hamnafaslik, aslida zamonasozlik tarzida an'anaviy tus olgan mazkur qarash to istiqlol davrigacha bolalar adabiyoti tarbiyaviy mohiyatining turli davrlarda turlicha tushunilishi, yuqorida aytigandek, hukmron mafkura mahsuli bo'lib, uning so'z san'ati sifatidagi vazifasiga soya solishi tabii edi.

Shunga qaramasdan, bolalar adabiyoti bir joyda depsinib turgani yo'q. Uning eng yaxshi namunalari xorijiy tillarga o'girilib, allaqa-chon chet el kitobxonlarining ham madaniy mulkiga aylanib ulgur-gani quvonarlidir

**Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar kitobxonligi** rivojlantirishda o'zbek folklorini o'rni

Odatda, bola olamga kelibdiki, onani taniydi, uning hidini, qadam tashlashini, nafas olishini darhol sezib oladi. Ona bir qadam o'zidan uzoqlashsa harhasha qiladi, yig'laydi. Chunki bu norasida onananing qornidayoq uni o'ziga kashf qilib olgan. Shu onaning ko'magida atrof-muhit bilan, o'zini qurshab olgan olam bilan tanishadi. Onaning allasi, qo'shig'i, ertagi murg'ak qalbida bir umrga muhrlanib qoladi. Folklor va yozma adabiyot namunalarini tinglab, voyaga etayotgan bolalarning o'yinlari,

sho'xliklari, xayollari, qiziqishlari, gap-so'zlari... – bular bolalarning ma'naviy dunyosini boyitadigan omillardan biridir.

Alla, ertak, topishmoq, maqollarda kuzatganimizdek, odamlarga, jonivorlarga, tabiatga bo'lgan mehr-muhabbat, do'stlik va o'rtoqlilikning ilk tuyg'ulari, yaxshilikka nisbatan uyg'ongan dastlabki minnatdorchilik hissi, har narsaga chanqoqlik bilan qiziqib qarash kabilarning barchasi bolaning ma'naviy dunyosini boyitishi, uning xayoli va tasavvurini kengaytirishi lozim.

Bu davr bolalar kitobxonligi, asosan, ota-onalar va tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladi. Hali o'qish, yozish va chizishni bilmaydigan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar dunyo sirlaridan butunlay bexabar bo'ladilar. Shunga qaramay kichkintoylar o'zlarini qurshagan olamni tezroq bilib olishga, uni o'rganishga intiladilar. Bunda ota-onalar va tarbiyachilar bolalarga yaqindan yordam berishlari, yani ularga badiiy asarlardan parchalar o'qib berishlari lozim. Bu davr bolalariga o'qib beriladigan har qanday asarning hajmi qisqa, mazmuni sodda bo'lishi talab etiladi. Shuningdek, bunday kitoblarning rasmlari rahg-barang, harflari esa yirik-yirik bo'lishi maqsadga muvofiq.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar tinglaydigan asarlarning ko'pchiligini alla-qo'shiq, ertak, topishmoq, maqol, tezaytish xalq og'zaki ijodiy asarlari tashkil etadi.

Bundan tashqari, yozuvchilar asarlar ham maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun qo'l keladi. Bu yoshdagagi bolalarga tavsiya etiladigan asarlar ularga zavq-shavq bag'ishlaydi. Jumladan, bolalar shoiri Anvar Obidjonning "Suhbat", Shukur Sadullaning "Lola va mushuk" kabi she'rlari misol bo'la oladi.

Xulosa qilib aytganda, bolalar o'zlarini tinglagan asarlari yordamida astasekin atrof-muhit bilan tanishadilar, ona yurtga mehr-oqibatli bo'lishni, tabiatni asrashni va mehnatni sevishni o'rganadilar, eshitgan ertak qahramonlarini xatti-harakatlarini baholashga o'rganadilar.

Maktabgacha tarbiya yoshdagagi bolalar adabiyoti – o'ziga xos adabiyot. Bu o'ziga xoslikning asosini uning o'quvchilariga emas, asosan eshituvchi tinglovchi bolalarga mo'ljallanganidan izlash kerak. Bu adabiyotning kattalar, kichik va o'rta yoshli maktab o'quvchilari adabiyotiga o'xshash va

farqli xususiyatlari bor. Bu adabiyotning kattalar, kichik va o‘rta ishli maktab o‘quvchilari adabiyotiga o‘xshash va farqli xususiyatlari bor. Bu xususiyatlarning ba’zilari haqida fikr – yuritdik. - Barcha yoshdagi o‘zbek bolalar marsining mavzulari, g‘oyalari, obrazlari nihoyatda xilma – xil. Bu asarlarning pedagogik – tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ularda insoniylik, adolatparvarlik, mehnatsevarlik, o‘rtoqlik, do‘slik, to‘g‘rilik, xalollik, oqillik, qo‘rqmaslik, jasurlik, va boshqa ijobiliy fazilatlar ulug‘lanadi: qo‘rqoqlik, munofiqlik, xudbinlik, xosiyolik, dangasalik, aldamchilik, ayyorlik, manmanlik, odobsizlik kabi yomon hulq - atvorlar qoralanadi: Adiblarimiz o‘zlarining eng yaxshi asarlarida badiiylikning asosiy bklgilarini tashkil etuvi aks ettirish va obraz yaratish usullari vositalaridan foydalanganlar va maktabgacha yoshdagi bolalar adabiyotining o‘ziga xosligi masalalariga rioya qilganlar. - Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar narsaning janrlari kattalar va maktab o‘quvchilari nasriga nisbatan unchalik ko‘p emas. Bog‘cha yoshdagi bolalar nasrida yirik hajmli, murakkab qurilmali asarlar – roman qissa janrlarida yozilgan asarlar ham uchramaydi. Maktabgacha tarbiya yoshdagi jahon bolalar nasriyda bo‘lganidek shu yoshdagi. O‘zbek bolalar nasrining ham eng taraqqiy etgan janrlari ertak va hikoyadir. O‘zbek adabiyotlari insonparvarlik, vatanparvarlik, baynalminal, ahloqiy tarbiyaviy va boshqa g‘oyalarini kichkintoylar qalbiga qiziqarli, ta’sirli shakllarda etkazishda ertak va hikoya janrlarining o‘ziga xos badiiy xususiyatlaridan ijodiy fodalanganlar.

### Savol va topshiriqlar

1. Bolalar adabiyotini umumadabiyotdan farqlab turadigan asosiy xususiyatlar qaysilar?
2. Bolalar adabiyoti qaysi asrda mustaqil adabiyot sifatida shakllandidi?
3. XX asr boshlari dagi o‘zbek bolalar adabiyotida qanday g‘oya va mavzular asosiy o‘rin tutgan?
4. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan adabiyot qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak?
5. Folkloarning (alla, ertak, maqol, topishmoq) maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasidagi o‘rni qanday?

6. O‘zbek adabiyotidagi insonparvarlik, vatanparvarlik va mehnatsevarlik g‘oyalari qanday asarlarda aks ettirilgan?

7. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yozilgan hikoya va ertak janrlarining ta’sirchanligi nimada?

## **8-MAVZU: ZAFAR DIYOR VA SHUKR SA'DULLA IJODIY FAOLIYATI**

### **REJA:**

1. Zafar Diyorning hayoti va ijodi.
2. Zafar Diyor ijodida ilgari urilgan g‘oyalar.
3. Zafar Diyorning she’riy asarlarida inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning ifodalanishi.

### **ZAFAR DIYOR (1912-1946)**

Bolalarning jo`shqin kuychilaridan biri Zafar Diyor 1912-yilda Namangan viloyatining hozirgi Chust tumani, Samsoqtepa qishlog‘ida kambag‘al dehqon oilasida tug‘ildi. 1916-yilda Zafarlar oilasi Toshkent shahriga ko`chib keladi. Zafarning otasi dalada, onasi esa bosmaxonada mehnat qiladilar. 1927-yilda Zafar to`liqsiz o‘rta maktabni bitiradi va Samarqanddagi Narimonov nomli pedagogika texnikumiga o‘qishga kiradi. Texnikumda ko`proq ilm-fan sirlaridan bahramand bo`lishga harakat qiladi. Uning dastlabki she’riy mashqlari shu bilim yurti devoriy ro`znomasi sahifalarida ko`rina boshlaydi. Yigirmanchi yillar oxiri va o`ttizinchi yillar boshlarida uning yoshlar gazeta va jurnallarida ilk she’rlari Chop etila boshlandi. Zafar Diyorning birinchi she’ri yosh shoirlarning “Qurilish kuylari” degan to`plamida bosilib chiqdi. Ko`p o’tmay, uning birinchi she’rlar to`plami ham “Qo`shiqlar” nomi bilan 1933- yilda nashr etildi.

Yosh shoir 1933-yilda bilim yurtini muvaffaqiyatli bitirgach, o`qituvchi bo`lib ishlay boshladidi. Bu xol uning maktab va bolalar hayoti bilan yaqindan tanishishida, yosh avlod hayoti haqida yozadigan asarlarining hayotiy, puxta bo`lishida ijobiy rol’ o`ynaydi. Uning bunday ruhdagi she’r, hikoya va ocherklari 1928-yildan boshlab matbuot sahifalarida tez-tez bosilib turdi. 1934 -yilda Zafar Diyor Samarqanddan Toshkentga qaytadi va hozirgi “Tong yulduzi” gazetasida adabiy xodim, keyinroq ro`znomaning mas’ul kotibi bo`lib ishlaydi. Shu bilan birga u hozirgi Toshkent davlat pedagogika universitetining til va adabiyot fakul’tetiga kirib, o`qishni davom ettiradi. O`zbek hamda qardosh xalqlar yozuvchilarining asarlarini qunt bilan o`rganadi. Zafar Diyor kichkintoylar uchun she’rlar yozar ekan, izlanish,

o`qish, o`rganish zarurligini dildan his etadi. “Bolalar uchun asar yozishni men o`zim uchun juda qiyin va mas`uliyatli vazifa deb bilaman. Bu mas`uliyatli vazifaning uddasidan chiqish uchun tinmay ijodiy izlanishdaman”. O`sha yillari gazetada Zafar Diyor bilan birga ishlagan yozuvchi Hakim Nazir o`z esdaliklarida shunday yozadi: “Men Zafarni o`ylasam uni nuql shod-hurram bolalar qurshovida, quvnoq chehrasidan nur taralib, sertabassum lablaridan she`r durdonalari taralayotganday ko`raman. Chindanam u bolalarga juda yaqin edi. Maktablar va bolalar uylarida, kutubxona va bog`chalarda bot-bot bo`lar, yosh kitobxonlarga yangi-yangi she`rlarini bolalarcha muloyim, sodda, shirali ovoz bilan o`qib berar, ayrim she`rlarini yoddan juda o`xshatib deklamatsiya qilar, bolalarga ham she`r o`qitib eshitardi. Shunda u o`zining qaysi she`rlari bilan bolalar ko`rigidan yaxshi o`tganini, qaysi she`rini ko`proq sevib qolganlarini ko`rar, bolalarga yoqtirish uchun qanday she`rlar yozish lozimligini faxmlab olardi. “Biz bolalarga nuql o`rgatibgina qolmay, ulardan o`rganib ham turishimiz kerak”, derdi. Zafar Diyor 1935-yilda dastlabki mashhur asarlaridan biri bo`lgan “Mashinist” dostonini yaratdi. Dostondagi Ashur obrazi baxтиyor yoshlarning fazilatlarini umumlashtirishga bag`ishlangan. O`tgan asrning boshlarida yoshlarni o`qitish, ilmli, kasb-hunarli qilib etishtirish muhim ishlardan biri bo`lib turgan bir paytda “Mashinist”ning maydonga kelishi bolalar adabiyotida muhim voqeа bo`ladi.

Dostonning asosiy qahramoni Ashir g`irt yetim. Ko`cha-ko`ylarda sarson-sargardon bo`lib yurgan, o`g`irlik qilib tirikchilik o`tkazib yurgan bola dostonda yaxshi insonlarning ko`magi, yordami bilan katta bir kasb egasi – mashinist (poezd haydovchi) bo`lib kamol topishi kitobxon bolalarda katta taassurot qoldiradi. Davr, zamonning tuhfasi bois Ashir kasb-hunar egasi bo`lishdan tashqari, uning ongi va tushunchasi ham o`sadi. U Vatanga sadoqatli, har doim olg`a intiluvchi ilg`or yoshlardan biri bo`lib etishadi. Asar yoshlarning ilm-fanga, kasb-hunarga, ona-Vatanga muhabbat, sadoqat ruhida tarbiyalanishlarida muhim o`rin tutadi. Zafar Diyoring o`ttizinchи yillar ijodi vatanparvarlik, baynalmilallik va mehnatsevarlik tuyg`ularini aks ettiruvchi asarlarining ko`pligi bilan xarakterlidir. Bu xil asarlar yoshlар xarakterini shakllantirishda, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta rol o`ynab kelmoqda. Shoir

ijodidagi muhim mavzulardan biri inson va tabiat munosabati mavzuidir. “Binafsha”, “Navbahor”, “Qushlar haqida qo’shiq”, “Kapalak” singari she’rlari shular jumlasiga kiradi.

Rang-barang gullarni, turli-tuman qushlarni sevgan shoir bolalar ruhiyatini chuqur tahlil etib, ularni ham ona tabiatni sevishga va parvarish qilishga ruhlantiradi, yoshlarni mehnatdan zavqlanishga o’rgatadi. Shoir bolalarda qushlarga muhabbat hissini uyg`ota oladigan quvnoq vazn, o`ynoqi misralar yaratadi. Shoir dovyurak uchuvchilarning tarixda bиринчи bo`lib qutb yo`lini ochganligi bilan bolalarni tanishtirib, ularni chkalovlar kabi mard uchuvchi bo`lishga undaydi. Shoir endi bolalar fikrini boshqa narsaga – dunyoda aql-ongga, qudratga ega bo`lgan inson va uning ta’rifiga buradi. Zafar Diyor insonning quch-qudratini sodda, mazmunli, shirali, bolalar qalbiga tez etadigan iboralarda ifodalagan:

Shoir insonning aql-zakovati, kuch-qudrati haqida fikrlar ekan mubolag‘aga zo`r beradi, insonni hatto, tabiatni ham o`ziga bo`ysundiruvchi kuch sifatida ta’rif etadi. Albatta, bu fikrlar turg`unlik davrining oqibatidir. Negaki, “Sirdaryoning jilovlanishi” bugungi kunda xalqimizga qimmatga tushmoqda. Dostonda shu tariqa xalqimizning azaliy orzusi – cho`l-biyobonlarni bog`-rog`larga aylantirish o`zining badiiy ifodasini topgan. Zafar Diyor dostonning g‘oyaviy-badiiy mukammalligi uchun qattiq ijodiy mehnat qilgan. Asarning kompozitsion tuzilishi xalq ertaklariga yaqinligi bilan xarakterlidir. Shoir asarning sehrli, romantik, ya’ni g‘oyat ta’sirchan, o`qimishli bo`lishini ta’minalash uchun sodda, ajoyib badiiy – tasviriy vositalardan ustalik bilan foydalangan. Keng o`tloq, sahro, cho`llarning suvga tashnaligi va uning orzusi haqidagi “Bitta to`yib suv ichsak”, “Suv ber, menga suv bergen”, “Ko`ksimdan so`ng gul tergin”; sahro va uning shamoli to`g`risidagi “Eng g‘azabli, eng o`chli, xarsang toshday qotaman, misdek qizib yotaman”; davr kishilarining quch-qudratiga oid “Chinordek zo`r qomati, Go`ro`g`lidek savlati” kabi tasviriy vositalarga boy misralar fikrimizning dalilidir. Bu asar yosh kitobxonlarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalashi bilan muhimdir.

Zafar Diyoring ko`pgina asarlari mehnat mavzuiga bag`ishlangan. Ana shunday asarlaridan biri “Kichkina bog`bon haqida doston”dir. Dostonda bolalar va yoshlar dov-daraxtlarni ekish, parvarish qilishga

chaqirilib, mehnat zavqi va ahamiyati kuylanadi. Bu g‘oya Shotursun obrazi orqali ifodalanadi. Kichik qahramon otasi bilan birgalashib mevali daraxtlarni parvarish qilishga, “Qo‘lda kichik ketmon” bilan bog‘larni yashnatishga mehr qo`yib, mehnatda o‘zini ko`rsatadi. Zo`r g‘ayrat va katta ishtiyoq bilan ishga kirishgan Shotursunning o`zi parvarish qilib yurgan bir tup olmasi barvaqt pishib, mo`l-ko`l hosil beradi. Bola bir yili yalqovlikka berilib, olmaga qaramay qo`yadi. Olmaning bunday ayanchli ahvoli Shotursunga qattiq ta’sir qiladi va u o‘z xato-kamchiliklarini to`la anglaydi. Olmaning tilidan aytilgan, «Ish yoqmasga, yalqovga men ham endi dushmanman» deb, g‘ayrat bilan ish olib boradi. Zafar Diyor o`quvchida Shotursunga nisbatan mehr uyg`otadi, undan o`rnak olishga chaqiradi. Zafar Diyor o`zining “Amudaryo bo`yida” she’rida o`lka chegarachilarining lirik obrazini mahorat bilan chizgan. She’rda bolalarni chegara soqchilarining hayoti, ularning mas’uliyatli va faxrli burchi bilan tanishtiradi. Zafar Diyor ko`p she’rlarida vatanparvarlik, vatanga muhabbat g‘oyalari ilgari suradi. Bolalarni vatanning munosib farzandlari bo`lib etishishga undaydi. Buning uchun ularga bilim manbai bo`lgan kitobni sevib, fan asoslarini chuqur egallashlari zarurligini uqtiradi.

Zafar Diyor bugungi o`zbek bolalar dramaturgiyasi taraqqiyotiga ham barakali hissa qo`shti. U bolalar hayoti haqida “Baxtli yoshlik”, “Yosh vatanparvarlar”, “Omonat”, “Uch og‘ayni” kabi qator dramalar yozdi. O`zbek bolalar nasrini rivojlantirishga ham Zafar Diyor o‘z hissasini qo`shgan yozuvchilardan. Uning “Jo`natish”, “Cho`pon qizi”, “Nojo`yaliklar” kabi hikoyalari shular jumlasidandir. Zafar Diyor bolalar adabiyotining hamma janrlarida qalam tebratdi. U bolalarning talab-ehtiyojlarini hamda orzu-tilaklarini, turmushini, ruhiyatini puxta bilganligi uchun bolalarning yoshiga, ong-tushunchasiga moslab, g‘oyaviy-badiiy jihatdan pishiq asarlar yaratdi. Zafar Diyor turli yoshdagi bolalarning tilini yaxshi o`rganib, ular uchun sodda, ravon, shirali tilda, o`ynoqi vaznlarda ohandor, ta’sirchan she’rlar yozdi. Shoir o`zining qo`shiq va she’rlarida hamda boshqa asarlarida yosh kitobxonlarni ulug` yurtimizning behisob boyliklari bilan faxrlanishga, kelgusida yaxshi hayot bunyod etishlari uchun astoydil kurashuvchi, ongli, madaniyatli, vatanparvar kishilar bo`lib etishishlari uchun a’lo baholar bilan o`qishga chaqiradi. U yosh avlodni

mehnatga muhabbat bilan qarashga, rostgo`y va intizomli bo`lishga undadi, ularda vatanparvarlik, do`stlik tuyg`ularini o`stirishga katta e`tibor berdi. Uning asarlari davr bolalari va yoshlari uchun zavq bag`ishladi, ularni o`qish-o`rganish va kamol topish uchun ruhlantirdi.

O`zbek bolalar adabiyotining rivojlanishiga she'r, qo`sish, doston va ertaklari bilan juda katta hissa qo`shgan Zafar Diyorning asarlarini bolalar hamon sevib o`qiydilar va yuksak qadrlaydilar.

### **SHUKUR SA'DULLA (1912-1972)**

Shukur Sa'dulla 1912-yilning 15-yanvarida Jizzax shahrining Toshkentlik mahallasida xizmatchi oilasida tugildi. U 7 yoshga to'lganda mahalladagi eski maktabga boradi va u yerda tez savod chiqaradi, so`ngra yangi tashkil etilgan Narimonov nomli maktabda o'qishni davom ettiradi. 12 yoshida maktabni bitirgach, bilimini yanada oshirish maqsadida 1924-yilda Samarqand shahriga kelib, Pedagogika bilim yurtiga kiradi. Xuddi shu maskanda adabiyotga bir umr bog`lanadi, she'r mashqiga jiddiy beriladi.

Sh. Sa'dullaning dastlabki she'rlari, asosan, kattalarga mo`ljallangan. Ular shoirning o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy hodisalardan olgan taassurotlarining ifodasi tarzida buniyodga kelgan. Shoirning ana shu mavzudagi she'rlari 1932-yilda „Hayqiriq“ nomi ostida maxsus to'plam shaklida Toshkentda chop etilgan. O'n bir she'r va bir kichik poemani o'z ichiga olgan bu birinchi kitobning nomlanishi ham ramziy xarakterda edi. Bu davrda Samarqandda (1929-yilning boshida) bolalar adabiyoti to'g'risida kengash bo`lib o'tadi. Kengash Sh. Sa'dullaga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Unda quvnoq bolajonlaming baxtiyor hayotini ifodalash tuyg`usi kuchayadi.

Toshkent va Buxoro o'quv yurtlarida taiim olayotgan Zafar Diyor, Ilyos Muslim, Sulton Joialar bolalar uchun yozish an'anasi boshlab bergen edilar. Sh. Sa'dulla ular bilan bir safda turib, ijod qila boshladи. 1931-yilda O'zbekiston Davlat nashriyotining bolalar va yoshlар adabiyoti boiimiga muharrirlikka ishga taklif etiladi.

1950-yilda Sh. Sa'dulla I. Muslim bilan hamkorlikda bolalar shoiri S. Marshakning „She'r va ertaklar“ asarini o'zbek kitobxonlariga tortiq etishdi. Shuningdek, Sh. Sa'dulla daniyalik mashhur ertakchi G. X.

Andersen, rus yozuvchisi N. A. Nekrasovning asarlarini, L. Tolstoy va B. Jitkovning hikoyalalarini, bolalar shoirlari M. Kvitko, A. Barto, M. Mirshakar, O. Bedyorov, M. Fayzulina she'rlami, V. Lebedov-Kumechning yoshlik taronalarini, B. Gorbatovning „Bo‘ysunmaganlar“ (1953), V. Oseyevaning „Vasyok Trubachev va uning o‘rtoqlari“ (1954) povestlarini, Korney Chukovskiyning „Doktor Voyjonim“ (1966) asarini ona tilimizga taijima qilgan.

### ***AYIQ***

O‘rmonda bo‘lganmisiz?  
Ayiqli ko‘rganmisiz?  
Ustida po‘stini bor,  
Pisand emas unga qor.  
Men uning naslidanman,  
Ayiqning aslidanman.  
Otamdan qoldi po‘stin,  
O‘sha po‘stin menga to‘n.  
Farqim shu: men qo‘g‘irchoq,  
Bolalarga o‘yinchoq!

### ***BUZOQ***

Men buzoqman, buzoqman,  
Shoxim chiqqan — suzoqman.  
Lekin yumdalab tortmang,  
U yon-bu yonga otmang.  
Iflos yerga yo‘latmang,  
O‘yinchoqman, qulatmang.  
Buksangiz qayrilaman,  
Oyoqdan ayrilaman.  
Sigir bolmayman unda,  
Qaymoq bermayman kunda.  
Mayli, o‘ynang erta-kech,  
Lekin ozor bermang hech!

## ***TOYCHOQ***

Toychog‘im bor — uchqur ot,  
Quralay ko‘z — tulpor zot.  
Egar-jabduq uraman,  
Minib, olg‘a suraman.  
O‘zi yog‘och, yoli qil,  
Ovunchog‘im, olg‘a yel!

## ***ULOQCHAM***

Kichkina qora — uloq,  
O‘ynar oshib umbaloq,  
Men bilan inoq, o‘rtoq.  
Ko‘kat bersam yamlaydi,  
Orqamdan hech qolmaydi.  
Kappalaydi o‘t bersam,  
O‘ynaydi quloch kersam,  
Suzadi musht o‘qtalsam.  
Boshchasida shoxi bor,  
Dumchasida oqi bor.

## ***MITTI***

Mitti degan mushugim,  
O‘taketgan olg‘ir, shum.  
Mitti pojlab turadi.  
Sichqonvoyni ko‘radi.  
Sichqon mushukni ko‘rib,  
Qochar teshikka urib.  
Sichqon qochib qutular,  
Mushuk esa tutilar.

## **Savol va topshiriqlar**

1. Zafar Diyor qachon va qayerda tug‘ilgan?
2. Zafar Diyor asarlarida qaysi mavzular ko‘proq aks etgan?

3. Adibning o‘zbek adabiyotiga qo‘sghan eng muhim hissasi nima?
4. Zafar Diyor qaysi mukofotlar bilan taqdirlangan?
5. Shukur Sa’dulla qachon va qayerda tug‘ilgan?
6. U qaysi adabiy yo‘nalishda ijod qilgan?
7. Adibning asarlari boshqa ijodkorlar tomonidan qay darajada tadqiq etilgan?
8. Shukur Sa’dulla ijodida zamonaviy masalalar qanday aks etgan?

## **9-MAVZU: MAHMUD MUROD VA KAVSAR TURDIYEVA IJODI**

### **REJA:**

1. Kavsar Turdiyeva ijodida beg ubor bolalik taronalarini
2. Kavsar Turdiyeva ijodida ta lim-tarbiya uyg'unligi
3. Kavsar Turdiyeva ijodida ma naviy-axloqiy tarbiya masalasi

Maktabgacha ta lim va mактаб yoshidagi kichik bolalarning sevimli shoirasi Kavsar Turdiyevaning ijodiy tarjimai holi ko'plab qalamkash tengdoshlari tarjimai holidan keskin farq qilmaydi. Hali bolaligdayoq badiiy so'zga kuchli ishtiyoy havas, umid va ishonch ilk qalamalarming matbuotda e'lon qilinishidagi his-hayajon unga ham begona emas. Ziyolilar oilasidagi ijodiy muhi uning qo'liga galam taqigan bo'la o qituvchilik kasbi ijodiga ta limiy tarbiyaviy me ne yakladi Biz shunaqa bolamiz Antonim va smonim Albala nasihat Topishmoqli alilbe Harflar o'yini Sehrli harflar oroli "Harflar ustaxonasi Qofiyali topishmoqlar Qarorlar her yozhgani haqida Raqamlar boylab sayohat kal sarlavhalardan ham ma'lumki shoma biror qaror raqam so'z sa imloga od tushunchalar zamiriga savodxonlik va ma naviy axloqiy tarbiyaga oid qarashlarini singdiradi Jumladan, "A harfi sing shakliga ko's abil-moqliknii targ'ib qilsa. O harfi misolida my qisqichbaq qarqumoq qarga so clarida kelishiga e'tibor gatish hilan sa qilmaslikka da yat qiladi. Harflar she'r yozish gani haqida she'rida alifbedagi barcha harflar bir joyga joylab nima haqida yozish kerakligi xususida qizg in halsga kirishadilar A harfi ahillikda gap ko pligini aytish lalan hammani akil bo'lishga chaqirsa, "O oqlikni ma qullaydi, " bo'g m bo'rini maqtashga tushadi "Qofiyali topishmoqlar she'rida farqli o'laroq gramina tik tushunchalar orqali kichik kitobxonni o'ylashga undaydi. Masalan

"Q" dan boshlansam qachon

Qarangiz poliz tomon

S" dan boshlansam har chog'

Tozalikka men hamroh

Mazkur topishmoq she'rni mutolaa qilgan, eshitgan o'quvchi uning javobni tepish uchun polizda nimalar yetishtirilishi, tozalik ning nimaga bog'liq ekanligi ustida bosh qotirish bilan qovun,sovun supergi sozlari xususida to'xtamga kelishadi.

"Alifbe-o'gitda. - deb yozadi B. Jamilova shoiraning mazkur mavzudagi ijodiy izlanishlari xususida - harflarga mos so'z va ular dan yaxshilik xislatini topish, she'riy shakl, qofiya, vaznga solish jodkor mahoratidan dalolat, albatta Ayni paytda bunday o'gitlami Alife darsliklariga kiritish, tovush va harflarni o'tishda rang haranglikka erishilishiga olib keladi. Bu alifbe she'rning pandnoma ko'rish ham mumtoz adabiyotdagi an'analarning qayta tiklanishi fanda tiliga loyiq

"Raqamlar bo'y lab sayohat" ham shu xildagi izlanishlar mahsulidir Harflardan farqli o'laroq o'ngacha bo'lgan har bir raqam misoliy o'da sam bilan bog'liq biror tarbiyaviy g'oya ilgari suriladi. Masalan, bir raqami zamirida oy, quyosh, vatan va onaning yagmaligi, Akida ko`z qulqoq, oyoq va qo'llarning juftligi hamda yomon bal ekanligi, uch raqamida bir, ikki, uch, uchdan keyin puck degan fulklor asarlaridagi qaltis vaziyatlarda shart qo'yish anan tilga olinadi.

Bir-mitti raqam,  
Ko'kda bitta oy  
U ikkidan kam,  
Sochadi chiroy,  
Va bitta quyosh  
Bittadir yana  
Ufqqa qo'yar bosh  
Vatan va ona

Ko'rindiki, raqamlar bilan bog'liq tushunchalar shunchaki eslatilmaydi, balki o'quvchining dunyoqarashini boyitish, tafakkuri ni yuksaltirish ko'zda tutiladi.

Shoira bolalar uchun asar yozganda ularlar xarakterining o'ziga xosligini, har narsaga hayrat bilan boqishi, hamma narsa ularga qiziq tuyulishini unutmeydi. Negaki bolalar har bir narsani ilk bor ko'radi, har bir narsaga qarab dunyonи o'zicha ilk bor kashf eta boradi. bundan beqiyos quvonadi. Shoira ana shu kashfiyotni tasvirlashga harakat qiladi. She'rlari bola tilida, oddiy va ravon ifoda yo'sinida bo'lsa-da, teran fikr, keng mushohada va uchqur xayol suratini o'zida aks ettiradi. Ularda goh murg'ak qalbning beg ubor orzu-umidlari, goh kattalarga xos falsafa bo'y ko'rsatadi. Shoiraning tarbiyaviy xis lati yuksak, tasvirga boy, musiqiy ohangga yo'g'rilgan to'rt yuzdan ziyod she'rlariga taniqli bastakorlar tomonidan kuy bastalanib, qo'shiqlar yaratilgan. Bu asarlar bolalar qalbining beg'ubor keng liklarini ochib berishga, ularning nozik ruhiy qalb

jarayonlarini ko'r satishga bag'ishlangandir. Ammo ana shu jarayonda ma'naviy va axloqiy tarbiya bolalar shoirasining diqqat markazidan bir soniya ham nari ketmaydi. Zero, Kavsar Turdiyevaning bolalar adapiyoti tadqiqotchilligiga bag'ishlangan ishlari ham talaygina. Uning 1994 yil filologiya fanlari doktori, professor H Abdusamatov ilmiy rahbarligida yoqlagan nomzodlik dissertatsiya-sining nomi ham "Hozirgi zamon o'zbek bolalar she'riyatida ma'naviyat muammo lan mavzusiga bag'ishlangan.

Kavsar Turdiyeva bolalar uchun she'r yozarkan, o'zi ham bolaga aylanadi. Kitobxонни kichkintoylarning schrli dunyosiga yetaklab ketadi. She'rlarida hayvonot olami-yu o'simliklar dunyosi bilan bolalarni tanishtirib boradi. Masalan, "Hayvonot bog'i she'rida muallif 50ga yaqin jonivor haqida yozadi. O'rmon shohi sherdan tortib, ayiq, bo'ri, begimot, kaltakesak, xonqizi, jirafa, quyon, kenguru, delfinu qush turlarigacha - barcha jonzotlarni bolalarga xos sodda o'ynoqi misralarda tasvirlab, ularning hayvonot olami bo'yicha tasavvurini boyitadi.

Mana hayvonot bog'i,  
-Hayvonlarning yotog'i  
Go'yo kattakon qayiq,  
Hovuzda suzar Ayiq  
Sakrab o'ynadi Qoplon,  
Unga qo'shnidir Sherxon.  
Juda, juda katta Fil  
Afrikadan kelgan, bil  
-Katakda menman zo'ri,  
Shumshayib qarar bo'ri  
Huda chaqqin va quvnoq  
Maymun oshar o`mbaloq  
-Uyqum kelyapti. Oh!,  
Tinmay yig'laydi timsoh  
Nimagadir tuyalar,  
O'rkachidan uyalar  
Barchasini tomosha  
Qildik biz katak osha

*"Hayvonot bog'i"*

Shoiraning "Xatolar mamlakatida", "Baxillik haqida rivoyat" ertaklarida tasvir markazlariga qo‘yilgan muammoga o‘qituvchining ziyrak nigohi, bolalar qalbiga ezgulik urug‘ini sepuvchi g‘amxo‘r murabbiy tasavvuri orqali yondashiladi.

Gap shundaki, maktab yoshidagi kichik bolalarga mo‘ljallangan "Xatolar mamlakati" ertagining qahramoni Farhod ismli bola akasiga xatolardan iborat xat yozib kulgili ahvolga tushadi. O‘quvchi diqqati savodxonlik masalasiga qaratilgan ushbu xat "Aziz akajon" – deb boshlanadi. "Sizni juda sog‘indim. Tushlarimda xato ko‘rib chiqaman Yangiliklar ko‘p. Qo‘srimiz moshina oldi Asil mol ekan. Baqa, qachon kelasiz? Hovlimizda to‘k o‘sib ketdi. Sizga aytsam, Olim aka uyini qirdi. Ko‘chamiz kurka bo‘ldi. Xayr Ukangiz"

Ertakdagi ushbu xat badiiy detal sifatida savodsizlik kishini kulgili ahvolga solib qo‘ya qolmasdan, ma’naviy qashshoqlik omili ham ekanligi xususida muallif g‘oyasini anglashga yo‘naltirilganligi bilan ham asar syujetida muhim o‘rin tutadi

Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoki axloq", Hamzaning "Qiroat" kitobiga kirgan ma’naviy-axloqiy mavzudagi asarlariga hamohang, xalq ertaklari ruhidagi "Baxillik haqida rivoyat" ertagida baxilligi tufayli o‘limga mahkum qilingan chol-kampirning fojiali qismati saxiylik va baxillik haqidagi azaliy ziddiyatning bir ko‘ri nishi sifatida o‘quvchini besfarq qoldirmaydi. Inson fe'l-atvoridagi jamiki fazilat-u illatlar hali bolalikdayoq qay darajadadir kurtak holida nish urishi nazarda tutilsa, baxillikning kulfat keltirishi haqidagi yetakchi g‘oya mohiyatini anglash qiyin kechmaydi.

Shoiraning "G‘alati nasihat" she‘ri mazmunidagi o‘git g‘ayri tabiyligi bilan ajralib turadi. Gap shundaki, lirk qahramon tamaki chekayotgan o‘spiringa chekishning salomatlik uchun zararini zarar deb emas, aksincha ataylab tamaki chekkan odamni kuchuk qop masligi uyini o‘g‘ri bosmasligi va qarimasligini aytib uch karra foydali deb hazil-mazax qiladi. Kaysar Turdiyevaning bolalarga atab yozgan she‘rlari yosh kitobxoni ezgulik va yaxshilikka chorlaydi, ularni chin inson qilib tarbiyalashda, Vatanga sadoqatli bo‘lishda xolisona xizmat qiladi. Ijodkor o‘zbek bolalar adabiyotini jahon xalqlari ijod namunalari bilan boyitishga ham hissa qo‘shib keladi Raim Farhodiy, Samuel Marshak Komney Chukovskiy va Abdulla To‘qay asarlari uning tarjimasida chop etilgan. Shoiraning ham bir qator she‘rlari rus shoiri Yary Mogutin tarjimasida

Moskvadagi "Murzilka" bolalar jurnalida "Yangi yil ertagi" nomli kitobi rus va koreys tillarida, "Nor va Qorbola ertagi Koreyada uch tilda e'lon qilingan.

Kavsar Turdiyeva ssenariychi sifatida faol ishlamoqda. Uning "Zumrasha" hajviy kinojurnali uchun ishlagan "Ma'naviyatli bo'laylik", "Sumalak va ming tilak", "Yodlasam bo'lmasmidi?" kabi mavzudagi ishlari yuqori baholangan. Uning mult-filmlar, telefilmlar uchun yozgan qo'shiqlari ham ommalashib ketdi. Shoiraning "Irkitvoy va Kirketjon" nomli multfilmi va M. To'ychiyev bilan hamkorlikda yozgan "Katta oyи" badiiy filmini "O'zbektelefilm" kinostudiysi ekranlashtirilgan.

Kavsar Sheraliyevnaning she'rlari asosida yozilgan qo'shiqlar katta ommaviy tadbirdorda, jumladan Toshkentning 2200 yilligi, Shanxay hamkorligi, Navro'z, Mustaqillik. O'qituvchilar kuni, Konstitutsiya kuni, Vatan himoya-chilari kuni bayramlarida, "Barkamol avlod", "Umid nihollari" sport o'yinlari tantanalarida ijro etiladi. 12 yildan beri shoira Prezident archasi uchun qo'shiqlar matni va she'rlar yozadi. 300 dan ortiq qo'shiq matni muallifi hisoblanadi. Kavsar Turdiyevaning o'zbek, rus, lotin tillari fanlaridan darsliklari, o'quv uslubiy qo'llanmalari, monografiyasi, shuningdek, Rossiya, Qozog'istonda ko'plab ilmiy va ilmiy-uslubiy maqolalari chop etilgan.

K. Turdiyeva nafaqat shoira, balki nadqiqotchi olma sifatida ham badiiy ijod sirlarini nozik his etadi. Jumladan, H. Imonberdiyev ning "Imtihonda" degan she'ri haqida shunday deb yozadi: "H. Imonberdiyevning "Imtihonda" degan she'ri feleton va xalq yumoristik "Vohay bola". "Qilpillama" kabi xalq qo'shiqlari sintezi sifatida paydo bo'lib, mazkur chatishuv bolalar she'rining o'ynoqi va quvnoq chiqishiga asos bo'lgan. O'qituvchilar ko'z o'ngida do stiga shpar galka tashlagan Teshmatning sharmanda bo'lishi ta'sirli tarzda ko'rindi:

Javobin yozib ol, Esh,  
Vohay bola  
Birinchisi ellik besh,  
Jon bola  
Ikkinchisi qirq olti,  
Vohay bola, dod ey  
Endi masala qoldi, jon bola,  
Yozma ish davom etar  
Ashula qizib ketar

-Sezdirib qo'yma Eshmat,

- Qilpillama!

Postida shaydir Toshmat

-Qilpillama!

Masalani yozib ol!

-Qilpillama, dod ey!

Javobi o'n besh ro'mol

Qilpillama

### *"Qilpillama"*

Anvar Obidjonning ijodi haqida quyidagilarni qayd etadi "Anvar Obidjon Vatanparvarlik mavzusiga yangicha yondashadi. U Vatanga muhabbatni ulug'laydi. Vatandan-onadan ajralish qanchalik fojea ekanligini ko'rsatib beradi. O'g'irlangan pahlavon onasi bilan o'z ona tilida so'zlasha olmaydi. Ona esa sal bo'limganda o'g lining qotiliga aylanishi mumkin edi. Anvar Obidjon bu bilan o'zi sezma gan holda o'z davrining milliy masala va uning fojealari, taqdiri masalasiga ham yondashadi. Ya'ni, boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy manqurtlikning bir ko'rinishi bo'lgan bu ayanchli holni bolalar ko'z o'ngida ta'sichan va yorqin gavdalantiradi. Ona tilining yo'q bo'lishi eng yaqin kishilarni bir-biriga dushman va qotil qilib qo'yadi.

Shoira qo'liga qalam tutqazgan oilaviy, adabiy-madaniy ijodiy muhit haqida shunday yozadi "Mening bolaligim va umuman hayotim kitoblar dunyosi ichida o'tgan desam mubolag'a bo'lmaydi. Chunki ota-onam, hattoki bobo-buvilarim kitobni nihoyatda ardoq lashgan Yoshligimdan ikki tomlik O'zbek xalq ertaklari chop etilishi butun oilamiz uchun bayram bo'lgani esimda Otaonam ertaklarni muntazam bizga o'qib berishsa, 60 dan oshgan, mashinalar chilan gari bo'lib ishlagan bobom ko'zoynaklarini taqib olib kirill alifbosi dagi ertaklari maroq bilan o'qigani hozir ham ko'z o'ngimda. Dadam "Uch og'a ini botirlar" ertagidan ota nasihatini, Pushkinding "Oltin baliq haqidagi ertagini, L. Tolstoyning "Odamga qancha yer kerak degan hikoyasini doim takrorlar edilar. Bu ertak va hikoyalar har bir davr va har bir yosh uchun o'ta ibratli hikoyalar Uyimiz hamisha kitoblarga boy bo'lgan. Kutubxonamizdan hamma qo'shni lar, tanishlar foydalanishar, nima kitob kerak bo'lsa so'rab chiqishar edi. Oilamizda kitob nondek muqaddas edi. Biror kitob yirtilganini ko'rgan ota-onam juda xafa bo'lishardi. Ota-onam doimiy ravishda bizni kitoblardan mustaqil ma'lumotlarni

izlashga undar edilar. Hattoki biror ruscha so‘zning tarjimasiga qiynalib turganimda, javobni bilib turgan ota-onam "lug'atga qara!" deb turishar edi. Buning sababini sal keyinroq angladim Chunki lug'atda so‘zning sinonimlari, ularning kontekstda aks ettirilishi ham mavjud. Lug'atga doimiy murojaat qilish orqali so‘zning xotirada saqlanishi yanada mustahkamlanadi. Maktab davrida juda ham sevib o‘qigan asarim Daniel Defoning "Robinzon Kruzo si edi. Shu kitobdan keyin katta asarlarni ketma-ket mutolaa qila boshlaganman. Otaonam taniqli adabiyotshunos Sherli Turdiyev va tilshunos olima Gulshoda Muhammadjonovalar (Olloh ulami rahmatiga olgan bo‘lsin) har birimizda kitobga mehr uyg'ota olganlar. Hozir ham nafaqat badiiy va adabiyotshunoslikka oid, hattoki ukam qiziqqan Pele - futbol qiroli kitobida ham dadamlarning qalamda yozgan so‘zlari, belgi larini uchratish mumkin. Bunda dadam Pelening otaonasi haqida, tarbiya yo do‘satlari haqida deb belgilar qo‘yanlar. Ota-onam izoh lari va belgilariga qarab ular nafaqat menga, balki keyingi avlodlarga ham ushbu kitoblardagi inson tarbiysi uchun zarur qismlarini ajratib, o‘qish, e’tibor berish uchun tavsiya qilayotgandek tuyuladi. Bolaligimda qiziq voqeа bo‘lgan. Besh-olti yoshman, chamasi Kechqurun uxbor yotsam, karavotim atrofida kiyikcha o‘ynab yurgandek tuyuldi. Yaxshilab qarasam, o‘yinchoq kiyikcha dikirlab yuribdi. Bu tushmidi yo o‘ngimmi, aniq bilmayman. Lekin qorong'u xonada nur ichida o‘ynab yurgan o‘sha kiyikcha hamon ko‘z o‘ngimda. Onamni uyg'otib chiroqni yoqqanimizda esa u allaqachon g'oyib bo‘lgandi Asta-sekin ulg'aya boshlagach yuragimda bir ohang bordek tuyulardi. O‘zimcha she'r, qo‘sish, ertaklarni xirgoyi qilib yurardim. Yo‘lda uchragan narsani gapga ulab ertak to‘qib kelaverar ekanman. O‘shanda onam darrov o‘zlari foydalanadigan kartochkalardan besholtitasini birlashtirib, kitobcha yasah bergen Unga birgalikda ertak yozganmiz, o‘zim rasmlar chizganman. Kitob ustiga onam Kavsarning birinchi kitobi deb yozib qo‘ygandi Bolalik xayolotida yaralgan ertaklarim shu tarzda kartochkalardan tikilgan o‘nta kitobchaga muhrlangan. Onam leksikolog olima edi. Tadqiqot ishi leksikologiya taraqqiyotini o‘rganish bilan bog liq bo‘lib, badiiy asarlar publisistik materiallardan kichik matn olib. tadqiq qilar yillar davomida leksikologiya taraqqiyotida yuz bergen o‘zgarishlarni o‘rganardi. Onam dissertatsiyasini yozar, men esa yonida o‘tirib o‘z kitob imni to Idirish, rasm chizish bilan mashg’ul bo‘lardim Bir kuni uyimizga onamning dugonasi rang-barang ertak kitoblarni ko‘tarib keldi.

Bolalari katta bo'lgach, kitoblar har yerda sochilib yotishini istamay ularni menga olib kelgan ekan Bir-biridan qiziqarli, bezakli, muqovalari qalin ertak kitoblarni kechqurunlari onam o'qib berardi. Ayniqsa, tobim qochsa, u kishi boshimda o'trib tinimsiz ertak o'qib bergani uchun kasal bo'lishni juda yaxshi ko'rardim Bu aslida kitobga bo'lgan mehrdan nishona ekan.

Esimda, otam uyg'a har safar qo'lida biror yangi kitob bilan kirib kelardi. U kishi biz farzandlarining qiziqishiga qarab kitob tanlardi. Bolalar adabiyotiga havasim, ertaksevarligim tufayli menga bola larga xos badiiy kitoblar olib berardi. Ukamga ham xuddi shunday qiziqishiga mos kitoblar olib kelardi Ota-onam bizni hech urishmas muloyimlik va mehr bilan ulg aytirishgan. Buvim ham ko'p ertak larni yoddan bilardi. Ulardan tatar rus xalq ertaklarini miriqib eshitardim Ayniqsa, Abdulla To'qayning bolaligi, qiyinchilik bilan o'tgan hayoti haqidagi rivoyatlarni eshitganimda bola qalbim qay guga cho mardi. Adabiyot, so'z schri shu tariqa yuragimda go'zal tuyg'ularni tarbiyalagan, meningcha. Buvim, onam sabab o'zbek rus, tatar adabiyotidan bahramand bo'ldim Ulardan eshitgan ertaklar olamida ulg'aydim. Va o'zim kabi ertaksevar, she rsevar bolalar uchun qo'limga qalam oldim. O'quvchilik yillari turli adabiy to'garaklarga borardik Ilk she'rim Tong" sarlavhasi bilan hozirgi Tong yulduzi gazetasida bosilgan. Bir gal "Gulxan dagi to panak mashg'ulotimizga O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov tashrif buyurgan She'rلаримни o'qib mamnun bo'lganlari esimda Izzat Sulton, Asqad Muxtor ham yozganlarim haqida iliq fikr bildirishgan Bularning barchasi menga qanot bo'lgan Shoiraning birinchi kitobi "Varrak" 1983-yili nashr etilgan bo'lsa shundan so'ng "O'ynayapman, o'ylayapman" (1987), "Qush bolib uchgan ona" (1994), "Raqamlar bo'ylab sayohat" (2002) kitoblar bosmadan chiqadi Bolalar dramaturgi sifatida Toshkesarlar mam latakida" degan sahna asarini yaratadi. U Samarqand qo'g'irchoq teatri tomonidan sahnalaشتirilib, qo'g'irchog' teatrлари festivalida 1 o'ringa loyiq ko'rildi

2009-yilda adabiyot yo'nalishi bo'yicha Eng ulug' eng aziz" tanlovining g'olibi bo'lgan Kavsar Turdiyeva 2010-yil yakunlari bo'yicha "Bolalarning sevimli shoirasi nominatsiyasini qo'lga kiritdi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Kavsar Turdiyeva 20 dan ziyod badiiy kitoblar muallifi bo'lib Toshkesarlar mamlaka tida" nomli sahna asari "Sog'lom avlod yilda o'tkazilgan dramatik asarlar tanlovida 3-o'ringa loyiq ko'rildi. 2004-yil YUNISEF

tashkiloti tomonidan o'tkazilgan tanlovda ham "Tozalik gozallik kitobi 3-o'rin bilan taqdirlangan. "Zumrasha hajviy jurnalida uning ssenariysi asosida "Katta oyi filmi, "Irkitvoy va Kirkitjon" "Sumalak va ming tilak". "Zumrad va Qimmat multiplikatsion filmlari suratga olingan Turkiston saroyida o'tkaziladigan Prezident archasi bayramining madhiya qo'shig'i muallifi hisoblanadi. Ingliz tilini o'rganishga mo'ljallangan "O'ynab, o'ylab o'rganamiz" nomli kitobi nashr etilgan

Quyida bir xil mavzuning ikki xil talqinini muqoyasa qilish uchun K. Turdiyevning "G'alati nasihat" va "A.Abdurazzoqning "Ikki xil nasihat she'rlari matni keltirildi

### **G'alati nasihat**

Bir kun yo'lda  
Bir o'spirin,  
Turar edi tamaki tortib  
"Balli" dedim yelkaga qoqib  
Va so'zladim chekkaga tortib  
Tamakini chaksang zindan,  
Uch karra sen ko'rursan foyda  
Kuchuk qopmas, uyingni o'g'ri  
Urmas sira bor joyda  
U-chi hayron solardi quloq  
Qarimaysan sira azizim  
Tushunmasdan turardi so'zim  
So'ng gapinga berdim men izoh  
- Kuchuk qopmas, chunki qadding dol  
Suyanasan hassa- tayoqqa  
O'pkang chirib, yo'talsang xur-xur  
Og'ri kirmas sira sen yoqqa  
Yana bir sir –qarimasliging,  
Yosh joningga zahar qilar qasd.  
Olib ketar umring yarmini  
Xumor bilan seni qilib mast

**Kavsar Turdiyeva**

## **Ikki xil nasihat**

**Aziz Abdurazzoq**

Xo‘roz debdi jo‘jalarga  
Chiqavermang ko‘chalarga  
Mushuk degan zo‘r kasofat,  
Keltirmasin bir falokat  
Yeb qo‘ymasin bittangizni  
Yoki bir-bir hammangizni  
O‘ynasangiz, mana hovli  
Dushmanlardan juda holi  
Katta bo‘lib, bo‘lib bardam,  
Chiqarsizlar ko‘chaga ham  
Hozirchalik shunday yuring  
Shunda o‘ynang, shunda kuling  
Tovuq debdi jo‘jalarga:  
- Chiqavering ko‘chalarga  
Endi sizlar kap-kattasiz,  
Aqilisis, albatta siz

Mushuk bilan olisharsiz.  
Kuch yetgancha solisharsiz.  
Bu ikki xil nasihatdan,  
Jo‘ja dillar bo‘lib vayron,  
Na ko‘chaga chiqarmishlar.  
Va na uyga kirarmishlar  
Ikki turlik haqiqatdan  
Suhbat qurib hayron-hayron  
Bir qarorga kelibdilar,  
Bilganlarin qilibdilar

### **Savol va topshiriqlar**

- 1.K. Turdiyevaning badiiy va ilmiy ijod bilan shug'ullanishiga qanday omillar sabab bo‘lgan?
- 2.K. Turdiyeva ijodida ta’lim-tarbiya uyg'unligi deganda nimani

tushunasiz?

3. Bolalar adabiyoti" va "Ma'naviyat tarbiyasi" tushunchalari o'zaro qanday aloqadorlikka ega?

4. "G'alati nasihat" va "Ikki xil nasihat" she'rlari badiiy ifoda sidagi mushtarak va farqli jihatlarni qiyosiy tahlil qilib aniqlang.

## **10-MAVZU: MAKTAB YOSHDAGI KICHIK BOLALAR ADABIYOTI. QUDDUS MUHAMMADIY VA PO'LAT MO'MIN HAYOTI VA IJODI**

### **REJA:**

1. Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi
2. Quddus Muhammadiyning bolalar adabiyotiga qo'shgan hissasi
3. Po'lat Mo'min bolalar shoiri

Bu yoshdagi bolalar kitobxonligi avvalgisidan bir oz farq qiladi. Bu farq bolalaming yoshi va bilim saviyasi bilan bog'liq. M aktabgacha ta 'lim yoshidagi bolalar asosan tarbiyachilari, ota-onalari yordam ida badiiy asarlar bilan tanishsalar, boshlang'ich sinf o'quvchilari bu ishni mustaqil bajaradilar. Mustaqillik ularga ishonch va zavq-shavq bag'ishlaydi. Bu yoshdagi bolalami tevarak-atrofdagi turli voqeа-hodisalar nihoyatda qiziqtiradi. Ulaming bizni qurshagan olam haqidagi savollariga badiiy asarlarda mufassal javob berilgan. 11-12 yoshdagi bolalar sehrli, fantastik ertak, sarguzasht, xikoya, qissa va dostonlarni sevib o'qiydilar. Olloyoming «Fazogir chumoli» (ertakqissa), Anvar Obidjonning «Dahshatli Meshpolvon» (ertak-qissa), Quddus Muhammadiyning «Erkinjon oyga chiqibdi\* (doston ), Yusuf Shom ansurning «Oydan kelgan bolalar» (doston) kabi asarlar shu yoshdagi bolalarga mo'ljallab yozilgan.

Bu yoshdagi bolalar o'zлari mustaqil ravishda kitob o'qib qolmay, balki o'qigan kitoblaridagi qahramonlaming xatti-harakatlarini baholashga o'r ganadilar, zarur bo'lsa ular ko'isatgan mardlik vajasoratlami takrorlashga hozirlanadilar.

O'tgan asrning 30-yillari o'zbek bolalar adabiyoti tarixida G'ayratiy, S.Jo'ra, Z.Diyor, M.Fayziy, D.Oppoqova, A.Rahmat, H.Nazir, I.Muslim kabi professional bolalar yozuvchilarining yetishib chiqishi bilan xarakterlanadi.Ularning ichida Quddus Muhammadiy ijodi alohida o'rin tutadi.

Biologiya o'qituvchisi sifatida tabiatshunoslik darslarini she'riy usulda tashkil qilishi, "Yosh tabiatshunoslari" to'garagida ijodkor o'quvchilar bilan olib borgan mashg'ulotlari uni bir umr bolalar adabiyotiga bog'lab qo'ydi.Tabiat va inson kamoloti ijodining bosh mavzusi bo'lib qoldi.

“Maktab hovlisida, - deb yozgan edi shoir keyinchalik, - u yoqdan bu yoqqa yurib, dars mavzulari, ildiz, barg, gullarni qanday qilib o‘quvchilarning ko‘z o‘ngida qiziq qilib ko‘rsatishni o‘ylardim”.

Shoirning so‘ziga ko‘ra o‘qituvchilik kasbi uning shoir bo‘lishiga sabablardan biri. Bu haqda uning o‘zi shunday shunday yozadi:

“Darslarni qiziqarli o‘tkazish uchun she’rlarim rosa ish berardi. O‘tadigan har bir darsim mavzui yuzasidan she’r yozib, o‘qib berardim. Natijada, darsim o‘quvchilarimga qo‘shiqdek yoqimli bo‘lib,yaxshi yetib borardi.Sherning bolaga bunday tez singishini ko‘rib, “Bargjon” degan she’rimni yozdim.O‘sha she’rdan bir bandini ko‘ring-a:

Dov-daraxt ilmin sevsang,

Bargjon tilin bilib ol.

Shildir-shildir qo‘shig‘in

Qulog‘ingga ilib ol!

Shuningdek, “Momaqaymoq” (Qoqi o‘t ), “Bog‘imizda bir nok bor”, “Tut”, “Tolim gullaydi-yu, nega meva tugmaydi”, “Tok daraxti bir xil-u,uzumi nega har xil”, “Shaftoli-doktor”, “Asalari-Adhamjon” kabi qator she’rlarim o‘qituvchilik paytimda yozildi. Bu voqeadan xabar tobgan maktabimiz direktori marhum Ashrafxo‘ja Sharifxo‘jayev bir kuni darsimni kuzatdi. Darsimni tugatib,o‘qituvchilar xonasiga kirdim.Ashrafxo‘ja aka darsni qiziqarli o‘tkazganimi aytib, she’rlarimdan o‘qib berishimni iltimos qildilar. Maktabimiz o‘qituvchi va o‘quvchilari huzurida u kishining iltimoslarini bajo keltirdim”<sup>1</sup>.

Shoirning “Tabiat alifbosi”, “Cho‘pon bobo qo‘shig‘i”, “Qanotli do‘stlar”, “Bog‘larda bahor”, “Odam-olam qo‘shig‘i”, “Dono boboning nevara chevaralari”, “Ochil dasturxon” kabi to‘plamlarining nomlanishidan ham ma’lumki, tabiat haqidagi she’rlarining mazmun-mundarijasi xiyla keng. Bir guruh she’rlarida tabiat manzarasi yoki uning biror xarakterli belgi-xususiyati tasviri orqali o‘quvchilarda go‘zallik tuyg‘ularini uyg‘otish ko‘zda tutiladi.Masalan:

Qo‘llarida soz bilan,

Gul-g‘uncha pardoz bilan,

Silkinib parvozbilan,

<sup>1</sup>Adabiy-tanqidiy maqlolalar Toshkent –.”Yosh gvardiya” nashriyoti , 1979.

Uchib turna, g'oz bilan

Sevikli bahor keldi.

«Bahor keldi»

Boshqa birlarida tolning gullashi-yu , meva tugmasligi,tok daraxtining barglari bir xil bo‘lgani holda mevasining har xilligi, olcha rangining qizilligi sabablarini o‘ylab ko‘rish bilan bog‘liq mantiqiy fikrlashga da’vat qilinadi.

Uchinchi bir xilarida (“Kapalak bilan asalari”,”Kolxoz bog‘boni”, “Nafisaoy va kishmishvoy”, “Kamolvoy va shamolvoy”) tabiatning gullab-yashnashiga aloqador kishilar mehnati misolida mehnatga muhabbat g‘oyasiga urg‘u beriladi.

“Quddus Muhammadiy uchun mavzuning chegarasi yo‘q, - deb yozgan edi S.Mamajonov,- bolalarning ruhiy kechinmasidan tortib to hayvon-parrandalargacha hamma-hammasi to‘g‘risida yozadi. Voqeaviylik, syujetlilik serbo‘yoqlilik, hatto shamolning ham tovushini bera olishlik uning she’rlariga kuch bag‘ishlaydi”.

“Quddus Muhammadiy ijodida,-deb yozadi M.Qo‘shtonov, - bolalar adabiyotida ko‘zga tashlanadigan ikkita xususiyatni ko‘ramiz. Ulardan biri predmetlarni jonlantirish va harakatda ko‘rsatish. Jonsiz narsalar harakat qiladi, ko‘radi, gaplashadi. Bola psixologiyasi shundaki,u ko‘zini ochib, yorug‘ dunyoga nazar tashlaganidan boshlab harakat qiladigan, ya’ni jonli narsalarni ko‘radi.Boshqacharoq qilib aytganda jonli narsalar bolalarda yaxshiroq taassurot qoldiradi.Shu sababdan yosh bolalar ko‘p vaqtlargacha hamma narsalarni jonli harakatda tasavvur qilib yursa kerak.Quddus Muhammadiy bolalar psixologiyasidagi mana shu xislatdan foydalanadi. U tasvirlayotgan predmetlariga “jon” ato etadi. Shu yo‘l bilan hayotning jonli manzarasini yaratadi va bolalar psixologiyasiga o‘z ta’sirini osongina o‘tkaza oladi. Quddus Muhammadiyning she’rlarida “besh” ball sistemasidagi baholar poyga qiladilar, harflar o‘yin tushadilar, portfel nutq so‘zlaydi, qalam arz qiladi,bahor bog‘bon bolaga “hormang”, deydi”.<sup>2</sup>

Shoir kichkintoylarning tizginsiz savollari ularning odam va olam sirlarini bilishga bo‘lgan qiziqish va intilishlari natijasi ekanligini teran idrok etadi. Shuning uchun ham “Sandal va pechka”, “Kapalak va asalari”,

<sup>2</sup>Adabiy-tanqidymaqlolar. Toshkent –”Yoshgvardiya” nashriyoti , 1979.

“Bir o‘zboshimcha chumchuq haqida” nomli ilk she’rlaridan boshlab talay asarlarini savol - javob asosida yaratadi. Hatto ayrim savollarni asar sarlavhasigacha chiqaradi.

“Detskaya literatura” jurnalida bir tarjimon shoirning “Tovuq nega qaqoqlaydi” degan she’rini tarjima qilib, shunday so‘zlarni yozgan edi:”Muhammadiy erta bahor gullaydigan bodom haqida ham, tog‘ kakligi haqida ham, hatto yomg‘ir chuvalchangi – “bu yer tagi traktori” haqida ham alohida muhabbat,ehtirom bilan yozadi. U tasvirlagan o‘simliklar, qushlar, ular orasidagi dialog va suhbatlar, u qayta ishlagan ertaklar faqat uning o‘ziga xos.U tasvirlagan tabiat hodisalari faqat o‘zbek yerida tug‘ilib o‘sgan, o‘zbek farzandi, oddiy farzand emas, balki talant egasi tomonidan yaratilgandir. Shu sababdan uning asarlari,shoirning o‘z so‘zlari bilan aytganda, butun bir dunyo o‘z yeri va o‘z osmoni bilan”<sup>3</sup>. “Bir o‘zboshimcha chumchuq haqida” she’riy ertagi xalq og‘zaki ijodi an’analari uslubida yaratilgan bo‘lib, ayrim kishilar fe’l - atvordagi ishyoqmaslik, yalqovlik, manmanlik illatlarini fosh etishga qaratilishi jihatidan Shukur Sa’dullaning “Laqma it”, “Ayyor chumchuq” asarlari bilan bir qatorda turadi.

“Laqma it” ertagini qahramoni yoz bo‘yi ko‘cha changitib,shataloq otib yuradi. O‘yinqaroqlik bilan qish g‘amini yemaydi. Uning qahraton qishda boshipana so‘rab sigir, mushuk, echkilarga qilgan murojaati naf bermaydi.

Oyog‘iga tikan kirgan ayyor chumchuq ham (“Ayyor chumchuq”) o‘z maqsadiga erishish uchun eshak,bo‘ri, mengan, sichqon, mushuk, kampir, shamol bilan suhbatlashadi. Ular o‘rtasida chaqimchilik qilib ish tutadi. Quddus Muhammadiy ertagini qahramoni o‘zboshimcha chumchuq tekinxo‘rligi, manmanligi va o‘zboshimchaligi bilan ularga yaqin turadi.

Chumchuqlar erta bahorda in qurib birgalikda yashash to‘g‘risida murojaat qilishganida, u chor-atrofda tayyor uylar ko‘pligini, mehnat qilishni istamasligini aytib, o‘z qavmlariga qo‘silmaydi. O‘zboshimchalik bilan zag‘izg‘onning uyiga kirib ta’zirini yeysi. Tayyor in – mo‘rkonga joylashganida pechkaga yoqilgan o‘tda patlari jizg‘anak bo‘lib, arang qochib qutuladi.

---

<sup>3</sup>R.Moran. ”Detskaya literatura” jurnalı. 1967, 37-bet.

Ta'viya chumchuqni  
Ko'rganlar hech tanimas,  
Hech bir qushga o'xshamas .  
Na ola-yu, na qora,  
Na chipor-u qashqamas.  
Tashqari g'iz – g'iz sovuq,  
Chumchuqcha qip-yalang'och.  
Egnida bir to'ni yo'q,  
Kuygan a'zo-badani.

Shoir ijodida yengil yumor vositasida fosh qiluvchi hajviy ruh muhim tarbiyaviy mohiyat kasb etadi.”Yaxshi – yomon deganlaridek, ba’zi bir o‘quvchilarining badfe’lligi va jahldorligi, g‘ofilligi, o‘z – o‘zidan ogoh emasligi, o‘z-o‘zini qo‘lga olmasligi va to‘g‘ri yo‘lga solmasligi, o‘qib uqmasligi, uqqani ham yuqmasligi, haddan osha tomoshaxo‘rligi, mehnatga berilmasligi, mehnatkash bo‘imasligi meni ancha o‘ylantiradi, qalbimni ranjitib, qiyaydi”, deb yozadi shoir.

“O‘z-o‘zini tanqid”, “Dum”, “Ahmadjonga uyat”, “O‘tkirjon va vaqt”, “Tugmacha”, “Do‘nanshe’r nega ikkichi?”, “Teshaning buzog‘i nega suzag‘on bo‘ldi?” kabi mashhur she’rlar ana shunday ruhiy kechinmalar asosida yuzaga kelgan.

Shoir asarlarida olg‘a suriladigan tarbiyaviy g‘oya quruq tavsiflanmaydi, balki qalamga olingan narsa-predmetlar, voqeа-hodisalar, holatlar va kichkintoylar fe'l-atvoridagi yaxshi-yomon xislatlarga jo‘shqin hissiy munosabatlar ifodasidan tabiiy suratda kelib chiqadi.

Quddus Muhammadiyning aytishiga ko‘ra, bir kuni “Holva” she’rini katta bir uchrashuvda o‘qib beradi. She’r hammmaga ma’qul bo‘ladi. Shunda tinglovchilardan biri: “Xayriyat, bizning kasbni ulug‘lab she’r yozadigan yaxshi bir shoir bor ekan. Holvapurushlik kasbi menga ota meros. Haqiqatan ham Siz she’rda xolvaning holva shakliga kelguncha bo‘lgan nozik mehnat jarayonini to‘g‘ri tasvirlabsiz. Yoki o‘zingiz ham xolva pishirganmisiz?” – degan ekan.

“Men, - deydi shoir, - yaxshi va hayotiy she’rning kuch-qudratiga, so‘z quvvatiga yana bir ishonchim oshdi. Lekin men ham ana shu “Holva”

she’rimni yaratguncha holvapurushdan kam mehnat sarflamagan edim”<sup>4</sup>. Quddus Muhammadiy o‘zini tabiatdan ayricha his etmaydi.Undagi maysagiyoqlaru dov-daraxtlardan tortib hayvonot olamigacha bo‘lgan jamiki mavjudot o‘ziga xos sir-asrorga ega – o‘qilmagan kitob.Ko‘p hollarda ularning mohiyatini ochishda shoir kichkintoylarning xayolida tug‘ilishi ayon savollarga murojaat etadi:

Hammadan qiziq ukki,

Tumshug‘i egri-dukki.

Nechun yurmas kunduzi,

Nega yonadi ko‘zi?

*(“Ahmadjonning kitobxonligi”)*

Korney Chukovskiy o‘zining “Ikkidan beshgacha” nomli asarida: “Bolalar uchun yoziladigan she’rlarda qofiyalar bir-biriga yaqin masofada joylashmog‘i lozim” degan fikrni aytgan edi. Quddus Muhammadiy maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun yozgan deyarli barcha she’rlarida bu ibratlari fikrga to‘la amal qiladi.

“Quddus Muhammadiy – ulkan shoir,o‘zbek bolalar she’riyatining sarboni, - deb yozadi S.Mixalkov. – U faqat bolalarni emas, yozuvchilarining ham hurmat- muhabbatini qozondi. Bunday hurmat – e’zozga osonlikcha erishib bo‘lmaydi. U juda obrazli, shirali, esda qoladigan tarzda yozadi. Shuning uchun she’rlari yosh kitobxonlarga ham, katta kitobxonlarga ham manzur bo‘lishi butunlay tabiiydir”.

“Shoirning “Jalilvoyning mashinasi” nomli she’ri ham qiziq voqeа asosida yuzaga kelgan: “Qo‘snnimizning uch yashar o‘g‘li Jalilvoy, - deb zavqlanib hikoya qiladi shoir ,– amaki, dadam “Jiguli” mashina olib keldilar, yuring, birga kataysa qilib kelasiz”, deb taklif qildi. Men bolani sinamoqchi bo‘lib: “Jalilvoy, bu “Jiguli” mashinangiz katta daryoga duch kelib qolsa, suzib o‘ta oladimi yoki tog‘dan uchib o‘ta oladimi?” – deb so‘radim.

- Yo‘q, - dedi bola hayron bo‘lib.

- Unda kataysa qilishga bormayman.

- Mana men yaqinda suvdan suzib, tog‘dan oshib o‘tadigan mashina sotib olaman, - dedim”. Jalilvoy shoirdan o‘sha mashinani qachon olib kelasiz, deb qistayveradi. Shunda shoir: “Men sizga she’r mashinasini olib

<sup>4</sup>Adabiy-tanqidiy maqlolalar Toshkent –.”Yosh gvardiya” nashriyoti , 1979.

kelmoqchi edim, - deb mazkur she'rini o'qib beradi. Bu orqali shoir kichkintoylar ongiga ilmiy-texnikaviy fantaziya urug'ini sochadi, she'rni o'qigan har bir bola xayolan o'zining shunday mashinasini yaratadi”<sup>5</sup>.

Quddus Muhammadiy – tabiatan bolalar shoiri. Uning ijodida bolalarcha soddadillik, qiziquvchanlikning keksalik donishmandligi bilan uyg'unlashib ketganini ko'rish mumkin. Shoir bolalar she'riyati bobida ustozlik maqomiga erishgungacha uzoq va mashaqqatli ijodiy yo'lni bosib o'tdi.

Urush yillari O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasidagi mushoirada “Sa'va sayrarkan” nomli she'rini o'qib Hamid Olimjon, Oybeklarning nazariga tushgan shoir ularning tavsiyasi bilan Narpay tumaniga boradi va bir necha yil davomida Islom shoirga adabiy kotiblik qiladi. Natijada shundan keyingi ijodida folklore asarlariga xos jo'shqinlik, mubolag'a va mushohadakorlikka alohida e'tibor qaratiladi.

“Kichkintoylar uchun yozilgan har bir she'r, - degan edi K.Chukovskiy, - hatto bir satr ham rassom uchun material bermasa, u o'z – o'zidan yaroqsizdir”. Qunduz Muhammadiy she'riyati bu fikrni to'la tasdiqlaydi. Uning she'rlarida perosini dikillab, cho'ltoq ketmon oqsoqlanadi, darz ketgan tog'ora to'lg'anib, eski qulflar yo'rg'alaydi (“Temirlar o'yini”). Bu esa kichkintoylarning jonli-jonsiz jamiki mavjudotni harakatda deb bilishi bilan bog'liq tasavvur-tushunchalariga juda mos keladi.

Quddus Muhammadiy she'rlarida hayotga bolalar nigohi bilan yondashadi, ularning tasavvuri bilan kuzatadi. Qizig'i shundaki, shoirning o'zi shunga ishonadi, shundan cheksiz zavqlanadi, kitobxonga ibrat bo'larlik tarbiyaviy xulosa chiqaradi. “Chumoli” she'ri buning yorqin dalilidir. Bola bilan chumoli suhbatи asosiga qurilgan mazkur she'nda asosiy gap chumolining tashqi ko'rinishi (boshi va dumining kattaligi, belining ingichkaligi) ustida ketayotgandek bo'lib tuyulsa-da, ziyrak kitobxon chumolining vatan obodligi, el-yurt xizmatiga kamarbastaligi to'g'risidagi javoblaridan vatanga muhabbat to'g'risida tegishli xulosa chiqarishi shubhasizdir.

---

<sup>5</sup>Adabiy-tanqidymaqlolar Toshkent –”Yoshgvardiya” nashriyoti , 1979.

Qunduz Muhammadiy bolalar adabiyotiga baho bergenida uni “ona sutidek pokiza” deb ta’riflagan edi. Bu ta’rif uning o‘z asarlariga ham tegishli bo‘lib, hayotiy va ijodiy pozitsiyasini anglatadi.

“O‘quvchiga esdalik” she’rining dastlabki o‘quvchilari bugungi kunda bobo va buvilar sifatida mazkur she’r misralarini chevara-evaralari bilan qo‘silib yod aytishlari shoir she’riyatining umrboqiyligidan dalolat beradi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Quddus Muhammadiy ijodining shakillanishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatgan?
2. Shoir she’riyatiga folklor an’analari ta’sirini “Chumoli” she’ri misolida tahlil qiling.
3. Shoir she’rlarining yetakchi mavzularini izohlang.
4. Shoir she’rlarining ko‘pchiligi savol-javob asosiga qurilishini qanday izohlash mumkin?
5. Q.Muhammadiy qanday she’riy san’atlardan foydalangan? Misollar keltiring.

## **11-MAVZU: DILSHOD RAJAB VA ABDURAXMON AKBAROV IJODI**

### **REJA:**

1. Istiqlol davri bolalar she'riyati va Dilshod Rajab ijodi.
2. Dilshod Rajab she'riyatida psixologizm.
3. Abdurahmon Akbarov ijodi

Istiqlol davri xalq hayotidagi yangilanishlar bolalar she'riyati uchun chinakkamiga ijodiy-uslubiy izlanishlarga zamin yaratdi. Miraziz A'zam va Anvar Obidjonning shakl va mazmun uyg'unligiga asoslangan quvnoq she'rlari, Safar Barnoyev va Tursunboy Adashboyevning atrof-muhitni badiiy idrok etishda hayratlarga cho'mgan bolakayning beg'ubor tuyg'ulari aks etgan ertak-dostonlari, Hamza Imonberdiyevning o'z xayolotida dunyoni qanday bo'lsa shundayligicha kashf etishga qaratilgan yumorga boy "lof'lari, Qambar Ota va Abusaid Ko'chimovning jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy fuqarolik tarbiyasi bilan bog'liq yangilanishlarga munosabati jo'shqin falsafiy-publisistik ruhda aks etgan she'riyati namunalari ,Rustam Nazar va Abdurahmon Akbarning beg'ubor boilalik kechinmalarini odatdagidan o'zgacha shakl va ranglarda ko'rishga, ko'rsatishga intilgan izlanishlari,Kavsar Turdiyevaning bolalik dunyosini onalik tuyg'usi bilan tavsif markaziga qo'ygan o'ynoqi she'r va tarjima asarlari, istiqlol davri bolalar she'riyatining bo'y-bastini ko'rsatadigan ijod mahsullaridir. Ularning ichida badiiy ijodga doir o'tish davri mashaqqatlarini bosib o'tib, istiqbolga dadil qadam qo'ygan Dilshod Rajab asarlari o'ziga xos o'rin tutadi.

Dilshod Rajab bolalar she'riyatiga bevosita beg'ubor bolalik dunyosidan kirib kelgan ijodkorlardan deyish mumkin. Qadim Buxoroning Shofirkon tumanidagi Denov qishlog'ida tavallud topgan shoir o'z bolaligi, ijod dunyosiga daxldor kechinmalari to'g'risida quyidagilarni yozadi: "6-sinfni bitirib, oromgohda yurganimda "Gulxan"jurnali brogan. Unda mening ilk she'rim chiqqan ekan (1978-yil 7-son). Oromgohda shov-shuv bo'lib ketgan. Ilgari ha, havaskor-da, u-bu qoralab yursa kerak, deb uncha e'tibor qilmagan ustoz-tarbiyachilar ham qoil qolib hayratlangan, meni

qutlab alqagan edi. Kechasi bilan “Gulxan”ni quchoqlab yotdim, chin ma’noda u qalbimga o’t-harorat berdi. O’zimni boshqacha, yuksalganday sezib atrofdagi bolalar ham havas va bir qadar hurmat bilan qaray boshlaganligini his etardim. Bu hol menga zo’r qanot baxsh etgan. O’shanda ilhom, ijod bulog‘i jo‘sha boshlab, endi ijodga jiddiy qarash va kurashish kerakligini anglaganday bo‘ldim”.

Shunisi e’tiborliki, ko‘pchilikning nazariga tushish, har qanday odamda bo‘lgani kabi o‘ziga nisbatan talabchanlikning ortishi, kengroq mushohada yuritishga undashi, hayotda yanada faolroq bo‘lishga rag‘batlantirishi, bo‘lajak shoir uchun ham begona emas edi. Shu bois aynan o‘sha paytdagi ko‘rgan-kechirganlari havaskor ijodkorning izlanishlariga turtki va to‘g‘ri yo‘nalish beradi. Hali bola nigohi orqali bo‘lsa-da, oz kuzatishlari yuzasidan mushohadakorlik, ibratli xulosa chiqarish tuyg‘usi unga ilhom bag‘ishlaydi.

“Bir bola doim “Jo‘jalarim” degan qo‘sinqi aytardi, - deb yozadi shoir o‘z “tarjimai hol” ida. – Repertuarida boshqa qo‘sinq yo‘q, balki endi o‘rganuvchi bo‘lgan-da. Men unga atab bu she’rni yozdim:

Qistasangiz Karimni.

Qachon qo‘sinq ayt deya,

Rubobin olib qo‘lga,

Aytar “Jo‘jalarim”ni.

Bir kuni hazillashib,

Der unga do‘sti Sodiq:

“Axir u jo‘jalaring,

Bo‘lmasmi sira tovuq?”

Boshlovchi shoir shundan so‘ng childirma chaladigan o‘rtog‘ining iltimosiga ko‘ra “Childirma” degan to‘rtlik yaratadi.

Qichqirib aytar gapi,

Shu faqat “baka-umbang”,

Shuni ham aytmas, uni

Tarsakilab turmasang.

Shoirning yuqoridagi ilk tizmalarini keltirishdan maqsad shuki, boshlovchi ijodkor sifatida o‘zi kuzatgan voqeа-holatni shunchaki qofiyalashirmsadan, balki o‘sha voqeа-holat haqida mantiqiy fikrlashga undashi, ijodiyotda dastlabki mashqlaridan boshlab to‘g‘ri yo‘nalish

olganini qayd etishdir.

Adabiyot tarixida hech bir ijodkor o‘qimasdan, boshqalardan o‘rganmasdan, so‘z san’atining sehrli olamiga mehr qo‘ymasdan qo‘liga qalam tutmagan. Alisher Navoiy Fariduddin Attorning “Mantiq-ut tayr” asaridan qay darajada ta’sirlangan bo‘lsa, A.S.Pushkin enagasi aytgan ertaklardan shu darajada bahra olgan, Quddus Muhammadiy ijodida yoshligidagi Islom shoirga adabiy kotiblik qilgani bois xalq og‘zaki ijodi an‘analari qay darajada o‘rin tutgan bo‘lsa, ustoz shoirlarning voqelikka estetik munosabati atrof-olamdagи narsa-hodisalar tufayli ko‘ngilda tug‘iladigan ishtibohlarni ichki hissiyat va hayrat tuyg‘usi bilan quvnoq humor vositasida tasvirlash uslubi Dilshod Rajab ijodiga muayyan turtki bergani shubhasizdir.

Qolaversa, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetidagi talabalik yillari D.Rajab uchun ijodiy izlanish davri bo‘ldi. Professor P.Shermuhamedov rahbarligida bolalar she’riyati yuzasidan yaratgan ilmiy tadqiqot ishi uni badiiy ijodning sehrli olamiga,xususan, kichik yoshdagi bolalar ruhiyatiga, xayoloti dunyosiga chuqurroq olib kirdi. Shuning uchun ham ilmiy-ijodiy izlanish bilan birga, voqelikni bolalar nigohi orqali estetik idrok etish shoir asarlarining hissiy ta’sirchanligini ta’milagan omillardan deb baholash mumkin. “Kuz”, “Poezdning bolasi”, “Qishki safar”, “Navro‘zi olam keldi”, “Dumlar”, ”Tungi militisionerlar” kabi talay she’rlarida lirik qahramonning ko‘rgan-kechirganlari mohiyatini anglash yo‘lidagi intilishlari kichik kitobxonlarni befaroq qoldirmasligining sababini shundan izlash o‘rinlidir.

Istiqlol davri bolalar she’riyatida, beg‘ubor bolalik olamini badiiy kashf etishga doir izlanishlarni shakliy yangilanishlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi albatta. Anvar Obidjon va Tursunboy Adashboyevlar ijodidan boshlangan “ikkilik”, “uchlik”, ”uch chanoqlar” qisqa misralarga teran falsafiy ma’no yuklash “xat”, “shikoyat” arznomalari Hamza Imonberdiyev, Abdurahmon Akbar, Rustam Nazar, Kavsar Turdiyevalar kabi Dilshod Rajab she’riyatini ham yangicha ohang va mazmun bilan boyitdi. Ammo ularning har biri, bu borada boshqasini takrorlamagan holda o‘z “so‘z”ini aytishga muvaffaq bo‘lgani e’tiborga loyiqdir. Jumladan, D.Rajabning shakliy izlanishlarga doir yangilanishlar alohida-alohida turkum tarzida tartiblangani bilan ajralib

turadi.

“So‘z o‘yini-zo‘r o‘yin” turkum she’rlarida “Qo‘y-yo‘q”, ”Zog‘-g‘oz”, “Kit-tik” so‘zlarini teskari o‘qiganda yangi ma’no kelib chiqishi, “kiyik-kuchuk”, ”quduq-qiziq” so‘zlarini teskari o‘qiganda mazmun o‘zgarmasligi, “she’r” so‘zida bosh harf tushirib qoldirilsa “yer”, “toy” esa “oy” bo‘lishi, “q” o‘rniga “f” yozilsa, “qil”dan “fil” paydo bo‘lishi “Uchqunbekning savollari”da jonivorlarning tashqi ko‘rinishi, xatti-harakatlari, kurkaning doimo g‘azablanib, hurpayib yurishi, zebraning ustidagi chiziqlar, tipratikan badanining tikan bilan qoplanishi, shamolning qanday paydo bo‘lishi, qayerdan kelib, qayerga ketishi, jirafaning bo‘ynining uzunligi bilan bog‘liq turfa savollarga kichkintoylar tushunchasi doirasida javoblar izlanadi.

“Shikoyat daftari” turkum she’rlari garchi jonivorlar, narsa-predmet-larning shikoyati tarzida yaratilgan bo‘lsa-da, aslida ular kichkintoylarni atrofimizdagi olam bilan tanishtirish g‘oyasiga bo‘ysundirilgandir.

“Shumtakaning she’rlari” turkumi asosan ikkiliklardan tashkil topgan bo‘lib, buzoqcha, chigirtka, choynak, o‘chirg‘ich, supurgi, changyutgich, zinapoya, boychechaklarga xos xislat, yetakchi xususiyatlar g‘oyatda ixcham tarzda tasvirga olingan:

Sigirga ko‘p yoquvchi,

Chelaksiz sut sog‘uvchi.

**“Buzoqcha”**

Kiyvolgan bu yigitcha,

Prujinali etikcha.

**“Chigirtka”**

Ulardan farqli o‘laroq, “Baxshi bola- yaxshi bola” turkum she’rlarida xalq terma, dostonlari ohangi aniq-ravshan sezilib turadi. Turkum quyidagicha baxshiyona dil izhori bilan boshlanadi: “Alqissa, baxshi bola, odob-xulqi yaxshi bola, so‘zları dil naqshi bola, qo‘lga olib sozini, yangratib ovozini, shunday bayon etibdi, zavqi-yu dil rozini”.

Ko‘rinadiki, asrlar mobaynida kuylab kelingan xalq dostonlaridagi sujet voqealarining tasvir ohangiga monand baxshilar tomonidan tinglovchilarning diqqatini jalb etish uchun, do‘mbirasini bag‘riga bosgan holda bir zum tin olib aytildigan kirish so‘zi shoir she’rlariga jozibakor, da‘vatkor ruh baxsh etadi. ”Navro‘zi olam keldi” she’ridagi fasllar kelishi bilan borliqning iforga to‘lishi, doshqozonlarda sumalakning “qiqir-qiqir kulishi”, yer-u ko‘kni bir-biriga bog‘lagan kamalakning “nurli

ko‘prik” yanglig“ jilolanishi bolalarga tanish manzara-holatlarning badiiy ifodasi sifatida ezgin tuyg‘ularni jonlantiradi.

Xalq baxshilarining dostonni tinglashga da’vat qiluvchi an’anaviy kirish so‘zlariga xos bayon uslubi “Yaxshi va yomon” she’riga ham o‘zgacha shukuh bag‘ishlagan: “Baxshi boladan yaxshi va yomon haqida aytib berishini so‘raganida, u bir oz jim qolib, uzoqlarga nazar solib, otabobosi aytganlarini yodga olib, shunday debdi”. Yaxshi va yomon haqidagi so‘rovga baxshi bolaning “Bir oz jim qolishi” “Uzoqlarga nazar solishi” uning o‘zining taraddudlanishinigina anglatmaydi, balki kitobxonni she’rni tinglash va o‘qishga chog‘lash ham nazarda tutilganini bildiradi.

Har bir ijodkor tabiatdan, uning go‘zalligi-yu, mo‘jizakor hodisalaridan, yil fasllariga xos xislatlardan, cheksiz ilhom oladi. Aslida yil fasllari haqida she’r yozmagan bolalar shoiri bo‘lmasa kerak. Ularning ko‘philigidagi asosiy e’tibor, iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq tabiat manzaralarining turfa ko‘rinishlari, kishilar mehnati yuzasidan umumiy tasavvur berishga qaratilganini kuzatish mumkin. Dilshod Rajab tabiatni shunchaki kuzatmaydi, aksincha o‘zi tasvirga olgan manzara-holatga shoirona ko‘z bilan qaraydi. “Oppoq bo‘lib gullagan daraxt” da o‘z otasi siymosini ko‘radi. Chigirkalarning tundagi chirillashini, militsioner amakining hushtagiga, bahor oqshomida bodrab chiqqan yulduzlarni, qoqigullarga o‘xshatadi. Shoир o‘zi qalamga olayotgan yil fasllariga oid manzara-holat tasvirida kichkintoylarning dunyoni anglashga daxldor ruhiyati ichiga chuqurroq kirib borishga harakat qiladi. “Kuz” she’rida o‘qiymiz:

Kuzak yurish boshladi,

Ya’ni urush boshladi.

Sarg‘ayib so‘ldi ko‘plab,

Yam-yashil barg-u o‘tlar.

Kuz faslida yaproqlar sarg‘ayib, qish kelayotganidan darak berishi bolalar uchun tanish manzara. Ayni holatga, kichkintoylar nigohi orqali nazar tashlagan shoир dov-daraxtlar bargi-yu o‘tlarning “sarg‘ayib so‘lishi”ni tasvir markaziga olish orqali “kuzakning yurish boshlashi”, ya’ni yaxshilikka “urush e’lon qilish”ni bildirishi bilan muammoning ta’sirchanligini ta’minlaydi.

Kuzning bu “yurishi”dan dastlab kitobxonda tushkunlik kayfiyati yuzaga kelishi mumkin. Lekin urush haqida so‘z ochildimi, “asirlik” tushunchasi ham unga begona emasligini his etgan o‘quvchining she’r yakunida birdaniga dili ravshan tortadi:

Tiqildi ko‘p asirlar-  
Sholg‘om, piyoz, sabzilar.  
Bu g‘alaba kuzniki,  
Endi maza bizniki.

Kichkintoylar hayoloti ufqining cheksizligini nazarda tutgan D.Rajabning talay she’rlarida yerga ursa ko‘kka sapchiydigan, tinib tinchi-magan, har bir narsa-hodisaning mohiyatini ilg‘ab olishga qiziquvchan bolakay ruhiyati qatlamlarida inson va tabiat munosabatlarining turfa ko‘rinishlarini kuzatish mumkin. Ayni shu holatlar shoir ijodining bolalar adabiyotida tutgan o‘rnini belgilashga xizmat qiladi.

### **Bolalikka oshno qalbim**

Har faslning o‘z xislati bor, degan purma’no gapni bolalik nuqtai nazaridan olib qaralsa, darhaqiqat, har bir faslda o‘ziga xos o‘yinlar, o‘zgacha zavq-shavq bor. Lekin menga bolalikdagi barcha fasllarda umumiy bo‘lgan oqlik, oq rang ko‘proq ko‘rinadi. Bahorning oppoq gullari, yozning oq tonglari, tiniq-zilol suvlari, kuzning oq mezonlari-yu,oppoq gullari, qishning oq qorlari-yu, oq libosli qorbobo, qorqizlari... Shu uchun beixtiyor tilimga bir satr keladi: “Bolaligim poshsholigim, oq ranglarga oshnoligim!”

Bu oq rang ramziy ma’no kasb etib, bolalik beg‘uborlik, poklik bilan bevosita bog‘liqligini ham anglatadi.

Qadim Buxoro viloyatining Shofrikon tumanidagi Denov qishlog‘ida 1964-yilda tug‘ilganman. Bolaligim ham asosan shu qishloqda kechdi. Ko‘pincha yozgi ta’tillarda ona tomondan buvimning uylariga, Cho‘p-qo‘rg‘on qishlog‘iga ham borar, u yerda ham bolalik do‘stlarim bore di. Bu qishloq ko‘chalarida ham bolaligimning eng yorqin, hayratli, hayajonli, zavqli damlari, qadamlari bor...

Denovdan o‘rtacha bir ariq oqib o‘tardi. O‘sha paytlar u menga kata, hatto biroz qo‘rqinchli bo‘lib ko‘ringan. Qirg‘og‘ida turli daraxt-butalar

o'sib yotar, bizning uyimiz oldidan ham oqqan bu ariqdag'i ko'prikdani o'tib, qishloq yo'liga chiqardik. Ya'ni, ariqning u qirg'ogi bo'ylab yo'l o'tgan, bu qirgoqda esa daraxtlar, dala maydonlari, uylar bor edi. Uyimizning narigi tomonida esa qator jiydalar, undan keyin paxta dalasi bo'lib, keyin yana qator o'riklar bor edi. Uyimiz qishloqning eng cheti bo'lgani uchun ikki tomondan dala-maydonlarga tutash. Nega bu manzaralarni chizyapman? Bolaligim shu ariqda cho'milib, qishloq ko'chalarida chang-g'uborga ko'milib, keng dala maydonlarida quvlashib chopib, daraxtlarga tirmashib, mevalardan totib zavq-surur tuygan.

Boshida yozganimdek, har faslning o'z o'yinlari, gashti bo'lardi. U paytlar qishloq bolalari birga-birga o'ynar, mol-qo'y boqar, o't-maysa yular, paxta terar edi (hozirgiday telefon yoki televizorga yolg'iz "mixlanib" o'tirmasdi). Chilliak, futbol, hokkey, quvlashmachoq, bekinmachoq, oq terak... Eh-he qancha o'yinlar bor edi. Cho'milishlar... Yozgi ta'tilda tumanimizdagi rohatijon oromgoh "Mingchinor" ga ham ko'p borganman. Endi u yerdagi dam olish, o'yinlar, turli musobaqa-yu, tadbirlar ham bir olam xotira. Tumandagi barcha maktablardan kelgan tengdoshlar bilan tanishib, do'stlashib, bolalik zavqu gashtini birga surardik. Juda baxtiyor, quvonchlarga, hayratlarga limmo-lim kechardi har damimiz. Xotira olamimni serotash gulxanday hamisha yoritib turadigan bir holat hech unutilmaydi. 6-sinfni bitirib, (13-14 yosh) oromgohda yurganimda "Gulxan" jurnali brogan. Unda mening ilk she'rim chiqqan ekan (1978-yil, 7сон). Oromgohda shov-shuv bo'lib ketgan. Ilgari ha, havaskor-da, u-bu qoralab yursa kerak, deb uncha e'tibor qilmagan ustoz-tarbiyachilar ham qoyil qolib, hayratlangan, meni qutlab, alqagan edi. U paytlar respublika matbuotida chiqish, alpinistning eng yuqori cho'qqiga chiqishiday (hazil) gap edi. Kechasi bilan "Gulxan"ni quchoqlab yotdim, chin ma'noda u qalbimga o't-harorat berdi. O'zimni boshqacha yuksalganday sezib, atrofdagi bolalar ham havas va bir qadar hurmat bilan qaray boshlaganini yaqqol his etardim. Bu hol menga zo'r qanot baxsh etgan. O'shanda ilhom, ijod bulog'i jo'sha boshlab, endi ijodga jiddiy qarash va kirishish kerakligini anglaganday bo'ldim. Oromgohda yana ikkita she'r yozdim. Bir bola doim "Jo'jalarim" degan qo'shiqni aytardi. Repertuarida boshqa qo'shiq yo'q, balki endi o'r ganuvchi bo'lgan-da. Men unga "atab" bu she'rni yozdim:

## QO'SHIQCHI

Qachon qo'shiq ayt deya

Qistasangiz Karimni

Rubobini olib qo'lga

Aytar "jo'jalarim"ni

Bir kuni hazillashib

Der unga do'sti Sodiq:

"Axir u jo'jalaring

Bo'lmasmi sira tovuq"

Oromgohda rosa olqish olganman. Keyin childirma chaladigan bola menga ham yoz deyaverib, bezor qilavergach, "Childirma" degan she'r yozdim:

Qichqirib aytar gapi

Shu faqat: "baka-bumbang",

Shuni ham aytmas, uni

Tarsakilab turmasang.

Qarangki, o'sha payt "Gulxan"jonning rag'bati-yu, sababi bilan "yashin tezligida" ikkita she'r yozildi. Bular keyin "Gulxan"da va boshqa nashrlarda chiqdi, to'plamlarimga ham kirdi. Shu o'rinda ota-onalarga yosh avlod uchun gazeta-jurnalning ahamiyati kattaligini ta'kidlamoqchiman. Gazeta-jurnal bolangizni kitobxonlikka boshlovchi oltin so'qmoq...

Endi bolalar adibi sifatida bolaligimning "kitobxonlik" bo'limi haqida ham biroz aytsam. Albatta, men sho'x, o'ynqaroq edim. Lekin kitob o'qishga ham qattiq qiziqqanman, berilib mutolaa qilganman. Men bolaligimda juda ko'p ertaklar o'qir edim. Ayniqsa, Kenjabolir – sevimli qahramonim bo'lgan. Ertaklarda u akalaridan ko'ra mard, botir va bag'rikeng qiyofada ko'rindi. Aka-ukalar qarshisida uchta yo'l – borsakelar, borsa kelishi gumon, borsakelmas yo'llari turganida Kenjabolir qo'rqmay borsakelmas yo'lni tanlar va undan sog'-omon, g'alaba bilan qaytib kelardi. Men huddi u bilan birga, yonma-yon yurgandek his qilardim o'zimni. Keyin o'zbek bolalar adabiyoti vakillari N.Fozilov, X.To'xtaboyev, H.Nazir, Q.Hikmat, P.Mo'min kabilarni, kattalar adabiyoti vakillarini bolalarga atalgan asarlarini ketma-ket o'qishga tushdim. Oqiljon Husanovning "Tog'da o'sgan bola" kitobidan juda qattiq ta'sirlanganman. Tog'-darada qolib

ketgan, jonivorlar bilan yashagan bolaning g‘alati hayoti, ahvoli juda hayajonga solgan. A.Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar”, Oybekning “Bolalik”, Asqad Muxtorning “Buxoroning jin ko‘chalari”, keyinchalik S.Ahmad, O‘.Hoshimov, Ch.Aytmatov, O.Yoqubov, P.Qodirov kabi qator adiblarning asarlarini chanqoqlik bilan, hatto ”yutoqib” o‘qiganman. Ko‘p she‘r yod olardim, Ayniqsa, atoqli bolalar shoiri, ustozim T.Adash-boyevning “Olatog‘-lolatog“ to‘plami mening bola qalbimni she‘riyatga oshno qilgan kitoblardan biri. Undagi rang-barang tabiat tasvirlari – peyzaj she‘rlar meni hayratga solgan, she‘riyatning sirli olamiga yetaklagan. Qish kunlarida quydagi to‘rtlikni takrorlab, hovlida sumalaklarga termulib yurganman:

### Sumalak

Boychechaklar nish urib,  
To turguncha o‘rnidan  
Bahor qishni tarnovga  
Osib qo‘ydi burnidan.

Keyinchalik mana shunday badiiy yuksak, jozibali obrazli she‘rlar tahliliga qiziqib, “80-yillar o‘zbek bolalar she‘riyatida poetik mahoratning ayrim masalalari” mavzuida nomzodlik ishini himoya qildim. Men chet el adabiyotini bolaligimda kam o‘qiganman. Keyinchalik o‘qidim. Hozirgi bolalarga jahon adabiyotining sara namunalarini o‘qishlarini ham tavsiya qilaman. Men bolalar shoiri bo‘lsam ham, kattalar adabiyotiga oid yaxshi asarlarni muntazam o‘qib boraman. Mumtoz adabiyot, xususan, ma’rifiy asarlarni ham sevib o‘qiymen.

Bugungi bolalar adabiyoti meni uncha ham qoniqtirmaydi. Bolalar shoир-yozuvchilari bor. Lekin “yarq” etib ko‘zga tashlanadigan, yaxshi ma’noda “shov-shuv” bo‘ladigan asarlar yaratilmayaptida. Bu o‘zi oson ish ham emas. Bular boshqa-boshqa masalalar. Ko‘pincha bolalar kam o‘qiyotganiga sabab qilib, yaxshi asarlar kam yozilayotganini ko‘rsatishadi. Yo‘q, agar o‘qiymen desa shu paytgacha yaratilgan o‘zbek va jahon bolalar adabiyotining sara namunalar to‘lib-toshib yotibdi. Shuning uchun kitob o‘qimaslikka hech qanday bahona ham, asos ham yo‘q. Bolalar ko‘p kitob o‘qishi kerak, mayli keyinchalik qaysi soha egasi bo‘lmasisin, avvalo, inson. Kitob shu inson qalbini, didini tarbiyalaydi.

Kitob bor uyga nur-fayz yog‘ar desam,  
Bu balki kitobiy gapga o‘xshaydi.  
O‘qishgaa ochilgan kitobni ko‘ring:  
Duoga ochilgan kaftga o‘xshaydi.

Hozir axborot asri. Uning yaxshi-yomon tomonlari bor. Bolalarni axborot bilan emas, ma’rifat bilan oziqlantirish, to‘yintirish kerak. Aks holda ular aqilli, biroq qalbsiz, hissiz robotlarga aylanib qolishi mumkin. Texnika va texnologiyalar rivojlangan bu zamonda bolalar qalbini kitob va tabiatga oshnolik butun va omon saqlab qoladi. Ularning didi va hiss tuyg‘usi tarbiyalanishi muhim. Bu ishda adabiyotga, san’atga teng keladigan boshqa bir kuch yo‘q.

### **Dilshod Rajab ,bolalar shoiri, filologiya fanlari nomzodi**

O‘zbek bolalar adabiyoti rivojiga salmoqli hissa qo‘sghan **Abdurahmon Akbar** 1962 yil 22 aprelda Toshkent viloyati Yangiyo‘l tumanidagi Niyozboshi qishlog‘ida ziyoli oilada tug‘ildi. O‘zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakulteti kechki bo‘limida (1979–1987) tahsil oldi. Armiya xizmatini quruvchi askarlarning “Stroitel” (“Binokor”) gazetasida (1981–1983) adabiy xodim sifatida o‘tadi. Xizmatdan qaytgach, Yangiyo‘l tumanidagi 25-maktabda ona tili va adabiyoti fanidan (1985–1986) dars berdi. 1986 yildan umrining oxirigacha “Cho‘lpon” nomidagi bolalar nashriyoti matbaa ijodiy uyida xizmat qildi.

Abdurahmon Akbarning ilk kitobi 1987 yilda, “Kichkintoy va paxtaoy” nomi bilan bosilib chiqdi (M. Qodirov bilan birgalikda). Shundan so‘ng “So‘zlovchi yomg‘ir” (1990), “Ehtiyyotkor toshbaqa” (1991), “Yozning tug‘ilgan kuni” (1992), “O‘yinqaroq bulutcha” (1996), “O‘rdakcham” (2005), “Jonli savatcha” (2005), “Uyquchining tushlari” (2006), “Gonzik olib kelgan dori” (2006), “Eng katta mehr” (2006), “Niyozbosh istiqbol sari” (2007), “Bolalar bog‘chasi uchun sevimli ertaklar” (2009), “Mening do‘stim kompyuter” (2010) nomli 15 dan ortiq she’riy, adabiy-badiiy va tarjima kitoblari chop etildi. 1991 yili “Ehtiyyotkor toshbaqa” nomli kitobi Usmon Nosir nomidagi mukofotga sazovor bo‘ldi.

Abdurahmon Akbar tarjimasida “Texnikaning katta ensiklopediyasi”, “Kichkintoylar uchun jonivorlarning katta ensiklopediyasi”,

“Jonivorlarning katta ensiklopediyasi”, “Jajji kichkintoylar uchun bilimlarning katta kitobi”, “Maktabgacha yoshdagi bolalar ensiklopediyasi”, “Sehrli qirollik oroli”, G. X. Andersennenning “Ertaklar” kitobi, “Jajji kichkintoylar uchun ensiklopediya” deb nomlangan kichik yoshdagi o‘quvchilarga mo‘ljallangan ilmiy-ma’rifiy, badiiy kitoblar nashr etildi.

Shoirning she’r va tarjimalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining “Ona tili”, “O‘zbek tili”, “O‘qish kitobi”, “Atrofimizdagi olam”, “Odobnama” kabi darsliklaridan, shuningdek, kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun nashr etilgan “Bolalar adabiyoti” darsligi va “O‘zbek bolalar adabiyoti” antologiyasidan joy oldi.

Abdurahmon Akbar 2006 yili “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” unvoni bilan taqdirlangan.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Istiqlol davri bolalar she’riyatining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Dilshod Rajab she’rlarida istiqlol davri bolalar she’riyatining qanday xususiyatlari o‘z aksini topgan?
3. Dilshod Rajabning poetic mahorati shakillanishida shakl va mazmun uyg‘unligining qaysi xususiyatlari ajralib turadi?
4. Dilshod Rajab she’riyatida tabiat va inson munosabatlari qay jihatdan yoritiladi?
5. Abdurahmon Akbarning bolalar adabiyotiga qo’shgan hissasi.
6. Abdurahmon Akbar qanday davlat mukofotlari bilan taqdirlangan?

## **12- MAVZU: O‘RTA VA KATTA YOSHDAGI BOLALAR ADABIYOTI. HAKIM NAZIR VA FARHOD MUSAJON IJODIY FAOLIYATI**

### **REJA:**

1. O‘rta va katta yoshdagi bolalar adabiyoti.
2. Hakim Nazir hayoti va ijodi
3. Farhod Musajonov — ko‘p qirrali ijodkor.
4. Farhod Musajon ijodining o‘ziga xos xususiyatlari

Ma‘naviyatining shakllanishida Kitobning o‘rnini beqiyos. Kitob yosh avlodga chinakam aqliy, axloqiy, estetik tarbiya berish vositasidir, kitob ularni erkin fikrlashga, dunyoqarashining kengayishiga, go‘zal nutq sohibi bo‘lishga o‘rgatadi. Kitob insonga sodiq do‘sit, uning ichida barcha ilm mujassamdirki, u kishilarni o‘tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi. Haqiqatdan ham, kitob barchamizni ezbilikka undaydigan, oldimizda turgan barcha muammolarni hal etishga yordam beradigan kuchdir. 2016-yildan buyon matbuot, noshirlik va axborot sohasida tegishli huquqiy asos yaratilgan bo‘lib, 10 dan ortiq qonun va 30 dan ortiq qonunosti hujjati qabul qilingan. 1 677 ta matbaa korxonasi, 118 ta nashriyot davlat ro‘yxatiga olingan. Zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 14 ta viloyat axborot-kutubxona markazi, tuman markazlari va shaharlardagi ta’lim muassasalarida 200 ga yaqin kutubxonalar tomonidan aholiga, bolalarga axborot-kutubxona xizmatlari hamda “Kitob olami”, “Sharq ziyokori” va “O‘zdavkitob savdo ta’minoti” majmualari tomonidan kitob savdosi xizmati ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi. Yozuvchilar uyushmasi huzurida tashkil etilgan “Ijod” jamoat fondi tomonidan yozuvchi va shoirlar, ayniqsa, yosh ijodkorlarning birinchi kitoblari ko‘p ming nusxada nashr etish yo‘lga qo‘yilgan. Shu bilan birga, ushbu muhim soha rivoji bilan bog‘liq aholi, xususan, Yoshlar o‘rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishda bir qator muammolar mavjudligini aniqlandi.

Avvalo, badiiy, ma’rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish, ular

bilan ta’lim muassasalarini ta’minlash, milliy va jahon adabiyoti namoyandalarining etuk asarlarini saralash, tarjima qilish ishlari puxta o‘ylangan tizim asosida tashkil etilmagan. Chop etiladigan kitoblarni nashriyotlardan hududlarga arzon narxlarda yetkazish, onlaysun buyurtma berish va manzilga etkazish tizimi sust rivojlangan, shuningdek, aholiga xizmat ko‘rsatishda elektron kitob shakllaridan keng foydalanish yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan edi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 yanvardagi - ”Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi hamda 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks choratadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarori yurtimizda kitob, kitobxonlik madaniyatining jamiyat ma’naviy hayotidagi o‘rnini oshirish borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tardi.

Yurtimizning barcha sohalarida, ta’limning barcha bo‘g‘inlarida badiiy adabiyotga, kitob o‘qishga bo‘lgan munosabatlarni yuksaltirdi. Ushbu Qarorning ijrosi sifatida kitob maxsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimi takomillashtirishib, bolalar kitobxonligi juda mas’uliyat bilan e’tibor berilib, yozuvchilarning - bolalar va o‘smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiyommabop va publitsistik asarlari, Juhon xalqlari adabiyoti, shu jumladan o‘zbek xalqi Bolalar adabiyoti tez aytish, topishmoq, o‘yin qo‘schiqlari, rivoyat, afsona, ertak, matal, masal va doston singari bolalarga mo‘ljallab yaratilgan og‘zaki ijodi namunalari lotin alifbosida qaytadan nashr etildi, bundan tashqari o‘zbek va jahon adabiyotining eng sara namunalarini internet tarmog‘iga joylashtirish va ularni targ‘ib qilish hamda keng kitobxonlar ommasiga yetkazish ishlari samarali tashkil etilildi.

Bugungi kunda respublikamizning barcha axborot-kutubxona markazlari hamda ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan kutubxonalar fondlari lotin alifbosiga asoslangan o‘quv-uslubiy, adabiy-badiiy, ma’rifiy, ilmiy-ommabop va ensiklopedik kitoblar bilan boyitildi va bu ishlar davom etmoqda. Bunday e’tiborli va hayrli harakatlarning barchasi barkamol avlodning kitobxonli madaniyatini shakllantirishga qaratilgandir. Bolalar kitobxonligining shakllanishida oilaning, maktabgacha ta’lim

maskani hamda maktab kutubxonasining, boshqacha qilib aytganda ota-onalar, tarbiyachilar, murabbiylar hamda kutubxona xodimlarining ahamiyati kattadir. Kitobxonlikni shakllantirish mактабгача yoshdagи bolalarda ko‘rgazmalilikka asoslangan bo‘lsa, bolalar va o‘smirlar uchun adabiyotlarni tavsiya etish asosida amalga oshiriladi. Bunday jaroyonida kitobxon bilan suhbatlashib, uning qiziqishlarini, psixologiyasini o‘рганиш juda muhimdir.

Bolalar kitobxonligini o‘quvchilarning pedagogik-psixologik xususiyatlariga ko‘ra quyidagicha guruhlarga ajratish mumkun: 1. Mактабгача ta’lim yoshidagi bolalar kitobxonligi (2 yoshdan 7 yoshgacha); 2. Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi (7 yoshdan 11-12 yoshgacha); 3. O‘rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligi (13-14 yoshdan 15-17 yoshgacha). 1 Maktabgacha ta’lim yoshdagi kitobxonlarga asosan ota-onalar, buvi-bobolar, tarbiyachilarning ta’siri katta bo‘ladi, chunki hali o‘qish va yozishni bilmagan bolaning kitobxonlik madaniyati do‘stlik, halollik, botirlik, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, mehr-muhabbat g‘oyalariга asoslangan ertaklar tinglash orqali shakillanadi. Ertaklar xalq og‘zaki poetik ijodidagi eng boy va rang barang janrlardan biri. Bundan tashqari topishmoq orqali bolaning tafakkuri rivojlanadi, topishmoqlar xalqning hayoti, urf-odati, o‘ziga xos rasm-rusumlari o‘rgatadi hamda bolalrni o‘ylashga, topqirlikka o‘rgatadi. Bundan tashqari bolalar «Kim?», «Nima?» so‘roqlariga javob topishga o‘рганадilar. Tez aytishlar ham bola nutqining rivojlanishida samaralidir. Tez aytishlar bolaning og‘zaki nutq mashqi bo‘lib, kichik yoshdagi bolalar ma'lum tovushlarni to‘g‘ri va ohangdor talaffuz qilish ko‘nikmalarini orttiradi. Tez aytishlar bolalarni biyron so‘zlashga o‘rgatish bilan birga, ularga estetik zavq beradi, fikrlash qobiliyatini o‘stiradi hamda xotirasini mustahkamlaydi. Maktab yoshidagi kichik kitobxon bolalarga tabiat, vatan, vatanparvarlik, botirlik, mehnatsevarlik, odob-axloq, ota-onaga, ustozlarga, o‘qishga mehr-muhabbat g‘oyalari singdirilgan kitoblarni o‘qish tavsiya etiladi. Ular ko‘proq sehrli-fantastik ertaklar, sarguzasht hikoya va qissalar, dostonlarni sevib o‘qiydilar. Bunday yoshdagи bolalarga juda katta hajimdagi asarlardan ko‘ra, ko‘proq qisqaroq hikoya va qissalarni tavsiya etish muhimdir, chinki ba‘zi bolalar katta hajimdagi asarlarni o‘qishdan zerikib qolishi mumkun.

Maktabgacha ta'limdan boshlab kitobga mehr qo'yan kichik kitobxon bolalar o'zi mustaqil kitob tanlashni biladilar. Kuzatuvlarga asoslanadigan bo'lsak, ular ko'proq bolalar yozuvchilari Anvar Obidjonning "G'alati maktublar", "Dahshatli meshpolvon", Tursunboy Adashboyevning "Osmon qaydan boshlanar", Po'lat Mo'minning "Bolajon, bolajonim", Safar Barnoyevning "Tinchlikni ulug'laymiz", Quddus Muhammadiyning "Erkinjon oyga ciqibdi", Yusuf Shodmonning "Oydan kelgan bolalar" va shu kabi bolalar shoir va yozuvchilarining asarlari ko'proq o'qiydilar. Ayniqsa ular o'zbek bolalar adabiyotidagi Hamid Olimjonning "Oygul va Baxtiyor", "Semurg" yoki Parizod va Bunyod", Mirtemirning "Ajdar", Shukur Sa'dullaning "Uch ayiq", "Ayyor chumchuq", Zafar Diyorning "Yangi ertak", "Toshxon bilan Moshxon", "Tulkining hiylasi", Sulton Jo'raning "Zangor gilam" va "Qaldirg'och" singari xalq og'zaki ijodi an'analari asosida yaratilgan adabiy ertakni sevib o'qiydilar. 13-14 yoshdan 15-17 yoshgacha bo'lgan kitobxon bolalar ko'proq o'zları mustaqil ravishda kitob tanlaydilar. Bu toifadagi kitobxonlarga yosh jihatdan to'g'ri kitob tanlash juda katta ahamiyatga egadir. Ularga odob-axloq masalalari ilgari surilgan adabiyotlarni tavsiya etish maqsadga muvofiqdir. Chunki bolaning o'smirlik chog'idan to'g'ri tarbiya olishi ham yoshlikdan o'qib o'rgangan kitoblari asosida bo'ladi. Bu borada ma'naviy va axloqiy poklanish, imon, insof, diyonat, or-nomus, mehr oqibat kabi g'oyalarni ilgari suruvchi Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Saodatga olib boruvchi bilim"), Ahmad Yugnakiyning "Habbat ul haqoyiq" ("Haqiqatlar armug'oni"), Ahmad Yassaviyning hikmatli kitoblari va shu kabi boshqa adabiyotlar. O'rta va katta yoshdagi kitobxon bolalar ko'proq, o'zbek adiblari G'afur G'ulomning "Shum bola", Oybekning "Bolalik", Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar", Nazir Safarovning "Ko'rgan kechirganlarim", Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sehrli qalpoqcha", "Sariqdevni minib", "Sariq devning o'limi", O'rkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi", Said Ahmadning "Ufq", Tohir Malikning "Alvido bolalik", Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" kabi asarlarini sevib o'qiydilar. Bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari shundaki, undagi asarlar bolalarni olg'a intilishga chaqiradi, hayotni chuqur sevishga yordam beradi. Chunki bolalar yozuvchisi dunyo voqealarini bolalar tasavvuri tushunchasini

nazarda tutib tasvirlaydi. Shuning uchun bolalar o‘zi yoshiga mos bo‘lgan kitoblarini o‘z dunyoqarashlari asosida tanlab o‘qiydilar Xulosa qilib aytganda, bolalar kitobxonligida bolalar adabiyoti bolalarni ma’rifatga yetaklaydi. Chunki barcha davrlar bolalar adabiyotining taraqqiyot tamoyillari, avvalo, ma’rifiylik va tarbiyaviylikda aks etadi. Shuning uchun bolalar adabiyoti namunalari yoshlarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Yurtboshimizning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga qaratilayotgan alohida e’tibori tufayli barcha ta’lim maskanlaridagi o‘tkazilayotgan “Yosh kitobxon”, “Kirobxonlar bayrami”, turli ko‘rik-tanlovlari, dam olish maskanlarida ochilayotgan zamonaviy kitob do‘konlari va faoliyat ko‘rsatayotgan kutubxonalar yosh avlodni ma’naviy va intellektual ehtiyojini qondirishda, kitobga oshno bo‘lishda muhim o‘rin tutmoqda. Kitobning mohiyati mangudir... Bu mohiyat - tafakkurni abadiylashtiradi. Bu borada mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan barcha axborotkutubxona markazlarida bolalar kitobxonligining rivojlanishiga xizmat qilmoqda Yosh kitobxonlarga tavsiya qilgan kitoblar orqali kitobxonlar mutolaa uchun zarur adabiyotni tanlashni bilib oladilar, shu bilan birgalikda, ular kitob o‘qish orqali mulohazali, bilimli bo‘lib, Yuksak tafakkuri bilan boshqalardan o‘zining dunyoqarashi va fikrlashi bilan ajralib turadi. Kitob bilan oshno bo‘lgan bola yaxshi inson bo‘lib ulg‘ayadi.

### **HAKIM NAZIR (1915-2008)**

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Hakim Nazir 1915 yil 15 oktyabrda Toshkentning Arpapoya mahallasida mahsido‘z kosib oilasida tavallud topdi. Boshlang‘ich ma’lumotni uyida onasi Malika otin maktabida olgan. Mehnat faoliyatini 15 yoshidan oyoq-kiyim fabrikasida boshlagan, ishlab turib, kechki yshchi-yoshlar maktabida o‘qishni davom ettirgan. 1941 yilda Toshkent Davlat pedagogika institutining kechki bo‘limini, 1954—1956 yilda Moskvada Oliy Adabiyot kursini bitirgan.

1933 yildan «Lenin uchquni» gazetasida ishlay boshlagan. Shundan beri 50 yil davomida uzluksiz bolalar matbuotida, respublika radioeshittirish Davlat qo‘mitasida, Badiiy adabiyot nashriyotida, O‘zbekiston Yozuvchilar

uyushmasida adabiy xodim, bo‘lim mudiri, mas’ul kotib, bosh muharrir, adabiy maslahatchi vazifalarida xizmat etdi.

Hakim Nazirning adabiy faoliyati 30-yillarning o‘rtalaridan boshlangan bo‘lib, dastlabki mashq hikoyalari 1934 yilda «Lenin uchquni», «Yosh kuch», «Vojatiy» kabi gazeta-jurnallarda bositgan. Birinchi kitobi «Qishloqdagi jiyanlarim» 1948 yilda nashr etilgan. Kattalar va bolalar uchun jami chop etilgan kitoblari 50 dan ortiq. Ularda odob-axloq, odamiylik, do‘stlik va mehnatga muhabbat, vatanparvarlik haqida bahs boradi. Bolalarning rang-barang olamlari gavdalantiriladi.

Adibning «Pionerlar bog‘i» (1950), «Besh baho» (1955), «Cho‘l havosi» (1958), «Yaxshi nom» (1962), «Meni taniysizmi?» (1963), «Bolajonlarim» (1964), «Ali bilan Sher» (1971), «Bir og‘iz so‘z» (1982), «Baqaloq va chaqaloq» (1998) kabi hikoyalar to‘plamlari shu jihatdan xarakterlidir.

Adibning bolalar uchun yozgan qissalari orasida «Ko‘korol chiroqlari» (1954), «Yonar daryo» (1966), «Kenjatoy» (1976), «Tohir-Zuhra qissasi» (1985) va «Dadamni topib beringlar» (1991) kabi asarlarida yoshlarning boy, beg‘ubor va sirli ichki olami, mehnatga, oila va muhabbatga, hayotga bo‘lgan munosabatlari ifoda etilgan.

Yozuvchining «Lochin qanotlari» (1973) romani o‘zbek bolalar va o‘smlar adabiyotida juda kam yoritilgan urush mavzusiga bag‘ishlangan.

Hakim Nazir dramaturg sifatida «Chiranma g‘oz — hunaring oz» pesasi bilan o‘zbek bolalar dramaturgiysi rivojiga o‘z hissasini qo‘shgan. Asar ko‘p yillar davomida Yosh tomoshabinlar teatri sahnasida qo‘yilgan va qo‘yilmokda.

Yozuvchi ijodida kattalar uchun yozilgan hikoyalar, ocherklar va qissalar ham yetakchi o‘rinni egallaydi. Jumladan, «Musobaqadoshlar» (1950), «Odamning qadri» (1958), «O‘tlar tutashganda» (1960), «Onaizor» (1961), «Aziz odam» (1964), «Shoshilinch telegrammalar» (1987) kabi hikoyalar va ocherklar to‘plamlari, «Suv gadosi» (1962) va «Ko‘kterak shabadasi» (1988) kabi qissalari shular jumlasidandir.

Hakim Nazirning 50 yilligi munosabati bilan ikki jildlik «Tanlangan asarlari» (1969—1970), 60 yilligi munosabati bilan besh jildlik «Tanlangan asarlari» (1977—1981) chop etilgan. Yozuvchining 80 yilligi munosabati

bilan uning ikki yangi kitobi bosilgan — biri «Oq fotiha yoki bolalik sarguzashtlarim» xotira-qissasi (1995), ikkinchisi esa «Yodimdasiz, azizlarim» (1995) esdaliklaridir.

Hakim Nazirning o‘nlab kitoblari rus, qozoq, kirg‘iz, turkman, tojik, gruzin, arman, ukrain, belorus, latish, litva, eston, nemis, frantsuz, ispan, bulg‘or, chex, mo‘g‘ul tillariga ag‘darilgan.

Uning nashr etilgan asarlarining umumiy tiraji bir yarim milliondan oshib ketgan.

Hakim Nazir besh jildlik «Tanlangan asarlari» uchun Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan (1981). 1984 yilda unga «O‘zbekiston xalq yozuvchisi» faxriy unvoni berilgan. U Xans Kristian Andersen nomidagi Xalqaro Faxriy diplom bilan ham mukofotlangan (1984), «El-yurt hurmati» ordeni bilan mukofotlangan (2000).

Hakim Nazir 2008 yil 15 may kuni vafot etgan.

**Farhod Musajonov** — ko‘p qirrali ijodkor. U nosir, dramaturg va kinossenaristdir. 1933 yilning 19 dekabrida Toshkentda tavallud topgan. 1956 yilga kelib, Toshkent Davlat universitetining sharq fakultetini muvaffaqiyatli tugatgan. Respublika radiosи, televideniesи hamda «O‘zbekiston madaniyati» gazetasi, «G‘uncha» va «Sharq yulduzi» jurnallarida ishlagan. «O‘zbekfilm» (1967) studiyasida xizmat qilgan. 1968—1970 yillarda Moskvada ssenaristlar Oliy kursida o‘qigan. 1976 yillari «O‘zbekfilm»da turli lavozimlarda, «O‘zbekkino» aksionerlik kompaniyasida xizmat qilgan. F. Musajonov adabiy ijodining boshlanishi 50-yillarning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. O‘z ijodini bolalarga she’r va hikoyalar yozishdan boshlaydi. Birinchi «Daradagi qishloqda» hikoyasi 1956 yilda chop bo‘lgan. Uning «Oftobni quvalab», «Bo‘s sh kelma, Aliqulov!», «Bir qultum buloq suvi» kabi qissalari va oltmishta yaqin hikoyalari dunyo yuzini ko‘rgan.

Hozirgacha uning «Hamlet» (1984), «Bog‘ ko‘cha (1987) kabi hikoya va qissalardan iborat 30 ga yaqin to‘plami nashr etilgan. Ayni chog‘da u «Bu ko‘zlarga ishonsa bo‘ladi», «Zo‘raki kashanda» kabi kattalar uchun ham asarlar yaratgan. Bundan tashqari, u dramaturg sifatida «Oq kabutar», «Najot istab», Hamza teatrida qo‘yilgan «Olifta», «Xizmatingga hozirman», «Talvasa» (Muqimiy teatri sahnalashtirgan) kabi dramalar yaratgan.

Shuningdek, «Jazirama oftob ostidagi uy», «Birovning boshi», «Minoralar ostidagi tsirk», «Ko‘zlarim yo‘lingda», «Huwaydo», «Askiya», «Qiziqchi», «So‘nmas ziyo» kabi ssenariylar muallifi hamdir. Bulardan tashqari u ko‘plab hajviy hikoyalar, intermediyalar, bolalar uchun rang-barang janrda asarlar ham yaratgan. Jumladan, «Oftobni quvalab», «Bo‘sh kelma, Aliqulov!», «Bir qultum buloq suvi» kabi kitoblarini eslash mumkin. Uning «Dushanba, nonushtadan so‘ng» (1974), «Bog‘ ko‘chamni qo‘msayman» (1977), «Qilich va shamshir», «Ko‘rgulik», «Qilich va soz» (2000), «Lafz» (2003) kabi qissalari o‘z o‘quvchisiga ega.

Iste’dodli bolalar adibi, dramaturg va ssenarist F. Musajonov «Shuhrat» medali bilan taqdirlangan (2000). 2013 yil 28 may kuni Toshkent shahrida vafot etgan.

O‘zining qisqa hajmli va hayajonli hikoyalari, mazmundor qissalari, kichkintoylarni to‘lqinlantiradigan pesalari bilan bolalarning quvonchlariga quvonch ulasha olgan qalamkashlardan biri Farhod Musajon 1933 yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1956 yilda ToshDUning sharq fakultetini tamomladi. Bir necha yil O‘zbekiston radiosida, “O‘zbekiston madaniyati” gazetasida, “G‘uncha” jurnalida mehnat qildi. 1966 yildan esa “O‘zbekfilm”da muharrir, keyinchalik bosh muharrir vazifalarida o‘z faoliyatini davom ettirdi. F. Musajonning ilk asari 1955 yilda e’lon qilingan. Shundan so‘ng “Daradagi qishloqda” (1960), “Turdi, galstuk va men” (1970), “Oftobni quvlab” (1970), “Chin do‘stlik” (1976), “Chevar qiz” (1982), “Buloq suvi” (1982), “Turdi, velosiped va men” (1983), “Glotok rodnikovoy vodi”, “Tekin tomosha” (1989) kabi kitoblarining maydonga kelishi bolalar uchun katta bayram bo‘ldi.

1977 yilda adib o‘zining bolalarga atab yozgan barcha hikoyalariни jamlab, yigirma ikki taboqdan iborat katta kitobini qayta ishlagan va to‘ldirilgan holda chop ettirdi. Bu kitobini ham ilgarigisiga o‘xshab “Tekin tomosha” deb atadi. Oldingisidan farqli o‘laroq, bu kitob uch qismidan iborat: kichkintoylar uchun, o‘rtancha yoshdagilar va o‘smirlar uchun.

Farhod Musajon ijodining o‘ziga xos xususiyatlardan biri shundaki, uning aksar hikoyalari quvnoq hazil-mutoyiba hissi bilan sug‘orilgan. Adibning barcha hikoyalari beg‘ubor va zavqli bolalik davri ruhiyati saqlangan. Shuning uchun uning hikoyalari oson o‘qiladi, oson hazm

boTadi. Natijada ta'sir kuchi ham ortadi. Adib ijodining yana bir jihat u o'z personajlarini yomon yoki yaxshi, adabiy atamalar qo'llab aytadigan bo'lsak, salbiy yoki ijobiya ajratmaydi. Ularga baho berar ekan, fe'l-atvori qandayligini tasvirlar ekan hech qachon kuchli iboralarni, "ablah, iblis, yaramas, gazanda" va hokazo haqoratomuz, qattiq-quruq so'zlarni ishlatmaydi. Zero, inson sifatida endi shakllanayotgan bolalarga nisbatan bunday o'tkir so'zlarni ishlatish insofdan va adolatdan emasligini tushunadi. U o'z qahramonlarini, qandayligidan qat'i nazar, o'yinqaroqmi, lapashangmi, ayyormi, dangasami, maqtanchoqmi – hammasini birday sevardi va sevib tasvirlardi. Uning uchun yomon bola umuman yo'q, kamchiligi bo'lishi mumkin, deylik yolg'onchiroq, xasisroq, xudbinroq, lekin nokas bola yo'q, har qanday bolani ham to'g'ri yo'lga solib yuborish mumkinligiga ishonardi. Va shu muborak maqsad yo'lida ijod qildi. Farhod Musajonning o'ziga xos uslubi bor edi. Uning asarlaridan bir parchagina o'qigan odam muallifning kimligini aniqlab olishi mumkin. U aniq, sodda, tushunarli va ixcham yozardi. Shu sababli katta mahorat evaziga yillar davomida paydo bo'ladigan va shakllanadigan badiiy soddalik tufayli uning asarlari o'qimishli chiqadi. Bolalar tili bilan aytsak, hikoyalari "rostakam bo'lgan voqeaga o'xshaydi". Darhaqiqat, adib voqealarini xuddi hayotdagidek ishonarli va qiziqarli qilib so'zlab beradi. Bu juda muhim. Negaki bolalar hikoya voqealariga ishonmasalar asarning ta'sir kuchi yo'qqa chiqadi. Mana shu omil – ishontira olish mahorati Farhod Musajon ijodining eng muhim xususiyatlaridan edi.

Farhod Musajon barcha yoshdagи bolalar uchun yozdi. Uning kitoblari orasida maktabgacha tarbiya yoshidagi, maktab yoshidagi, kichik va o'rta hamda katta yoshdagи bolalarga va o'smirlarga bag'ishlangan asarlarini ham uchratish mumkin.

Ma'lumki, maktabgacha tarbiya bolalar kitobxonligi, asosan, otanonalar, tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladi. Bolalar o'zlarini tinglagan asarlari yordamida atrof-muhit bilan tanisha boradilar. Ona yurtga, tabiatga muhabbat xislatlari; mehnat qilish va mehnat ahlini hurmat qilish kabi fazilatlar shu yoshdan shakllana boshlaydi. Turmushda qizg'anchiq bo'lmaslik, kasbhunar egallahsga intilish, kattalarni hurmat qilish kabi ijobiya fazilatlar ham shular jumlasiga kiradi. Bolalarning pedagogik psixologik

xususiyatlarini yaxshi o‘rgangan Farhod Musajon kichik yoshdagi bolalarga bag‘ishlab “Eng yaxshi chana”, “Shodiyona kun”, “Shiqildoq”, “Pahlavon va nimjon”, “Sovg‘a”, “Ajoyib buzoqcha”, “Yaxshilik”, “To‘lab ber”, “Varrak”, “Dog” kabi o‘nlab hikoyalar yaratgan.

Adibning “Varrak” asarining mazmuni oddiygina varrak yasash voqeasi asosiga qurilgan. Asarda kichkintoylarni bolalikdan boshlab mustaqil harakat qilishga chaqiriladi.

Ana shunday jozibali asarlaridan yana biri “Eng yaxshi chana”dir. Bu hikoyada qo‘li ochiq, saxovatli, bag‘ri keng bo‘lish, xasis, ziqna bo‘lmaslik kabi g‘oyalar kichkintoylar ongiga yetkaziladi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Hakim Nazirning ijodiy faoliyati qaysi davrga to‘g‘ri keladi va uning adabiyotdagi o‘rni qanday?
2. Adibning asarlarida qanday mavzular va masalalar ko‘proq yoritilgan?
3. Hakim Nazirning eng mashhur asari yoki asarlari qaysilar?
4. Uning ijodi o‘zbek adabiyotining rivojiga qanday ta’sir ko‘rsatgan?
5. Farhod Musajon qaysi janrlarda ijod qilgan va uning asarlari qanday mavzularni o‘z ichiga olgan?
6. Adibning ijodida milliy qadriyatlar va zamonaviylik qanday uyg‘unlashgan?
7. Farhod Musajonning eng e’tiborli asarlari va ular xalq orasida qanday mashhurlikka erishgan?
8. Uning adabiyotga qo‘sghan hissasi qanday baholanadi va u o‘z davrida qanday e’tirofga sazovor bo‘lgan?

## **13-MAVZU: MAKTAB YOSHIDAGI KICHIK BOLALAR ADABIYOTI. QUDDUS MUHAMMADIY VA PO'LAT MO'MIN HAYOTI VA IJODI**

### **REJA:**

1. Bolalar adabiyotining shakllanish tarixiga bir nazar.
2. Q.Muhammadiy ijodida tabiat mavzusi.
3. Shoir ijodining o‘ziga xos xususiyatlari.
4. Po‘lat Mo‘min ijodi xususida

### **MAKTAB YOSHIDAGI KICHIK BOLALALR KITOBOXONLIGI**

Bu yoshdagi bolalar kitobxonligi avvalgisidan bir oz farq qiladi. Bu farq bolalaming yoshi va bilim savyiasi bilan bog‘liq. M aktabgacha ta ’lim yoshidagi bolalar asosan tarbiyachilari, ota-onalari yordam ida badiiy asarlar bilan tanishsalar, boshlang‘ich sinf o ‘quvchilari bu ishni mustaqil bajaradilar. Mustaqillik ularga ishonch va zavq-shavq bag‘ishlaydi. Bu yoshdagi bolalami tevarak-atrofdagi turli voqeа-hodisalar nihoyatda qiziqtiradi. Ulaming bizni qurshagan olam haqidagi savollariga badiiy asarlarda mufassal javob berilgan. 11-12 yoshdagi bolalar sehrli, fantastik ertak, sarguzasht, xikoya, qissa va dostonlarni sevib o‘qiydilar. Olloyoming «Fazogir chumoli» (ertakqissa), A nvar Obidjonning «Dahshatli Meshpolvon» (ertak-qissa), Quddus M u h a m m a d i y n i n g «E rk in jo n o y g a ch iq ib d i \* (d o s t o n ), Yu su f Shom ansurning «Oydan kelgan bolalar» (doston) kabi asarlar shu yoshdagi bolalarga m o ‘ljallab yozilgan. Bu yoshdagi bolalar o‘zlari mustaqil ravishda kitob o‘qib qolmay, balki o‘qigan kitoblaridagi qahramonlaming xatti-harakatlarini baholashga o‘rganadilar, zarur bo‘lsa ular ko‘isatgan mardlik vajasoratlami takrorlashga hozirlanadilar.

O‘tgan asrning 30-yillari o‘zbek bolalar adabiyoti tarixida G’ayratiy, S.Jo‘ra, Z.Diyor, M.Fayziy, D.Oppoqova, A.Rahmat, H.Nazir, I.Muslim kabi professional bolalar yozuvchilarining yetishib chiqishi bilan xarakterlanadi.Ularning ichida **Quddus Muhammadiy** ijodi alohida o‘rin tutadi.

Biologiya o‘qituvchisi sifatida tabiatshunoslik darslarini she’riy usulda tashkil qilishi, “Yosh tabiatshunoslari” to‘garagida ijodkor o‘quvchilar bilan olib borgan mashg‘ulotlari uni bir umr bolalar adabiyotiga bog‘lab qo‘ydi. Tabiat va inson kamoloti ijodining bosh mavzusi bo‘lib qoldi.

“Maktab hovlisida, - deb yozgan edi shoir keyinchalik, - u yoqdan bu yoqqa yurib, dars mavzulari, ildiz, barg, gullarni qanday qilib o‘quvchilarning ko‘z o‘ngida qiziq qilib ko‘rsatishni o‘ylardim”.

Shoirning so‘ziga ko‘ra o‘qituvchilik kasbi uning shoir bo‘lishiga sabablardan biri. Bu haqda uning o‘zi shunday shunday yozadi:

“Darslarni qiziqarli o‘tkazish uchun she’rlarim rosa ish berardi. O‘tadigan har bir darsim mavzui yuzasidan she’r yozib, o‘qib berardim. Natijada, darsim o‘quvchilarimga qo‘schiqdek yoqimli bo‘lib,yaxshi yetib borardi. She’rning bolaga bunday tez singishini ko‘rib, “Bargjon” degan she’rimni yozdim.O‘sha she’rdan bir bandini ko‘ring-a:

Dov-daraxt ilmin sevsang,

Bargjon tilin bilib ol.

Shildir-shildir qo‘shig‘in

Qulog‘ingga ilib ol!

Shuningdek, “Momaqaymoq” (Qoqi o‘t ), “Bog‘imizda bir nok bor”, “Tut”, “Tolim gullaydi-yu, nega meva tugmaydi”, “Tok daraxti bir xil-u,uzumi nega har xil”, “Shaftoli-doktor”, “Asalari-Adhamjon” kabi qator she’rlarim o‘qituvchilik paytimda yozildi. Bu voqeadan xabar tobgan maktabimiz direktori marhum Ashrafxo‘ja Sharifxo‘jayev bir kuni darsimni kuzatdi. Darsimni tugatib,o‘qituvchilar xonasiga kirdim.Ashrafxo‘ja aka darsni qiziqarli o‘tkazganimni aytib, she’rlarimdan o‘qib berishimni iltimos qildilar. Maktabimiz o‘qituvchi va o‘quvchilari huzurida u kishining iltimoslarini bajo keltirdim”<sup>6</sup>.

Shoirning “Tabiat alifbosi”, “Cho‘pon bobo qo‘shig‘i”, “Qanotli do‘stlar”, “Bog‘larda bahor”, “Odam-olam qo‘shig‘i”, “Dono boboning nevara chevaralari”, “Ochil dasturxon” kabi to‘plamlarining nomlanishidan ham ma’lumki, tabiat haqidagi she’rlarining mazmun-mundarijasi xiyla keng.

---

<sup>6</sup>Adabiy-tanqidiy maqlolalar Toshkent –.”Yosh gvardiya” nashriyoti , 1979.

Bir guruh she'rlarida tabiat manzarasi yoki uning biror xarakterli belgi-xususiyati tasviri orqali o'quvchilarda go'zallik tuyg'ularini uyg'otish ko'zda tutiladi.Masalan:

Qo'llarida soz bilan,  
Gul-g'uncha pardoz bilan,  
Silkinib parvozbilan,  
Uchib turna, g'oz bilan  
Sevikli bahor keldi.

### **«Bahor keldi»**

Boshqa birlarida tolning gullashi-yu , meva tugmasligi,tok daraxtining barglari bir xil bo'lgani holda mevasining har xilligi, olcha rangining qizilligi sabablarini o'ylab ko'rish bilan bog'liq mantiqiy fikrlashga da'vat qilinadi.

Uchinchi bir xilarida ("Kapalak bilan asalari","Kolxoz bog'boni", "Nafisaoy va kishmishvoy", "Kamolvoy va shamolvoy") tabiatning gullab-yashnashiga aloqador kishilar mehnati misolida mehnatga muhabbat g'oyasiga urg'u beriladi.

"Quddus Muhammadiy uchun mavzuning chegarasi yo'q, - deb yozgan edi S.Mamajonov,- bolalarning ruhiy kechinmasidan tortib to hayvon-parrandalargacha hamma-hammasi to'g'risida yozadi. Voqeaviylik, syujetlilik serbo'yoqlilik, hatto shamolning ham tovushini bera olishlik uning she'rlariga kuch bag'ishlaydi".

"Quddus Muhammadiy ijodida,-deb yozadi M.Qo'shjonov, - bolalar adabiyotida ko'zga tashlanadigan ikkita xususiyatni ko'ramiz. Ulardan biri predmetlarni jonlantirish va harakatda ko'rsatish. Jonsiz narsalar harakat qiladi, ko'radi, gaplashadi. Bola psixologiyasi shundaki,u ko'zini ochib, yorug' dunyoga nazar tashlaganidan boshlab harakat qiladigan, ya'ni jonli narsalarni ko'radi.Boshqacharoq qilib aytganda jonli narsalar bolalarda yaxshiroq taassurot qoldiradi.Shu sababdan yosh bolalar ko'p vaqtlargacha hamma narsalarni jonli harakatda tasavvur qilib yursa kerak.Quddus Muhammadiy bolalar psixologiyasidagi mana shu xislatdan foydalanadi. U tasvirlayotgan predmetlariga "jon" ato etadi. Shu yo'l bilan hayotning jonli manzarasini yaratadi va bolalar psixologiyasiga o'z ta'sirini osongina o'tkaza oladi. Quddus Muhammadiyning she'rlarida "besh" ball

sistemasiidagi baholar poyga qiladilar, harflar o‘yin tushadilar, portfel nutq so‘zlaydi, qalam arz qiladi, bahor bog‘bon bolaga “hormang”, deydi”.<sup>7</sup>

Shoir kichkintoylarning tizginsiz savollari ularning odam va olam sirlarini bilishga bo‘lgan qiziqish va intilishlari natijasi ekanligini teran idrok etadi. Shuning uchun ham “Sandal va pechka”, “Kapalak va asalari”, “Bir o‘zboshimcha chumchuq haqida” nomli ilk she’rlaridan boshlab talay asarlarini savol - javob asosida yaratadi. Hatto ayrim savollarni asar sarlavhasigacha chiqaradi.

“Detskaya literatura” jurnalida bir tarjimon shoirning “Tovuq nega qaqqoqlaydi” degan she’rini tarjima qilib, shunday so‘zlarni yozgan edi:”Muhammadiy erta bahor gullaydigan bodom haqida ham, tog‘ kakligi haqida ham, hatto yomg‘ir chuvalchangi – “bu yer tagi traktori” haqida ham alohida muhabbat, ehtirom bilan yozadi. U tasvirlagan o‘simliklar, qushlar, ular orasidagi dialog va suhbatlar, u qayta ishlagan ertaklar faqat uning o‘ziga xos.U tasvirlagan tabiat hodisalari faqat o‘zbek yerida tug‘ilib o‘sgan, o‘zbek farzandi, oddiy farzand emas, balki talant egasi tomonidan yaratilgandir. Shu sababdan uning asarlari, shoirning o‘z so‘zлari bilan aytganda, butun bir dunyo o‘z yeri va o‘z osmoni bilan”<sup>8</sup>.

“Bir o‘zboshimcha chumchuq haqida” she’riy ertagi xalq og‘zaki ijodi an‘analari uslubida yaratilgan bo‘lib, ayrim kishilar fe’l - atvorigagi ishyoqmaslik, yalqovlik, manmanlik illatlarini fosh etishga qaratilishi jihatidan Shukur Sa‘dullaning “Laqma it”, “Ayyor chumchuq” asarlari bilan bir qatorda turadi. “Laqma it” ertagini qahramoni yoz bo‘yi ko‘cha changitib, shataloq otib yuradi. O‘yin qarоqlik bilan qish g‘amini yemaydi. Uning qahraton qishda boshpana so‘rab sigir, mushuk, echkilarga qilgan murojaati naf bermaydi.

Oyog‘iga tikan kirgan ayyor chumchuq ham (“Ayyor chumchuq”) o‘z maqsadiga erishish uchun eshak, bo‘ri, mergan, sichqon, mushuk, kampir, shamol bilan suhbatlashadi. Ular o‘rtasida chaqimchilik qilib ish tutadi.

Qudduz Muhammadiy ertagini qahramoni o‘zboshimcha chumchuq tekinxo‘rligi, manmanligi va o‘zboshimchaligi bilan ularga yaqin turadi.

<sup>7</sup>Adabiy-tanqidymaqolalar. Toshkent – ”Yoshgvardiya” nashriyoti , 1979.

<sup>8</sup>R.Moran. ”Detskaya literatura” jurnalı. 1967, 37-bet.

Chumchuqlar erta bahorda in qurib birgalikda yashash to‘g‘risida murojaat qilishganida, u chor-atrofda tayyor uylar ko‘pligini, mehnat qilishni istamasligini aytib, o‘z qavmlariga qo‘silmaydi. O‘zboshimchalik bilan zag‘izg‘onning uyiga kirib ta’zirini yeydi. Tayyor in – mo‘rkonga joylashganida pechkaga yoqilgan o‘tda patlari jizg‘anak bo‘lib, arang qochib qutuladi.

Ta’viya chumchuqni  
Ko‘rganlar hech tanimas,  
Hech bir qushga o‘xshamas .  
Na ola-yu, na qora,  
Na chipor-u qashqamas.  
Tashqari g‘iz – g‘iz sovuq,  
Chumchuqcha qip-yalang‘och.  
Egnida bir to‘ni yo‘q,  
Kuygan a’zo-badani.

Shoir ijodida yengil yumor vositasida fosh qiluvchi hajviy ruh muhim tarbiyaviy mohiyat kasb etadi.”Yaxshi – yomon deganlaridek, ba’zi bir o‘quvchilarining badfe’lligi va jahldorligi, g‘ofilligi, o‘z – o‘zidan ogoh emasligi, o‘z-o‘zini qo‘lga olmasligi va to‘g‘ri yo‘lga solmasligi, o‘qib uqmasligi, uqqani ham yuqmasligi, haddan osha tomoshaxo‘rligi, mehnatga berilmasligi, mehnatkash bo‘lmasligi meni ancha o‘ylantiradi, qalbimni ranjitib, qiyaydi”, deb yozadi shoir.

“O‘z-o‘zini tanqid”, “Dum”, “Ahmadjonga uyat”, “O‘tkirjon va vaqt”, “Tugmacha”, “Do‘nanshe’r nega ikkichi?”, “Teshaning buzog‘i nega suzag‘on bo‘ldi?” kabi mashhur she’rlar ana shunday ruhiy kechinmalar asosida yuzaga kelgan.

Shoir asarlarida olg‘a suriladigan tarbiyaviy g‘oya quruq tavsiflanmaydi, balki qalamga olingan narsa-predmetlar, voqeа-hodisalar, holatlar va kichkintoylar fe’l-atvoridagi yaxshi-yomon xislatlarga jo‘shqin hissiy munosabatlar ifodasidan tabiiy suratda kelib chiqadi.

Quddus Muhammadiyning aytishiga ko‘ra, bir kuni “Holva” she’rini katta bir uchrashuvda o‘qib beradi. She’r hammmaga ma’qul bo‘ladi. Shunda tinglovchilardan biri: “Xayriyat, bizning kasbni ulug‘lab she’r yozadigan yaxshi bir shoir bor ekan. Holvapurushlik kasbi menga ota

meros. Haqiqatan ham Siz she'rda xolvaning holva shakliga kelguncha bo'lgan nozik mehnat jarayonini to'g'ri tasvirlabsiz. Yoki o'zingiz ham xolva pishirganmisiz?" – degan ekan.“Men, - deydi shoir, - yaxshi va hayotiy she'rning kuch-qudratiga, so'z quvvatiga yana bir ishonchim oshdi. Lekin men ham ana shu “Holva” she'rimni yaratguncha holvapurushdan kam mehnat sarflamagan edim”<sup>9</sup>.

Quddus Muhammadiy o'zini tabiatdan ayricha his etmaydi.Undagi maysa-giyohlaru dov-daraxtlardan tortib hayvonot olamigacha bo'lgan jamiki mavjudot o'ziga xos sir-asrorga ega – o'qilmagan kitob.Ko'p hollarda ularning mohiyatini ochishda shoir kichkintoylarning xayolida tug'ilishi ayon savollarga murojaat etadi:

Hammadan qiziq ukki,  
Tumshug'i egri-dukki.  
Nechun yurmas kunduzi,  
Nega yonadi ko'zi?

(“Ahmadjonning kitobxonligi”)

Korney Chukovskiy o'zining “Ikkidan beshgacha” nomli asarida: “Bolalar uchun yoziladigan she'rlarda qofiyalar bir-biriga yaqin masofada joylashmog'i lozim” degan fikrni aytgan edi. Quddus Muhammadiy maktabgacha tarbiya oshidagi bolalar uchun yozgan deyarli barcha she'rlarida bu ibratlari fikrga to'la amal qiladi.

“Quddus Muhammadiy – ulkan shoir,o'zbek bolalar she'riyatining sarboni, - deb yozadi S.Mixalkov. – U faqat bolalarni emas, yozuvchilarning ham hurmat- muhabbatini qozondi. Bunday hurmat – e'zozga osonlikcha erishib bo'lmaydi. U juda obrazli, shirali, esda qoladigan tarzda yozadi. Shuning uchun she'rlari yosh kitobxonlarga ham, katta kitobxonlarga ham manzur bo'lishi butunlay tabiiydir”<sup>10</sup>.

“Shoirning “Jalilvoyning mashinasi” nomli she'ri ham qiziq voqeasosida yuzaga kelgan: “Qo'shnimizning uch yashar o'g'li Jalilvoy, - deb zavqlanib hikoya qiladi shoir ,– amaki, dadam “Jiguli” mashina olib keldilar, yuring, birga kataysa qilib kelasiz”, deb taklif qildi. Men bolani sinamoqchi bo'lib: “Jalilvoy, bu “Jiguli” mashinangiz katta daryoga duch

<sup>9</sup>Adabiy-tanqidiy maqolalar Toshkent –.”Yosh gvardiya” nashriyoti , 1979.

kelib qolsa, suzib o‘ta oladimi yoki tog‘dan uchib o‘ta oladimi?” – deb so‘radim.

- Yo‘q, - dedi bola hayron bo‘lib.

- Unda kataysa qilishga bormayman.

- Mana men yaqinda suvdan suzib, tog‘dan oshib o‘tadigan mashina sotib olaman, - dedim”. Jalilvoy shoirdan o‘sha mashinani qachon olib kelasiz, deb qistayveradi. Shunda shoir: “Men sizga she’r mashinasini olib kelmoqchi edim, - deb mazkur she’rimi o‘qib beradi. Bu orqali shoir kichkintoylar ongiga ilmiy-texnikaviy fantaziya urug‘ini sochadi, she’rni o‘qigan har bir bola xayolan o‘zining shunday mashinasini yaratadi”<sup>11</sup>.

Quddus Muhammadiy – tabiatan bolalar shoiri. Uning ijodida bolalarcha soddadillik, qiziquvchanlikning keksalik donishmandligi bilan uyg‘unlashib ketganini ko‘rish mumkin. Shoir bolalar she’riyati bobida ustozlik maqomiga erishgungacha uzoq va mashaqqatli ijodiy yo‘lni bosib o‘tdi. Urush yillari O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasidagi mushoirada “Sa’va sayrarkan” nomli she’rini o‘qib Hamid Olimjon, Oybeklarning nazariga tushgan shoir ularning tavsiyasi bilan Narpay tumaniga boradi va bir necha yil davomida Islom shoirga adabiy kotiblik qiladi. Natijada shundan keyingi ijodida folklore asarlariga xos jo‘shqinlik, mubolag‘a va mushohadakorlikka alohida e’tibor qaratiladi. “Kichkintoylar uchun yozilgan har bir she’r, - degan edi K.Chukovskiy, - hatto bir satr ham rassom uchun material bermasa, u o‘z – o‘zidan yaroqsizdir”. Qunduz Muhammadiy she’riyati bu fikrni to‘la tasdiqlaydi. Uning she’rlarida sini pero dikillab, cho‘ltoq ketmon oqsoqlanadi, darz ketgan tog‘ora to‘lg‘anib, eski qulflar yo‘rg‘alaydi (“Temirlar o‘yini”). Bu esa kichkintoylarning jonli-jonsiz jamiki mavjudotni harakatda deb bilishi bilan bog‘liq tasavvur-tushunchalariga juda mos keladi.

Quddus Muhammadiy she’rlarida hayotga bolalar nigohi bilan yondashadi, ularning tasavvuri bilan kuzatadi. Qizig‘i shundaki, shoirning o‘zi shunga ishonadi, shundan cheksiz zavqlanadi, kitobxonga ibrat bo‘larlik tarbiyaviy xulosa chiqaradi. “Chumoli” she’ri buning yorqin dalilidir. Bola bilan chumoli suhbati asosiga qurilgan mazkur she’rda asosiy gap chumolining tashqi ko‘rinishi (boshi va dumining kattaligi, belining

---

<sup>11</sup>Adabiy-tanqidymaqlolalar Toshkent –”Yoshgvardiya” nashriyoti , 1979.

ingichkaligi) ustida ketayotgandek bo‘lib tuyulsa-da, ziyrak kitobxon chumolining vatan obodligi, el-yurt xizmatiga kamarbastaligi to‘g‘risidagi javoblaridan vatanga muhabbat to‘g‘risida tegishli xulosa chiqarishi shubhasizdir.

Qunduz Muhammadiy bolalar adabiyotiga baho bergenida uni “ona sutidek pokiza” deb ta’riflagan edi. Bu ta’rif uning o‘z asarlariga ham tegishli bo‘lib, hayotiy va ijodiy pozitsiyasini anglatadi.

“O‘quvchiga esdalik” she’rining dastlabki o‘quvchilari bugungi kunda bobo va buvilar sifatida mazkur she’r misralarini chevara-evaralari bilan qo‘silib yod aytishlari shoir she’riyatining umrboqiyligidan dalolat beradi.

Po‘lat Mo‘min qalbiga hayrat tuyg‘usini solgan, qo‘liga qalam tutqizgan narsa – uning tabiatidan chuqur joy olgan bolajonlik fazilatidir. Shoir asarlarida bolalarning o‘ziga xos quvonchi va qayg‘usi, orzu-armoni, dard – hasrati nozik pardalarda ifodalangani shundan bo‘lsa ajab emas.

V.G.Belinskiy: ”Bolalarga bag‘ishlab asar yozish uchun tabiatan bolalar yozuvchisi bo‘lib tug‘ilmoq lozim”, - degan edi. Po‘lat Mo‘min ijodi buning yorqin dalilidir.

Po‘lat Mo‘min 1922-yilda Toshkentda kambag‘al dehqon oilasida dunyoga keladi. Shahardagi 22-maktabni tugatganidan keyin Pedagogika bilim yurtiga kirib o‘qiydi. Adabiyotga bo‘lgan kuchli ishtiyoyq bo‘lajak shoirni Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Institutining filologiya fakultetiga yetaklaydi. Badiiy ijodga ixlosi baland o‘spirin bu yerda ilm sirlarini egallash bilan birga, o‘zi ham she’rlar yozib mashq qiladi. Shundan keyin O‘zbekiston Fanlar akademiyasining A.S.Pushkin nomidagi Til va adabiyot instituti aspiranturasi hamda Moskvadagi M.Gorkiy nomli adabiyot institutining ikki yillik kursida tahlil ko‘rgan yillari Po‘lat Mo‘min uchun badiiy mahorat sirlarini egallash davri bo‘ldi. U ijodining dastlabki paytidanoq bolalar hayotiga chuqurroq kirishga, dilidagi o‘y-fikrlarini kichkintoylar tushunchasiga mos tarzda she’rga solishga astoydil intiladi. Mana, uning ilk ijodiga mansub “Paxta qo‘srig‘i” she’ridan bir parcha :

Oltin paxta, oq paxta,

Biz senga inoq, paxta,

Hosiling mo'l bo'lganda

Hammamiz quvnoq paxta.

Kichkintoylar tilidan aytilgan bu she'r quvnoq va o'ynoqi ohangi, oddiy so'zlar vositasida muhim hayotiy g'oyani tashishi bilan ajralib turadi. U kichkintoylar qalbida mehnatga muhabbat uyg'otadi.

Po'lat Mo'min bolalar yozuvchilar o'rtasida muxlislarga eng boy shoirlardan hisoblanadi. Buning boisi uning bolalar qalbini teran his qilishi, poetik iste'dodini bolalarga bo'lgan so'nmas muhabbat bilan qo'shib yubora olgani va zahmatkashligidadir.

Adabiyot tarixidan ma'lumki, bir xil yozuvchilar asarini yozib tashlaydi-yu, qaytib qo'liga olmaydi. Ikkinci xil yozuvchilar esa bir asar ustida qayta – qayta ishlaydi. Bu toifa ijodkorlar biror asaridan ko'ngli to'lmasa, garchi yillar o'tsa-da, yana qo'lga olishga erinmaydi. G'ofur G'ulomning "Shum bola", Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" nomli asarlari shular jumlasidandir.

Po'lat Mo'minni ham ana shunday mehnatkash ijodkorlar sirasiga kiritish mumkin. Keling, yaxshisi, bu haqda shoirning o'ziga so'z beraylik: "Respublikamizning olis tog' qishloqlaridan birida, - deb yozadi u, - qirqlardan oshgan odam bilan hamsuhbat bo'lib qoldim." O'g'lim she'rlaringizni yod olibdi, - dedi u chehrasi ochilib. – Yoddan aytib berdi, eshitib turdim. Aniqrog'i, unga o'zimcha ichdan jo'r bo'ldim. Chunki o'sha she'ringiz bolalikdan mening ham qulog'imga singib ketgan. Yod olganman. Allaqayeriga borganda, she'rni o'g'lim boshqach o'qiy boshlaydi. Xatosini tuzatmoqchi bo'lsam, o'zinikini ma'qullab turib oldi. Keyin ishonmasangiz, mana ko'ring, deb kitobni olib keldi. She'rni ancha o'zgartiribsiz..."

Darhaqiqat, shoir to'plamlarini varaqlar ekansiz, "Obod o'lkam", "Salom, Zaynab xolamga", "Yo'lchi – traktorchi", "Qovoqvoy bilan Chanoqvoy" kabi she'r, ballada va dramalarining ancha o'zgorganiga guvoh bo'lasiz. Bir tomondan, asarning badiiy qimmatini boyitish, ikkinchi tomondan, davr talabi bo'lgan bunday o'zgarishlar o'quvchi saviyasinin o'sganligi tufayli amalga oshiriladi.

Po'lat Mo'min shaxsiyatidagi zahmatkashlik uning jahon bolalar adabiyoti, klassik adabiyotimiz hamda xalq og'zaki poetik ijodining boy

an'analaridan qunt bilan o'rganganligida ham ko'zga tashlanib turadi. Shoir asarlarining hayotga tobora hamohang bo'la borishining siri shu tufayli bo'lsa ajab emas. Xalq og'zaki ijodiga mansub asarlarga xos ezgulik bilan yovuzlik o'rtasidagi konfliktning keskinligi, kompozitsion yaxlitlik, yaxshilik kuchlariga nisbatan samimiy xayrixohlik va albatta ularning tantana qilishi kabi chuqur xalqchil g'oya, tasvirdagi samimiyat Po'lat Mo'minning "Alla bilan jalla", "Ikki savdogar", "Oltin nay", "Qovoqvoy va Chanoqvoy", "To'rt to'g'ri va to'rt o'g'ri", "Bilganni qari,bilmaydi pari", "Qizil qum va odam", "Suqatoy konfetvoy" nomli talay asarlariga joziba bag'ishlagan.

"To'rt to'g'ri va to'rt o'g'ri" ertagida halollik va poklik tekinxo'rlikka qarshi qo'yiladi. Buning uchun shoir qahramonlar hayotidagi nozik nuqtalarni – ziddiyatlvoqealarni qalamga oladi.Bir kuni tunda to'rt o'g'ri yo'lovchilarni tunagan yo'lga chiqadi. Ular to'xtatgan kishi oshpaz bo'lib, bir vaqlar o'g'rilarining biriga og'ir davrlarda non-tuz berib boqqan edi. Oshpazning insoniyligi, olijanobligi qarshisida lol qolga o'sha o'g'ri o'zining naqadar tubanlashib ketganligini anglaydi. Shu kuniyoq tekinxo'rlikdan voz kechadi. O'zligini tanitgani uchun oshpazga minnatdorchilik bildiradi. Unga ergashib hunar egallaydi. Boshqa o'g'rilar ham ilgari o'zlariga qandaydir yaxshilik qilgan biror kishini tunamoqchi bo'lganlarida tanib qolishadi. Ular ham qilmishlaridan pushaymon yeb,halol mehnatga qaytadilar. Ertakda shu tarzda yaxshilikning yomonlik ustidan g'olib chiqishi hayot haqiqatiga mos bo'lib, tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Kichkintoylarning yosh xususiyatlari va psixikasini yaxshi bilgan shoir tasvir uslubini nima haqda yozishiga qarab turib moslaydi. Agar she'r bolalar xarakteridagi biror kamchilikni tanqid qilishga qaratilsa, kattalar adabiyotidagi singari o'tkir satiraga emas, ko'proq yengil va quvnoq yumorga murojaat etadi. Bu esa, o'quvchilarning o'sha kamchilikni va uning nimalarga sabab bo'lishini osongina fahmlab olishiga yordam beradi. Undan yuz o'girib, qarshi kurashishga undaydi. Bolalar sevib o'qiydigan va kuylaydigan "Salimjon-nimjon", "Ikki qo'ymang, o'qituvchim", "Betayin maqtanadi", "Kimki bo'lsa yig'loqi", "Uch baho-puch baho", "Jovdiraydi-dovdiraydi", "Uyg'onib qoldi", "Najimning daftari nega o'n ikki varaq

emas?”, “Bog‘chaga bormasa...” she’rlari fikrimiz dalilidir.

Yalqovlik haqida juda ko‘p yozilgan. Lekin ular ichida “Salimjon-nimjon” she’ri mashhur bo‘lib ketdi. To‘g‘ri, uning ommalashishiga matnga mos kuyning yaratilib, qo‘sish qilib aytilishi ham sabab bo‘lgan. Ammo bu yerda shoirning topqirligi muhim o‘rin tutadi. Shoir Salimjonning tashqi ko‘rinishi koptokka o‘xshab semirishi, badanining xamirday yumshoqligi, rangining siniqligi, ko‘zini doimo uyqu bosishi kabi detallarni keltirish bilan uning yalqovliliga ishora qiladi. Har bir banddan keyin qahramonning nimjonligiga urg‘u berish orqali yalqovlikning illat ekanligini ta’kidlab boradi:

Salim, Salim, Salimjon,  
Buncha bo‘lding sen nimjon?  
Koptok misol semirding,  
Go‘yo taning xamirjon.  
Salimjon-nimjon!  
Hech bir chiqay oftobga,  
Ranging o‘xshar betobga.  
Uyqu bosib ko‘zingni,  
Qarolmaysan kitobga.  
Salimjon-nimjon!

She’rni o‘qigan kitobxon, shubhasiz, qahramonning ustidan kuladi. Ayni paytda o‘zida ham shunday illat bor-yo‘qligiga nazar tashlaydi. Asarning tarbiyaviy qimmati ham shunda.

Shoirning “Parfining harfi”, “Qutqarilgan Bahodir”, “Lanj bola”, “Qo‘-nimsiz”, “Hafsala degan kitob”, “Sulaytirdi o‘zini”, “Qurbaqalar musobaqasi” she’rlarida qahramonlarning kechmish-kechirmishlarini tasvirlash orqali ayrim bolalar xarakteridagi bo‘lmaq‘ur odatlar, tushunchalarini fosh etadi.

Ma’lumki, bolalar shon-shuhratga o‘ch bo‘lishadi. “Qutqarilgan Bahodir” she’rining qahramoni ham shunday bolalardan. U qanday bo‘lmasin, biror qahramonlik ko‘rsatib, nom qozonish ustida bosh qotiradi. Bahodirning xatti-harakatlaridan, orzu- o‘yidan ma’lum bo‘ladiki, u qahramonlikni noto‘g‘ri tushunar ekan. Shu sababli u boshlagan nojo‘ya ish o‘z boshiga tashvish keltiradi. “Sulaytirdi o‘zini” she’rining qahramoni ham

shunday kulgili holatga tushadi. U qo‘zichog‘ini gij-gijlab suzishga o‘rgatadi.Natijada :

Zo‘r suzang‘ich bo‘lib chiqdi  
Qo‘zichog‘i.  
Qochib qolar kichkintoylar  
Ko‘rgan chog‘i.  
O‘rgatgani uchun, qarang  
Qo‘zini u  
Eng birinchi sulaytirdi  
O‘zini u.

Bolalar tabiatan quvnoq bo‘ladilar.Bu narsa ularga bag‘ishlangan asarlar ruhida ham aks etishi lozim. Po‘lat Mo‘minning “Kitob o‘qigan bola”, “Obod o‘lkam”, “Eng maza, eh, maza!”, “Kitob – hammabop”, “Ko‘ylagim”, “Kulcha non – gulcha non”, “Odob ham yaxshi, oftob ham yaxshi” kabi qator she’rlari shu jihatdan diqqatga sazovor. Mazkur asarlarda ko‘proq ohangdosh so‘zlarning tanlanishi va har bir so‘zning yetakchi g‘oyani ifoda etishga to‘la bo‘ysundirilishi, asosiy qofiyalardan tashqari, ichki qofiyalarga ham e’tibor berilishi tufayli ular yengil o‘qiladi hamda uzoq vaqt esda saqlanib qoladi.

Po‘lat Mo‘min xalq og‘zaki poetik ijodidan faqat syujetlarni qayta ishslash asosida hamda ulardan ta’sirlanib original asarlar yaratish bilan bebaho merosimiz an’analalarini ham davom ettirdi. “Kulcha non-gulcha non”, “Lo‘ppi paxta, yomg‘ir va shamol haqida ertak”, “Alla bilan Jalla”, “Tish cho‘tka, poroshok va atirsovun ertagi”, “Suv so‘zlaydi” singari she’r va ertaklaridan ko‘rinadiki, Po‘lat Mo‘min xalq og‘zaki ijodining passiv kuzatuvchisi bo‘lmay, unga ijodiy yondashuvchi shoirdir. Mazkur asarlardan “Kulcha non-gulcha non” xalq yaratgan “Kulcha non” she’ri, “Alla bilan Jalla” esa “Echki bolalari” ertagi syujetidan foydalanib yozilgan bo‘lsa, boshqalari folklor ta’sirida vujudga kelgan batamom yangi tipdag‘i zamonaviy ertaklardir.

Shoirning “Bahorning sharti”, “Oftob chiqdi olamga”, “Saxiy mehmon”, “Gaz polvon ertagi” asarlaridagi fikrning quyuqligi, ifoda uslubidagi o‘ynoqilik, syujetning qiziqlarliligi, shartliligi, bevosita folklor an’analari ruhini beradi.

Ulardan “Bahorning sharti” bola bilan bahorning dialogi asosida yozilgan. Shamol yelib, ko’klam kelib, boladan o’ziga nisbatan qanday hurmati, himmati borligini so’raydi. Bolaning: “Nominingni qo’shiq qilib kuylayman, bog‘laringda guldastalar yasab, ustozlarga sovg‘a qilaman”, degan javobi bahorni qanoatlantirmaydi. Bola o’ylab – o’ylab ko‘chat ekishini aytgandagina suhbatdoshining ko‘ngli quvonchlarga to‘ladi. Shoir she’rda ertaklardagi qahramonlar oldiga shart qo’yish uslubidan o’rinli foydalangan holda tabiatni asrash va mehnatsevarlik kabi muhim g’oyani qiziqarli tarzda ifodalashga muvaffaq bo‘lgan.

Mavzu jihatidan “Bahorning sharti”ga yaqin turadigan “Oftob chiqди olamga” she’ri ham qiziqish bilan o‘qiladi.

Bahor kelib kunlar isiganda bola ko‘chat o’tkazayotgan otasidan bir tup luchchak shaftoli olib ekadi. Yozda unga suv quyib parvarishlaydi. Shaftoli pishganda hammani mehmon qiladi. Ayasi, akasi va ukalari unga rahmat aytishadi, u esa dasasiga. Bolaning ezgulik yo‘lidagi bunday urinishlari asta-sekin kichik kitobxonga ham ko‘chishi, uning qalbida bog‘-rog‘lar yaratishga havas uyg‘otishi shubhasizdir.

Po‘lat Mo‘min asarlariga qanoat bag‘ishlagan omillardan yana biri, yuqorida ta’kidlaganimizdek, bolalar adabiyoti to‘plagan boy tajribadan ijodiy o‘rganishidir. Shoirning S.Marshak, K.Chukovskiy, S.Mixalkov, A.Barto, E.Los va boshqa taniqli bolalar shoirlari ijodiga murojaat qilishi, ularning eng yaxshi asarlarini o‘zbekchaga ag‘darishi, ma’lum ma’noda o‘zi uchun ijodiy maktab vazifasini o‘tadi. Bu narsa, ayniqsa, u yaratgan obrazlarda o‘zining yorqin ifodasini topdi. Binobarin, shoirning ayrim dastlabki she’rlarida tashbehlarning nisbatan g‘aribligi, badiiy tilning nochorligi va shunga bog‘liq suratda obrazlarning zaifligi sezilar edi.

Shoir asardan asarga o‘sma bordi. O‘quvchi shoirning “Sayrang, qushlar” nomli ilk to‘plamidan tortib, barcha asarlarida xoh bilvosita ana shunday qahramon ma’naviyatining qaysidir jihatli bilan tanishadi.

Uzoqqa bormasdan “O‘qituvchi” she’rini olib ko‘raylik. Asar alifboni o‘rgatib hayotga muhabbat uyg‘otuvchi mehribon ustozlarga bag‘ishlangan. Shoir unda o‘qituvchilarga hurmat, samimiy minnatdorchilik tuyg‘ularini izhor etish orqali ilmga chanqoq o‘quvchi obrazini ham yaratishga muvaffaq bo‘lgan .Har qanday qiziq so‘zlikdan, ta’rif-u tavsiflardan xoli

bunday qahramon o‘zining ma’naviy-axloqi olami bilan ming-minglab bolalarga o‘rnak bo‘la oladi. Hali hayotiy tajribasi kam kichik kitobxon qahramon siy whole o‘zining quvонч va iztiroblarini, orzu-armonlarini, o‘y-xayollarini ko‘rar ekan, so‘zsiz unga ergashadi. Shu ma’noda, lirik qahramonning puxta hayotiy zaminga ega bo‘lishi yosh avlodni kelajakka yo‘llashda muhimdir.

Shoir asarlariga yetakchi qahramonlarni hayotning o‘zidan tanlaydi. “Parfining harfi”mi, yoki “Najimning rejasi”, “Salimjon-nimjon”, “Salimjon endi polvon” kabi ko‘philik asarlari biror hayotiy taassurot asosida yaratilgan.

Po‘lat Mo‘minning birinchi she’rlar to‘plami 1949-yilda bosilib chiqqan edi. Shundan keyin maydonga kelgan “Oftob chiqdi olamga”, “Hunardan unar”, “Rahmatga rahmat”, “Eson va Omon”, “Odob va oftob”, “Yaxshilarga o‘xshasam”, “Oltmish olti oltin qo‘l”, “Ustozlar izidan”, “Do‘sting qancha ko‘p bo‘lsa” singari qirqqa yaqin kitobi o‘zbek bolalar adabiyotining yorqin sahifalaridan birini tashkil etadi.

Shoir asarlaridan ko‘philigining qayta-qayta nashr etilishi, darslik va xrestomatiyalardan mustahkam o‘rin olishi, bolalar tomonidan sevib o‘qilishi va kuylanishi Po‘lat Mo‘min ijodining ommaviyligiga oddiy misoldir.

### Savol va topshiriqlar

1. Quddus Muhammadiy qachon va qayerda tug‘ilgan, uning ijodiy faoliyatini qaysi davrga to‘g‘ri keladi?
2. Uning asarlarida qaysi mavzular va g‘oyalar asosiy o‘rin tutgan?
3. Quddus Muhammadiyning eng mashhur asari qaysi va uning mazmuni nimadan iborat?
4. Adibning ijodiy merosi bugungi kunda qanday baholanadi va o‘rganiladi?
5. Po‘lat Mo‘min o‘zining ijodiy faoliyatini qaysi janrda boshlagan va asosan qaysi yo‘nalishda ijod qilgan?
6. Uning asarlarida milliy ruh va an’analarning o‘ziga xos ifodasi qanday aks etgan?
7. Po‘lat Mo‘minning qaysi asarlari uni adabiyotshunoslar va kitobxonlar orasida mashhur qilgan?

## **14- MAVZU: TURSUNBOY ADASHBOYEV VA QAMBAR OTA IJODIY FAOLIYATI**

### **REJA:**

1. Shoir ijodida vatanparvarlik g‘oyalari talqini
2. Shoir ijodida inson va tabiat munosabatlari tasviri.
3. Shoir she’riyatida xalq og‘zaki ijodi motivlari.

### **Tursunboy Adashboyev**

Tursunboy Adashboyev 1939 yil 1 yanvarda Qirg‘iziston Respublikasining O‘sh viloyati, Olabuqa tumanidagi Safed Bulon qishlog‘ida tug‘ildi. Qishloqdagi 57-o‘rtta maktabni bitirgach, Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetida (1961–1966), Moskvadagi M. Gorkiy nomidagi Adabiyot institutida (1978–1982) tahsil oldi.

“Buni toping, bolalar, aytib bermang, onalar” nomli birinchi she’riy to‘plami 1962 yilda chop etildi. Shundan so‘ng shoirning “Kamolning olmasi” (1964), “Biz sayohatchilar” (1966), “Arslonbob sharsharasi” (1969), “Nur daryo” (1975), “Olatog‘ – lolatog” (1978), “Guldesta” (qirg‘iz tilida, 1979), “Oslik na shesti nogax” (“Olti oyoqli xo‘tikcha” latish tilida, 1983, tarjimon Leons Briyedis), “Quyushqon” (1984), “Arslonbob afsonasi” (1988), “Pesnya javoronka” (rus tilida, tarjimon Yunna Morits), “Uch bo‘taloq va sirli qovoq” (1990), “Top jildiz” (qirg‘iz tilida, 1991), “Topishmoqli alifbe” (1997), “Hushtak chalib turasiz” (A. Obidjon bilan hamkorlikda, 2002), “Oltin yolli tulpor qissasi” (2003), “Orzularim – qo‘sh qanotim” (2003), “Parodiyalar” (kinoya, muqallid, lutf, 2010), “Osmondag darvoza” (saylanma, 2012), “Qirq yolg‘ondan bir yolg‘on”, “G‘oz karnaychi bo‘lmasisin” (2015), “Maxfiy jang” (parodiyalar kitobining to‘ldirilgan nashri, 2016), “Orzularim qo‘sh qanotim”, “Sichqonning orzusi”, “Maqtanchoq chumoli” (2016) kabi she’riy kitoblari dunyoga keldi. Rus, turkman, qirg‘iz, tojik va qozoq tillaridagi adabiy almanaxlarda turkum she’rlari bosildi. Shuningdek, T. Adashboyevning “Jashtik sapar” (qirg‘iz tilida, 1964), “Biz sayohatchilar” (1966), “Guldesta” (1968), “Bizzdin belek” (qirg‘iz tilida, 1967), “Ir mayrami” (qirg‘iz tilida, 1967), “Zvonkoye detstvo” (rus tilida, 1981), “Chashmalarin ovozi” (turkman tilida, 1982),

“Raduga nad arikom” (belorus tilida, 1986), “Navohoi guldara” (tojik tilida, 1988), “Solni’shko na listyx” (1990), “G‘aroyib qishloqning ajoyib odamlari” (2015) kabi turli yil va turfa tillarda chop etilgan kitoblarini ham sanab o‘tish joiz.

Shoir “O‘zbek bolalar adabiyoti antologiyasi” (She’riyat, 1-jild, 1995) va mazkur kitobning rus tilidagi “Pro solnse jarkoye rasskaz, Pro nashu zemlyu i pro nas” (Poeziya, 2007) nashrlariga muharrirlik qildi.

Tursunboy Adashboyev tarjima sohasida ham samarali fqaoliyat yuritib, Temirqul Umetaliyevning “To‘rg‘ay navosi” (1969), Suyunboy Eraliyevning “Tog‘lar farzandiman” (1972), Sovronboy Jusuyevning “Dovon” (1974), “Qanot bilan Zarina” (2004), Musa Jong‘oziyevning “Quvonchbekning quvonchi” (1983), Qanibek Junushevning “Do‘ppili to‘rg‘ay” (1988), Nurmo‘ldaning “Zamona” (1998), Nodirbek Alimbekovning “Bir kam dunyo” (1998), “Gulning umri” (1994), Samuil Marshakning “Tentak ovchi” (2006), Korney Chukovskiyning “Do‘xtir Voyjonim” (2006), “Moydadir – yuvin do‘mbog‘im”, Jovani Rabonining “Mushuk Kotangensning arifmetika daftari” (1977), V. Pyuzoning “Cho‘qintirgan ota yoki Mafiya sardori” (roman, 2006), S. Arapovaning “Merri inglizchani o‘rganadi” (1996), V. Kulikovning to‘rt kitobdan iborat rasmli she’riy to‘plamlari (2006) va boshqa asarlarni o‘zbek tiliga o‘girib, chop ettirdi.

Tursunboy Adashboyev she’rlarining qahramonlari quvnoq, topqir, xayolkash, mehnatkash, zavqiyu ishtahasi tobida bo‘lgan aqlli bolalardir.

Kichkintoylarga qisqa va lo‘nda yozish, qissadan hissa chiqarish shoir ijodining muhim fazilatlaridan biridir.

Tursunboy Adashboyev o‘zbek bolalar adabiyotini rivojlantirishga qo‘sghan hissasi uchun 2001 yilda “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlandi. U, shuningdek, o‘zbek va qirg‘iz xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini mustahkamlashdagi xizmatlari uchun “Qirg‘izistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat arbobi” unvoni va “Manas” ordeni bilan ham mukofotlangan.

**Safо Matjon,  
Filologiya fanlari doktori, professor**

## SHOIRNING BADIY OLAMI

Tursunboy Adashboyev ijodining yetakchi xususiyati haqida gap ketganda, eng avvalo, erishgan yutuqlari bilan xotirjamlikka berilmash- ligi, behalovat izlanuvchanligini alohida tilga olish joiz. Negaki, ayrim ijodkorlar ma'lum darajaga erishgach, mahoratini oshirish ustida bosh qotirmaydi, natijada o‘z-o‘zini takrorlashdan nariga o‘tolmay qoladi. T. Adashboyev bu yo‘lning ijodkor uchun g‘oyatda xatarli ekanini chuqr his etadi.

Ijodiy xotirjamlikka berilish, o‘z qobig‘idan tashqari chiqsa olmasligini badiiy mahorat kushandas deb bilgan shoir badiiy ijodda ham o‘z e’tiqodiga qat’iy amal qiladi. Agar uning “Kamolning olmaso”, “Biz sayohatchilar”, “Olatog“lik bo“laman”, “Surnay”, “Arslonbob sharsharasi” to‘plamlariga kirgan beg‘ubor bolalik. Vatan, ona tabiat haqidagi talay she’rlarida an’anaviy tasvir uslubining ulug‘vorlik qilishi ko‘zga tashlansa, so‘nggi yillarda e’lon qilingan “Uch baqaloq va sirli qovoq”, “Orzularim – qo‘sh qanotim”, “Oltin yolli tulpor”, “Latifboyning loflari” kabi kitoblaridagi aksariyat asarlarida hayrat aralash yengil humor va o‘yin vositasida o‘ziga xos ezgulikka yo‘g‘rilgan hayot falsafasining bolalarbop tilda, ammo kattalarni ham o‘ylashga undaydigan tarzda ifodalanishini o‘z ustida ishslash, tinimsiz izlanishlar mahsuli, deb baholash mumkin.

To‘rg‘ay yotar tuxum bosib,  
Shuvoq bilan sirlashib.  
Qora qo‘ngiz soqqa yasab,  
Do‘ngga tortar tirmashib.  
Yumronqoziq serhadik  
Ish bitirar yugurib.  
Sug‘ur archa ostida  
Turar tasbeh o‘girib.  
Chigirtkalar qamishdan  
Nay yasaydi – kertadi.  
Ko‘kandagi biyaga  
So‘na dutor chertadi...

***“To‘ldi buloq”***

Tuxum bosib yotgan to‘rg‘ayning shuvoq bilan sirlashishi-yu qora qo‘ng‘izning soqqa yasashi, yumronqoziqning hadiksirab, alanglab yurishi-yu sug‘urning archa ostida tasbeh o‘girib o‘tirishi, chigirtkaning qamishdan nay yasashiyu so‘naning biyaga dutor chertishi – dala- dashtdagi tabiat manzarasining undagi jonzotlar misolida suvratlantirilishi kichik kitobxon qalbida yorqin hislar tug‘diradi, tasavvurini, ongu shuurini ona tabiat ko‘rinishlariga bog‘laydi. Katta yoshli kitobxon esa o‘sha manzara-holatlarni necha martalab ko‘rgan, kuzatgan, guvohi bo‘lgan esa-da, o‘z e’tiborsizligidan hayratga tushadi. Lirik qahramonning sinchkov nigohi, tabiatga iliq munosabati unga ham ko‘chadi.

Shunisi muhimki, o‘sha tabiat, o‘sha yurt – uning Vatani. O‘quvchida mana shunday kayfiyat tug‘dirish undagi Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ulariga jon bag‘ishlashi, idrok etishi va uni o‘quvchiga shu tarzda yetkazishi bilan belgilanadi. Bog‘bonlarning dov-daraxtlarning soch-soqolini qo‘yishi, oqlangan daraxtlarning opoq paypoq kiyishi (“Hasharda”), bahorning qishni burnidan tarnovga osib qo‘yishi (“Sumalak”), chaqmoqning ko‘kda yong‘oq chaqishi (“Bahor kelgach”), Asqar tog‘dan tushayotgan suvning qoyalarda yanchilishi , qarag‘ayning ko‘kka sanchilishi, qorli cho‘qqining qirg‘iz tumog‘iga o‘xshatilishi (“Sarichelak”), ayiqning piymasini ivitishiyu quyonning oq tititdan o‘ziga po‘stin tikishi, yashil taroq archalarning shamolning sochlarni tarashiyu oq yaktakli qayinlarning zarbaldoq taqishi (“Qish”) aslida bolalarcha tasavvur va idrok mahsulidir.

T.Adashboyev she’rlarining qahramonlari “sapchib oqqan suv bilan kim o‘zarga yugurgan”, xolasiga yordam uchun “nonni botirib, qotirib qaymoq yegan”, “tog‘dan ko‘tarilgan quyoshni onasi yopgan patirga” o‘xshatgan, buvisining ajinlariga qarab “dazmol bosib olsangiz tekis bo‘lib ketardi”, deb maslahat beradigan bolalardir. Ularning sho‘xligi va o‘yinqaroqligi atrofimizdagi olam jumboqlarini bilishga bo‘lgan qiziqishiyu betizgin savollarga uyg‘un:

Qumursqaning tavoni yo‘q,  
Ninachining qulog‘i.  
Soqol bilan tug‘ilar  
Echkilarning ulog‘i.

Beumurtqa mayqo‘ng‘iz,  
Ilon qo‘lsiz, oyoqsiz.  
Nima kechar daraxtlar-  
Bo‘lsa rangsiz, bo‘yoqsiz.  
Asalari ne uchun  
Chaqib , o‘zi o‘ladi?  
Qiziq nega chuvalchang  
Ikki boshli bo‘ladi?

T.Adashboyevning bolalar shoiri sifatidagi ijodiy takomilida folklor asarlarining ifoda uslubiyu Qudrat Hikmat, Sulton Jo‘ra, Zafar Diyor singari ustozlar ibrati, jahon bolalar adabiyotining ijodiy an’analari bitmas-tuganmas ilhom manbai, tajriba maktabi vazifasini o’taydi. Shuning uchun ham ustozlarimni “meni tarbiyalab voyaga yetkazgan bog‘bonlar”, deya e’zozlab tilga oladi, jahon bolalar she’riyati nomoyandalari ijodini esa “men suv ichgan chashmalar” deya hurmat bilan ta’kidlaydi.

Inson tabiat farzandi sifatida bolaligidan boshlab uning sir-sanoatini bilishga qiziqadi. Maysa-ko‘katlaru dov-daraxtlarning nish urib ko‘karishidan tortib, to yugurib-qovjirab qolgunigacha bo‘lgan davrdagi turfa holatlari, umuman, quyosh, suv, tuproq, havo uygh'unligining o‘ziga xos qonuniyati azaliy muammo tarzida insoniyatni bolaligidan qiziqtirib keladi.

Quddus Muhammadiy va Qudrat Hikmatlarning tabiatdagi ana shunday sir-asrорlar tasviri bilan bog‘liq ijodiy an’analarni izchil davom ettirib kelayotgan Tursunboy Adashboyev asarlarida tabiatdagi har bir holat-manzara mo‘jizakorlik kasb etadi. Bahor elchisi bo‘lgan boychechak o‘zini oftobning parchasi deb biladi. Kuz faslida “oq yaktakli qayinlar” zar baldoqlar taqadi, zarg‘aldoqlar chahchahlab qushlarga gap tayinlaydi.

Shoirning “Sog‘inish” she’rida yomg‘ir yog‘ishi manzarasi har narsaga qiziquvchi bola tilidan o‘zgacha qiyoslar bilan keltirilishi tufayli kichik kitobxon qalbiga hayrat tuy’g‘usini solishi tabiiy:

Kuni bilan ,  
Tuni bilan  
Yomg‘ir ezib yog‘adi.  
Bulutlarni tabiat

Erinmasdan sog‘adi.  
Ko‘cha-kuylar yaltirar  
Tuxumdayin archilib.  
Ko‘kning tubi teshilganmi,  
Tomchi tushar yanchilib

Q.Hikmatning yuqorida tilga olingan “Qish to‘zg‘itar momiq par” she’rida qor yog‘ishi qishning bulut to‘shagini savashi tufayli momiq parga o‘xshatilishi bilan tursunboy Adashboyevning “Sog‘inish” she’rida yomg‘ir yog‘ishi tabiatning bulutlarni sog‘ishiga o‘xshatilishi o‘rtasida ham ustoz-shogirdlik adabiy aloqalarining ijobiy natijasini ko‘rish mumkin.

Atrofimizdagи turfa olam manzaralarini beg‘ubor bolalik tasavvuri bilan idrok etish, undan o‘zi uchun mutlaqo yangi mo‘jiza kashf qilish, eng muhim, kitobxonni ham shunga ishontirish mahoratini egallashda Tursunboy Adashboyev o‘z e’tiqodiga sodiq shogird sifatida qalam suradi. Jumladan, bahorda yomg‘irning yerni iyadirishi, yashil chakmon kiyadirishi haqida mustaqil fikrga ega lirik qahramon betizgin xayollari bilan hamma narsani harakatda deb biladi:

Bahor ko‘ykak kiyirdi,  
Ko‘k egniga bulutdan

Tursunboy Adashboyev Sulton Jo‘raning qalamiga mansub “Tinish belgilarining majlisi”, “Kimning xati chiroyli?”, “Harflar paradi” kabi asarlardan ilhomlanib “Mening savolim”, “Topqir bo‘lsang”, “Bobo qancha yoshdasiz?”, “Chug‘urchuq”, “Topishmoqli alifbe” kabi ma’rifiy-tarbiyaviy harakterda qator she’rlar yaratdi. Lekin ularning hech qaysisi taqlid harakterida bo‘lmasdan, shoirning kichkintoylarga aytish zarur deb bilgan o‘y-fikrlari, o‘ziga xos “hikmat”lari mahsuli sanaladi.

Shoir lirik qahramon tilidan bolalar bilishi lozim deb o‘ylagan savollarni o‘rtaga tashlar ekan, savollarning javobini keltirish bilan kitobxonga o‘ziga xos yo‘l-yo‘riq ham ko‘rsatadi:

Baytalning bolasini toychoq derlar,  
Tuyaning ko‘rar ko‘zi bo‘taloqdir.  
Echkining erkatoi uloq bo‘lur  
Qo‘y esa qo‘zi bilan ko‘ngli choqdir.  
Bordi-yu sigir tug‘sа derlar buzoq,

Ayiqning arzandasasi momaloqdir,  
Kiyik, yo‘lbars kenjasining nedir oti?  
Xo‘sh, nimadir maymun, bo‘ri bolasi?  
Nima bo‘lur kipritikon zuryodi?  
Dono bo‘lsang, top va to‘ldir chalasin.  
“Topqir bo‘lsang”

“Mening savolim” she’rining lirik qahramoni ham xayolparastlikda undan qolishmaydi.

O‘ylab qoldim ko‘rpadan  
Turib-turmay uyg‘onib.  
Tun ne uchun qorong‘i?  
Kunduz nega yop-yorug‘?

Bolalar adabiyotining kichkintoylarni olam jumboqlari, tabiat mo‘jizalari bilan tanishtiruvchilik-tarbiyalovchilik yoki aynan shu o‘rinda ko‘zga tashlanadi. Shoir tabiatga muhabbat g‘oyasini “Shanbalik” she’rida bog‘bonlarga hashar yo‘li bilan yordam bergen balalar mehnatini tasvirlash orqali ifoda etsa, “Arkitda”da fusunkor ona tabiatni toptab, kakliklarga qiron keltirgan ovchiga nafrat izhor etish yo‘li bilan bayon qiladi.

“Shanbalik” she’ri bog‘bonlarga hashar yo‘li bilan yordam bergen bolalar tilidan yozilgan. She’r qahramonlari o‘z mehnatlari samarasidan mamnun. Bu mammunlik ularning tasavvurlarini yanada boyitadi. Bolalarning ko‘ziga bog‘bonlarning dov-daraxtlardagi ortiqcha shox-shabbalarni butashi soch-soqolini olishga, daraxtlar tanasining oqlangandan keyingi holati oppoq paypoq kiyganga o‘xshab ko‘rinadi. Bu o‘xshatish she’rning ta’sirchanligini oshiradi, uni uzoq vaqt esda saqlab qolishga yordam beradi. Bolalarning olam jumboqlarini tushunishida narsa-buyumlarni taqqoslashning muhim vosita bo‘lishi inobatga olinsa, shoir keltirgan o‘xshatishlarning ahamiyatini anglash qiyin emas.

Shoir “Arqitda” she’rida tabiatning fusunkor manzarasini chizadi. Uning nazdida tog‘dagi tinch hayot tabiat go‘zalligiga monand, bu go‘zallikka alohida fayz bag‘ishlaydi:

Burqir archa burog‘i  
O‘rmon yashil, qir yashil.  
Sug‘ur uxlar xotirjam,

Yumronqoziq don tashir.

Sokin vat inch hayot kakliklariga otilgan o‘q ovozidan buziladi. Bundan faqat kakliklar emas, balki butun tabiat norozi: “Tog‘u toshlar asabiy, archa yonar tutaqib”.

Bizningcha, bu yerda ovchini so‘kib, la’natlab o‘tirishning hojati yo‘q. Kichik kitobxon shusiz ham tog‘u toshlarning asabiyligi va archaning tutashidan ovchining yovuz qilmishi to‘g‘risida ma’lum xulosaga keladi.

Ko‘rinadiki, shoир kichkintoylar qalbida ona yurtga muhabbat uyg‘otishda uning go‘zalligini madh etish yohud tabiiy boyliklarni sanash yo‘lidan bormaydi. Aksincha, bu muqaddas tuyg‘uni dov-daraxtlarni parvarishlab yashnatishga oz bo‘lsa ham hissa qo‘sghan bolalarga mehri, tabiat boyliklarini payhon qilgan ovchiga nafrati orqali tashviq etadi.

*Shoir Salim Ashur ham Tursunboy Adashboyev ijodi haqida quydagilarni yozadi:* “Shoir sinchkov kuzatuvchi bolalarni jondan sevuchi ijodkor ham. Shu bois quvnoq humor, samimiyl hazil mo‘l she’rlarida bola tabiat ko‘zgudagidek ko‘rinadi: she’rlarda bola o‘z ichki olami aksini ko‘radi, goho harakatlarini shoirbobo ko‘rib turganidan xijolat tortadi, bilib qolibdilar-da, deb o‘ylasa ehtimol. Ha shoirbobo bolalarni, ularning fe’l-atvorini, orzu-maqsadlarini bilib turadigan bolaqlab shoir. Tursunboy Adashboyev asarlarida bolalar psixologlari o‘z mutaxasisliklarida qo‘llashlari mumkin bo‘lgan nozik kuzatishlar, xulosalar mavjud. Bu esa bolalar psixologiyasi bilan shug‘ullanuvchi mutaxasislar uchun tayyor ish dasturi bo‘la oladi”.

T.Adashboyev ijodiga xos xususiyatlardan biri badiiy soddalik va qisqalikka intilishi bilan belgilanadi. Shoирning “Turist”, “Xolis xizmat”, “Kosmonavt”, “O‘yin topmay”, “Insof talab”, “Yordam so‘rab”, “O‘lja”, “Kim polvon?”, “Latifjonning loflari”, “Ayamadi mo‘ylabin”, “Bug‘doy boshog‘i”, “Oq yol”, “Oltin yolli tulpor qissasi” kabi ko‘plab asarlari buning yorqin dalilidir. Jumladan, “Turist” she’rida o‘rgimchakni safar xaltaga orqalagan turistga o‘xshatish oraqlari ko‘z o‘ngimizda hammaga tanish jonli manzarani suratlantiradi.

Safar xalta orqalagan turistdek,  
Dor katagi asphalt yo‘ldan durustdek  
Zir yo‘rg‘alar o‘rgimchak,

G’ir yo‘rg’alar o‘rgimchak.

O‘rgimchak - turqi sovuq hashorot. U behos ko‘zi tushgan har qanday kishini seskantiradi. Shoir she‘rining ikkinchi to‘rtligida o‘rgimchakning hayot tarziga ishora qilish bilan yosh kitobxonning u haqdagi dastlabki noxush tasavvurini o‘zgartiradi:

To‘r xaltaga pashsha, chivin joylanib,  
O‘zi chizgan “yer shari”ni aylanib,  
Zir Yugurar o‘rgimchak ,  
G’ir Yugurar o‘rgimchak.

Bu yerda o‘rgimchak to‘qigan to‘rning Yer shariga o‘xshatilishi she‘rning obrazlilagini yanada oshiradi. Har ikkala to‘rtlikning oxirgi misralaridagi “Zir Yugurar o‘rgimchak” ohangdorlik, qisqalik, obrazlilik ko‘z o‘ngimizda o‘rgimchakning chopib yurgan holatini ko‘zgudagidek aniq gavdalantiradi.

Aytish joizki, bolalar adabiyotining tarbiyaviy mohiyatini bir yoqlama tushungan talay yozuvchilar ijodida pand-nasihat alohida o‘rin tutadi. T.Adashboyev ijodining yutug‘ini ta‘minlagan omillardan biri pand-nasihatga yo‘l qo‘ymaslik, aksincha bolalarning betizgin xayollariga oziq beruvchi, tasavvurlarini boyituvchi asarlar bilan belgilanadi desak xato bo‘lmaydi. “Latifjonning loflari” buning yorqin dalilidir:

Lof gaplarga Latifjonning suyagi yo‘q,  
Sal maqtanchoq, og‘zini-ku jiyagi yo‘q.  
Yoshligidan o‘ta abjir, chaqqon edi,  
Bo‘rdoqiga beshta chivin boqqan edi.  
Charxlattirib bolta, pichoq-asboblarni,  
Ishga soldi guzardagi qassoblarni.  
Bir chivinni ayircuncha jo‘rasidan,  
Kishan solib chiqarguncha qo‘rasidan,  
Ikki qassob tushib ketdi qora terga.  
Eplab-seplab yotqizishdi uni yerga,  
Shodi qassob tavakkal deb tortdi pichoq.  
Terisidan beshta po‘stin chiqdi shu choq,  
Men ularni cho‘ponlarga sovg‘a qildim,  
Shu gap rostim? Ajabtovur!.. tovba qildim!..

Yog‘larini berayotsak sovungarga,  
Go‘shtlarini olib qochdi bir to‘p qarg‘a.

Bugungi bolalar she’riyatining yetakchi darg‘alaridan Tursunboy Adashbo耶ev nafaqat she’riy ijodi, balki rustam Nazar, Erpo‘lat Baxt, Zafar Isomiddin, Sodiqjon Inoyatov, Dilmurod Jabbor, Xudoyberdi Komilov, Ma’mur Qahhor, Qo‘zi Ismoil, Nurillo Oston kabi kenja avlod bolalar shoirlarining g‘amxo‘r maslahatgo‘yi sifatida ham talay ibrathi ishlarni amalga oshirmoqda. Ularning yangi kitoblariga vaqtli matbuot sahifalarida tegishli munosabat bildiradi, lozim topganlariga xat bilan murojaat qilib, kichkintoylarni aldamaslikka da’vat etadi.

Jahon bolalar she’riyatining talay namunalari T.Adashbo耶ev tarjimasida keng kitobxonlar ommasining adabiy mulkiga aylangan. Ularning ichida K.Chukovskiyning “Yuvin do‘mbog‘im”, “Moydodir”, S.Marshakning “Ahmoq sichqoncha haqida ertak”, S.Aksyonovning “Sehirli qizil gul”, V.Berestevning “Ko‘lmakdag suratlar”, “O‘qishni o‘zing bilsang”, B.Zaxoderning “Samovar”, “Bo‘ri maqtasa...”, N.Dumbadzening “Ketino”, “Ignas”, Ovsey Drizning “Kutilmagan hodisa”, V.Dankoning “Qorbobo bo‘lsam agar”, Yan Bjexvaning “Tuxum va tovuq”, “Tuz haqida ertak”, “Uolter Delamerning “Pat saqlanar yostiqda”, “Bekinmachoq” kabi asarlari bor. Ulardan “Kutilmagan hodisa” nomli mana bu she’rga e’tibor bering:

- Boisin ayt, hoy,Burga,  
Bu qadar nega shodsan?  
- Kirib ayiq juniga  
Gazeta o‘qiyotsam,  
Menga miltiq o‘qtalgan  
Ovchiga ko‘zim tushdi.  
Bunday dahshatli holni  
Ko‘rmagan yeti pushtim.  
Nishonga olib meni,  
Tepkini bosdi: var-vang!  
Xayriyat, o‘q to‘satdan  
Ayiqqa tegdi, qarang...

Tarjimonning mahorati shundaki, agar uning nomi yozilmasa, kichik kitobxon dabdurustdan asarning tarjima ekanligiga ishonmaydi. Ovchining o‘ziga miltiq o‘qtalishdek dahshatli holga yeti pushtining duch kelmaganligi yuzasidan Burganining iqror-e’tirofi she’riga milliy ruh bag‘ishlaydi. Natijada asliyat bilan tarjima o‘rtasidagi chegara barham topadi.

T.Adashboyev ijodini kuzatgan zukko kitobxon uning uchun ona tabiat bitmas-tuganmas ilhom manbai bo‘lib, tabiatdagi jonli va jonsiz jamiki mavjudotga tegishli har bir holat, manzara tufayli bolalarcha xayratlarga cho‘mgan ijodkor tasavvurida o‘zgacha biro lam yaralganiga guvoh bo‘ladi. Muhibimi, shoir xayolotida yaralgan ana shu badiiy olam boshqalarni befarq qoldirmaydi.

Bolalarga atab 20 dan ortiq she’riy kitoblar va yuzlab quvnoq qo‘shiqlar yozgan shoir Qambar O‘tayev (Qambar ota) ning ijodi, ayniqsa, mustaqillik yillarida ham mazmunan, ham sifat jihatidan gurkirab o‘sdi. U mustaqillikning xalqimizga keltirgan sharofati tufayli yosh yuraklarda namoyon bo‘lgan ozod Vatan sevgisi, g‘urur va faxr tushunchalarini ulug‘ muhabbat bilan tarannum etishga qalb qo‘rini bag‘ishladi.

Shoirning “Toshpolvon va ishpolvon haqida ertak”, “Qush bilan gaplashdim”, “Tomda uxlagan bola” kabi to‘plamlariga kirgan axloqiy-didaktik xarakterdagi asarlari kichkintoylarni yuksak ma’naviyat ruhida tarbiyalashga qaratilishi bilan alohida e’tiborga loyiq. Shuning uchun ham sara she’rlari maktab darsliklari, darsdan tashqari o‘qish kitoblaridan, bolalar bog‘chalari va maktablar uchun metodik qo‘llanmalardan tushmay keladi. Jumladan, birinchi sinf “Odobnama” darsligiga kiritilgan “O‘zbekiston – onajon”, 1-sinf “O‘qish kitobi”dagi “Yer”, 2-sinf “O‘qish kitobi” dagi “Bog‘da”, 4-sinf “O‘qish kitobi” dagi “Non qayerdan keladi?” kabi talay she’rlari kichkintoylarni atrofimizdagi olam bilan tanishtirish orqali Vatanga muhabbat tuyg‘ulariga turtki beradi.

Shoirning “Ay-ay-ay...”, “Bolalarning ko‘zlar”, “Toy bola”, “O‘zbekiston-Onajon!”, “Bunday o‘lka qayda bor?!” , “Bola aziz”, “Kulishlaring”, “Suyukli navro‘zim”, “Oftobjonim-o‘rtoqjon”, “Gul-loladan jamalak”, “Gul yaxshi, lola yaxshi”, “Polvonman” kabi qo‘shiqlarini kichkintoylar , ayniqsa, sevib ijro qilishadi.

Shoirning “Toshpolvon va ishpolvon haqida ertak” asarida

qahramonlarning mustaqillikka mos ravishda kasb-korga qiziqishi, tadbirkorligi tufayli hayot yo‘lini topish tasvirlansa, “Vatan sog‘inchi”, “Tabarruk qabul” dostonlarida Vatanga yuksak muhabbat tuyg‘ulari ulug‘lanadi. Mazkur asarlar bolalarni haqqoniylig ruhida tarbiyalashga, Vatanni sevishga da’vat etishi bilan ajralib turadi.

Qambar O‘tayevning yuqorida nomlari tilga olingan kitoblaridagi “Aziz Vatan”, “Rubobim”, “Ertaksevar quvnoq bola” she’rlarini o‘qiganingiz sari dilingiz yorisha boradi. Shoир she’rlari sarlavhasidanoq zavqlana borasiz: “Quyosh bola, oy bola”, “Sog‘lom avlodga balli!”, “Baxt – omadi chopag‘on”, “Erka qushim” va hokazo.

Shoirning “Tomda uxlagan bola” deb nomlangan kitobini qo‘lga olgan o‘quvchi, tabiiyki, bu qanday bola ekan, deb o‘ylaydi. She’rlar bilan tanishish jarayonida uning dastlabki xayoli tamoman o‘zgaradi. Yoz issig‘ida sho‘x bolaning tunda tom ustiga chiqib yotishida o‘zga ma’no borligini bilgach, tengdoshining qiliqlaridan zavqlanadi. Bunday hazilnamo she’rlardan “G’ildirak ichida yugurgan olmaxon”, “Hazilkashlar”, “Qovoqlar”, “Yayrab yurgin, echkicham” kabi she’rlar bolalar dilini yayratadi. Xullas, bolalarni ham quvnatadigan, ham fikrga chorlab, o‘ylatadigan asarlarida shoир Qambar O‘tayevning talanti yorqin namoyon bo‘lgan.

“Tug‘ilishimda doyalik qilgan buvimning aytishi bo‘yicha Navro‘z bayrami boshlanishiga 12 kun qolganda tavallud topgan ekanman, - deb yozadi shoир. – Tug‘ilganlik haqidagi guvohnomani 1957-yili Kattaqo‘rg‘on shahrida olganman.

Ismim – Qambar. Bu so‘z ikki xil ma’no anglatadi; biri – yangi oy, ikkinchisi – yulduzlar turkumi. Har ikkalasining ma’nosini bir-biridan yaxshi. Yangi ko‘ringan oy – yaxshilik alomati. Yulduzlar turkumi – turfa – turkum do‘stlar, turfa yorqin ishlar hamrohi bo‘lsin, degan ma’noda menga bu ismni qo‘yishganidan minnatdorman”.

Taqdir taqozosi bilan bo‘lajak shoирning bolaligi Koson va Chiroqchi dashtlarida, Urgutning Bahrin qishlog‘ida, Darg‘om anhori bo‘ylarida, Pastdarg‘om tumani dalalarida, Kattaqo‘rg‘on shahrida va undan sollanib oqib o‘tuvchi . o‘sha paytda to‘lib, tinib, yayrab, oquvchi hayotbaxsh Kattaqo‘rg‘on anhori va Nahripoy va undan nariroqda Qoradaryo

bo‘ylaridagi so‘lim jiydazor, o‘rikzor, uzumzorlar, turli-tuman mevazorlarga to‘lib toshgan unutilmas go‘shalarda o‘tadi.

Vatan haqidagi birinchi she’ri Kattaqo‘rg‘ondagi Miriy nomli mактабда o‘qиyotganida tuman gazetasida yorug‘lik ko‘rdi. Ko‘p o‘tmay “Yong‘oq” sarlavhasi masala chiqdi. So‘ng birin-ketin Samarqand viloyat gazetasida, “G‘uncha” jurnalida she’rlari paydo bo‘la boshlaydi. Ko‘p otmay, to‘liqsiz o‘rta ma’lumot bilan Samarqand temir yo‘l texnikumiga o‘qishga kiradi, so‘ngroq texnikumda o‘qish barobarida 69-kechki maktabga o‘qishga qatnab, 1962-yili birato‘la bitirdi. Xuddi shu yilning o‘zida Alisher Navoiy nomli Samarqand davlat universitetining o‘zbek filologiya fakultetiga o‘qishga kirdi. Bu davr ichida uning ancha – muncha she’rlari turli nashrlarda ko‘zga ko‘rinib ,tanilib qolgandi .

Ijodga qattiq ko‘ngil qo‘ygan shoir 1974-yilda oilasi bilan Toshkentga ko‘chib kelib G‘afur G‘ulom nomli Adabiyot va San’at nashriyotida ish boshlaydi. Bisotida ancha yetilib qolgan she’rlarini to‘plab “Vatan tuprog‘i”, “Bizning kosmos” nomli kitoblarini chop ettirdi . She’rlari va ertak – dontonlari tiniqib,tilga tusha boshladи. Ayniqsa, bolalarga atalgan she’rlari soddaligi, samimiyati, dilga yaqinligi bilan kichkintoylar quvonchiga quvonch qo‘sha bordi. Yillar osha Respublikamizning taniqli kompozitorlari shoir she’rlaridan tanlab qo‘shiqlar yaratди. Pedagog olimlar tarbiyaviy ahamiyati katta bo‘lgan, talant bilan yozilgan asarlarini turli maktab darsliklariga, darsdan tashqari o‘qish kitoblariga, metodik qo‘llanmalarga, qo‘shiqlarini esa musiqa darsliklariga kiritishda davom etdi.

Shoir Qambar otaga yozgan asarlari ichida vatanparvarlik, ta’lim – tarbiyaga oid “Sadoqat”, “O‘zbekiston, onajon”, “Vatan sog‘inchi”, “O‘xshamay ketgur...”, “Qo‘ng‘izlar jangi”, “Bola aziz”, “Sardor afsonasi”, “O‘tgan gap” kabi teran ma’noli she’rlari va talant bilan yozilgan “Erka egizaklar”, “Bog‘bon hikoyasi” dostonlari, yuzlab qo‘shiqları shoirga katta shuhrat keltirdi. Shoir 1999-yilda

II- darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan taqdирlandi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. M.A’zam ijodining yetakchi xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Shoир she’riyatida lirik qahramon ruhiyatini qanday tushunasiz?
3. Shoир she’riyatida falsafiy g‘oyalar talqiniga misollar keltiring.
4. Shoир she’rlarida savollarga nima uchun alohida e’tibor qaratadi?
5. “Mardlik va aql yorug‘ligi” she’rini tahlil qiling.

**15- MAVZU: ANVAR OBIDJON “DAHSHATLI MESHPOLVON”  
DOSTONIDA FOLKLOR AN’ANALARI. HAMZA  
IMOMBERDIYEV IJODI**

**REJA:**

1. Anvar Obidjonning bolalar adabiyotiga qo’shgan hissasi
2. Anvar Obidjonning bolalar uchun she’rlarida ilgari surilgan g‘oya
3. Hamza Imomberdiyev bolalar shoiri

**Anvar Obidjon** (1947-yil 8-yanvar — 2020-yil 11-aprel) o‘zbek jurnalisti va shoiridir. O‘rta maktabda o‘qib yurganida „G‘uncha“ jurnalida „Shkafjon“ nomli birinchi she’ri boshilgan (1960). Obidjon 1946—1966-yillarda Samarqand moliya texnikumida, 1973—1979-yillarda Toshkent davlat universitetining jurnalistikा fakultetida sirdan o‘qigan. Harbiy xizmatni o‘tagach (1966—1969), qishlog‘ida „Nurobod“ jamoa xo‘jaligida dala xisobchisi bo‘lgan (1970—1971), tumandagi „Paxta uchun“ gazetasida adabiy xodim, bo‘lim mudiri (1971—1976), Toshkentdagи yog‘ moy kombinatida bog‘bon (1977—1978); Anvar Obidjon (Obidjonov qo‘mitasida muharrir (1979—1981) bo‘lgan. 1981—1986-yillarda „Kamolot“ nashriyotida muxarrir, bosh muxarrir o‘ribbosari, 1986—1987-yillarda „Yulduzcha“ nashriyotida bosh muharrir, 1988—1989-yillarda „Yosh kuch“ jurnalida adabiy xodim, 1988—1989-yillarda „Mushtum“ jurnalida bo‘lim mudiri, 1989—1998-yillarda „Cho‘lpon“ nashriyotida bosh muharrir, direktor bo‘lib ishladi! Anvar Obidjon „Onayer“ (1975), „Olovjon va uning do‘satlari“ (1983), „Bezgakshamol“ (1985), „Akang qarag‘ay Gulmat“ (1987), „Oltin yurakli Avtobola“ (1986), „Alamazon va Gulmat xangomasi“ (1992), „Meshpolvonning janglari“ (1994), „Oltiariq xangomalari“ (1999), „Odobi bo‘lish osonmi?“ (2001), „Meshpolvon“ (2003) singari 25 ta to‘plamini chop ettirdi. U aksariyat asarlarini bolalarga bag‘ishlaydi. Anvar Obidjon 1997-yil „Shuhrat“ medali bilan taqdirlangan, 1998-yilda „O‘zbekiston xalq shoiri“ unvoniga sazovor bo‘lgan. Anvar Obidjon 2020-yil 11-aprel kuni Toshkent shahrida 74 yoshida vafot etdi.

## **Hamza Imonberdiev hayoti**

Hamza Imonberdiev 1954- yilda Qozog'iston Respublikasi Chimkent viloyatining Suzoq qishlog'iда dehqon oilasida tavallud topdi. Hozirgi Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universitetining filologiya fakultetida Abusaid Ko'chimov, Abdug'affor Hotamov kabi yozuvchilar, SHuhrat Jabborov, Hamid Habibullaev kabi taniqli jurnalistlar bilan birin- ketin o'qidi.

Talabalik yillarda yuqoridagi ijodkor do'stlari bilan O'tkir Rashid rahbarlik qilgan fakultetning "CHashma" to'garagida, universitetning «Ma'rifat yo'lida» gazetasida she'riy mashqlarini tobladi. Universitetni imtiyozli diplom bilan tamomlagan bo'lajak bolalar shoiri H. Imonberdiev o'z mehnat faoliyatini <<Tong yulduzi>> gazetasida boshladi. Umrining so'nggi o'n yilini esa «Cho'lpon» nashriyotida, kichkintoylar uchun katta adabiyot chop etadigan maskanda muharrirlik bilan o'tkazdi.

Talabalik yillaridayoq ijoddha kitobxon ko'ziga tashlanib qolgan bolalar shoiri Hamza Imonberdiev «Quvnoqlar quvonchi», «Shokoladxo'rللار», «Kulgi shaharchasi», «G'aroyib pufako», «Oydag'i tomosha», «Qutichada mitticha», «Lofchilar aldoqchilan», «G'aroyib Kent hangomalari», «Bir kunlik mo'jiza» kabi kitoblar muallifi sifatida bolalar dilidan mustahkam joy oldi.

Shoir asarlari rang-barang, mavzu doirasi keng. U har bir katta-kichik asarida kenja kitobxon do'stalarini nimagadir o'rgatadi, o'rganishga, ibrat olishga, turmushda xulosa chiqarib yashashga chorlaydi.

Xalqda: «Birovga chuqr qazisang, unga o'zing qulaysan», degan naql bor. Bu borada «Kalila va Dimnaxda juda ibratomuz bir hikoya bor. U har qanday odamga ta'sir qiladi:

«Bir kuni Qoraquloq o'rmon chetiga chiqib o'tirgan edi, bir sichqon-ning jahd-u jadal bilan daraxt tomirini kemirayotganini ko'rib qoladi.

Daraxt tilga kirib unga dedi:

Ey, dilozor va sitamkor! Nima uchun jonim rishtalarini qirqyapsan?

Sichqon uning nola-yu zoriga e'tibor bermay, o'z ishini davom ettiraverdi. Nogah bir burchakdan ilon chiqib, sichqonga hamla qildi va bir zumda yutib yubordi. Qoraquloq bu voqeadan <<Dilozorning jazosi ozor ekan>>, degan xulosa chiqarib oldi.

Shu vaqt bir tarafdan tipratikan kelib, ilonning dumidan tishladi-yu, boshini ichiga tortib g'ujanak bo'lib oldi. Ilon jahl bilan unga o'zini ura boshlagan edi, a'zoyi badanini tikanlar pora-pora qilib yubordi. Ilon o'sha zahoti o'ldi. Qoraquloq bundan ibrat darsi oldi. Ilon o'lgach, tipratikan boshini chiqarib, uning yaxshi-yaxshi joyidan tanlab yedi. Qorks to ygach, daraxt soyasida koptokdek bo'lib yumalab, huzur qilib yotgan edi, nogah bir och tulki kelib qoldi. Tipratikanning nayzalaridan qo'rqb, uni hiyla bilan o'ldirmoqchi bo'ldi. U tipratikanni ag'anatib qomiga yozildi. Tipratikan yomg'ir yog'yapti shekilli deb o'ylab, boshini chiqargan ham ediki, tulki bir hamla bilan uni cho'rt uzdi, bo'shashib qomi ochilib qolgan tipratikanni ishtaha bilan yeb oldi. SHu vaqt bo'riga o'xshagan vahshiy bir it kelib, tulkini turgan yerida bo'g'ib, uning go'shti bilan ochligini qondirdi.

Qoraquloq bu ajoyibotlari ko'rib, hayron qolib yotar edi.

It endi dam olishga hozirlik ko'rayotganda bir qoplon kelib, uning siynasidan oldi. Qoplon hali itni tugatmagan ham edi, ovchi kelib, bir o'q bilan uni tinchitdi. Qoplanning joni hali uzilmagan edi, u yerdan bir otliq o'tib qoldi. Unga qoplanning terisi yoqib, ovchi bilan urisha boshladи. Qilich solib, ovchining boshini tanidan judo qildi va qoplanning terisini Nib yo'lga tushdi. U yuz qadam ham yurmagan ediki, oti qoqilib, yerga yiqildi. Gardani sinib, shu onda halok bo'ldi».

Bolalar shoiri Hamza Imonberdiev «O'q» she'rida xuddi shunga yaqin bir voqeani yosh kitobxonga havola qildi. Kamondan bemavrid otilgan o'q hayotda bosar-tusarini bilmaydi, u o'ta dahshatli, qasd qilish ishtiyoyqida hammaga dag'dag'a qiladi. O'q hech kimni nazar-pisand qilmaydi, chor tomonni nobud qilaman, otaman, bag'rini tilaman, o'ldiraman, deb oldinga intilaveradi:

Kelib qoldi ro'baro

O'tib ketdi bir yondan.

Ona Jayron yo'lida.

Hamon uchib borar u

Quyosh ko'kda qotdi tosh,

Qora ajal qo'lida.

Nafasini yurgancha.

Kelib qoldi ro'baro"

Gullar ma'yus egdi bosh

Keksa CHinor yo'lida.

O'zligin unutgancha.

Hoy, ko'zingga qara-da,

Qochar Jayron quyunday

Titrab dodladi CHinor.

Tuyog'idan chaqnar o't

Bag rimdag'i inlarda

Jon o‘q, tegma, uyimda

Axir palaponlar bor!

Kutar bolam, ko‘zi to‘rt!

O‘q voz kechib nishondan

O‘q voz kechib nishondan,

Otar-ketar bir yondan....

Odatda, kim haddidan oshsa, yon-atrofdagilar bilan hisob-kitob qilib yashamasa, o‘ziga ortiqcha bino qo‘ysa, albatta, hayotda qoqladi. CHor tomonga dahshat solib, hammaningjonini olmoqchi bo‘lgan o‘q o‘ziga nisbatan zo‘roq mergan otgan o‘qqa duch kelib vayron bo‘lishi kitobxon bolalarni quvontiradi.

Inson hayotda g‘lom, tetik, qo‘rqmas, jasoratli bo‘lib kamol topishi zarur. Mabodo u soyasidan ham cho‘chib, hadiksirab, qo‘rqib yashaydigan bo‘lsa, bunday bola kelajakda omadsiz, tolesiz bo‘lib qoladi.

Bolalar adabiyotida o‘y o‘ylash, xayol surish, xayoliy orzular bilan yashash ijobiy natija berishi to‘g‘risida ko‘p gapiriladi. Bunga misol qilib G‘afur G‘ulom, Quddus Muhammadiy, Po‘lat Mo‘min, Miraziz A‘zam asarlaridan ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin. Bolalardagi bunday shirin tuyg‘ulari Hamza Imonberdiev ham to‘g‘ri payqay olgan. «Lofchilar aldoqchilar» asarida u kichkintoylardagi mana shunday orzu havasni o‘ziga xos usul bilan ochib berishga erishgan.

Ali xayolan qushcha shaklini yaratdi. Uni tomosha qilishga Valini chaqirdi. Vali ko‘rsaki, qushcha yo‘q. Lekin Alining bo‘sh kelmasligi kitobxonda yaxshi taassurot qoldiradi.

Hamza Imonberdiev o‘zi bilimdon, o‘ta madaniyatli, to‘g‘riso‘z, halol, pok, ozod va obod O‘zbekistonimizni juda qattiq suyadigan ajoyib inson bo‘lganligi uchun ijodining mundarijasi ham shunday. Adolat masalasida u ko‘p jon kuydirar va bu haqda ko‘plab asarlar yaratgan edi.

Hadislarda to‘g‘riso‘z, halol, pok bo‘ling, deyiladi. Kimki bunga qattiq amal qiladigan bo‘lsa, el-yurt o‘rtasida xijolat bo‘lmaydi, obro‘-e’tibori oshadi. «<Adolat kaliti>» ertagida Hamza Imonberdiev xuddi shu haqda gap yuritadi. Asar boshlanishidayoq yosh kitobxonlarni o‘ziga tortadi:

Hayron quyosh, loldir oy,

Necha kun-u necha oy

Ikki elat urushar,

Bir-birlarin qirishar.

O‘rtaga kimki tushsa,

Biz haqmiz, deb turishar.

Hamma gap, hamma balo ana shu «biz haqmizda. Buning asl boisi, sababini hech kim tushunmasligida. Qonli urush davom etaveradi. Bundan podshoh ham hayron: Podshohning boshi qotgan,

Halovatin yo‘qotgan.

Ojizligin his etib.

Og‘ir xayolga botgan.

Chorasiz qolgan podshoh bu ishni qonli urushni to‘xtatish chora-tadbirini qidiradi. Bu jumboqni yechadigan, urushga chek qo‘yadigan adolatli, xalq manfaatini o‘z manfaatidan yuqori qo‘yadigan bir Odilbek otli qozini toptiradi.

Hamza Imonberdievning o‘nlab qo‘shiqlari, ko‘plab doston-ertaklari bolalar tilida kuylanmoqda, o‘qilmoqda.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Anvar Obidjonning ijodiy faoliyati qachon boshlangan va uning bolalar adabiyotidagi o‘rnii qanday?
2. U o‘z asarlarida bolalar uchun qanday mavzularni yoritgan va bu mavzularning ahamiyati nimada?
3. Anvar Obidjonning eng mashhur asarlari qaysilar va ular qaysi janrlarga tegishli?
4. Uning ijodi zamonaviy bolalar adabiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatgan?
5. Hamza Imomberdiyevning hayotida qanday muhim voqealar uning ijodiy faoliyatiga ta’sir qilgan?
6. Adibning asarlarida milliy va ijtimoiy mavzular qanday aks etgan?
7. Hamza Imomberdiyevning eng e’tiborli asarlari qaysilar va ular o‘zbek adabiyotidagi o‘rnini qanday belgilaydi?
8. Uning ijodi va uslubi boshqa yozuvchilarnikidan qanday farq qiladi?

## **16- MAVZU: O‘SMIRLAR ADABIYOTI. XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV VA SAFAR BARNOYEV IJODIY FAOLIYATI**

### **REJA:**

1. O‘smirlar adabiyotining yosh jixatlari
2. Xudoyberdi To‘xtaboyevning hayoti va ijodiy faoliyati
3. Safar Barnoyev hayoti va ijodi

*O‘smirlar adabiyoti* janrida taqdim etilgan xorijiy adabiyotlar haqida gap ketganda, janr nomi turli yo‘llar bilan beriladi, masalan, yoshi kattalar, yoshlari adabiyoti, o‘smirlar adabiyoti. AQShda o‘smirlar adabiyoti (inglizcha: *young adult literature*) Amerika kutubxonalari assotsiatsiyasining Yoshlar adabiyoti bo‘limi tomonidan belgilangan 12 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan odamlar uchun mo‘ljallangan. Shu bilan birga, kontseptsiyaning o‘zi inglizcha: *young adult* 17 yoshdan 21 yoshgacha bo‘lgan yoshni nazarda tutadi.

Rus an'analarida o‘smirlar adabiyoti asosan 15-16 yoshgacha bo‘lgan kitobxonlar uchun mo‘ljallangan bolalar adabiyoti kontseptsiyasiga kiritilgan. Shu bilan birga, bu kichik yoki katta mакtab yoshi — 14 yoshdan 16 yoshgacha va Rossiyada „o‘smirlar uchun kitoblar“ atamasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rtalik yoshidagi bolalar uchun adabiyotga tegishli — 11 yoshdan 13 yoshgacha .

O‘smirlar adabiyoti adabiy janrlardan biridir. O‘smirlar adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari — ko‘p qirrali syujet, zarba effektini qo‘llash o‘rniga keskinlik, yorqin personajlar, faktlarni aniq va batafsil yetkazish, haqiqiy dialoglar, tushunarli taqdimot uslubi, hazil tuyg‘usi, qiziqarli kirish va esda qolarli tugaydi. Hozirgi kunda o‘smirlar adabiyoti yangi janr va yo‘nalishlarda faol rivojlanmoqda: grafik roman, manga, yengil roman, fantaziya, distopiya, kiberpunk, romantika, splatterpunk, texnotriller.

**Xudoyberdi To‘xtaboyev** o‘zbek bolalar adabiyotining ko‘zga ko‘ringan iste‘dodli vakillaridan biri. U Farg‘ona viloyatining O‘zbekiston tumanida 1933- yili tug\_ildi. U o‘rtalik maktabni bitirgach, O‘rtalik Osiyo dorilfununing filologiya fakultetida (1950—1955) ta‘lim oldi. U ko‘p vaqt «Toshkent haqiqati», «Qizil O‘zbekiston» ro‘znomalarida, «Guliston» oynomasida bo\_lim muharriri va boshligi bo‘lib xizmat qildi. 1972—1977

yillarda «Yosh gvardiya» nashriyotida bosh muharrir, «Sharq yulduzi» oynomasida muharrir o‘rinbosari, hozir esa «Yosh kuch» oynomasining bosh muharriridir. Xudoyberdi To‘xtaboyevning ijodi asosan 1958-yildan boshlandi. Uning «Shoshqaloq» nomli hikoyalari to‘plami 1962-yilda, «Yosh gvardiya» (1963) nomli hikoyalari to‘plami, «Sir ochildi» (1964) va «Sehrli qalpoqcha» (1965) nomli qissalarini birin-ketin nashr qilinib, keng kitobxonlar ommasining mehr-muhabbatini qozondi. U o‘zining yumoristik roman, qissalarida yoshlarning to‘grilik, insonlarga bo‘lgan mehru muhabbat, sadoqat kabi oljanob xislatlartshi va firibgarlikka qarshi olib borgan kurashlarini qiziqarli va ta‘sirtan sahifalarda aks ettiradi. Bu jihatdan Xudoyberdi To‘xtaboyevning «Sariq devni minib» (1969) va «Sariq devning o‘limi» (1973), romanlari 70-yillar o‘zbek bolalar adabiyotining taraqqiyotiga qo\_shilgan salmoqli hissadir. Shuningdek, X. To‘xtaboev «Besh bolali yigitcha» (1975), «Qasoskorning oltin boshi», «Yillar va yo‘llar» (1983), «Sehrgarlar jangi yoki shirin qovunlar mamlakatida» (1987) asarlarining ham muallifidir. Adib mazkur asari uchun Hamza mukofotini olgan. O‘zbekiston xalq yozuvchisidir (1991). Xudoyberdi To‘xtaboyev bolalar adabiyotining chinakam jonkuyari sifatida «Kamalak» nashriyotida muharrir, bosh muharrir vazifalarida ishlagan. Bu ijodkor nomi o‘zbek jurnalistikasida A. Qodiriy, K. Aliev, V. Mahkamov, U. Yusupov singari feletonchilik borasida ham ma‘lum va mashhur. Uning o‘tkir feletonlari 60—70-yillar publisistikasining ajoyib namunalari sifatida jamiyatimizning salbiy illatlaridan qisman tozalanishida o‘z amaliy hissasini qo‘shtigan.

O‘zbek bolalar yozuvchisi, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To‘xtaboyev 2021-yil 21-mart kuni 88 yoshda vafot etdi. Shavkat Mirziyoyev yozuvchining vafoti munosabati bilan hamandardlik bildirgan.

**Safar Barnoyev** 1938 yilning 6 mayida Buxoro yaqinidagi Dilkusho qishlog‘ida tug‘ildi. 1959 yilda o‘rta maktabni bitirib, bir muddat qurilishda ishladi. Harbiy xizmatdan qaytgach, Toshkent davlat universitetining jurnalistika bo‘limida tahsil oldi.

Adib “Kamalak” nashriyotida, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida, O‘zbekiston Xalq ta’limi vazirligida, “Gulxan” jurnalida xizmat qildi.

Safar Barnoyevning “Lager qo‘ynida” nomli birinchi she’ri 1959 yilda, “Tog‘damen” nomli birinchi she’riy to‘plami 1970 yilda chop etildi. Shundan so‘ng “Birinchi tabassum” (1972), “Dadamning qo‘llari” (1974), “Sog‘inch” (1975), “Yulduzxon va Bahorjon” (1977), “Soldat qaytgan kun” (1979), “Oq laylaklar” (1982), “Egizaklar” (1985), “Mukofot” (1983), “Tinchlikni ulug‘laymiz” (1986), “Dadam haqida qo‘sinq” (1989), “Karimjon – Karlson” (1988) kabi o‘nlab she’riy va nasriy kitoblari chop etildi.

Bir qator asarlari rus, ukrain, belorus, latish, moldovan, polyak, chex, arman, ozar, tojik, qozoq, qirg‘iz, turkman va qoraqalpoq tillariga tarjima qilindi.

Safar Barnoyev “Tinchlikni ulug‘laymiz” kitobi uchun O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining G‘afur G‘ulom nomidagi yillik mukofotiga, bolalar adabiyoti ravnaqiga qo‘shtgan hissasi uchun “Ofarin” mukofotiga sazovor bo‘lgan.

Adibning xotirasiga bag‘ishlab “Safar Barnoyev zamondoshlari xotirasi” turkumida “Bolajonlik saodati” nomli yodnomasi (2011) chop etildi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Xudoyberdi To‘xtaboyevning bolalar adabiyotiga qo’shgan hissasi nimalarda ko‘rinadi? Uning eng mashhur asarlari qaysilar?
2. Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asari qahramonlari orqali qanday ma’naviy va axloqiy masalalar yoritilgan?
3. Safar Barnoyevning ijodida qaysi mavzular va ijtimoiy masalalar asosiy o‘rin tutadi? Bu mavzular qaysi asarlarida ko‘rinadi?
4. Xudoyberdi To‘xtaboyev va Safar Barnoyevning bolalar uchun yozgan asarlarida qaysi xususiyatlар ularni boshqa yozuvchilardan ajratib turadi?
5. Safar Barnoyevning qaysi asarlari bolalar dunyoqarashini kengaytirishga va axloqiy tarbiyasiga yordam beradi? Ushbu asarlarining mazmuni haqida qisqacha so‘zlab bering.
6. Xudoyberdi To‘xtaboyev va Safar Barnoyev hayoti davomida qanday mukofotlar bilan taqdirlangan? Ularning adabiyotga qo’shgan hissasi qanday baholangan?

7. Safar Barnoyevning "Yulduzlar jamoliga" asaridagi bosh qahramonlarning xarakteri va asar g'oyasini tahlil qiling.

8. Xudoyberdi To'xtaboyev va Safar Barnoyev ijodining yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyatini qanday baholaysiz? Ularning asarlaridan qanday saboqlar olinadi?

## **17- MAVZU: LATIF MAHMUDOV VA NORMUROD NORQOBILOV IJODI.**

### **REJA:**

1. Latif Mahmudov hayoti va ijodiy faoliyati
2. Normurod Norqobilov asarlarida ilgari surilgan g'oyalar

**Latif Mahmudov** 1933 yilning 1 iyul kuni Toshkent shahar Mirobod mahallasida tavallud topgan. 1956 yili sobiq O'rta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi Milliy universitet) filologiya fakultetining jurnalistika bo'limini 1956 yilda muvaffaqiyatli bitirgach, Respublika radiosida mehnat faoliyatini boshlaydi. 1958 yili bolalar va o'smirlar uchun eshittirishlar Bosh tahririyati tashkil etiladi va unga Bosh muharrir etib tayinlanadi. Latif Mahmudov bu vazifada qariyb yigirma yil faoliyat ko'rsatib, 1979 yildan sobiq «Yosh gvardiya» (hozirgi «Yangi asr avlodi») nashriyotida bolalar adapbiyoti bo'limini boshqaradi.

Latif Mahmudovning ijodiy faoliyati 1956 yillardan boshlangan bo'lib, u asosan, bolalar va o'smirlar uchun hikoya, qissa, pesa hamda kinostse-nariylar yaratdi.

Shu kungacha adibning o'ttizdan ortiq kitoblari nashr etilgan.

Bular orasida «Qadrdon ko'zlar» (1961), «Chinor» (1961) kabi kitoblari ilk ijod namunalari sifatida qadrlidir. Shundan so'ng muallifning «Ikki o'rtoq» (1963), «Vafo» (1963), «Chinor» (1964), «Qirg'iy» (1965), «Sho'x daryoning siri» (1966), «Bolalar shodligi» (1968), «Ikki dangasa sarguzashti» (1970), «Sirli xat» (1974), «Jasur bolalar» (1971), «Qonga yashiringan odam» (1979), «Eski dutor sirlari» (1980) kabi hikoyalar to'plamlari, qissa va romanlari talabchan bolalar hamda o'smirlarning didi, ruhiga mos keladi. Latif Mahmudov dramaturg sifatida «Qirg'iy olib qochgan bola», «Ali-Vali», «Muhim topshiriq», «Sirli xat» kabi bir qator pesalar yaratgan. Ular Yosh tomoshabinlar teatrлari sahnalarida hamon o'ynalib kelinadi. Ayni chog'da uning bolalar va o'smirlar hayotidan olib yozilgan asarlari asosida bir qator kinofilmlar yaratilgan.

**Latif Mahmudov** yaratgan sara asarlar rus, ukrain, belorus, latish, eston, gruzin, ozarbayjon, qozoq, qirg'iz, turkman, tojik tillariga ham

tarjima bo‘lgan.

Adibning «Tog‘dagi lolalar» kitobi 1984 yilda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining G‘afur G‘ulom nomidagi mukofotiga sazovor bo‘lgan. 1977 yilda unga «O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi» degan yuksak unvon berilgan. 2000 yilda «Sog‘lom avlod uchun» ordeni bilan taqdirlangan.

**Normurod Norqobilov** 1953 yil 7 iyulda Qashqadaryo viloyatining Yakkabog‘ tumanidagi Qishliq qishlog‘ida tug‘ilgan. Hamid Olimjon nomidagi maktabni 1970 yilda tugallagan. So‘ngra 1976-1982 yillarda Toshkent Davlat universitetining juralistika fakultetida o‘qigan. Yozuvchi bo‘lmoq uchun hayotni o‘rganmoq kerak, degan shiorga amal qilib, zavod va fabrikalarda slesar, temir yo‘l depolarida vagon tuzatuvchi, stansiyalarda yuk tushiruvchi bo‘lib ishlagan va turli toifadagi kishilar bilan yaqin muloqotda bo‘lib, ularning xarakter hususiyatlarini, dunyoqarashlarini o‘rgangan. Ozmi-ko‘pmi bu o‘rganganlari asarlariga ko‘chgan. Keyin u tabiat shaydosiga aylanib, O‘zbekistondagi ko‘pgina tog‘ va qirlarni, dala-dashtlarni qadamma-qadam kezib chiqqan. Oqibat hayvonot dunyosiga oid bir qancha asarlari yuzaga keldi. “Changalzor iti”, “Oqbo‘yin”, “Tog‘ odami”, “Pahmoq”, “Ovul oralagan bo‘ri” kabi qissalari shular jumlasidandir. Baxt nima? Tiriklik-chi? Tiriklikning tigagi nima? Baxtsizlikning qanday shakl-shamoyillari bo‘ladi? Umuman olganda, baxtsizlikning rangi bormikan? Inson bolasi shu ikki qutb o‘rtasida sarson yashab, biridan ikkinchisiga intilarkan, hamisha o‘zligin izlaydi. O‘sha qidirgani mehr emasmikan, o‘zlik emasmikin? Bu kabi savollarga Normurod Norqobilovning asarlaridan javob topasiz. Shu paytgacha yozuvchi o‘ndan ortiq kitob chop ettirdi. “Unutilgan qo‘sishq”, “Zangori ko‘l”, “Yuzma –yuz”, “Yemur g‘ori”, “Pahmoq”, “Arazchi chumchuq”, “Sariqgul”, “Jo‘sinqin daryo” shular jumlasidan. Normurod Norqobilovning asarlari o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz tili darsliklariga kiritilgan, bir necha tillarga tarjima qilingan. U “Shuhrat” medali bilan mukofotlangan.

## **Savol va topshiriqlar**

1. Latif Mahmudovning ijodiy faoliyatiga asos bo‘lgan mavzular va uning asarlaridagi asosiy g‘oyalar qanday?
2. Normurod Norqobilovning bolalar adabiyotidagi o‘rnii qanday baholanadi va u qanday asarlari bilan mashhur?
3. Latif Mahmudovning asarlarida qaysi badiiy uslub va ifoda vositalari ko‘proq qo‘llaniladi?
4. Normurod Norqobilovning ijodida oila, milliy qadriyatlar va tarbiya mavzusi qanday aks etgan?
5. Latif Mahmudovning asarlari o‘z davri yoshlarining dunyoqarashiga qanday ta’sir ko‘rsatgan?
6. Normurod Norqobilovning ijodida qahramonlar obrazi qanday yaratilgan va ular o‘quvchiga qanday saboqlar beradi?
7. Latif Mahmudov va Normurod Norqobilovning ijodini solishtirgan holda, ular orasida qanday o‘xshashlik va farqlarni ko‘rish mumkin?
8. Har ikki yozuvchining adabiyotimiz rivojiga qo‘shtgan hissasini zamонавији nuqtai nazardan qanday baholash mumkin?

## **18- MAVZU: ISTIQLOL DAVRI BOLALAR ADABIYOTI. RUSTAM NAZAR IJODIY FAOLIYATI**

### **REJA:**

1. Istiqlol davri bolalar adabiyotining o‘ziga xosligi
2. Rustam Nazarning bolalarga atab yozgan she’rlarida tarbiya masalasi
3. Rustam Nazarning bolalar adabiyotida titgan o’rni

O‘zbekistonda XX asrning 90-yillarida istiqlol adabiyoti deb atalmish estetik hodisa yuzaga keldi. Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti ko‘p asrlik milliy adabiyotimizning mantiqiy davomi va merosxo‘ri sifatida paydo bo‘ldi. Bu davr adabiyotiga xos belgilar XX asrning 60-yillarida kuch berib, 80-yillarning oxirlarida muayyanlashgan bo‘lsa-da, milliy adabiyotning alohida bosqichi sifatida shakllanishi to‘qsoninchi yillarning o‘rtalariga to‘g‘ri keldi.

Mustaqillik davri milliy adabiyot taraqqiyoti tarixidagi oddiy xronologik bosqich emas, balki bir qator jiddiy o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘lgan alohida badiiy-estetik hodisadir. Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti tubdan o‘zgargan milliy ongning, tamomila yangilanayotgan estetik tafakkurning mahsuli o‘laroq tug‘ildi. Bu davrda millatimiz o‘zining ko‘p ming yillik tarixida birinchi marta Qur’oni Karimni ona tillarida o‘qish va uning mohiyatini anglash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. To‘g‘ri, shu vaqtga qadar ham «Qur’on» ajdodlarimiz tomonidan o‘rganilib kelingan edi. Lekin u faqat maxsus tayyorgarlikka ega kishilar uchungina anglanarli bo‘lib, keng xalq ommasi uning ahkomlaridan yetarlicha xabardor emas edilar. «Qur’on» muqaddas ilohiy kitob sifatida asrab kelinardi. Bu kitob ona tilimizga o‘girilishi bilan millat e’tiqodi, ijtimoiy imonning shakllanishi to‘g‘ri yo‘nalish oldi. Qur’oni Karimning deyarli har bir xonadonga kirib borishi va o‘rganilishi millat ahlining tafakkurida keskin o‘zgarish yasadi. Endilikda o‘zbek xalqining e’tiqodi shunchaki taqlid bosqichidan mustahkam imon, shakllangan dunyoqarash darajasiga yuksalib bormoqda.

Shuning uchun ham istiqlol adabiyoti yangilangan dunyoqarash, tozargan e’tiqod, butun imon mahsuli o‘laroq dunyo yuzini ko‘rdi. Bu adabiyot yagona hukmron mafkura tazyiqidan qutulgan, dunyonи har xil anglash, izohlash hamda tasvirlash imkoniyatiga ega bo‘lgan millat ijodiy dahosining samarasini

sifatida dunyoga keldi. Ijtimoiy taraqqiyot yo'sinlarini, muayyan shaxs ruhiyati manzaralarini sog'lom badiiy ifodalash natijasida paydo bo'ldi.

Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti tafakkur yo'nalishlari o'zgacha bo'lgan ijodkorlarning estetik qarashlari natijasida dunyoga kelgan hodisa o'laroq bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, bu davr adabiyoti hukmron mafkura tazyiqidan qutulgan, olam va odam ruhiyatiga mansub hodisalarga xilma-xil qarashlarning mahsuli bo'lgan adabiyotdir. Bu davrda olamning mavjudlik yo'sinini turlicha izohlash imkoniyati paydo bo'ldi. Bu hol adabiyotning ifoda imkoniyatlarini kengaytirdi. Ikkinchidan, mustaqillik davri o'zbek adabiyoti endilikda davlat adabiyoti bo'lmay qoldi. Mustaqil o'zbek davlati badiiy adabiyotni sho'ro zamonida bo'lgani kabi o'z monopoliyasiga aylantirishga urinmay qo'ysi. Shu bois ijod erkinligiga obyektiv sharoit yaratildi. Badiiy ijod qilish yoki qilmaslikka siyosiy baho berilmaydigan, rag'batlantirilmaydigan yoki jazolanmaydigan bo'ldi. Adabiyot ijodkorning ko'ngil ishiga aylandi. Bugun badiiy ijod bilan o'zini tanishga uringan barcha odamlar shug'ullanmoqdalar. Ayonki, ular shaxs sifatida ham, ijodkor sifatida ham tamomila o'ziga xos, xilma-xil kishilardir. Istiqboldan keyingi davrda haqiqiy adabiyot o'z ko'ngliga qarshi bormaydigan kishilar tomonidan yaratilayotir. Uchinchidan, istiqlol davri adabiyotida odamga ishchi kuchi, ishlab chiqaruvchi, mehnatkash sifatida yondashish barham topdi. Milliy adabiyot millat vakillarining mehnatinigina emas, balki ularning shaxsiyatiga daxldor jihatlar: ruhiyati, hissiyoti, ko'nglimi tasvirlashga e'tibor qaratdi. Bu adabiyot uchun insonning o'zi asosiy qadriyatga aylana boshladi. To'rtinchidan, mustaqillik davri adabiyoti biror ijtimoiy tuzumning afzalligini ko'rsatish, ishlab chiqarish munosabatlarini, siyosiy tizimlarni takomillashtirishga emas, alohida inson shaxsining ma'naviyatini mukammallashtirishga yo'naltirildi. Bu davr adabiyotida tipik obrazlarni emas, badiiy tiplarni tasvirlashga ko'proq e'tibor qaratildi. Shu yo'sin, bu davr adabiyoti ommani ko'rsatishga emas, shaxsni tadqiq etishga yo'naltirildi. Beshinchidan, mustaqillik davri o'zbek adabiyoti chinakamiga xilma-xil adabiyotga aylandi. Unda tajriba qilish, sinab ko'rish, ochilmagan yo'llardan yurish, xato qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu hol birovga o'xshamaydigan, o'zgalarni takrorlashga intilmaydigan, o'ziga xos iste'dodlarning ko'payishiga imkon yaratadi. Xilma-xil badiiy asarlarning

vujudga kelishi tufayli xilma-xil o‘quvchilar paydo bo‘ladi.

**Istiqlol she’riyati** milliy adabiyotimizning yetakchi turidir. A. Oripov, Rauf Parfi, H. Xudoyberdiyeva, Shavkat Rahmon, Azim Suyun, Usmon Azim, Ikrom Otamurod, Abduvali Qutbiddin, Aziz Said, Iqbol Mirzo, Bahrom Ro‘zimuhammad, Muhammad Yusuf, Faxriyor, Zebo Mirzo, Xosiyat Rustamova, Halima Ahmad, Rustam Musurmon singari shoirlarning she’rlarida olamni poetik idrok etish yangi bosqichga ko‘tarilgani namoyon bo‘ladi.

Bu davr she’riyatida o‘tkir gap aytish, dono fikr bildirish, nasihat, aql o‘rgatish emas, balki inson ruhining murakkab, ismsiz manzaralarini aks ettirishga e’tibor kuchaydi. Hissiyot qatlamlarini tadqiq etish, odam ruhiyatidagi boy va rangin iqlimlarni poetik kashf etishga urinish kuchaydi. Istiqlol she’riyati shakliy izlanishlarga boyligi, Chiqish nazmidan ham, Botish adabiyotidan ham samarali o‘rganishga intilish kuchayganligi bilan xarakterlanadi. Endilikda she’rxonlik ko‘ngilochar mashg‘ulot bo‘lmay qoldi. She’r bilan tillashadigan o‘quvchining tafakkuri ham, qulog‘i ham, ko‘zi ham, hatto tuyg‘ulari ham bir qadar zo‘riqishi, she’r o‘qiyotganda faqat zavq va lazzat tuyibgina qolmay, mehnat qilishi ham lozim bo‘lib qoldi. Rauf Parfining:

Yerga botgan osmonlarni kuzatdim,

Chopilgan oyog‘im bilan chopdim men.

Kesilgan qo‘limni sizga uzatdim,

Bu dunyo gullarga to‘ldi. Qotdim men

singari badiiy qanoatlarini qabul qilish uchun muayyan ruhiy-intellektual tayyorgarlik zarur bo‘ladi. O‘ziga xos shoirlardan bin Faxriyoring bir she’ri mavjud imlo qoidalariga mutlaqo rioya etilmay bilitgan:

qobirg‘alar qabarar suyaklarim qadoqdir

qabоqlarim o‘q tugab bo‘shab qolgan sadoqdir

kuyib kuyib kul bo‘lgan nafratlarim adoqdir

chuchmomalar ko‘k kiygan

namozshomgul gul gulim

hey tulugim hey tulum

hey tulugim hey tulum

Gap bu yerda imlo qoidalarining inkor etilganidagina emas. Shoир

ifodalayotgan dardning ko‘lami naqadar yirikligini, uning biz bilgan insoniy o‘lchamlarga to‘g‘ri kelmasligini she’r mazmunidan anglatish bilan kifoyalanmay, uning shakli vositasida o‘quvchiga ko‘rsatib ham qo‘yadi. «*hey tulugim, hey tulum* «so‘zlari hazrati Navoiy tomonidan ham ishlataligan. Lekin uning she’ridagi ruh bo‘lakcha edi. Faxriyor esa qo‘li yoki oyog‘i emas, qobirg‘alari qabarib, suyaklari qadoq bo‘lgan, o‘ksiz hayotiga yig‘layverib ko‘z yoshlari qurib ketgan, qismatidan kuyaverib nafratlari ham adoq bo‘lgan baxtsiz shaxsning kayfiyatini ifodalashda bu so‘zlardan foydalanadi va ko‘rganingizday yaxshi badiiy natijaga erishadi.

Milliy poeziyamiz tarixida birgina qatordan iborat butun boshli she’r hech qachon bo‘lmagan. Faxriyor shunday she’r yozdi. Quvonarlisi shundaki, bu she’r yordamida atama yasalmagan yoki axborot berilmagan, balki o‘ziga xos musiqaga ega, muayyan kayfiyat ifodalay oladigan, o‘qiganga o‘zgacha ruhiyat baxshida qiladigan tugal asar yaratilgandir:

Go‘rlar qisir-tug‘ishdan qolgan.

Istiqlol davri she’riyatining qisqalikka intilishi shunchaki modaning ketidan quvish bo‘lmay, chuqur ichki mantiqqa ega. Bu she’riyat o‘quvchiga ishonch, uni badiiy so‘zning iste’ molchisigina emas, balki she’riy holatni tuyish, badiiy manzaralarni jonlantirish jarayonining ishtirokchisi martabasiga ko‘tarishning natijasidir. She’r qancha qisqa bo‘lsa, unda aytilmasdan ishora qilingan narsa shuncha ko‘p bo‘ladi. Bunda she’rxonga matndan turli-tuman kashfiyotlar qilish imkoniyati ko‘proq beriladi. Chunonchi, «*Go‘rlar qisir-tug‘ishdan qolgan*» she’ri faqat bir qadar estetik tayyorgarlikka ega o‘quvchigagina ta’sir ko‘rsatadi va uning xayolot olamini bezovta qiladi. Hissiy va intellektual hozirligi bor odamgina to‘rt so‘zdan iborat bu asarda bir olam ijtimoiy dard ifodasini topganligini ko‘rishi mumkin: bir vaqtlar yurt egasi bo‘lmish Go‘ro‘g‘lini tuqqan O‘zbekyurtning go‘rlari bugun qisir. Shu bois go‘ro‘g‘lilar tug‘ilmayotir. Binobarin, o‘zining sha’ni va yurtining ozodligi uchun kurasha oladigan erkaklar yo‘q bu yurtda va h. k. O‘quvchi qancha o‘ychil va ta’sirchan bo‘lsa, she’rdan shuncha kuchli ta’sirlanadi va aksincha... Shu bois bunday she’rlarning o‘quvchilari iste’ molchigina emas, yaratuvchi ham.

## Rustam Nazar (1949-2012)

She'r yozishni bolaligidan boshlagan Rustam Nazar (Jumanazarov) 1949 yilning 8 sentyabrida Xorazm viloyatining Hazorasp tumanidagi Otaliq qishlog'ida ishchi oilasida tug'ilgan. Otasi Jumanazar Avaz o'g'li oddiy kasb egasi bo'lsa ham adabiyot va musiqaga ixlosi baland, shoirtabiat odam edi. O'rta maktabni tamomlagach, Rustam 1969-1974 yillarda Respublika rus tili va adabiyoti institutida tahsil oldi. Keyin bir yil o'rta maktabda o'qituvchilik qildi. 1975 yildan to shu kungacha „Hazoraspnom“ tuman gazetasi tahririyatida ishlab kelmoqda.

Uning „Yashasin quyoshli kun“, „Rangli favvora“, „Mo''jiza“ nomli she'riy to'plamlari bosilib chiqqan. 1989 yildan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

### ***O'RIMDAN SO'NG***

Quyosh botdi, shom cho'kib  
Bug'doyzorni yashirdi.  
— Uyga qayting! — deb otam  
Bizni qistab, shoshirdi.  
Eshakda kim jo'naydi? —  
Boisa hamki u yuvvosh —  
Nimagadir xo'mrayib,  
Akam keskin tortdi bosh.  
Darrov mindim eshakka,  
Yo'q uyatli bir joyi.  
Ovul tomon yo'rttirdim  
Qilganimcha xirgoyi.  
Akam qoldi orqada,  
Qadamlari edi sust.  
Yayov yurgandan ko'ra,  
Eshak mingan ham durust!

## **VATAN TUYG'USI**

Nedir Vatan tuyg'usi? —  
Emas mavhum tushuncha.  
Ma'nosini anglaymiz,  
No'noqmasmiz biz uncha!  
Muallimning qoiiida  
Gazeta-yu kitoblar.  
— Yurtni sevmoq iymondan! —  
Deb qiladi xitoblar.  
Misollarni keltirgay  
Goh hadis, goh Qur'ondan.  
So'zlar buyuk zotlaming  
Dilidagi surondan!  
Har ibora — hikmatli,  
Har ibora — murakkab.  
Ba'zan mag'zin chaqolmay  
G'ulu tushar yurakka.  
Kimdir aytgan mashhur gap  
Darsda kelmas xotirga —  
O'xshamaymiz yurtparvar  
Va fidoyi botirga!  
Muallimga qaraymiz  
Javdiragan ko'z bilan.  
Qoniqmaydi gapirsak  
O'zimizning so'z bilan!  
Nedir Vatan tuyg'usi? —  
Xayollarga tolarmiz.  
O'zgalarning fikrini  
Aytib maqtov olarmiz!...

### ***YERDAGI QUYOSH***

Jingalak soch qizaloq,  
Dilda ortib jur'ati —  
Asfalt yo'lka yuziga  
Chizdi quyosh suratin!  
Mannun edi ishidan,  
Ko'zlarida zavq, surur,  
Qanday yaxshi, yerda ham  
Tursa quyosh sochib nur!  
Shoshiladi qaygadir  
Ola-bula xaloyiq.  
Boqmas oyoq ostiga:  
Yuki og'ir, vaqtি ziq!  
Yomon ekan loqaydlik,  
Sodir bo'ldi ayanch hol —  
Uning jajji quyoshin  
Toptashmoqda bemalol!  
Xafa edi qizaloq,  
Jim turardi bir yonda.  
Yaxshi hamki odamlar  
Yurishmaydi osmonda!  
Yo'qsa, shoshib beparvo,  
To'rxalta-yu qop tashib —  
O'tishardi haqiqiy  
Quyoshni ham toptashib!...

### ***GULLAGAN OLCHA***

Olcha sevar gullashni,  
Yashnab erta bahorda —  
Ziynatini olamga  
Ko'z-ko'zladi nahorda!  
Shamol esa qasplashib,  
Bilgani yo'q haddini —  
To'kdi uning gullarin,

E gib zaif qaddini!  
Zabun edi ahvoli,  
Ko'rgan afsus etardi.  
Axir, asray olmasa,  
Olcha gullab netardi?!

### ***QALTIS O'YIN***

Bu dunyoda eng ashaddiy  
Ikki rang bor — qora va oq.  
Ular raqib azaldan ham,  
Orasida yo'q ittifoq.  
Jang qilishar bemurosa  
Ta'qib aylab, rahna solib —  
Bir-birini ayashmaydi  
Chiqish uchun mutlaq g'oIib.  
Boshqa ranglar — tomoshabin,  
Qaltis o'yin ishqibozi.  
Gij-gijlashar ikkovini  
Durangga hech bo'lmay rozi!

### ***DANGASA***

Maqsadiga erishgay  
Intilsa kim, chopsa kim.  
Hatto qorni yondirar,  
Qalovini  
Topsa kim.  
Jon koyitmas dangasa,  
Izlash tugul qalovni —  
O'chiradi, erinib,  
Yonib turgan  
Olovni!

## ***CHAQALOQ***

Oilada eng kenja  
Ukam hali chaqaloq.  
Beshikda jim yotmaydi,  
Tinchimaydi baqaloq.  
U nimadan bezovta,  
Nega hadeb yig'laydi?  
Tushuniksiz holati  
Bag'rimizni tig'laydi.  
Bu serg'alva dunyoda  
Ko'pdir to'siq va g'ovlar.  
Cho'chitarmi uni yo  
Oldidagi sinovlar?

## ***DUNYO VA MEN***

Qoldim ancha ulg'ayib,  
To'ldim sakkiz yoshimga.  
“Burningni art!” deb endi  
Teginmaydi g'ashimga.  
Qora nima? Oq nima?  
Fahmiga tez yetaman.  
Boqib rangin olamga  
Sirlarin kashf etaman.  
Ba'zilar-chi, qo'l siltar,  
Dunyo juda qarimish.  
Uning yoshi million  
Yillardan ham narimish.  
Ko'zoynakli olimlar  
So'zlashadi lof bizga.  
Dunyo – mening tengdoshim,  
Endi kirdi sakkizga!

## ***VARRAKLAR***

Parvoz etar varraklar  
Osmon ishqisi bilan mast.  
Qay birining avji zo'r,  
Qay birining mashqi past.  
Ey, o'g'lon! Sen havoyi  
Orzulardan yonma hech.  
Quvon yursang ham yerda,  
O'zligingdan tonma hech.  
Varraklarning qismati  
Erksizlikdan dog'liqdir.  
Parvoz umri ipidan  
Tutganlarga bog'liqdir.

## ***TARBIYA***

Mening otam ajoyib,  
Tarbiyasi qiziqdir.  
Har tarafim – chegara,  
Har tarafim chiziqdir.  
Bundan xafa emasman,  
Qilar aqlu hushim jam.  
Ular borki, maqsaddan  
Chalg'imayman sira ham.  
Otam belgi qo'yishni  
Etganmikin faromush –  
Uchrar ochiq manzillar,  
To'xtarman jim va xomush.  
Hayotning zil yukini  
Men yelkamga ortarman.  
Chegara yo'q yo'limga,  
O'zim chiziq tortarman!

## ***JASORAT***

Jasoratdan ba'zilar  
Lof urishar valdirab.  
Ammo xatar tug'ilsha,  
Zir qochishar qaltirab.  
Yo'lashga ham cho'chishar  
Biror yirtqich yoniga.  
Qaysi ahmoq qasd etgay,  
Axir, shirin joniga?  
Alamzada musht tugib,  
Shum xayolga tolgaylar.  
Yo'lbarslarning o'chini  
Mushuklardan olgaylar.

## ***BUVAMNING NAQLI***

Oshsa hamki yetmishdan,  
Buvam chaqqon va tetik.  
Ishlar uzzukun bog'da,  
Oyog'ida zil etik.  
Mehr berib, yashnatib,  
Ardoqlar har daraxtni.  
Jini suymas landovur,  
Vujudi shol, karaxtni.  
Ba'zan horib-charchasa,  
Yostig'ini tuzatib –  
Deymiz: "Endi yoting-da  
Siz ham oyoq uzatib".  
Buvam kular: "Tirik jon  
Lozim mehnat etmog'i.  
O'zi qarib, zaminni  
Yashartirib ketmog'i!..."

## ***KEKSA ChAVANDOZ***

Unga harif yo'q edi  
Bir zamonlar uloqda.  
Xaloyiqning olqishi  
Yangrar hamon quloqda  
Qarilikka egdi bosh,  
Tanida yo'q kuch, darmon.  
Unga endi ot tugul,  
Eshak minish ham armon.  
Bolaligin eslab goh,  
Ko'zida mung zorlanar.  
Hassasini ot qilib,  
Chopay desa... orlanar!

### **Savol va topshiriqlar**

1. Istiqlol davri bolalar adabiyoti qanday yangi yo'naliishlar va mavzular bilan boyidi? Ushbu davrda bolalar adabiyoti nimasi bilan o'ziga xos bo'ldi?
2. Rustam Nazar bolalar uchun yozgan asarlarida qanday g'oya va mavzularni yoritgan? Uning asarlarida istiqlol ruhi qanday aks etgan?
3. Rustam Nazarning bolalar adabiyotiga qo'shgan hissasi nimadan iborat? Uning ijodi o'zbek bolalar adabiyotida qanday o'rinni egallaydi?
4. Rustam Nazarning qaysi asarlari bolalar orasida mashhurlikka erishgan va nima sababdan? Ushbu asarlar bolalar tarbiyasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
5. Istiqlol davri bolalar adabiyotida milliy qadriyatlar va zamonaviy talqin qanday uyg'unlashgan? Rustam Nazar bu uyg'unlikni qanday usul va uslubda ko'rsatgan?

## **19- MAVZU: JAHON BOLALAR ADABIYOTI. AKA-UKA GRIMMLAR ERTAKLARIDA ILGARI SURILGAN G‘OYALAR**

### **REJA:**

1. Jahon adabiyoti vakillari hususida
2. Aka-uka Grimmlar ertaklarida ilgari surilgan g‘oyalar.

Ertaklar haqida gap ketganida, beixtiyor xayolimizga aka-uka Grimm ertaklari keladi. Ular asosida suratga olingan “Zolushka”, “Oppog‘oy va yetti gnom”, “Qorqiz” “Tilla g‘oz”, “Botir tikuvchi” va boshqa ko‘plab multfilmlar dunyo bolalari mehrini qozongan. 1785-yilning 4-yanvarida Germaniyaning kichik shaharchasi — Xanauda yashovchi huquqshunos Filipp Vilgelm Grimm va Doroteya oilasida farzand tug‘ildi. Uning ismini Yakob deb qo‘yishdi. Oradan bir yil o‘tib — 1786-yil 24-fevralda Vilgelm dunyoga keldi. Aka-ukalar otasining so‘zini ikki qilmaydigan, onasiga uy ishlarida yordamlashadigan aqlli bolalar bo‘lib voyaga yetdi. Ular farzandsiz, beva ammasi — Shlemmer xonimni ham tez-tez ko‘rgani borib turardi. Ayol ham jiyanlari bilan ovunib, ularga o‘qish va yozishni o‘rgatdi. Bo‘lajak ertaknavislarning otasi — Filipp Grimm o‘qimishli odam edi. Margburg universitetining huquqshunoslik fakultetini tamomlagach, ish faoliyatini Xanau sudida advokatlikdan boshlagan. Oradan bir necha yil o‘tib, oila boshlig‘i qo‘shti Shtaynau shahriga boshqaruvchi hamda sudya etib tayinlandi. Ushbu kichik shaharchada Grimmlar oilasi o‘zining eng baxtli damlarini boshdan kechirdi. Keyinchalik ham Yakob va Vilgelm bu shahardagi tor ko‘chalar, xushmanzara olmazor, ulkan qadimiy qo‘ng‘iroq, shahar boshqarmasining toshdan qurilgan binosi hamda ular bilan yonmaydon yashagan sevimli ustozlari — Sinkxan haqida tez-tez eslardi. O‘scha yillari Grimmlar oilasi yana to‘rt kishiga ko‘paydi. Uch o‘g‘il — Karl, Ferdinand, Lyudvig hamda Charlotta dunyoga keldi. Oilta tejamkorlik bilan yashashiga qaramay, bolalarning o‘qishi va yeb-ichishi uchun hamma narsa yetarli edi. Filipp Grimm katta oilani yetarlicha ta’minalash uchun tinimsiz ishlardi. Kutilmaganda oila boshlig‘ining oddiy shamollashdan 44 yoshda vafot etishi Grimmlarning baxtli hayotiga nuqta qo‘ydi. Bir necha oy o‘tib, bolalarning sevimli ammasi — Shlemmer xonim ham olamdan o‘tdi.

Doroteya esa olti bola bilan beva qoldi. 11 yoshli Yakob oilaning bosh erkagi sifatida uka-singillariga g‘amxo‘rlikni o‘z zimmasiga olishi kerak edi. Doroteya iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, to‘ng‘ichini bilim olish uchun Kasselda yashovchi opasi Genriettaning oldiga jo‘natdi. Opasiga xat yo‘llab, o‘g‘lini gimnaziyaga joylashini iltimos qildi. Oqko‘ngil opa iltimosni rad etolmadi, avval Yakobning, keyin Vilgelmnning o‘qishi uchun pul to‘ladi. Aka-ukalar yana birga, bir joyda tahsil ola boshladи. Oilasidan uzoqda, erkinlikda yashashiga qaramay, bolalar onasi va xolasining g‘amxo‘rligini suiiste’mol qilmadi. Barcha mashg‘ulotlarga o‘z vaqtida qatnab, bor kuch-g‘ayrati bilan bilim olishga intildi. Darsdan bo‘sh vaqtлari esa ko‘cha kezishdan ko‘ra, rasm chizish, yondaftarlariga sevimli asarlaridan olingan qiziqarli parchalarni yozib borishni afzal ko‘rdi. O‘shandayoq ularda adabiyotga qiziqish paydo bo‘la boshlagandi.

Gimnaziyani tamomlagach, Yakob otasining kasbini davom ettirish uchun Margburg universitetining huquqshunoslik fakultetiga o‘qishga kirdi. Vilgelm esa astma tashxisi tufayli xolasinikida qolishga majbur bo‘ldi. Davolanib, sog‘aygach, darhol akasining ortidan bordi va u ham imtihonlardan o‘tib, Margburg universiteti talabasi bo‘ldi. Yakob o‘qish jarayonida uni huquqshunoslikdan ko‘ra adabiyot ko‘proq qiziqtirishini tushunib yetdi. Har qancha urinmasin, ijod qilish istagidan sira voz kecholmadi. Bu ishlarga jonajon ukasi — Vilgelmn ni ham jalb qildi. Ular universitetda o‘qib yurgan kezlaridayoq o‘rta asr olmon tarixi va madaniyati, huquqshunosligi va mifologiyasi, xalq og‘zaki ijodi hamda til va adabiyotini o‘rgana boshladи. 1808-yili Yakob o‘z izlanishlarini davom ettirish maqsadida Parijga yo‘l oldi. U yerda xalq ertaklari, afsona va rivoyatlar to‘plovchi olimlar bilan tanishdi. O‘zi ham xalq og‘zaki ijodi namunalari, keyinroq esa nemis adabiyoti va filologiyasi namunalarini to‘plashga kirishdi. Yakob ona Vataniga qaytganida uni yoqimsiz holat qarshi oldi — Kassel shahrini fransuz imperatori Napoleon bosib olgandi. Shunday og‘ir vaziyatda aka-ukalarning boshiga yana bir tashvish tushdi — onalaridan ayrilishdi. “1808-yilning 27-may sanasida bizning jondan sevgan onamiz — Doroteya xonim bor-yo‘g‘i 52 yoshida vafot etdi. Biz olti yetim uning ortidan bo‘zlab qoldik. Hozir hech qanday so‘z bizga tasallи berolmaydi”, deb yozadi Yakob kundaliklarida. Oila mas‘uliyatini

zimmasiga olgan Yakob qo'shimcha ish qidira boshladi. Nihoyat uni qirol kutubxonasiga boshqaruvchi lavozimiga ishga olishdi. Unga qadimgi kitoblarni o'rganish vazifasi yuklatildi. Yakob uchun bu ayni muddao edi. Bu vaqtida salomatligida o'zgarishlar kuzatilgan Vilgelm akasining moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashi bilan Galla kurortida davolanib qaytdi. Bir necha oydan so'ng qayta uchrashgan aka-ukalar o'z orzulari — qadimgi german adabiyotini tadqiq etishga kirishdi. Yakob olmon tili grammatikasi va mifologiyasini, Vilgelm esa o'rta asr olmon adabiyoti va xalq og'zaki ijodini o'rgana boshladi. Muqim ish joyi bo'limgan Vilgelm ko'plab shaharlardagi kutubxonalarda bo'lib, ilmiy ishi uchun zarur qo'lyozmalarни to'pladi. She'r va qo'shiqlardan tashqari, tildan-tilga o'tgan afsona va rivoyatlarni yig'di. Ularni yozib olish uchun Grimmlar nafaqat olimlar, balki uyma-uy yurib, oddiy odamlar bilan suhbatlashar, qo'shnilarinikiga bajonidil mehmonga borardi. Ular shu tariqa xalqdan olgan yuzlab xalq og'zaki ijodi namunalarini qayta ishlab, ularga badiiy tus berib, yana xalqqa qaytardi. 1812-yili ularning mashaqqatli mehnati mahsuli bo'lgan "Bolalar va oilaviy ertaklar" to'plami nashrdan chiqди. Aka-ukalar uni bir necha bor qayta nashr ettirdi. Har safar yangi qo'shimchalar bilan boyitib, xalq tilidan yagona adabiy tilga moslashtirdi. "Biz ertaklarni o'z holicha saqlashga harakat qildik, — deydi aka-uka Grimmlar. — Ulardagi hech bir voqeahodisa o'ylab topilmadi, bo'rttirilmadi, o'zgartirilmadi. Faqat ertaklarning yozilishi hamda alohida qismlarga ajratilish usuli bizga tegishli".

Aytishlaricha, aka-uka Grimmlar ertaklarining birinchi jildi chop etilishida Vilgelmning bo'lajak rafiqasi, Kassel shaharchasidagi dorixona egasining qizi — Dortxen Vildning ham hissasi bo'lgan. Har safar uchrashuvga chiqqanlarida qiz Vilgelmga bolaligida onasidan eshitgan "Metelitsa xonim", "Oltita oqqush" va boshqa ko'plab ertaklarni aytib bergen. Grimmlar chop etirgan to'plamning birinchi jildiga 86, ikkinchi jildiga 70 ta ertak kiritildi. Kitob jami 7 marta nashr etildi. 1857-yili chop etilgan so'nggi nashrdan 200 dan ortiq ertak va rivoyat joy olgan bo'lib, ularda mualliflar ko'proq afsonaviy, maishiy va hayvonlar haqidagi ertaklarni umumlashtirishga harakat qilgan. Har bir ertakda saxiylik, mehnatsevarlik, botirlik kabi fazilatlar ulug'lanib, qo'rroqlik, yolg'onchilik va dangasalik qattiq qoralanadi.

Aka-uka Grimm ertaklarining o‘ziga xos jihat shundaki, ularning asosiy qahramonlari shoh va shahzodalar emas, balki kambag‘al, beva-bechoralarning farzandlari, oddiy cho‘pon yoki askar yigitlar edi. Ertaklarda ularning ibratomuz ishlari barchaga namuna qilib ko‘rsatiladi. Ammo kitobning ilk nashri ko‘plab tanqidlarga uchradi. Ertaklar bolalar uchun yozilgan bo‘lsa-da, ular kichik yoshdagi o‘quvchilarga to‘g‘ri kelmasligi aytildi. Chunki ertaklarning asl talqinida birmuncha shafqatsiz va qo‘rinchli sahnalar mavjud edi. Masalan, ertak qahramoni Rapuntselning shahzodadan homilador bo‘lib qolishi, Oppog‘oyga dushmanlik qiladigan yovuz malika aslida qizning haqiqiy onasi bo‘lib chiqishi va boshqalar. Ayrim ertaklarda esa ota o‘z qizining qo‘llarini kesadigan joylar ham bo‘lgan. Bunday holatlar hatto XIX asrda ham shafqatsizlik hisoblanardi. Shu bois keyinchalik ertaklarning syujeti o‘zgartirilib, bizning davrimizgacha ularning ancha yumshoq talqinlari yetib keldi. Bugun dunyo aholisining yarmidan ko‘pi aka-uka Grimmlarni faqat ertaknavislар sifatida taniydi. Biroq ular uzoq yillar davomida ertaklar to‘plashdan tashqari, nemis tili grammatikasini o‘rganish bilan ham shug‘ullandi. Grimmlarning 20 yildan ziyodroq kechgan izlanishlari natijasi o‘laroq, 1819-yili 4 jilddan iborat “Nemis tili grammatikasi”ning birinchi qismi chop etildi.

1830-yili aka-ukalar Gettingenga jo‘naydi va u yerda kutubxonada ishslash bilan birga universitetda dars beradi. Ular 1837-yili yangi qirol — Ernst Avgust buyrug‘i bilan konstitutsiyani bekor qilishga qarshi tuzilgan professorlardan iborat “Gettingen yettiligi”ga kirgach, yuzaga kelgan nizolar tufayli Yakob mamlakatdan badarg‘a qilindi. Oqibatda ular yana o‘z uylari — Kasselga qaytishdi. Oradan biroz vaqt o‘tgach, Grimmlar Berlinga borib, umrlarining so‘ngiga qadar u yerda yashab qoldi. Berlinda ular nemis tilining etimologik lug‘atini tayyorlash bilan band bo‘ldi. Bu jarayonda Grimmlarning oldida nafaqat ilmiy, balki tarixiy vazifa ham turardi. Bu — boshqa davlatlarda yashaydigan, ammo bir tilda so‘zlashadigan xalqni birlashtirish vazifasi edi. Aka-uka Grimmlar til tadriji va uning jamiyatdagi rivojlanish jarayonini jiddiy o‘rganib, til tadqiqotida inqilob qildi — qiyosiy-tarixiy usulni yaratdi. Bu usul — bugun barchamiz yaxshi biladigan lingvistika fanidir.

Grimmlarning eng katta ishi “Nemis tili lug‘ati”ni yaratgani bo‘ldi.

Ushbu voqeа dunyo ilm-fanida olamshumul yangilik bo‘lish bilan birga, german tillari bo‘yicha keyingi tadqiqotlarda hozirgacha muhim asos vazifasini o‘tayotir. Bugun 33 jild, 600 ming bo‘limdan iborat nemis tili lug‘ati ustida Berlin akademiyasi tilshunoslari hamon ish olib borishdan to‘xtagani yo‘q. 1859-yilning 16-dekabrida Vilgelm hayotdan ko‘z yumdi. Ukasiga qattiq bog‘lanib qolgan Yakob, qanchalik g‘amga botmasin, ishslashda davom etdi. 4 yildan so‘ng — 1863-yilning 20-sentabrida u ham olamdan o‘tdi. Yakob Grimm vafotidan oldin “A”, “B”, “C” va “E” harflari ustida olib borgan izlanishlarini yakunlashga ulgurdi. Uning o‘limi oldidan so‘nggi bor qaragani — hayot yo‘lidagi eng yaqin insoni va do‘sti, jondan aziz ukasi Vilgelmnning surati bo‘ldi. Ertaklari bilan dunyoga tanilgan ikki ijodkor — qondoshlar yonma-yon dafn etildi. Aslida, aka-uka Grimmlar hayotining o‘zi bir afsona. Balki ular bir-biriga bu qadar mehr-oqibatli, g‘amxo‘r bo‘lmaganida, barchaga ibrat bo‘ladigan, kishilarni yaxshilik, saxiylik, muruvvatga chorlaydigan ertaklar yaralmasmidi. Ammo shunisi aniqki, aka-uka Grimmlar nomi ular yaratgan ertaklardagi barcha ijobiy qahramonlar timsolida yashayveradi!

### **avol va topshiriqlar**

1. Aka-uka Grimmlar ertaklarida qanday asosiy g‘oya va qadriyatlar ilgari surilgan? Ushbu ertaklar bolalar tarbiyasiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
2. Grimmlar ertaklarida yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash qanday tasvirlangan? Ushbu kurash orqali qanday xulosa chiqariladi?
3. Grimmlar ijodidagi milliy motivlar va xalq donishmandligi qanday ko‘rinadi? Bu g‘oyalar bolalarning ma’naviy rivojlanishiga qanday xizmat qiladi?
4. Grimmlar ertaklarida qahramonlarning jasorat va mehribonlik kabi fazilatlari qanday ifodalanadi? Ushbu fazilatlar bugungi bolalar uchun qanchalik ahamiyatli?

## **20- MAVZU: XANS KRISTIAN ANDERSEN VA SHARL PERRO IJODI**

### **REJA:**

1. Andersen ijodiy faoliyati haqida
2. X.K.Andersen asarları g‘oyasi
3. Sharl Perro hayoti va ijodi

### **Xans Kristian Andersen – “ertaklar qiroli”(1805-1875)**

ANDERSEN (Andersen) Xans Kri-stian (1805.2.4, Odens – 1875.4.8, Ko-pengagen) — Daniya yozuvchisi, mashhur ertaknavis. Etikdo‘z oilasida tug‘ilgan. “Improvizator” (1835) romanida quyi tabaqadan chiqqan xayolparast shoir va jamiyat ziddiyati tasvirlanadi. A.ning “Qo‘rg‘oshin soldatcha” (1838), “Bul-491bul” (1843), “Irkit o‘rdakcha” (1843), “Qirolicha” (1844), “Ona” (1848) kabi ma-shhur ertaklari va “Suratsiz surat kitobi” (1840) shu davrda yaratilgan. A. “Mulat” (1840) pesasini, “Shoir bo-zori” (1842) yo‘l xotiralarini ham yoz-gan. “Ikki baronessa” (1849) romanida tabaqlashtirishga asoslangan jamiyatni tanqid qiladi. A.ning juda ko‘p ertakla-ri (“Irkit o‘rdakcha”, “Qirolicha” va boshqalar) o‘zbek tili ga tarjima qilingan.

Daniya yozuvchisi X.K.Andersen jahon bolalar adabiyotida haqli ravishda “ertak qiroli sifatida ulug‘lanadi. Adib ertaklarining jozi basi g‘ayrioddiy ohangi, sehrli soddaligi, hayotga cheksiz mehr bilan munosabatda bo‘lishi, eng oddiy narsalar va hodisalardan estetik tarbiyaviy jihatdan teran mazmunli ertak yarata olishi bilan belgi lanadi. U haqiqiy sehrgar singari nafaqat bolalar, balki ayollar, qari yalar, oddiy bog‘bon va aslzodalar, saroy zodagoni va mayda amal dorlarning ham qalbiga kirib boradi. Adibning barcha ertaklari qaysi mavzuda, nima haqida bo‘lmisin, turli yoshdagagi odamlarning orzu o‘ylari va xatti-harakatlari, qalbining puchmoqlaridagi yashirin sir asrorlarining yorqin ifodasini kuzatish mumkin.

Daniyaning Odense shaharchasida tug‘ilgan X.K. Andersenning otasi etikdo‘z, onasi kir yuvuvchi bo‘lib, kambag‘allar uchun bosh lang‘ich maktabga borishdan oldin ham otasi va g‘aribxonadagi kam pirlar aytgan ertaklari tinglab o‘sadi. Keyinchalik unda teatrqa qiziqish paydo bo‘ladi. Nam ahura teatriga birinchi bor kelganida, spek ahu dekoratsiyasi,

aktyorlarning kostyumlari, o‘yinlaridan cheksiz hayratga tushadi. Shundan boshlab teatr uning uchun qutlug va muqaddas maskanga aylanadi. Xalq teatridan ilhomlanib, uyida o‘zi ning qo‘g’irchoq teatrini uyushtiradi, uni mo‘ljallab ertak-pessalar yaratadi, qog’ozdan kostyumlar va bezaklar yasaydi va u bularni ahurat bilan qilganidan, onasi uni tikuvchiga shogirdlikga berishga qaror qiladi. Biroq bo‘lajak yozuvchining taqdiri tamoman o‘zgacha tus oladi. 1819-yilda Xans aktyor bo‘lish orzusida o‘z omadini sinab ko‘rish niyatida Kopengagenga boradi. Ko‘zlagan maqsadiga erishish maqsadida uzoq sarsongarchilik, muhtojlik va behuda urinishlardan so‘ng birinchi navbatda ta’lim olish uchun gimnaziyaga joylashadi Indi katta yoshli o‘quvchi partada o‘zidan ancha yosh bolalar bilan dars tinglaydi Shunday sharoitda Andersenni sinfdoshlari qancha lik masxara qilganini tasavvur qilish qiyin Ammo Xans sabr-chidam bilan o‘rtta mакtabni, so‘ngra universitetni tugatadi. Hayotining ushbu davri haqida u keyinchalik achinarli va noxush taassurotlar tug‘di ruvchi “Irkit o‘rdakcha” ertagini yaratadi. Ma’naviy-axloqiy jihatdan ahamiyatli tomoni shundaki, asar irkit o‘rdakchaning chiroyli oqqushga aylanishi bilan ko‘tarinki va jo‘shqin ruhda yakun topadi.

X.K.Andersen o‘z ijodi davomida talay pesalar va she’rlar yozgan bo‘lsa-da, ammo ularning hech biri ulug’ yozuvchining ertaklari singari tan olinmagan. “Bolalarga aytilgan ertaklar (1835-1842). Yangi ertaklar” (1845-1848). “Hikoyalar” (1852-1855), “Yangi ertak sa hikoyalar” (1855-1872) to‘plamlariga kirgan asarlarini “Ertaklar sa qissalar” deb nomlaydi. Negaki ularning aksariyati kundalik hayitdan olib yozilgan hikoyalar bo‘lib, borliqning asosiy masalalari tog‘risida o‘ylashga majbur qiladi. Ba’zida ertak va hikoyani farq lash qoon, chunki ularda turmushda har qadamda uchrashi mumkin bolgan hayotning turfa ko‘rinishlaridan tortib, hissiyotlarga boy sevgining inja tuyg’usidan har qanday muhitda yuzaga keladigan eng odatiy holatlarga qadar bo‘lgan voqealar tasvirini uchratish mumkin. Mashhur ertaknavis X.K.Andersen ko‘p avlodlarga chin inson lik bobida mehr va muhabbatdan saboq bergan, rahm-shafqat, go‘zal kni insonning tashqi holatiga qarab emas, balki uning ichki dunyosida ko‘rish qobiliyatini, ya’ni harcha insonlar uchun ezgu fazilatlarni namoyish qilgan o‘lmas so‘z sehrgarlar qatorida turadi.

## SHARL PERRO

Bundan 390 yil oldin «Qizil qalpoqcha», «Zolushka», «Ko'ksoqol» kabi mashhur ertaklar dunyoga keldi. Yozuvchi ularni umrining so'nggi yillarda yozgan. Ungacha esa Sharl Perro Fransiyaning nufuzli amaldorlaridan biri edi.

«Men 1628-yil 12-yanvarda egizaklardan biri bo'lib dunyoga kelganman. Menden bir necha soat avval tug'ilgan egizagim olti oydan so'ng vafot etgan», — deb yozgandi Sharl Perro o'z xotiralarida. Bu oiladagi barcha aka-ukalar Lyudovik XIV davridagi ijtimoiy hayotda muhim rol o'ynashgan.

O'n yettinchi asrda Fransiya har tomonlama: san'at, ilm, sanoat, harbiy tizim jihatdan yuksak darajada edi. Fransuz qiroli Yevropadagi eng nufuzli insonlardan biri hisoblanardi. Lyudovik XIVning «o'ng qo'li» bo'lgan Jan Batist Kolber davlat boshqaruvini noldan boshlab shakllangantirgan shaxsdir. Kolberning «o'ng qo'li» esa Sharl Perro edi.

Perro ham o'z o'rnila katta kuchga ega bo'lgan. Uning vazifalari quyidagilardan iborat edi:

- Qirollik qurilishi intendantligining bosh kotibi. Bu juda muhim lavozim bo'lib, o'sha davrlarda Luvr muzeyi, Versal saroyi bunyod etilgan. Uning qurilishiga Sharl Perro bosh bo'lgan.

- «Qirollik shon-shuhrati byurosi»ning amaldagi boshqaruvchisi. Keyinchalik byuro kichik akademiyaga aylantirilgan. Uni tashkil qilish uchun Lyudovik XIVning shaxsan o'zi 1664-yili Perro bilan uchrashgan.

- Madaniyat bo'yicha kotib. Perro adabiyot olamini ham kuzatib borardi.

- **Gobelen ustalari nazoratchisi.** Garchi oddiy lavozimdek ko'rinsada, o'n yettinchi asrda bu muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Gobelen tayyorlashda fransuzlarning oldiga tushadigan yo'q edi, global brend sifatida bu mahsulot chet elga eksport qilinib davlatga katta foyda keltirgan.

- **Kolberning shaxsiy kotibi.** Bu Perroning asosiy yumushi edi. U boshlig'ining barcha buyruqlarini ado etardi. 1666 yili Kolber adabiyot ahli uchun 100 ming livrlik fond tashkil qildi, uni Perro boshqardi. Fond pullari nafaqat fransuzlar, balki xorijiy yozuvchilar uchun ham ajratilgan. Shuningdek, dunyo olimlari ham Parijda ishlashga jalb etilgan.

Perro mas'uliyatli va sharaflı lavozimlardan bo'shab, nafaqaga chiqqanidan so'ng ertaklar yozishni boshlagan. Ilk ertagi 1691-yili chiqqan, eng mashhur to'plami — «Ona g'oz ertaklari» esa 1697-yili nashr qilingan. Akademik Sharl Perro bularni haqiqiy adabiyot deb hisoblamas, hatto muallif sifatida ismini ham ko'rsatmas edi. Barchasini o'g'li Per de Armankur-Perro taxallusi ostida e'lom qilardi. Uning kitoblari qirolning aziz jiyani — malika Orleanskiyning sevimli asarlari edi. Afsuski, Sharlning o'g'li armiyada halok bo'ladi. Uning ismi bilan chiqarilgan kitoblarning asl nusxasi haligacha saqlanib kelinadi.

Sharl Perroning ismi bilan yozilgan kitoblar esa 1724-yilda, yozuvchining o'limidan 21 yil o'tgachgina chop qilingan.

### **«Qizil qalpoqchaning yashirin siri nima edi?**

Nima uchun kichkina qizaloq bo'ri bilan gaplashishdan qo'rqlaydi? Axir bolalar bo'rini ko'rishlari bilan qochishlari kerak emasmi? Bu savol ko'plab ota-onalarni qiziqtirib kelgan. Chindan ham o'rmonda yolg'iz ketayotgan qizchaning bo'ri bilan yuzlashib, u bilan bemalol suhbatlashishi tabiiylikdan uzoqdek. Buvisining qiyofasiga kirib olgan bo'rini ham tanimasligi g'alati emasmi? Qizil qalpoqcha g'ilay yoki ovsar edimi?

Bu g'alati ertakni tushunish uchun Sharl Perro yashagan davrlarga sayohat qilishimiz kerak. Perroning «Buvi haqidagi ertak» hikoyasi shunday boshlanadi: bir kuni ayol non pishirib qiziga deydi: «buvingni ko'rib kel, unga issiq bulochka va sut eltil berasan». Qizcha yo'lga chiqdi. Ikki yo'lga ajralgan chorrahada esa bzuni uchratdi. U qizdan qayerga ketayotganini so'radi. Bzu kim edi? O'sha paytda mahalliy aholida odam-bo'rilarini bzu deb atashgani ma'lum bo'lган. Qizcha ham odam ko'rinishiga kirib olgan bo'ridan shu sabab cho'chimagan, deb taxmin qilinadi. Buvisining qiyofasiga kirib olgan bo'rini ham taniy olmaydi. Faqatgina og'zini ochib yirik tishlari ko'ringachgina bo'ri ekani ma'lum bo'ladi.

Perro ertakdagi bzu obrazini nega oddiy bo'riga almashtirdi? Buning sababi qirov Lyudovik XIV o'sha davrda mahalliy bid'atlar, folchilik, aql bovar qilmas hodisalar haqdagi rivoyatlarga qarshi kurash ochgandi. Qora kuchlarga tegishli bo'lган bo'ri-odam obrazini ham kitoblarda targ'ib qilish mumkin emasdi. Sharl Perro, albatta, qirolning buyruqlarini bekamu ko'st ado etardi. U o'z ertaklarini yozishda ham qirolga sodiq qoldi, maxluq va

yalmog‘izlarni qalamga olmay, barchasiga real yondashishga harakat qildi. Darhaqiqat, uning ertaklari Fransiyada tez ommalashdi.

Perro har bir ertagini masal kabi yozardi. Qizcha va bo‘ri haqidagi bu ertak ham majoziy bo‘lgan. Bo‘ri timsolida yozuvchi yomon odamlarni nazarda tutgan. Ammo ertak oxiri fojiali: bo‘ri qizchani va uning buvisini yeb qo‘yadi. Lekin ertak xalq orasiga kirkach, ota-onalar uni farzandlariga o‘zgartirgan holda so‘zlab berardilar: ovchilar qizchani va buvisini saqlab qolishgan. Aka-uka Grimmlar aynan xalq tanlagan variantni o‘z kitoblariga kiritishgan. O‘sandan beri barcha davlatlardagi nashriyotlar Grimmlarning ertagini chop etib kelmoqda, biroq hech kim asl muallif sifatida Sharl Perroni eslamaydi...

### **Savol va tophiriqlar**

1. Xans Kristian Andersen nima uchun jahon bolalar adabiyoti da "ertaklar qiroli sifatida ulug‘lanadi?
2. Xans Kristian Andersen ertaklarining barcha toifadagi kishilar tomonidan birdek qiziqib o‘qilishining sababini nimada deb bilasiz?
3. "Irkit o‘rdakcha" bilan yozuvchi tarjimai holi o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?

## **21- MAVZU: ALEKSANDIR SERGEV PUSHKIN ERTAKLARIDA G‘OYAVIY-BADIY XUSUSIYATLARI.**

### **REJA:**

1. A.S.Pushkin hayoti va ijodi
2. Pushkin ertaklarining g‘oyaviy badiiy xususiyatlari

### **Rus yozuvchisi rus adabiyotining asoschisi Aleksandr Sergeyevich**

**Pushkin** 1799 yil 26- mayda Moskvada tug‘ilgan. Otasi Sergey Lvovich qadimiylar oilasidan bo‘lib fransuzcha she’rlar yozib turgan. Onasi Nadejda Osipovna Pyotrning tarbiyasida bo‘lgan haba Gannibalning nevarasi bo‘lgan. Ota-onasi yosh Pushkinni buvisi Mariya Alekseyevna va enagasi Arina Rodionovna tarbiyasiga topshirgan Uning amakisi Vasiliy Lvovich o‘sha davrning ko‘zga ko‘ringan shoirlardan bo‘lib, Pushkinlarnikiga taniqli shoirlar tez-tez mehmon bo‘lib kelardi. Bu muhit Pushkinda she’riyatga havas uyg‘otdi. 1811-1817-yillardau Sarskoe selodagi litseyda ta’lim olgan. Pushkinding dastlabki she’ri matbuotda 1814-yildayoq bosingan edi. 1833-yil dekabrida Nikolay I Pushkinni kamer — yunker qilib tayinlagan. 1837-yildayosh fransuz ofitseri Jorj Dantesbilan duelda Pushkin og‘ir yaralanib, vafot etadi. Pushkinding ko‘plab asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilingan («Boris Godunov», «Dubrovskiy», «Kavkaz asiri» Cho‘lpon tomonidan (1936-37), «Yevgeniy Onegin» Oybektomonidan (1937), «Boqchasarov fontani» Usmon Nosirtomonidan (1937), «Kapitan qizi» Abdulla Qahhor tomonidan (1939), «Ruslan va Lyudmila» Mirtemir tomonidan (1948) tarjima qilingan). Pushkinda nafis so‘zga mehr-muhabbatning paydo bulishida rus xalq qo‘schiqlari hamda ertaklarini yaxshi bilgan enagasi Arina Rodionovnaning ta’siri, ayniqsa, kattadir. O‘sha davrning engnufuzli o‘quv yurtlaridan biri — Peterburg yaqinidagi Sarskoye selo (hozirgi Pushkin sh.) litseyida o‘qish (1811—17) Pushkinding shoir va erksevar inson sifatida shakllanishida muhim omil bo‘lgan. Pushkin litseyni tugatgach, Peterburgga kuchib borgan va tashqi ishlar kollegiyasida kotib lavozimida ishlagan. U Peterburgda xizmat qilgan yillar (1817—20) Rossiyaning tarixiy ta-raqqiyoti uchun muhim bir davr edi. Pushkinding dastlabki she’rlari 1913 yilda matbuot yuzini ko‘rdi. U

litseyda o‘qib yurgan kezlarida 120 ga yaqin she‘r va 2 doston (tugallanmagan) yozadi. Litsey bilan xayrlashuv kechasiga bag‘ishlangan she‘ri esa shu kechada qatnashgan G. R. Derjavin yuksak bahosiga sazovor bulib,u Pushkinning buyuk shoir bo‘lib yetishishini bashorat qiladi. Keyinchalik Pushkin rus jamiyatida uyg‘onib borayotgan erksevarlikkayfiyati ta’sirida "Erkinlik" (1817),"Chadayevga" (1818), "Qishloq" (1819) singari she’rlarni yaratadi.Pushkinga qadar rus she‘riyatida qasida, marsiya, xat singari har bir she‘riy janr klassitsizm tomonidan belgilangan qat‘iy qonun-qoidalar asosida yozilgan. Pushkin itsey lirkasidan farqli o‘laroq, Peterburg davri ijodida she‘riy janrlar o‘rtasidagi chegaralar va uslubiy farqlarni bartaraf etib, rus she‘riyati taraqqiyoti uchun yangi badiiy ufqlarni ochib bergen ("Ruslan va Lyudmila", 1820). Pushkin ijodining tadrijiy yo‘lini shartli ravishda 4 bosqichga ajratish mumkin. Agar 1813—16 yillarni o‘z ichiga olgan 1-bosqichda Pushkin o‘z zamondoshlarining badiiy tajribasini o‘zlashtirgan bo‘lsa, 2-bosqich (1817—20) da Pushkin ijodining g‘oya va mavzular olami kengayib, u o‘z uslubiga erishish yo‘lida badiiy izlanishlar olib borib, kitobiy til bilan jonli xalq tilini o‘zaro yaqinlashtirdi. 1819 yilda Pushkin ning "Yashil chiroq" to‘garagida ishtirot etishi esa Aleksandr I ni nihoyatda g‘azablantirdi. U dastlab J. Bayron ta’sirida romantik dostonlarini yozdi.

Pushkin romantizmining ilk namunasi — "Kavkaz asiri" dostoni (1820—21) 20-yillardagi erksevar yoshlar kayfiyatini ifodalagani uchun ular o‘rtasida katta muvaffaqiyat qozondi.Pushkin voqelikni romantik bo‘yoqlar bilan tasvir etishda davom etib, "Aka-uka qaroqchilar" (1821—22) va "Boqchasarov fontani" (1923) dostonlarini yaratdi. "Lo‘lilar" dostoni esa Pushkinning ijodiy tadrijidida ro‘y bergen jiddiy burilishning samarasini bo‘ldi.Pushkinning romantik dostonlari va shu yillar lirkasi ("Demon", "Dengizga" va boshqalar) yagona g‘oyaviybadiiy yo‘nalishga ega bo‘lib, ular psixologik tasvirning teranligi, ruhiy olam, tabiat va tevarak-atrofdagi hayotiy hodisalar o‘rtasidagi aloqalarning rang-barangligi bilan ajraladi.1824 y. Pushkin xizmat vazifasidan ozod etilib, Mixaylovskoye qishlog‘i (Pskov) ga surgunga yuboriladi. Ikkinci marta tazyiqqa uchragan shoir qisqa muddatli ruhiy ezilishdan so‘ng mutolaaga berilib, shu atrofdagi aholining ertak va qo‘siklarini to‘playdi, "Boris Godunov" tragediyasi

(1825), "Graf Nulin" dostoni, "Qur'onga tatabbu", "Andrey Shen'ye", "19 oktyabr" va boshqa mashhur she'rlarini yozadi, "Yevgeniy Onegin" she'riy romani ustidagi ishni davom ettiradi. "Boris Godunov" Pushkinning dramaturgiya sohasidagi dastlabki tajribasi bo'lsada, shoir unda Shekspir an'analariga tayangan holda dramatik san'atning yangi yo'llarini kashf etadi, xalq bilan hokimiyat o'rtasidagi munosabatni asar markaziga olib chiqadi. "Boris Godunov"ni yaratish asnosida ishlab chiqilgan badiiy tamoyillar (tarixiylikka institutilish, insoniy kechinmalarni barcha ranglari bilan mujassamlashtirish, xarakterlarga xos hayotiy murakkablikni ochish va boshqalar) Pushkinning keyingi ijodidao'z samaralarini berdi. 20-yillar oxiri — 30 yillar boshlarida Pushkin ijodida realizm tantana qilib, u "Graf Nulin"dan tashqari, "Poltava" (1828—9), "Kolomnadagi uy" (1830), "Mis chavandoz" (1833) dostonlari va keyinchalik shoirning" kichik tragediyalar"ini tashkil etgan ba'zi bir pyesalari hamda nasriy asarlari ("Belkin qissalari", "Kapitan qizi" va boshqalar)ni yaratadi. Pushkin shu davrda lirkada badiiy realizmning yuksak bosqichiga erishadi. 20-yillarning 2-yarmida Pushkin "Yevgeniy Onegin" ustidagi ijodiy ishini davom ettirdi. She'riy romanning 1833 yilda to'la holda nashr etilishi rus adabiyoti tarixida ulkan voqeа bo'ldi. Garchand she'riyatning bu janri rus ada-biyotida keyinchalik izchil davom ettirilmagan bo'lsada, bu asarda kashf etilgan yangi realistik tasvir metodi va yangi estetika tamoyillari rus adabiyetining keyingi taraqqiyoti uchun g'oyat katta ahamiyatga molik bo'ldi. Romanda Pushkin yashagan davrning muhim masalalari o'z in'ikosini topdi, o'sha davrda keng tarqalgan kishilar xarakteri tarixiy, ijtimoiy va maishiy sharoit fonida zo'r mahorat bilan tasvir etildi. Pushkin 1830 y. kuzini Boldino qishlog'ida o'tkazdi. Rus adabiyoti tarixiga "Boldino kuzi" sifatida kirgan bu davrda shoir "Kolomnadagi uy" dostoni, "Belkin qissalari", shuningdek, boshqa "kichik tragediyalar"ini ijod qildi. Bu asarlarning har biri, ayniqsa, "Xasis ritsar", "O'lat chog'idagi bazm", "Tosh mehmon", "Motsart va Salyeri" "kichik tragediyalar"i olamshumul ahamiyatga molik masalalarni ko'targanligi bilan Pushkin ijodida alohida bir sahifani tashkil etadi. Pushkin Rossiyaning yangi, kapitalistik taraqqiyot bosqichiga o'ta boshlagani Pushkinning "Pikovaya dama" (1833) qissasida o'z tajassumini topgan. Pushkin 30-yillar Rossiya tarixi bilan qiziqib, Pugachyov

qo‘zg‘olonining paydo bo‘lish sabablarini qunt bilan o‘rgandi, qo‘zg‘olon sodir bo‘lgan joylarga borib, rus xalq qo‘sishqlari, ertak va rivoyatlarni yozib oldi. Pushkin Pugachyov qo‘zg‘oloni haqida to‘plagan bu materiallardan "Pugachyov tarixi" asari (1833), "Dubrovskiy" (1832—33) va "Kapitan qizi" (1833—36) qissalarida samarali foydalandi. Rus xalq og‘zaki ijodi namunalariga qiziqish natijasida Pushkinning "Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak" (1830), "Shoh Sulton haqida ertak" (1831), "Baliqchi va baliq haqida ertak" (1833), "Oltin xo‘rozcha haqida ertak" (1834) singari folklor motivlari bilan sug‘orilgan asarlari maydonga keldi va bu asarlar Pushkin ijodidagi xalqchillikning yanada oshishiga sababchi bo‘ldi.

Pushkinning rus adabiyoti oldidagi xizmatlari buyuklashgan va ijodiy faoliyati yangiyangi qirralar kasb etib borgani sayin uning atrofidagi kora kuchlar tobora birlasha va faollasha boshladilar. Shuning natijasi o‘laroq uning J. Dantes bilan dueli uyuhtirilib, ulug‘ rus shoiri halok etildi. Pushkinning rus madaniyati taqdiridagi roli benihoya buyuk.U yangi rus adabiyotiga asos solish bilan birga rus adabiy tilining ham shakllanishiga ulkan hissa qo‘shdi. Rus adabiyotida realizm vaxalqchillik tamoyillarining, qator she’riy janrlarning shakllanishi va taraqqiyoti Pushkin nomi bilan chambarchas boglik, Pushkinning rang-barang ijodi nafaqat keyingi rus adabiyoti, balki musiqa, teatr, balet, rangtasvir singari san’at turlarining ham rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Boshqa qardosh adabiyotlar qatori 20-asr o‘zbek adabiyotining taraqqiyotida ham Pushkin ijodining ta’siri sezilarlidir.

Har bir xalqning donishmandligi va qalb nazokatini o‘zida mujassamlantirgan shoiri bo‘ladi. Rossiyada inson ma’naviy olamining musavviri, shubhasiz, Pushkindir.U nurga intilib, doim ozodlik uchun kurashuvchi shoир, buyuk optimist bo‘lib yetishdi. Rus xalqining yana bir buyuk shoiri Aleksandr Blok: “Pushkinning nomi naqadar jarangdor”, deb ta’riflagan edi.A. S. Pushkin xalq og‘zaki ijodini bolalikdan berilib o‘rgandi. Buloqdek qaynab-toshgan xalq og‘zaki ijodi shoirning ilhomiga ilhom qo‘shdi.Kelajakda mashhur shoир bo‘lib, jahonga tanilishida boy manba bo‘lib xizmat qildi.U, ayniqsa, o‘zining ertakdostonlari bilan yosh kitobxonlarning hurmat-olqishiga sazovor bo‘lib kelmoqda.A. S. Pushkin o‘zining “Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak” (1831), “Baliqchi

ham baliq haqida ertak” (1833), “O‘likmalika va yetti bahodir haqida ertak” (1833), “Oltin xo‘roz haqida ertak” (1834) kabi ertak-dostonlari bilan jahon bolalar adabiyoti xazinasini yanada boyitdi. Yuqorida biz ta’kidlab o‘tgan asarlarning hammasi boy va rang-barang xalq og‘zaki ijodi ta’sirida yuzaga kelgan. Bu asarlar zamirida aniq mavzular yotganligini ko‘ramiz. Masalan, shoir “Ajoyib bolalar” xalq ertagi asosida “Shoh Saltan... haqida ertak”, “Qurimsoq kampir” ertagiva rus xalq folklorining to‘plovchilaridan biri V. Dal hikoya qilib bergen sujet asosida “Baliqchi ham baliq haqida ertak”, “Sehrli ko‘zgu” ertagi asosida “O‘lik malika va yetti bahodir haqida ertak”, uzoqyillar xalqni ayovsiz ishlatib, unga rahm-shafqat nima ekanligini bilmay o‘tgan va uning hatto pok xizmatlarini o‘zida mujassamlashtirgan “Shabarsha batrak” asosida “Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak” yotganligini ko‘ramiz.

Bu ertaklarning hammasi shoirning ijodxonasida ishlanib, sayqallanib, yanada o‘qimishli, ta’sirli chiqqan. A. S. Pushkin oddiy, mehnatkash xalqni yaxshi ko‘radi, uni iloji boricha himoya qilishga, yon bosishga harakat qiladi. Shuning uchun ham uning ertak-dostonlarida xalqqa bo‘lgan cheksiz muhabbat tuyg‘usi barq urib turadi. Dadon shohni oling (“Oltin xo‘roz haqida ertak”). U g‘irt ahmoq. Na xalqni sevadi va na farzandlariga mehribon otalik qila oladi. Dadon o‘taketgan darajada maishatparast va kaltabin. U butun podshohligidan, xalqidan, farzandlaridan o‘zga yurtlik makkora ayolni ustun qo‘yadi. Buni xalq, xudo kechirmaydi. Natijada shoh xalq qahr-g‘azabiga duchor bo‘ladi. Oltin xo‘roz tepkisidan halok bo‘lgan shohga birovning rahmi kelmaydi, aksincha, shohning o‘limi ularga shodlik va ozodlik baxsh etadi. Pop (“Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak”) obrazi ustida shoir qattiq ishlaydi. Uning tekinxo‘r, ochko‘z, o‘zgalar hisobiga umr kechiradigan bir pastkash kimsa ekanligini keskin ochib tashlaydi. Unga qarama-qarshi qilib oddiy va halol, mehnatkash va bahodiryigit Balda obrazini ijod cho‘qqisiga ko‘taradi. Ikki qahramonning bozordagi o‘zaro suhbatidanoq kitobxon kim qanday odam ekanligini darhol sezadi:

“Bo‘lsin oshpaz, otboqar ham duradgor,  
Ayt-chi, bunday arzon malay qayda bor?  
Balda debdi: “Yaxshi malay bo‘layin,  
Bergan obi yovg‘oningga ko‘nayin.

Xizmatimga haq to‘laysan shu xilda:  
Peshanangga uch chertaman bir yilda”.

Ha, hayotda har bir narsaning, jumladan, tekinxo‘rlik, ochko‘zlikning ham poyoni, oxiribor. Kaltabin Pop chertkini yeb halok bo‘ladi.“Baliqchi va baliq haqida ertak” dostonida shoir pok muhabbat mangu bo‘lishini orzu qiladi.Boylik, mansab deb o‘tgan kunnunutmaslikni istaydi. Bundan tashqari, kimki halol peshana teri to‘kib boylik orttirmasa, birovlar hisobiga boyiydigan bo‘lsa, u hech qachon yuqmasligini, birovniki birovnikiligicha qolib ketishini kampir qismati bilan chog‘ishtirib hikoya qiladi. Yer yuzi, butun olam hukmroni bo‘lib olgan kampir cholni mensimaganligi uchun, ochko‘z va badbaxtligi uchun yana eski hammom, eski tos bilan qolib ketaveradi. Buni shoir juda chiroyli ifodalaydi:

Qaytdi kampir yoniga axir,  
Ko‘rsa: tag‘in o‘sha yerto‘la.  
Bo‘sag‘ada o‘tirar kampir,  
Qarshisida teshik tog‘ora.

Rostgo‘y, haqiqatni yoqlovchi shoir “O‘lik malika va yetti bahodir haqida ertak”, “Shoh Sultan... haqida ertak” asarlaridahaqiqat bir kun emas bir kun, albatta, qaror topadi, hamma baxtiyor bo‘ladi, degan fikrni ilgari suradi.A. S. Pushkinning xalq og‘zaki ijodiga asoslanib yozgan “Ruslan va Ludmila” asari ham bolalar qalbiga ancha yaqin turadigan dostonlardan biri hisoblanadi. Rus ertakları, qo‘shiqlari, afsonalari bu g‘aroyib asarga favqulodda go‘zal mazmun bergen.Yuksak insonparvarlikni o‘zida mujassamlashtirgan yorqin iste’dod egasigina shunday asaryarata olardi.Pushkin ertakları bolalar kitobxonligida alohida o‘rin egallaydi.Pushkin xalq og‘zidan ko‘plab ertaklarni yozib oladi.Natijada g‘oyaviy badiiy yetuk yangi ertaklar yozish bilan ertak janrini yuksaltiradi.Pushkin xalq ertakları asosida 8ta ertak yozadi.Mashhur rus romantik shoiri V. A. Jukovskiy “Ruslan va Ludmila” poemasi nashr etilgach, Pushkinga “G‘olib o‘quvchimga mag‘lub murabbiydan” deb yozilgan portretini sovg‘a qiladi.Bu buyuk shoir dahosiga, zamondan ilgarilab ketgan kurashchan insonga berilgan xolisona baho edi.Mana shuning uchun Pushkinga Rossiyaning mangu, otashin shoiri bo‘lib qolmoq baxti nasib etdi.

### **Savol va tophiriqlar**

1. Xans Kristian Andersen nima uchun jahon bolalar adabiyoti da "ertaklar qiroli sifatida ulug'lanadi?
2. Xans Kristian Andersen ertaklarining barcha toifadagi kishilar tomonidan birdek qiziqib o'qilishining sababini nimada deb bilasiz?
3. "Irkit o'rdakcha" bilan yozuvchi tarjimai holi o'rtasida qanday bog'liqlik bor

## **22- MAVZU: K.CHUKOVSKIY VA MARSHAK SHE'RIYATINING G'YOYAVIY-BADIY XUSUSIYATI**

### **REJA:**

1. K.I.Chukovskiy – shoir, ruhshunos, pedagog.
2. “Ikkidan beshgacha” – ensiklopedik asar.
3. K.I.Chukovskiy – folklorshunos.

Hozirgi zamon rus bolalar adabiyotining ulkan daholaridan biri Korney Ivanovich Chukovskiy yirik yozuvchi, shoir, taniqli olim, mohir tarjimon sifatida tanilgan so‘z ustasi edi. U o‘z asarlarida bolalarga xos ajoyib xislatlarni — rahmdillik va insoniylik, do‘stlik va birodarlik, yovuzlikka nisbatan shafqatsizlik, vatanparvarlik kabi fazilatlarni targ‘ib etadi. K. Chukovskiy bolalar uchun asarlar yaratish, ijod qilishni o‘zi uchun katta baxt deb biladi. Kichkintoylar va ularning adabiyotini umr bo‘yi ardoqlagan Korney Chukovskiy 1882 yilda Peterburg shahrida dunyoga keldi. Tez orada Chukovskiylar oilasi Odessaga ko‘chadi. Bu yerda ona ming mashaqqat bilan o‘g‘lini gimnaziyaga joylaydi. Bu baxt uzoqqa cho‘zilmaydi. „Oshxona xizmatchisining o‘g‘li“ bo‘lganligi uchun K. Chukovskiy gimnaziyadan haydaladi. Korney oilaga ko‘maklashish, tirikchilik o‘tkazish maqsadida turli yumushlarni bajarishga majbur bo‘ladi. Shunga qaramay, u bo‘sh vaqtlarida mustaqil o‘qishga, Pushkin, Nekrasov, Chexov asarlarini mutolaa qilishga harakat qiladi. Chukovskiyning dastlabki „San’at nima?“ maqolasi 1901 yilda bosilib chiqqan.

1903 yilda u gazeta muxbiri sifatida Angliyaga boradi. Londonda xizmat qila boshlaydi. Lekin bu yerdagи faoliyati uzoq davom etmaydi. Gazeta unga maosh to‘lamay qo‘yadi. U Britaniya muzeyiga ishga kirib, tirikchilik o‘tkazishga majbur bo‘ladi. 1905 yilda K. Chukovskiy Odessaga qaytib keladi va bu yerda „Signal“ degan jurnal chiqara boshlaydi. Jurnal sahifalarida chor hukumati siyosatiga qarshi materiallar bosilganligi uchun uni sud qilishadi. Keyingi yillarda u bolalar adabiyoti to‘g‘risida ko‘plab maqolalar yozadi. 1907 yilda „Bolalar tili“ asari maydonga keladi. K. Chukovskiy dastlab M. Gorkiy hikoya qilib bergen sujet asosida bugungi kunda o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, badiiy baquvvat „Timsoh“ ertagini

yozdi. 1918 yilda esa „Archa“ nomli to‘plami bosilib chiqdi. O‘sha yili „Jahon adabiyoti“ nashriyotiga ishga kirdi. 1919 yilda N. A. Nekrasov asarlarining to‘la to‘plamini nashr ettirdi. Shu yillarda uning mashhur „Moydodir“, „Suvarakxon“ ertaklari, „Kichik bolalar“ kitobi bosilib chiqdi., „Pashsha — xarxasha“, „Barmaley“, „Telefon“, „Fedora o‘tkazgan alam“, „O‘g‘irlangan quyosh“, „Doktor Voyjonim“, „Filinisa kitob o‘qir“, „Kirpilar kuladi“ asarlari Korney Chukovskiyning nomini olamga yoydi, kitobxonlar hurmatini qozondi. Korney Chukovskiyning ertak-poemalarida ezgulikning yovuzlik ustidan g‘alabasi, baxt, yorqin hayot sari keskin kurash bo‘rtib turadi. Masalan, shoirning „Moydodir“ asarida bolalarning odobli, ozoda, har doim to‘g‘ri so‘z bo‘lishi va tozalikka rioya qilish mavzusi ilgari surilgan. Asar qahramoni qator fazilatlarga loyiq. Lekin bir aybi bor, faqat kir-chir yuradi. Shuning uchun bir kuni unga xizmat qiluvchi barcha narsalar ish tashlaydi, undan yuz o‘girib qochib ketishadi. Bola voqeaga tushunmay, xafa bo‘lib turganida joniga yuz-qo‘l yuvgich — Moydodir oro kiradi. Yosh kitobxon hamisha hayvon, jonivor va hasharotlar haqidagi voqeas-sarguzashtlarni sevib o‘qiydi. K.Chukovskiyning „Suvarakxon“ asari ham kichkintoylarning sevimli asarlaridan hisoblanadi. Asarda shoir hayvon, hasharot va yirtqichlarning tuzilishlari, fe’l-atvorlari, dovyuraklik va qo‘rqaqliklari to‘g‘risida bahs yuritadi:

Sho‘rlik, baxtsiz hayvonlar  
Bo‘kirib, dodlab yig‘lar!  
Har bir uyada  
G‘or-u qiyada —  
Ochko‘z yovga  
Tiz cho‘kar.

Ana shunday vaziyat tug‘ilib turgan paytda paydo bo‘lib qolgan chumchuqning tadbirkorligi, ishbilarmonligi, chaqqonligi qo‘l keladi, u suvarakni tiriklayin yutib yuboradi. Shu zaylda chumchuq o‘rmon-u quruqlikda yashaydigan qushlar, jonivorlar, hayvon va yirtqichlarni ozodlikka, erkka, baxtli va totli hayotga olib chiqadi. Bu voqeа esa bolalarning estetik didlarini oshiradi, hayvonot olamiga nisbatan qiziqishlarini shakkantiradi, ona Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbatlarini kamol toptirishda yetakchi omil hisoblanadi. Shoirning „Doktor Voyjonim“ asari bir umr bolalarga shodlik-

quvonch bag‘ishlab kelmoqda. Doktor Voyjonimning oqko‘ngilligi, mehribonligi, jonkuyarligi, hayvonlar bilan inoq, do‘stligi ibratomuz chizib berilgan. Hayotda nimalar bo‘lmaydi deysiz! Hayot ajoyibg‘aroyib voqealarga boy. K. Chukovskiy mana shunday voqealar ba’zi befahm, farosatsiz bolalar bilan ham sodir bo‘lib qolishi mumkin, deydi. Mura o‘y o‘ylamaydigan, fahmfarosat bilan ish ko‘rmaydigan qizcha. U bilan juda kulgili voqea yuz beradi. Shoir „Muraga „Ajoyib-g‘aroyib daraxt“ ertagini o‘qib berishganida, u nima qildi?“ she’rida o‘ylamay, aql ishlatmay tuflisini bog‘ maydoniga ekib, ostini yumshatib, suv quyib, kulgili ish qilganligini tanqid qiladi:

Mura yechib tuflisin,  
Bog‘ga ko‘mib, der sekin:  
— O‘s, o‘saqol, tuflicham,  
Bo‘y cho‘zaqol, tuflicham!  
Endi jajji tuflicham  
O‘z qo‘limdan suv ichar.  
Niholcham bo‘lar daraxt,  
Ulkan, g‘aroyib daraxt!  
Pishib bosonojkalar  
Daraxt sari yo‘l olar,  
Qip-qizil sapojkalar:  
— Yilib oling! — deb qolar.

Shoirning „Mechkay“ asarida ham shunday kulgili, ta’sirli mavzu yotganligini ko‘ramiz. K.Chukovskiy ta’kidlab o‘tganidek, ba’zi bolalar bo‘ladiki, yaxshi o‘qish, ozoda bo‘lish, yuvinibtaranib yurish o‘rniga ko‘proq ovqat yenish niyatida yuradilar. Haddan ziyoda ko‘p ovqat iste’ mol qilish odamni kam o‘ylaydigan qilib qo‘yishini, yaxshi o‘qish, ibratomuz ishlarni amalga oshirishda unga pand berishi mumkinligini tushunmaydigan bolalar ondasonda uchrab turishini boplab tanqid qiladi: ...Teshik kulcha juda soz O‘ttiz bog‘lamin shovvoz, Bir-bir yutay deb yechgan, To‘rt xumcha sutni ichgan. So‘ng urib qirq to‘rt quymoq Singlim xo‘p ozgan, biroq Ko‘plarni hayron etgan, Eshikka sig‘may ketgan. Korney Chukovskiy sevimli shoир, iste’dodli adib, shuningdek, yirik adabiyotshunos olim bo‘libgina qolmay, bilimdon tarjimon ham edi.

Rus adabiyotida faqat ikki yozuvchigina norasmiy, ammo faxriy "bobo" unvonini olishgan. Bular: Ivan Andreevich Krilov va Korney Ivanovich Chukovskiydir. Korney Ivanovich Chukovskiyni hayotligidayoq "Chukovskiy bobo" deb chaqirishgan.

K. Chukovskiyning she'riy ertaklari aynan rus she'riyatiga kirish sifatida xizmat qiladi. Ular hatto eng kichik yoshdagagi bolalarga ham tushunarli bo'lib, A.S.Pushkin, M.Yu.Lermontov, N.A.Nekrasov, A.A.Bloklarning she'rlari kabi bir xil qonunlarga muofiq yaratilgan haqiqiy she'riyat namunalari hisoblanadi. Ular orqali ritm, qofiya, she'riy tizmlar bilan bog'liq she'r nazariyasini o'rganish mumkin. Eng muhimi - ular kichkintoy o'quvchini o'z musiqasi bilan sehrlab oladi, ayniqsa (keyinroq Chukovskiyning o'zi buni isbotlaydi) bolalar orasida she'riyatga bo'lgan juda katta ishtiyoqini qondiradi.

Rus she'riyati va folklori borasida mukammal bilimlari Chukovskiyning o'zi bolalar she'riy ertaklarini yaratishda yordam beradi. I.M.Snegirev, P.V.Kireyevskiy, P.N. Ribnikov, A.F. Gilferding, A.N. Afanasyev, E.V. Barsov, V.V.Sheyen tomonidan jamlangan rus xalq ertaklari, qo'shiqlari, topishmoqlari, maqol va iboralar to'plamlari, undan tashqari Vladimir Dalning mashhur lug'ati Chukovskiyning uyida chinakamiga eng ko'p o'qiladigan kitoblardan edi.

"Ikkidan beshgacha" nomli noyob kitobini Chukovskiy oltmis yildan ortiq – deyarli butun adabiy faoliyati davomida yozadi. Haqiqatdan bu kitob o'tgan asrning 20-yillari o'rtalarida ,shoir farzandli bo'lganida boshlangan va shoir so'nggi qo'shimchalarini o'limidan salgina oldin kiritgan. Bugungi kunda madaniyatli oilalarda olib borilayotgan kichik yoshdagagi bolalar nutqi namunalarini yozib olish ishlarini Chukovskiy birinchi bo'lib boshlagan.

O'sha davrda adibning Leningradda chiqadigan "Qizil gazeta"dagi bir qator hikoyalari jamlanib "Kichkina bolalar" (1928) nomi bilan e'lon qilinadi. Oradan bir necha yil o'tgach ushbu hikoyalari "Ikkidan beshgacha" kitobiga kiradi. Mazkur kitob shu nom ostida 1933-yildan beri nashr etiladi. Bolalarning nutqi haqidagi suhbatdan boshlangan bu kitob kichkintoylar ruhiyati, atrofidagi dunyoni o'zlashtirish fantaziyaga boy ulkan ijodiy imkoniyatlari haqida fundamental asarga aylandi.

Nima uchun ushbu kitob "Ikkidan beshgacha" deb nomlanadi?

Albatta, birinchi navbatda, shu yoshdagi bolalarning hayoti va ijodi to‘g‘risidagi materiallar asosida yaratilganligi nazarda tutilgan. Ammo nima uchun aynan shu yosh tanlangan? Bizningcha, pedagogik, psixologik jihatdan bu yoshdagi bolalarda mehnat va ijodkorlik xususiyatlari kurtak ota boshlaydi. Atrof- muhitni anglashga bo‘lgan qiziqish tufayli ona tilining asosiy boyligini atigi 3 yil ichida o‘zlashtira oladi. Shunisi muhimki, ular til boyligini shunchaki yodlamaydi, balki ijodiy o‘zlashtirish yo‘lidan boradi.

Mazkur asar K.I.Chukovskiyning chinakam kashfiyotidir. Misli ko‘rilmagan imkoniyatlari mavjud ikkidan beshgacha bo‘lgan yoshga rus xalq pedagogikasida “chukovskiy” nomi berilishi bejiz emas.

Ushbu yoshdagi bolalarning dunyoni so‘z orqali anglashga bo‘lgan ehtiyoji va iqtidorini nazarda tutgan adib ularni “genial lingvist” deb ta’riflaydi. Mazkur kitobni diqqat bilan o‘qib chiqqach, Chukovskiyning o‘zini va she’riy ertaklarini ham yaxshiroq tushunib olish mumkin. Shoир kichik ijodkorlarning yaratuvchilik faoliyati haqida shunday deb yozadi: “...Ikki yoshdan besh yoshgacha bo‘lgan bolalarning she’rlari har doim sakrash paytida yuzaga keladi. Agar siz pufakchalarни puflayotgan bo‘lsangiz, har bir pufakcha oldida osmonga sakrashingiz va shunday qiyqirishingiz tabiiydir:

Qanday baland! Ay,yay, yay!

Va agar siz bir - ikki marta emas, balki ketma-ket o‘n-on besh marta sakrasangiz takror-takror qiyqirishingizga to‘g‘ri keladi. Bu bolalar she’rlarining ikkinchi xususiyati: ular ko‘p martalab qiyqirmasdan turolmaydi”.

Hayot o‘zgarmoqda, jamiyat taraqqiy topmoqda. Professional psixologlar turli yoshdagi, shu jumladan, ikki yoshdan besh yoshgacha bo‘lgan bolalarning ruhiyatini tobora ko‘proq o‘rganmoqdalar. Ammo Korney Chukovskiyning noyob kitobi eskirmaydi. Hatto bugungi kunda ham o‘quvchilar, adabiyotshunoslar, bolalar shoirlari, va psixologiya va pedagogika xodimlari unga qayta-qayta K.I.Chukovskiy fikrlariga tayanishadi.

**Samuil Yakovlevich Marshak (1887-1964)** o‘zidan keyin juda katta hamda serqirra ijodiy meros qoldirgan. Uning bolalar va kattalar uchun she’rlar, o‘qish hamda namoyish qilish uchun ertaklar, satirik

epigrammalar, tarjimalar, tanqidiy va memuar nasriy asarlari shu ma'noda e'tirofli.Zero, uning hayotidagi asosiy ishi bolalar adabiyoti bo'lganligini ta'kidlab o'tish joiz. U avvalo, rus bolalar adabiyotida kichkintoylar uchun katta she'riyat yaratib bergen mohir san'atkor, taniqli tarjimon, yetuk dramaturg, mohir pedagog va bilimdon muharrirdir. 1927-1937-yillarda bolalar yozuvchilarini o'ziga jalb etadigan markazlar – bu bolalar folklorining tadqiqotchisi O.I.Kapitsa tomonidan tashkil etilgan to'garak, Detizdatning ("Bolalar nashriyoti") Leningraddagi nashriyoti "Yangi Robinzon", "Чижъ" va "Ёжъ"(Tipratikan) bolalar jurnallarining nashriyoti edi. Bunda astasekin hamfikrlar doirasi paydo bo'la boshladi. Bolalar uchun yozilgan asarlar mualliflari, chunonchi, B.A.Lebedev, E.L.Shvars, T.G.Gobbe, A.I.Lyubarskaya, L.K.Chukovskaya kabilarni adabiyotshunos I.A.Raxtanov "Marshak akademiyasi" deb atagan edi. "Akademiya"da muharrirlik san'ati sayqal topayotgan, yosh mualliflar bilan ishlash usullari ishlab chiqilayotgan edi. Binobarin, kelajakda bolalar adabiyotining mumtoz vakillariga aylangan yozuvchi, shoirlar shular davrasidan chiqqan edi. Masalan, L.Panteleev, D.Xarms, A.I.Vvedenskiy, N.A.Zabolotskiy va boshqalar . Samuil Yakovlevich Marshak 20-yillarda o'zining she'r, ertak va poemalari bilan yosh kitobxonlarning sevimli shoiri sifatida tanildi. "Qayerda ovqatlanding, ey chumchuq", "Ahmoq sichqoncha haqida ertak", "Kecha va bugun", "Sirk" va boshqa shu kabi mashhur asarlari o'sha yillarda maydonga kelgan edi. S.Y.Marshak rus bolalar adabiyotini rivojlantirish uchun A.M.Gorkiy hamda V.V.Mayakovskiylar bilan yelkama-yelka turib mehnat qildi. 1939-yilda Marshakning "Petya nimadan qo'rqr edi?", "Korablcha" singari mashhur she'rlari bosilib chiqdi. Vatan urushi davrida shoir ijodining asosiy temasini urush, bosqinchilarga qarshi kurash mavzui tashkil etdi. Ayniqsa, 1943-yilda yaratilgan "O'n ikki oy" nomli ertak-dramasi tez orada millionlab yosh kitobxonlar orasida mashhur bo'lib ketdi.

S.Y.Marshakning nomini olamga yoygan, bolalar shoiri sifatida tanitgan she'rlaridan biri "Ahmoq sichqoncha haqida ertak"dir. Bu ertakda shoir bolalar xayoti va xarakteriga mos bo'lgan qiziqarli sujet topa olgan. Kimki o'ziga ortiqcha oro bersa, oqibatini o'ylamay ko'r-ko'rona ish tutsa, o'zidan kattalarning pandnasihatiga amal qilmasa, hayotda ko'p narsa

yutqazadi, o‘z baxtini qo‘ldan boy beradi, degan fikr ertakning asosiy g‘oyaviy mazmunini tashkil etadi. S.Y.Marshak “Ahmoq sichqoncha haqida ertak” asarida majoziy obrazlar orqali bolalar hayotiga oid muhim masalalarni ilgari suradi. Shoir noshukur, farosatsiz, mehnatsiz kun kechiruvchilarni ahmoq sichqoncha obrazi misolida fosh qiladi. S.Y.Marshak “Yong‘in”, “Pochta”, “Musobaqalar doskasi” asarlari bilan ham rus bolalar adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo‘shti. Shoir o‘zining “Stol kelgan qayerdan?” degan she’rida mакtab mebellari o‘zo‘zidan paydo bo‘lib qolmaganligini, buning uchun kattalarning qanchadan-qancha vaqtлari, mehnatlari sarf etilganligini tushuntirib bersa, “Bir yil nima” asarida esa juda qimmatli vaqtini behuda o‘tkazib, maktabda yaxshi o‘qimay, o‘qituvchiustozlarning pand-nasihatlariga amal qilmay, o‘z vaqtida darslarini tayyorlamay, natijada sinfdan-sinfga o‘ta olmay xijolat bo‘lib yuradigan qoloqlarga qarata: Dalalarda saranjom ish, Zavodda ham plan qoyil, Maktabda yo‘q, Qoloqlar hech. Bil, bir sinfda o‘qish— Bir yil! Marshak uchun bolalar adabiyotida mayda-chuyda yo‘q edi. O‘quvchining yoshi qancha kichik bo‘lsa, u bus-butunligicha qabul qilayotgan kitobga bo‘lgan talabi ham shuncha jiddiy, ya’ni uning mazmuniga, tiliga, bezaklariga, shirifti va formatiga, nomerning sifatiga... Marshak ishlanmagan yoki qolip so‘z va fikrlarni, shuningdek o‘chirilgan so‘zlarni umuman hazm qila olmasdi. Uning shiori: “Kichiklar uchun katta adabiyot” deb jaranglardi.

Dramaturgiya Marshak uchun bolalar adabiyotiga kirib kelishida ilk pog‘onani o‘tagan. 1920-yillarning boshlarida u Krasnodarsk bolalar teatri uchun bir qator ertak-pyesalar yozdi. Ular orasida “Mushuk uyi”, “Echki haqida ertak”, “Petrushka”, “Qayg‘u-yomon baxt” kabilar keng tarqalgan. Keyinchalik Marshak bu ertaklarni qayta ishlab chiqqan. Birinchi pyesalari folkloridan unib chiqqan bo‘lib, sho‘x, harakatli o‘yinlarni eslatadi. Ularning voqeligi atayin sodda, ammo nozik did va humor bilan yo‘g‘rilgan. Obrazlari ham oddiy, ayni paytda juda moslashuvchan, muloyim. Personajlarning monologlari hamda replikalarida juda ko‘p so‘z ishlatilmaydi, ammo ular juda ifodali. Pyesalarning o‘ziga xosligi – epizodlarning takrorlashishida, harakat ketma-ketligining uzluksizligida va voqeahodisalarining ajoyib tarzda rivojlanishidadir.

Marshak o‘z ijodini bir aktli kichik pyesalardan boshlab, asta-sekin ko‘p aktli dramatik asarlarga, shu bilan bir qatorda o‘zining tomirlari bilan xalq folkloridan kelib chiqqan yetuk asarlar sari boradi. “O‘n ikki oy”, “G‘am-qayg‘udan qo‘rqan baxtga erisha olmaydi”, “Aqli narsalar” kabi asarları shular jumlasidandir. Uning

pyesaları musiqa va ohangga, raqlarga, so‘z o‘yinlari bilan to‘la bo‘lgan xalq teatriga monand.“Mushuk uyi” – ertak-pyesasini kattalar dramaturgiyasidan olingen kundalik turmush dramasi desa bo‘ladi.

### **Bilim, ko‘nikma va malakanı rivojlantirishga yo‘naltiruvchi savollar:**

1. “Chippolino” va uning muallifi haqida nimalarni bilasiz? “Yangi yil archalari”, “Osmondagি tort”, “Jip televizorda”, “Jelsomino yolg‘onchilar mamlakatida” nomli novellalarda qanday mavzu-g‘oya ilgari surilgan?
2. “Fantaziya grammatikasi” qanday asar?
3. “Doktor Voyjonim” qissasidagi timsollarni izohlang?
4. “Ahmoq sichqoncha” asarining muallifi va g‘oyasi haqida ma’lumot bering..
5. V.Y.Grimmlarning adabiy-ilmiy ijodi va tadqiqotchilik faoliyatı haqida nimalarni bilasiz?
6. Grimmlarning ertaklar to‘plami va folklorshunoslikka oid asarlarini sanang.

### **Savol va topshiriqlar**

1. “Ikkidan beshgacha” asarida barkamol inson tarbiyasi qaysi mezonlar asosida talqin qilinadi?
2. K.I.Chukovskiy kichik yoshdagi bolalarni nima uchun “genial lingvist” deb ataydi?
3. Badiiy adabiyotda psixologizm nimani anglatadi?
4. K.I.Chukovskiy asarlarini o‘zbek tiliga qaysi ijodkorlar tarjima qilishgan?

## GLOSSARIY

**«Birinchi muallim»** – Avloniyning bolalar uchun tuzgan dastlabki darsligi

**«Zarbulmasal»** - hayvonlar haqidagi masallar majmuasi

**«Kalila va Dimna»** – hayvonlar haqidagi masallar majmuasi

**«To’tinoma»** - hayvonlar haqidagi masallar majmuasi

**«Chittigul»** – bolalar qo’shiqlaridan biri, qizlar tomonidan ijro etiladi  
Avtobiografik asar – yozuvchining o’zi haqidagi yozgan ma’lumoti Allegorik  
obraz – majoziy, ko’chma ma’noda qo’llangan obraz.

**Alleteratsiya** – tovushlar takroriga asoslangan she’riy san‘at Aforizm-  
muallifi noma‘lum hikmatli so’zlar

**Beshik qo’shiqlari** – bolalarni beshikka solganda aytildigan qo\_shiqlar  
Detektiv asar - sarguzasht asar turi

**Ilmi qiroat** – Avloniyning bolalar uchun tuzgan dastlabki darsligi  
Intonatsiya – ohang

**Kalambur-** tovushlar takrori

**Qissa** – o’rta hajmdagi kichik nasriy asar Qoshug‘ – qo’shiqning qadimgi  
nomi

**Lapar** – yalla, bolalar qo’shiqlarining turlaridan biri Lug‘z -  
topishmoqning qadimiyligi nomi

**Mubolag‘a** – o’ta darajada bo’rttirish usuli

**Muvashshah** – she’riy topishmoqning ism yashirilgan turi Mulla Abdulloh  
– Avloniyning taxalluslaridan biri

**Nihon** – Hamzaning taxalluslaridan biri

**Ovutmachoqlar** – bolalarni ovutish uchun aytildigan qo\_shiqlar  
Pandnoma - pand-nasihat ruhidagi asar

**Tabzug\_** – topishmoqning qadimiyligi nomi

**Tez aytish** – Avloniyning bolalar uchun tuzgan dastlabki darsligi Tuyuq-  
to’rtlikdan iborat adabiy janr

**Folkor** – xalq og\_zaki ijodi

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи PF-4947- sonli Farmoni.
2. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T. O’zbekiston, 206. 56 b.
3. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-T.: O’zbekiston, 2016.
4. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik.1-tom.-Toshkent: Fan,1979.
5. Alisher N. Badoyi ul - bidoya. Mukammal asarlar to’plami. 20 jiddlik, 1 –jild. -Toshkent. —Fanl. 1987.
6. Aristotel. Poetika. Yangi asr avlodи. -Toshkent. 2005.
7. Avaz Chori. Baxtiyorlik shu emasmi? – Qarshi, Nasaf. 1992.
8. Barakayev R. Jonajonim, she’riyat. – Toshkent: Cho’lpon., 1997. – B. 68-70.
9. Barakayev R. O’zbek bolalar adabiyoti va A.Avloniij ijodi. – Toshkent: Fan, 2004. – B. 68-70.
10. Dolimov U. Milliy uyg`onish pedagogikasi. –Toshkent: Noshir, 2012. 389 b.
11. Cho’lpon. Adabiyot nadir? -T. Cho’lpon. 1994.
12. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. -T. Cho’lpon. 1994.
13. Hamdam U. Badiiy tafakkur tadriji. -T. Yangi asr avlodи. 2002.
- 14.Ibragimova Z. Anvar Obidjon – bolalar shoiri. –Toshkent:Yangi asr avlodи, 2006.
15. Imonberdiyev H. G’aroyibkent hangomalari. – Toshkent: Cho’lpon, 1994. –B.63.
16. Jahongirov G’. O’zbek bolalar folklori. T.: O’qituvchi, 1975, 122 bet.
17. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. –T.: O’qituvchi, 2011, 260 bet.
18. Jumaboyev M. O’zbek bolalar adabiyoti. –T.: O’qituvchi, 2002, - 290 bet.
19. Juraqulov.U. Hududsiz jilva. -T. Fan. 2006.
20. Masharipova Z. O’zbek xalq og\_zaki ijodi. T., 2008. -150 bet.
- 21.Mirzayev T., va b. O’zbek xalq poetik ijodi. Toshkent:

O'qituvchi.1990.

22. Normatov U. Ijod sehri. Toshkent. Sharq. 2007.
23. Normatov.U. Janr imkoniyatlari. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. T. 1970.
24. O'zbek bolalar antologiyasi. Nasr. 2-qism. –Sharq. –T.: 2006. www.tdpu.uz
25. O'zbek bolalar antologiyasi. She'riyat. 1-qism. –Sharq. –T.: 2006.
26. Qahramonov Q. Bir munozara bahonasida// O'zbekiston adabiyoti va san'ati. -1989. 19 mart.
27. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002, 397 b.
28. Qur'oni Karim. O'zbekcha izohli tarjima. - Toshkent. G'.G'ulom nomidagi nashriyot birlashmasi. 1992.
29. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o\_zbek she'riyati. Toshkent. Fan. 2007.
30. Rasulov A. Betakror o'zlik. – Toshkent: Mumtoz so\_z, 2009. – B. 191.
31. S. Jahongirov. O'zbek bolalar folklori.T.1974
32. Safarov O. Bolalik kuychisi. – Toshkent: Fan, 1978. – B.67.
33. Safarov O. O'zbek xalq og`zaki ijodi. – Toshkent: Musiqa nashriyoti, 2010.
34. Safarov O. Bolalarni erkalovchi o`zbek xalq qo'shiqlari. –Toshkent, 1985.
35. Sarimsoqov.B.I. Badiiylik asoslari va mezonlari. -T. Universitet. 2004.
36. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. -T. O'qituvchi. 1980.
- 37.Sultonova.I. Yozuvchi uslubiga doir. -T. Fan. 1973.
- 38.Xudoyberganov.N. O'z dunyosi, o'z qiyofasi: Adabiy o'ylar. -T. 1986.
39. Yoqubov.X. G'oyaviylik va mahorat. -T. Fan. 1963.
40. Yunosov M. Bolalar qalbining bayrami. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1984. –B. 61-62.
41. www.edu.uz
42. www.pedagog.uz

**MADRAXIMOVA INOBAT BAHODIROVNA**

# **BOLALAR ADABIYOTI**

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliqo‘ziyeva

Musaxhih: M. Yunusova

Sahifalovchi: A. Muxammadiyev

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.

Bosishga ruxsat etildi 12.12.2024 y.

Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog‘ozи.

“Times New Roman” garniturasи.

Xisob-nashr tabogi. 14,5.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 86.

«Sarbon LLS» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

**Nashriyot tel. raqami +998 (97) 017-01-01  
+998 (94) 673-66-56**